

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

«OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI» KAFEDRASI



**YOG'LARNI QAYTA ISHLASH
TEXNOLOGIYASI
o'quv-uslubiy majmua**

Bilim sohasi	300000 -Ishlab chiqarish - texnik soha
Ta'lif sohasi	320000 -Ishlab chiqarish texnologiyalari
Ta'lif yo'nalishi	5321000 – Oziq-ovqat texnologiyasi(yog'-moy mahsulotlari bo'yicha)

Mazkur o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2015 yil "21" avgustdagи 303-sonli buyrug'i bilan (buyruqning ___ - ilovasi) tasdiqlangan "Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi:

Ro'ziboyev A.T -TKTI "Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi" kafedrasi dosenti, t.f.n.

Kuzibekov S. -GulDU "Oziq-ovqat texnologiyasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchi:

Qodirov Y.Q. -TKTI "Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi" kafedrasi professori, t.f.d.

Choriyev A.J. -TKTI "Oziq-ovqat xavfsizligi" kafedrasi mudiri, t.f.n.

Fan dasturi Toshkent kimyo-texnologiya instituti kengashining 201___ yil "___" dagi "___" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

MUNDARIJA

1 O'quv materiallar

Ma'ruza matni

Laboratoriya mashg'ulotlari

2 Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari

3 Glossariy

4 ILOVALAR

Fan dasturi

Ishchi fan dasturi

Tarqatma materiallar

Testlar

Ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo'llash

bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar


Mavzuni o'zlashtirish uchun qo'shimcha materiallar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI FAKULTETI
«OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI» KAFEDRASI

“YOG‘LARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI”

fanidan ma’ruzalar matni



«Yog‘larni qayta ishlash texnologiyasi» fanidan ma’ruza matnlari bakalavriaturaning 5321000 «Oziq-ovqat texnologiyasi» (yog‘ va moy maxsulotlari) yo‘nalishi o‘quv rejasiga asosan 42 o‘quv soati hajmida 21 ta ma’ruzani o‘z ichiga oladi.

Ma’ruzalar matnlarida yog‘larni rafinatsiyalash, hidsizlantirish, gidrogenlash, vodorod, margarin, mayonez,sovun, yog‘ kislotalari va glitserin ishlab chiqarishning asoslari keng yoritilgan. Texnologik sxemalar va ularni bayonlari keltirilgan.

«Yog‘, moy va don maxsulotlari texnologiyasi» kafedrasining 201_ yil «__»
«_____» majlisida muxokama qilingan (bayonnomma № __)

«Oziq-ovqat maxsulotlari texnologiyasi» fakulteti 201_ yil «__» «_____» ilmiy-uslubiy kengashida chop etishga tavsiya qilingan. (bayonnomma № __)

Toshkent kimyo texnologiya instituti Ilmiy-uslubiy kengashining 201_ yil «__»
«_____» majlisida tasdiqlangan. (bayonnomma № __)

Tuzuvchilar: prof. Qodirov Y.
t.f.n. Ro;ziboyev A.T.
Kuzibekov S.

Taqrizchi: “O’zpaxtayog”” AJ
yetakchi mutaxassis

A. G‘aniev.

OOMT kafedrasi dotsenti

O.Q. Yunusov

MUNDARIJA

1	Kirish. Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi hom ashyolari strukturasi	
2	Yog'lar rafinatsiyasi. Rafinatsiya usullari	
3	Moylarni gidratlash	
4	Ishqoriy neytrallash. Ishqoriy rafinatsiya	
5	Adsorbsiyali rafinatsiya	
6	Yog'larni dezodorasiyalash	
7	Yog'larni gidrogenlash. Gidrogenlash jarayonini nazariyasi	
8	Yog'larni gidrogenlash katalizatorlari	
9	Yog'larni gidrogenlash texnologiyasi	
10	Vodorod ishlab chiqarish texnologiyasi	
11	Margarin ishlab chiqarish va reseptura tuzish. Sut va komponentlar tayyorlash	
12	Margarin ishlab chiqarish texnologiyasi	
13	Mayonez ishlab chiqarish texnologiyasi	
14	Yog'larni gidrolizi	
15	Glycerin ishlab chiqarish texnologiyasi	
16	Yog' kislotalari ishlab chiqarish	
17	Distillangan yog' kislotalari ishlab chiqarish	
18	Sovun ishlab chiqarish	
19	Sovun ishlab chiqarish uchun xom ashyo va yordamchi materiallari. Sovun pishirish jarayoni asoslari	
20	Xo'jalik va atirsovun asoslarini tayyorlash	
21	Sovun asoslariga mexanik ishlov berish	

1 – MA’RUZA

Kirish. Yog‘larni qayta ishlash texnologiyasi xomashyo strukturasi

Reja: Fanni o‘qitish maqsad va uning rejasi. Yog‘larni qayta ishlash texnologiyasi xomashyo strukturasi. O‘simlik yog‘larining tarkibi. Hamrox moddalar.

Tayanch so‘z va iboralar: yog‘ – moy sanoati, yog‘larni qayta ishlash. o‘simlik moyi, vitamin, xom ashyo, fosfatid, yog‘ kislotalari, hamroh moddalar

Yog‘larni rafinatsiya qilish va gidrogenlash, margarin, mayonez, yog‘ kislotalari glitserin vasovun ishlab chiqarish texnologiyasi bilan tanishtirish.

O‘simlik yog‘larini qayta ishlash O‘zbekiston Respublikasida yog‘ sanoatining yetakchi sohalaridan biridir. Uning asosiy xomashyolari rafinatsiya qilinmagan yog‘. salomas, soapstok bo‘lsa, asosiy mahsulotlari-tozalangan yog‘, margarin, mayonez,sovun va gletsirindir.

Ushbu fanda yog‘-moy sanoati holati, xomashyoni mayjudligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni turiga qarab texnologik jarayonlarni tuzilishi o‘rgatiladi.

Talabalarning bilimi, malakasi va ko‘nikmasiga quyiladigan talablar.

Bu fanni o‘rganayotgan talabalar oziq-ovqat sanoatining yetuk mutaxassisibo‘lib chiqishlari lozim. «Yog‘larni qayta ishlash texnologiyasi» fani o‘rganilayotgan paytda talabalar ilgari olgan boshqa maxsus fanlar bilimlaridan foydalananadilar. Ta’limning yakunlanish davrida talabalar yetarlicha nazariy va amaliy o‘quvga ega bo‘lib, texnologik jarayonlar va sxemalarining bir-biridan farqi va afzalliklarini ajrata bilishlari lozim. Olingan bilim yordamida yangi texnologik sxemalar yoki jarayonlar to‘g‘risida yetarlicha ma’lumotlarga ega bo‘lishlari va ularni mantiqiy ravishda ifodalay olish qobiliyatiga ega bo‘lishlari lozim.

Mazkur fanni o‘zlashtirish uchun zarur fanlar ularning bo‘limlari “Asosiy texnologik jarayon va qurilmalar”, «Biokimyo», «Mikrobiologiya va biotexnologiya asoslari», «Yog‘ va moyli xom ashylar kimyosi». «Korxonalar uskunalarini va loyixalash asoslari».

Yog‘-moy sanoati respublika oziq-ovqat sanoatining yetakchi tarmoklaridan biri. O‘zbekistonda qadimdan o‘simlik yog‘i, kunjut, zig‘ir, indov, maxsar urug‘i, paxta chigit, poliz ekinlari urug‘laridan juvozlarda olingan. O‘zbekistonda paxta chigitidan moy oluvchi dastlabki zavod 1884 yili Qo‘qonda qurilgan. 1913 yili 30 ta kichiq yog‘ zavodida 57 ming t. paxta moyi ishlab chiqarilgan. Respublikada yillik quvvati 3 mln. t. moyli o‘simlik urug‘larini qayta ishlaydigan 22 ta korxona ishlab turibdi. Sanoatning bu tarmog‘ida paxta, soya moylari, meva danaklari hamda sabzavot urug‘laridan olinib, atir-upa, farmatsevtika va ozik-ovkat sanoati tarmoqlarida ishlatiladigan yog‘lar, margarin mahsulotlari, mayonez, kirsovun, atirsovun, texnika maqsadlari uchun boshqa turli mahsulotlar ishlab chiqariladi.O‘simlik moyi ishlab chiqarishda yiliga o‘rtacha 2,1 mln. t. dan ko‘proq paxta chigit va maxsar urug‘i, shuningdek import buyicha olinadigan soya dukkagi ishlatiladi. Republika yog‘-moy sanoati ozik-ovkat sanoati umumiyyahsuloti hajmining 40 % ga yaqinini beradi.Tarmok korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar, xususan paxta moyi eksportga chiqariladi. Koson, Guliston yog‘ ekstraksiya qo‘shma korxonalarida bir kunda 1200 t. chigit, Fargona yog‘-moy XJ quvvati kunda 840 t. chigit, Qo‘qon yog‘-moy XJ quvvati bir kunda 810 t. chigit, “Kattaqo‘rg‘on yog‘-moy” XJ; quvvati bir kunda 950 t chigit, Surxonoziqovqatsanoat XJ bir kunda 800 t xom ashyo, Urganch yog‘-moy XJ bir kunda 800 t. xomashyoni qayta ishlaydigan tarmoqdagi eng yirik korxonalaridir.

Toshkent yog‘-moy kombinati OAJ QKda margarin mahsulotlari (yillik quvvati 52,4 ming t.) va mayonez (yillik quvvati 2 ming t.), tarmoqdagi 10 ta korxona - Fargona, Yangiyo‘l, Andijon, Urganch, Kattaqo‘rg‘on va boshqa yog‘-moy zavodlarida xo‘jalik sovuni (yalpi yillik umumiyy quvvati 103,7 ming t.) ishlab chiqariladi. Farg‘ona yog‘-moy XJda yiliga 16,7 ming t. turli kichik o‘lchamdagisi

(25, 40, 100 grammli) atir sovunlar ishlab chiqaradigan liniyalar ishga tushirilgan, glitserin (yillik quvvati 2 ming t.) ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. Tarmoq korxonalarida texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish, xorijiy firmalar uskunalarini bilan jihozlash ishlari davom ettirilmokda.

Korxonalarini texnikaviy jihatdan qayta jihozlashda Krupp, Sket (Germaniya), «Alfa-Laval» (Shvetsiya), «Jon Braun2», «Karver», «Kraun» (AKSh), «Matssonii», «Bollista», (Italiya), Germaniya, Polsha, Ukraina, Rossiya firmalari bilan hamkorlik yaxshi samara bermoqda.

Yog'larni qayta ishslash texnologiyasi xomashyo va strukturalari Yog'lar halq xo'jaligidida katta ahamiyatga ega, chunki ular uglevodlar va oqsillar bilan bir qatorda oziq-ovqatning asosiy komponentidir. Yog'ning tuyimlilik quvvati uglevodlar va oqsillarga qaraganda 2-2,5 marta katta. Yog'larning tarkibida linol, linolen va araxidon kislotalari (vitamin F), vitamin E,D,A, karotin (provitamin A), fosfatidlar, sterinlar mavjud.

Yog'lar halk xo'jaligining turli sohalarida, shuningdek texnik maqsadlarda (sovun, glitserin, olif ishlab chiqarishda) keng ishlatiladi.

Xom ashyo bazasining o'sishi bilan yog'ni qayta ishslash sanoati ham o'sib boradi. Yog'larni qayta ishslash texnologiyasi bir necha ishlab chiqarish usullarni o'z ichiga oladi, buni quyidagi sxemadan ko'rish mumkin.

Yog'larni qayta ishslash sanoatining boshlang'ich xom ashysosi o'simlik yog'lari va mol yog'lari hisoblanadi. Ularning asosiyлари kungaboqar va paxta yog'lari, qo'y va mol yog'laridir.

Bizning mamlakatimizda qattiq va yarim qattiq yog'larning tabiiy resurslari cheklangan va halq xo'jaligini extiyojini qoniqtirmaydi, shuning uchun suyuq o'simlik yog'larini gidrogenlash yo'li qattiqligi va erish harorati turlicha bo'lgan qattiq yog'larga aylantiriladi. Gidrogenlash jarayonida hosil bo'lgan mahsulot salomas deb ataladi. Shuningdek neytralizatsiya jarayonida hosil bo'lgan soapstokdan ajratib olingan yog' kislotalari yoki yog'larning gidroliz vaqtida olingan yog' kislotalari ham ishlatiladi.

Yog'larni qayta ishslash sanoatida ishlatiladigan yog'larning organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari standartlar bilan (GOST,OST) aniqlanadi. Yog'larni qayta ishslash sanoatida o'simlik moylari va mol yog'lari bilan bir qatorda turli yog' o'rnini bosuvchi moddalar keng ishlatiladi (kanifol, neften kislotalari va h.k.)

Yog‘ xom ashyo turlari

O‘simlik yog‘larining tarkibi Sanoat usulida olingen o‘simlik moylari uchglitserid, (uchatsilglitserol) yog‘ kislotalarining aralashmasidan hamda, yog‘ bo‘lmagan aralashmalardan va hamroh moddalaridan iborat.

Rafinatsiyalanmagan yog‘ tarkibida yog‘ bo‘lmagan aralashmalarga mexanik aralashmalar (qovurilgan mag‘iz, shrot bo‘laklari va h.k.), namlik, zaharli ximikatlar va h.k. moddalar kiradi. Zaharli ximikatlarning bo‘lishi shu bilan izohlanadiki, kishloq xo‘jaligida o‘simliklarni turli zararkunandalari va kasalliklar bilan kurashda turli zaharli ximikatlar (pestitsidlar, gerbitsidlar va x.k.) keng ishlatiladi, bu esa o‘simlikning yog‘li to‘qimalarida yig‘ilib boradi va yog‘ bilan birga ajralib chiqadi.

Hamroh moddalar Bu moddalar yog‘ va moylar tarkibida oz miqdorda bo‘lsa ham, uning xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘simlik moylari tarkibidagi hamroh moddalar ikki guruhga bo‘linadi;

1 guruh - chigit o‘sish jarayonida hosil bo‘lgan va yig‘ilgan, o‘zgarmagan holda yog‘ olish jarayonida o‘tgan moddalar.

2 guruh - chigit tarkibida bo‘lgan yog‘ olish jarayonida texnologik faktorlar harorat, bosim, namlik ta’sirida, hamda saqlash jarayonida o‘zgargan holda yog‘ga o‘tgan moddalar.

1-guruh

Tarkibida fosfor bo‘lgan moddalar. (fosfolipidlar).

Pigmentlar (karotin, ksantofill,gossipol,xlorofill).

Mumlar (mumsimon moddalar).

Tokoferollar va yog‘da eruvchi vitaminlar,sterollar (steridlar).

Erkin yog‘ kislotalar.

Ta’m va hid beruvchi moddalar.

Sulfolipidlar, glikolipid, glikoproteid, fosfoproteidlar birikmalari.

2-guruh

Buzilish ya’ni oksidlanish mahsulotlari (oksibirkimlar, aldegidlar, keton past molekulali yog‘ kislotalari v. x. k). Glitsiridlarning termik va gidrolitik o‘zgarishidan hosil bo‘lgan mahsulotlar va hamroh moddalar.(yog‘ kislotalar, polimerizatsiya mahsulotlari v. x. k).

1 – jadval

Ayrim yog‘lardagi hamroh moddalar miqdori.

Yog‘lar	Tokoferollar, mg %	Sterinlar %	Sovunlan maydigan moddalar %	Fosfatidlar %
Kungaboqar	70 yaqin	0,5-0,91	0,5-0,9	0,2-1,4
Paxta	80-100	0,31	0,5-1,5	1,12-2,55
Loviya (eks-ya)	90-180	—	0,2-0,3	1,9-4,5
Indov	50 yaqin	0,35	0,2-1,0	1,15-1,28

Aralashmalar va hamroh moddalar yog‘ rangi, hidi va ta’mini buzib, uni xiralaشتiradi.

Rafinatsiya vaqtida bu aralashmalar va hamroh moddalar yuqotiladi, shuning uchun bu yog‘larni oziq-ovqat uchun ishlatish mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

1. Oziq - ovqat sanoatida yog‘ - moy sanoatining o‘rnini va roli.
2. Yog‘ - moy sanoatining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi.
3. Yog‘larni qayta ishlash texnologiyasi.
4. O‘simglik moylarining tarkibi.
5. Fanni o‘qitishdan maqsad.
6. Mazkur fanni o‘zlashtirish uchun zarur fanlar
7. O‘zbekistondagi yog‘ - moy korxonalari haqida ma’lumot
8. Yog‘larni qayta ishlash texnologiyasini bosqichlari
9. Yog‘larni qayta ishlash sanoatining xom ashyosi
10. Yog‘lardagi aralashmalar

2-MA’RUZA YOG‘LARNI RAFINATSIYASI

Reja: Yog‘ va moylarni rafinatsiyalashdan maqsad va uning axamiyati. Jarayonlarning sinflanishi. Gidromekanik, fizik-kimyoviy va massa almashinish. Rafinatsiya usulari. Tindirish. Sentrifugalash. Filrlash.

Tayanch so‘z va iboralar: rafinatsiya, tozalanmagan forpress moyi, cho‘ktirish, tindirish, sentrifugalash, filrlash, cho‘kish tezligi

Rafinatsiya deb yog‘larni aralashma va hamroh moddalardan tozalash jarayoniga aytildi. Oziq-ovqat sanoati yog‘ va moylarni, to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’mol qilish uchun, margarin maxsulotlarini tayyorlash uchun, mayonez, gidrogenlangan yog‘lar,sovun, glitserin, yog‘ kislotalari, olif va boshqa mahsulotlar tayyorlash uchun ishlab chiqaradi. Rafinatsiyaning to‘liq sikli fosfolipidlarni, mumsimon moddalarni, erkin yog‘ kislotalarini, bo‘yovchi va hid beruvchi moddalarni ajratib olishni o‘z ichiga oladi. Bu maqsadda turli xil usullar qo‘llaniladi, bu usullarning asosida ma’lum reagentlarning alohida moddalarga nisbatan tanlash xususiyati yotadi. Bunga asosan fosfolipidlarni suv yoki elektrolitlarning suvli eritmalari orqali gideratsiya qilib ajratib olish, erkin yog‘ kislotalarini yog‘larni natriy tuzlari ko‘rinishida ajratish, rangli moddalar-pigmentlarni sorbentlar yordamida, hid va ta’m beruvchi moddalarni dezodoratsiya qilib ajratish kiradi. Yuqorida

sanab o‘tilgan usullar yuqori tanlovchanlik xususiyatiga ega emas. Bunga misol qilib, gidratatsiya paytida ma’lum miqdorda erkin yog‘ kislotalarning, neytralizatsiya vaqtida esa, yog‘lar rangini ma’lum miqdorda kamayishini ko‘rsatish mumkin.

Yog‘larning tarkibi asosida va yog‘larni keyinchalik qaysi maqsadda ishlatilishiga qarab, rafinatsiyaning kerakli usullari tanlanadi. Agar yog‘lar oziq-ovqat uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, mavjud Davlat standartlariga asosan yog‘lar to‘liq rafinatsiyalanadi va dezodoratsiyalanadi.

Gidrogenlangan yog‘lar ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan moylar esa dezodoratsiya qilinmaydi.

Har bir yog‘ turini rafinatsiya qilish texnologik rejimini tanlashda uning o‘ziga hos xususiyatlari inobatga olinishi zarur. Rafinatsiya jarayoniga quyidagi talablar qo‘yiladi. Yog‘ning glitserid qismini to‘laligicha o‘zgarmagan holda qoldirish, iste’molga yaroqliligini saqlab qolish, yo‘qotishlarni va chiqindilarni kamaytirish. Bu muammolarni ijobjiy hal qilishda moylarni rafinatsiya jarayonini olib borishdagi eng maqbul sharoit katta ahamiyatga ega, ya’ni natriy gidroksidning miqdori, uning konsentratsiyasi, neytrallash jarayonini olib borish harorati, aralashtirish tezligi va boshqalar.

Jarayonlarning sinflanishi va rafinatsiya usullari: Yog‘ning tarkibi, sifati va qo‘llanilishiga qarab turli rafinatsiya usullari ishlatiladi.

Asosiy jarayonlarning xarakteri va rafinatsiya jarayoniga reagentlar ta’siriga qarab, ular 3 guruhga bo‘linadi.

- 1.Gidromexanik (fizikaviy)
- 2.Fizik-kimyoviy (kimyoviy)
3. Massa almashuvchi (fiz-kimyoviy).

2 – jadval

Rafinatsiya usullari klassifikatsiyasi

Jarayonlar	Rafinatsiya usullari	Asosiy maqsad
Gidromexanik	Tindirish, Sentrafugalash, Filtrlash	Suspenziyalarni yoki suyuqliklarni ajratish
Fizik-kimyoviy	Gidratlash	Fosfatidlar va boshqa hidrofill moddalarni ajratish
	Muzlatish	Yuqori haroratda eruvchi moddalarni ajratish
	Neytrallash	Erkin yog‘ kislotalarni olib tashlash
	Yuvish	Sovun va suvda eruvchi moddalardan tozalash
	Quritish	Namligini chiqarib yuborish
Massa almashuvi	Oqartirish	Rang beruvchi moddlar, pigmentlardan hamda sovun qoldiqlarini yo‘qotish
	Dezodoratsiya	Hid beruvchi moddalarni xaydab chiqarish
	Distilyasion rafinatsiya (ishqorsiz)	Erkin yog‘ kislotalari va hid beruvchi moddalarni chiqarib yuborish

Gidromexanik jarayonlarga quyidagi rafinatsiya usullari kiradi: tindirish, sentrifugalash, filtrlash.

Fizik-kimyoviy jarayonlarga esa: gidratatsiya, sovutish, neytrallash, yuvish, quritish usullari kiradi.

Massa almashuvchi jarayonlarga: oqlash, dezodoratsiyalash, distillyasiyali rafinatsiya (ishqorsiz) usullari kiradi.

Biroq, yuqorida berilgan rafinatsiya usullarining sinflanishi shartlidir. Hamma aralashmalarni 1 ta usul yordamida yo‘qotish mumkin emas. Shuning uchun amalda 1ta texnologik sxemaga birlashuvchi bir nechta usullar qo‘llaniladi. Masalan: oziq-ovqat uchun ishlatiladigan

yog‘larni rafinatsiya jarayoniga: cho‘ktirish---filtrlash---gidratatsiyalash---ishqorli rafinatsiya---cho‘ktirish---tindirish-----sentrafugalash----oqlash---dezodoratsiya usullari kiradi.

TINDIRISH, SENTRAFUGALASH, FILTRLASH,

Tindirish. Tindirish suyuq muhitda zarrachalarning og‘irlik kuchi ta’sirida tabiiy cho‘kish jarayonidir.

Shartli ravishda sharsimon zarrachalarning cho‘kish tezligi Stoks formulasi bilan aniqlanadi:

$$\nu = \frac{d^2}{4} g (p_1 - p) / 18 \mu$$

bu yerda: ν - cho‘kish tezligi, m/c;

d - zarracha diametri, m;

g - og‘irlik kuchning tezlanishi ($9,81 \text{ m/c}^2$);

p_1 - qattiq zarrachalar zichligi kg/m^3 ;

p - yog‘ zichligi, kg/m^3 ;

μ - yog‘ning dinamik qovushqoqligi Pa·c.

Cho‘kish tezligini oshirish uchun cho‘kish jarayonini yuqori haroratda olib borish kerak. Cho‘ktirish jarayoni yog‘ning birlamchi tozalashda muallaq va koagulyasiyalangan moddalarni cho‘ktirishda foydalaniladi. Tindirish jarayonini tezlishtirish uchun uzluksiz ishlovchi tindirgichg‘ajratgich uskunasida zarrachalar yupqa qatlama cho‘ktiriladi.

Uzluksiz ishlovchi tarelkali tindirgich-ajratgichning tuzilishi va ishslash prinsipi quyidagicha:


Vertikal holatdagi silindrik ko‘rinishdagi qopqoqli va tag qismi konussimon uskuna bo‘lib, uning ichki bo‘shlig‘ida bir necha konussimon tarelkalar joylashgan, ular tindirgich-ajratgichning ichki qismini bir necha (a va b) kameralarga bo‘ladi. Har bir kamera tepa va past qismidan tarelka 1 bilan chegaralangan va alohida mustaqil tindirgich-ajratgich sifatida ishlaydi. Tarelkalar soni uskunaning ishlab chiqarish quvvatiga bog‘liq. Tarelkalar samarali ishlashi uchun ular $35-40^\circ$ burchak ostida joylashtirilgan. Tarelkalarda yog‘ qatlami balandligi 30-50mm ga teng bo‘ladi. Suspenziya uzluksiz ravishda o‘rtada joylashgan quvur, tirqish orqali kamera b ga beriladi. Yog‘ tindirish kamera b da xarakatlanib, yuqoridagi tarelkaning chet qismini egib a kameragao‘tadi. Og‘ir fazaning harakatlanishi tezligi pastligi sababli, tarelkaning yuza qismiga yig‘iladi va sirg‘alib tushib tindirgichning pastki qismiga yig‘iladi. Tindirilgan yog‘ kameraning yuqori tarelkasi past qismida joylashgan teshik orqali har bir kamera uchun alohida bo‘lgan uzatish trubasi orqali chiqariladi.

Hamma uzatish trubalari umumiy kollektorga birlashtirilgan. Har bir uzatish truba kameradan oqib chiqayotgan yog‘ni kuzatish uchun ko‘rish oynasi o‘rnataligan.

Tindirish jarayoni moylarni birlamchi tozalashda mualloq va koagulyasiyalangan moddalardan cho‘ktirishda foydalaniladi.

Davriy rafinayiyada tindirish yordamchi operatsiya sifatida foydalaniladi. Tindirish jarayonni tezlashtirish uchun uzluksiz ishlovchi tindirgich-ajratgich uskunasida bo‘lakchalar yupqa qatlama cho‘ktiriladi.

Biron bir kameradan loyqa yog‘ chiqishi kuzatilsa, shu zahoti to‘xtatiladi yoki chiqayotgan yog‘ miqdori o‘zgartiladi. Demak, kamerada harakatlanish tezligi o‘zgartiriladi. Cho‘kma davriy yoki uzluksiz ravishda uskunaning past qismida joylashgan patrubok orqali tozalanadi.



1 – rasm. Uzluksiz ishlovchi tarelkali tindirgich - ajratgich ishlash sxemasi

Sentrafugalash. Gravitatsion maydonda cho'ktirish kam samara beradi. Agar ajratish jarayoni markazdan qochma maydonda olib borilsa jarayon birmuncha tezlashadi.

Zarrachaga ta'sir qiluvchi S kuchning ta'sirida cho'kish tezliklarini solishtirib ko'ramiz. markazdan qochma maydonda gravitatsion maydonda

$$C_m = \frac{mw^2}{R} \quad C_g = mg$$

bu yerda: C_m , C_g - kuch,
 m - bo'lakcha massasi, kg;
 $\frac{w^2}{R}$ - markazdan qochma tezlanish, m/c^2

R - aylanish radiusi, m
 w - aylanish tezlik, m/c ;

$$V_m = \frac{d^2(p_1 - p)w^2}{18\mu R}; \quad V_\Gamma = \frac{d^2(p_\Gamma - p)g}{18\mu}$$

$\frac{C_m}{C_\Gamma}$ va $\frac{V_m}{V_\Gamma}$ nisbatlar, zarrachaga yoki ta'sir qiluvchi kuchning necha marta kattalashishini

ko'rsatadi.

$$\frac{C_m}{C_\Gamma} = \frac{V_m}{V_\Gamma} = \frac{d^2(p_1 - p)w^2}{18\mu R} \cdot \frac{18\mu}{d^2(p_1 - p)g} = \frac{w^2}{Rg}$$

Markazdan qochma tezlanishning og'irlik kuchi tezlanishga nisbati ajratish koeffitsienti deyiladi.

$$\Phi_p = \frac{w^2}{Rg}$$

Aylanma tezlik

Qiymatlarni o'rniغا quyib quyidagilarni aniqlaymiz.

$$w = \frac{2\pi Rn}{60} = \frac{\pi Rn}{30} \quad u \text{ holda}$$

$$\Phi_p = \frac{\pi Rn}{pg30} = \frac{Rn^2}{900} \quad n - \text{aylanish chastotasi}$$

Demak, ajratish koeffitsienti aylanish chastotasi kvadratiga va aylanish radiusiga proporsionaldir.

Sanoatda ajratish koeffitsientiga qarab, normal va o'ta tezlikdagi sentrifugalar bor.

Normal sentrafugalar ($Fr < 3500$) bo'lgan separatorlar) suspenziyalarni ajratish uchun ishlataladi.


O'ta tezlikdagi sentrafugalar ($Fr > 3500$) moyda dispers suspenziyalarni va emulsiyalarni ajratish uchun ishlataladi.

Separatorlar ishslash prinsipiga qarab 2 ta guruhga bo'linadilar:

1. Cho'ktiruvchi tiniqlashtiruvchi (klarifikatorlar) suspenziyalarni ajratish uchun.
2. Ajratuvchi (purifikatorlar) zichliklari biroz farq qilgan zichliklarni ajratish uchun suyuqliklarni ajratish uchun.

Ajraluvchi suyuqlik uskunasining markaziy quvuri orqali beriladi. Markazdan qochma kuchlar ta'sirida og'ir suyuqliklar chetga chiqariladi, u yerda to'planib yuqoriga ko'tariladi va uzlusiz ravishda separatordan chiqib turadi. Yog' yengil fraksiya bo'lgani uchun kelayotgan ajraluvchi suyuqlik ta'sirida o'rta qismiga yaqin kelib separatordan chiqariladi. Ajraluvchi suyuqliklarda har doim oz miqdorda qattiq zarrachalar bo'ladi, bu esa fazalarning ajralish samaradorligini pasaytiradi. Bunday kamchiliklarni yo'qotish uchun separatorlarning o'z-o'zini bo'shatuvchi konstruksiyalari ishlab chiqilgan. Ular neytrallash va gidratlash jarayonlarida ishlataladi.


Rafinatsiyaning turli sxemalarida quvvati kuniga 80 t dan 300 t gacha bo'lgan baraban aylanish chastotasi 6500 ayl/min bo'lgan separatorlar ishlataladi.



2 – rasm.


Cho'ktiruvchi-tiniqlashtiruvchi (klarifikatorlar)
– suspenziyalarni ajratish uchun

Ajratuvchi (purifikatorlar) – zichliklari biroz
farq qilgan suyuqliklarni ajratish uchun



3 – rasm. Separatordning ajratuvchi barabanining ishlash prinsipi sxemasi.

Ajratiluvchi suyuqlik o‘rtadagi 25 quvurdan 23 aylanuvchi barabanning ichki qismiga beriladi. Separatordning ichki qismi konussimon tarelkalardan iborat. Markazdan qochma kuch ta’sirida og‘ir suyuqlik barabanning chetki qismida to‘planib, yuqoriga ko‘tariladi va uzlusiz ravishda 24 kanal orqali separatordan chiqib turadi. Yog‘ yengil fraksiya bo‘lib, ajratish uchun berilayotgan suyuqlik ta’sirida separatordning o‘rta qismiga ya’ni o‘q atrofida yig‘ilib, 26 kanal orqali chiqib ketadi.



26	Yengil fraksiya uchun kanal
25	Quvur
24	Og‘ir fraksiya uchun kanal
23	Aylanuvchi baraban
22	Konussimon tarelka
21	Naychalar
20	Stakan
19	Radial-sferik shariqli podshipnik
18	Gervyakli juftlik
17	Tikka bo‘sh val
16	Plita
15	Shariqli podshipnik
14	Podshipniklar o‘rni
13	Gayka
12	Yupqa germetik qopqoq
11	Tarelkalar paketi
10	Qabul qilish - uzatish qurilmasi
9	Tortish xalqalari
8	Tarelka ushlagich
7	Qopqoq
6	Baraban
5	Tag‘ara
4	Tikka prujinalar
3	Horizontal val
2	Stanina
1	Plita

Filtrlash. Qattiq moddalarni suyuq moddalardan yupqa g'ovakli to'siq orqali ajratishdir. Suyuq filrlanuvchi modda material kapillyarlaridan o'tadi, kapillyar o'lchamidan katta bo'lgan zarrachalar esa material yuzasida ushlanib qolinadi va cho'kma hosil qiladi. Bu cho'kma filtrlash jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi, chunki u to'planib, uning o'zi filtrlovchi material sifatida xizmat qiladi.

Filtrlash tezligini (m/cek) quyidagi formula bilan ifodalanadi.

$$\omega = \frac{\Delta V}{Sd\tau}$$

Filtrlashning asosiy differensial tenglamasi quyidagicha

$$\frac{\Delta V}{Sd\tau} = \frac{\Delta P}{\mu(R_{oc} + R_{fn})}$$

bu yerda: V - filtrat hajmi, m^3 ;

s - filtrlash yuzasi, m^2 ;

τ - filtrlash vaqtি, c ;

p - bosim farqi, n/m^2 ;

μ - suyuq fazaning dinamik qovushqoqligi, $Pa\cdot c$;

R_{oc} - cho'kma qatlamning qarshiligi, m^{-1} ;

R_{fn} - filtrlovchi to'siqning qarshiligi, m^{-1} ;

Filtrlash tezligini oshirish uchun bosimni oshirib, qovushqoqlikni kamaytirish kerak. Cho'kma siqiladigan va siqilmaydigan guruhlarga bo'linadi. Siqilmaydigan cho'kmalar, bu shunday cho'kmalar, bunda g'ovaklar bosimlar farqi ko'tarilganda ham kamaymaydi, aksincha g'ovaklar siqiladigan cho'kmalarda kamayadi. Yog'larni filtrlash jarayonida hosil bo'ladigan cho'kmalar (fosfatidlar, oqsillar, shilimshiq moddalar va x.k.) siqiladigan cho'kmalardir. Yog'-moy sanoatida paxtali (belting, diagonal) yoki sintetik filtrlovchi gazlamalar ishlataladi.

Filtrlash jarayoni davriy yoki uzlusiz usulda olib boriladi. Filtrpress to'g'ri to'rtburchak shaklidagi vertikal birin-ketin joylashtirilgan ariqchali plitalar va bo'sh ramalardan tashkil topgan. Har bitta rama filtrli mato bilan o'raladi. Plita va ramalar qo'zg'almas korpusga mustahkamlangan gorizontal tayanch balkalarga tirab qo'yiladi. Plita va ramalarning yon qismida teshiklari bo'lib, ular birlashib kanal hosil qiladi. Filtrpress yuqori qismidan suspenziya (yog') beriladi va pastki qismidan filtrat oqib tushadi.

Filtrpress gorizontal stanimaga joylashtirilgan 15-50 ta vertikal filtrlash yacheykalardan iborat.




Fig. 31.5 Filter press. Assembly of plates and frames

4 – rasm. Filtr-press elementlari.

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki kanaldan teshik orqali yog‘ rama ning ichki qismini to‘ldiradi. Bosim ostida yog‘ mato orqali o‘tib filtrlanadi.

Yog‘ plitaning rifli yuzasidan oqib tushadi va teshik orqali yig‘ish tornoviga yig‘iladi. Filtr mato yuzasida yig‘ilgan cho‘kma asta-sekin ramaning bo‘shliq qismini to‘ldiradi. Ramaning bo‘shliq qismi cho‘kma bilan to‘lganda filtrlash jarayonining bosimi ko‘tariladi, filtrlash to‘xtatiladi va filtrpress tozalanadi. Filtrlash jarayoni boshlanishida filtr mato yuzasida filtrlash qatlami hosil bo‘lganda, loyqa filtrat oqadi, u alohida yig‘iladi va qaytadan filtrlashga beriladi. Filtrpress ishlaganda bosim 0,15-0,20kPa (1,5-2,5 kgc/sm²)dan oshmasligi kerak.

Cho‘kmalarni mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan holda bo‘shatishga asoslangan turli filtrlar ma’lum. Uzluksiz ravishda ishlash uchun odatda 2 ta filtr o‘rnataladi. Hozirgi zamon uzluksiz ishlaydigan filtrlar diskli, patronli, ko‘rinishda bo‘ladi. Filtrlashdan oldin odatda filtrlovchi elementda yupqa qatlam hosil qilinadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Moylarni rafinatsiyalashning zarurligi.
2. Rafinatsiya usullari
3. Rafinatsiya qilingan yog‘ga qo‘yiladigan talablar.

3-MA’RUZA MOYLARNI GIDRATLASH

Reja: O‘simliklar tarkibidagi fosfolipidlar va ularning xususiyatlari. Gidratatsiya jarayoni mohiyati. Gidratatsiya texnologiyasi. Gidratlanmaydigan fosfolipidlarni chiqarib tashlash. Gidratatsiya usullari. Gidratlangan moyni quritish. Fosfatid konsentrati ishlab chiqarish.

Tayanch so‘z va iboralar: gidratlash, fosfatid konsentrati, gidratlovchi agentlar, yog‘ fosfatid emulsiyasi


Gidratlash jarayoni moylardan fosfatidlarni ajratib olish maqsadida olib boriladi. Gritseridlar tarkibidagi hamroh moddalardan eng qimmatli tarqalgani fosfolipidlar guruhi hisoblanadi. Ular moyli urug‘larda yog‘siz fazada erkin yoki oqsil va uglevodlar bilan bog‘langan holatda bo‘ladi. Rafinatsiya qilinmagan yog‘ni olish usuli va rejimiga bog‘liq holda moyli homashyodan fosfatidlarni 20% dan 90% gacha ajratib olinadi.

Quyidagi jadvalda moyli urug‘ va yog‘lar tarkibidagi fosfatidlarni miqdori ko‘rsatilgan.

3 – jadval

Moy	Fosfatidlarni miqdori, % da stearoletsitin	
	urug‘larda	moylarda
Soya	1,0 – 2,5	
forpress	-	1,00 – 1,50
ekstraksion	-	
forpress kunjarasida	-	1,5 – 3,0
hom yanchilmada	-	2,0 – 4,5
Kungaboqar	0,3 – 0,5	
forpress	-	0,30 – 0,70
ekstraksion	-	0,90 – 1,20
Paxta	0,8 – 1,0	
forpress	-	1,06 – 1,63
ekstraksion	-	1,43 – 2,84

Fosfolipidlarga glitserofosfatidlari, izonitfosfatidlari, sfingomielin-lar kiradi. O‘simlik moylarida glitserofosfatidlari bo‘lib, ular quyidagi formulaga ega:




bu yerda: R_1 va R_2 – to‘yingan va to‘yinmagan yog‘ kislotalarining uglevodorod qoldiqlari.

X^* - vodorod, azotli asoslar (etanolamin, metiletanolamin, dimetil etanolamin, xolin) aminokislotalar.

Quyida o‘simlik yog‘lari tarkibidagi asosiy glitserofosfatid guruhlari ko‘rsatilgan.


X^+ (strukturadagi komponent)	Fosfolipidlar
N	Fosfatid kislotalar
- $\text{CH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{-COOH}$ – serin	Fosfatidilserinlar
- $\text{CH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2$ –etanolamin	Fosfatidil etanolaminlar (kefalinlar)
- $\text{CR}_2\text{CH}_3\text{NH}(\text{CH}_3)$ - metil etanolamin	Fosfatidil-N-metil etanolaminlar
- $\text{CH}_2\text{CH}_2\text{NOH}(\text{CH}_3)_3$ – xolin	Fosfatidilxolinlar (letsitinlar)
- $\text{CH}_2\text{-CHOH-CH}_2\text{OH}$ – glitserin	Fosfatidilglitserinlar Fosfatidilinozintollar



Gidratatsiya jarayoni mohiyati. Fosfatidlar molekulasi difil harakterga ega: hidrofob qismi - yog‘ kislotalarining radikallari, hidrofil qismi - aktiv gruppa (efir, hidroksil, karboksil va b.q.).

Moyda fosfatidlar miqdori kam bo‘lganligiga qaramay, o‘zining aktivligi hisobiga yog‘ning sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Saqlash vaqtida cho‘kma hosil qilib moyni xiralashtiradi, ular emulsiyani barqarorlashtiradi va natijada fazalar ajralishi qiyinlashadi, oqlash vaqtida fosfatidlar sorbent yuzasida adsorbsiyalanadi, bu esa uning sarfini ko‘paytiradi.

Gidrogenizatsiya jarayonida fosfatidlar katalizator aktivligini pasaytiradi. Bu esa fosfatidlarni rafinatsiya qilinmagan yog‘dan ajratib olishi zarurligini ko‘rsatadi. Gidratatsiya jarayonining asosi shuki, fosfatidlar suv bilan ta’sir qilib, koagulyasiyalanadi va cho‘kmaga tushadi. Masalan: fosfatidilxolina (letsitina).



Yog‘da eriydi

Yog‘da erimaydi

Gidratatsiya texnologiyasi. Gidratatsiya texnologiyasi quyidagi etaplardan iborat:

1. Yog‘ning gidratatsiyalanuvchi agent bilan aralashtirish.
2. Fosfatidlarning koagulyasiya jarayonini borishi uchun yog‘-suv aralashmasini ushlab turish.
3. Gidratlangan yog‘ va fosfatid emulsiya fazalarini ajratish.
4. Yog‘ni quritish, fosfatid emulsiyalarini quritish va fosfatid konsentratini olish va qadoqlash.


Gidratatsiyalovchi agent miqdori, fosfatidning miqdori, uning tarkibi, strukturasiga bog‘liq va u 0,5 % dan 6 % gacha o‘zgaradi. Suvning kamligi tugallanmagan gidratatsiyaga olib kelsa, suvning ko‘pligi esa emulsiya hosil qiladi. Gidratatsiya jarayonida yog‘ning kislota soni 0,4-0,5 mg KOH (nordon fosfatidlarning ajralish xisobiga) kamayadi, fosfatidlar bilan bir katorda oqsillar va shilimshiq moddalar ham ajraladi.

Gidratatsiyalaymaydigan fosfatidlarga fosfat va polifosfat kislotalari, fosfatidilserinlar va ularning ($\text{Ca}^{2+}, \text{Mg}^{2+}, \text{Na}^+$) metallari bilan tuzlari kiradi. Shu bilan birga fosfatid, polifosfatid kislotalarining sterollar va alifatik spirtlar bilan birikmalari ham kiradi. Gidratatsiyalaymaydigan fosfatidlarning qutblanishi gidratatsiya-lanadigan fosfatidlarni qutblanishiga qaraganda past bo‘ladi.

Gidratlanmaydigan fosfatidlarni chiqarib tashlash. Gidratatsiya jarayonidan so‘ng yog‘da 0,1-0,2 % fosfatidlar qoladi. Gidratatsiyalaymagan fosfatidlarni yo‘qotish uchun gidratatsiyalangan yog‘ni konsentrlangan fosfor kislotasi bilan ishlanadi (yog‘ og‘irligiga nisbatan 0,05-0,2 % miqdorda olinadi). Suv miqdori: kungabooqar 0,5-3 %

paxta yog‘i 5 % gacha
loviya yog‘i 6 % gacha

Gidratatsiya usullari. Turli gidratlash sxemalarda uzlusiz dozalash va gidratlash agentini va yog‘ni aralashtirishda reaktor-turbulizatorlardan foydalaniladi.




5 – rasm. Reaktor-turbulizatorning tuzilishi

1 – Reaktorning korpusi, 2 - soplo, 3 – reagent (suv, ishqor) berish patrubkasi 4 - qabul qiluvchi kamera, 5 - aralashtirish kamera, 6 – Turbulent-injektorli diffuzor, 7 – Perforatsiyalangan truba, 8- aralashma chiqish patrubka, 9-moy kirituvchi shtutser

Yog‘ - fosfatid emulsiyalarini fazalarga ajratish uchun separatorlar yoki tarelkali tindirgichlar qo‘laniladi.

Rafinatsiya qilinmagan moy (1) avtomatik tarozida tortilib, (2) bakga kelib tushadi va (3) filtrlar, (4) nasos, (5) issiqlik almashgichda $45-50^0$ S gacha isitilib, (6) rotametr orqali (8) aralashtirgichga beriladi. Suv (7) sath stabilizatori, (6) rotametr orqali (8) aralashtirgichga keladi. Moy va fosfatid emulsiyasi aralashmasi (9) ekspozitororda 30 min davomida ushlab turiladi, so‘ngra bu yerda 13 ayl/min tezlikda aralashtiriladi, koagulyasiya jarayoni ketadi va fosfatidlar parchasi kattalashib boradi, keyin esa moy va fosfatid emulsiyasi (10) tarelkali tindirgich-ajratgichda ajratiladi. Fosfatid fraksiyasi (11) bakga yig‘iladi gidratatsiyalangan moy esa boshqa (13) bakga kelib tushadi. U yerdan (14) nasos yordamida rafinatsiyaning keyingi bosqichlariga yuboriladi. Fosfatid emulsiyasi (12) nasos yordamida fosfatid konsentratini quritishga yuboriladi.

Gidratatsiyalangan moyni quritish. Nam gidratlangan moyini qisqa vaqt mobaynida ham saqlash mumkin emas, chunki namlik ta’sirida oksidlanish jarayoni kechadi. Natijada moyning kislota soni oshib ketadi. Shuning uchun gidratlangan moy kolonna turidagi uzlusiz ishlovchi vakuum quritishga uskunasida quritiladi.



6 – rasm. Gidratlash jarayonida hosil bo‘lgan fazalarni tarelkali tindirgichda ajratish texnologik sxemasi.


Vakuum-quritish apparati. Harorati $85-90^{\circ}\text{C}$ bo‘lgan moy (15) quvur orqali apparatga va 3 ta (17) forsunkalar yordamida sochib boriladi. Tomchi qaytargich (18) tomchini vakuum sistemasiga o‘tib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Apparat (1) ning quyi qismiga tarelkalardan iborat (4) kontakt yuza o‘rnatalgan bo‘lib, u qo‘shimcha ravishda moydan namlikni bug‘lanishiga xizmat qiladi. Quritish jarayonida qoldiq bosim $2,66 \text{ MPa}$ (20 mm sim.ust.) dan ortiq emas. Apparatda vakuum uch bosqichli bug‘ ejektori yoki suvli vakuum-nasos yordamida (19) patrubka orqali hosil qilinadi. Quritilgan moy nasos yordamida (11) shtutser orqali apparatni pastki qismidan so‘rib olinadi. Agar apparatdagi moy sathi me'yordagidan past bo‘lsa, sath rostlagich (13) qalqovuchi bo‘shaladi va tirkakli moslamani ochadi, shunda chiqish trubasidagi moy apparatga qaytariladi. Shunday qilib uskunada moyni bir xil sathi saqlab turiladi.

Fosfatid konsentrati ishlab chiqarish. Fosfatid emulsiyasi tarkibida $55-75\%$ suv, $15-30\%$ fosfatidlar, $15-20\%$ yog‘ bo‘ladi. Fosfatid emulsiyasi tezlik bilan quritishga yuboriladi. Bu jarayon fosfatidlar sifatini saqlab qolish uchun qatlamda bajariladi. Quritish $75-90^{\circ}\text{S}$ haroratda, qoldiq bosim 20 mm.sim.ust. ga teng bo‘lgan sharoitda olib boriladi.

4 – jadval

Fosfatid konsentratinining xarakteristikasi

Ko‘rsatgichlar	Oziq-ovqat uchun	Ozuqa uchun
Rangi, mg yodgacha	18	belgilanmaydi
Namlik va uchuvchan moddalar miqdori, % gacha	1,0	3,0
Fosfatidlar miqdori, %	55,0	40,0
Yog‘ miqdori, %	45,0	60,0
Fosfatid konsentratsiyadan ajratib olingan yog‘ning kislota soni mg KOH	18	25



7 – rasm. Quyidagi rasmda kolonna turidagi uzlusiz ishlovchi vakuum-quritish uskunasi ko‘rsatilgan.

Fosfatid emulsiyasini quritish uchun gorizontal uzlusiz ishlaydigan rotatsion-plenkali quritish apparatlari ishlatiladi: ular silindrik va konussimon bo‘ladi. Ishlab chiqarish quvvati 100 kg/s fosfatid konsentratiga teng.

Oziq-ovqat uchun ishlatiladigan fosfatid konsentrati sig‘imi 30-40 1 bo‘lgan metall bankalarga, ozuqa uchun esa bochkalarga joylashtiriladi.

Oxirgi vaqtida to‘liq gidratatsiya jarayonida firma «Lurgi» (GFR) sxemasi quo‘llanilmoqda.

Takrorlash uchun savollar

1. Moylarni gidratlash
2. Moylardagi fosfatidlar miqdori
3. Gidratatsiya jarayonining moxiyati
4. Gidratatsiya qilish usullari
5. Gidratatsiya jarayonida gidratlovchi agent miqdorini xisoblash
6. Gidratatsiyalanmaydigan fosfatidlar.
7. Gidratatsiya jarayonida yog‘ning kislota sonini o‘zgarishi.
8. Gidratatsiya jarayonida gidratlovchi agent miqdori.
9. Gidratatsiyadan so‘ng yog‘dagi fosfatidlar miqdori.
10. Fosfatid emulsiyasidan fosfatid konsentratini olish.

4-MA’RUZA

ISHQORIY NEYTRALLASH. ISHQORIY RAFINATSIYA

Reja: Ishqorli neytrallash jarayoni mohiyati. Ishqor sarfini hisoblash. Ishqor eritmasini tayyorlash. Ishqorli rafinatsiya mexanizmi. Rafinatsiya jarayoniga turli omillarning ta’siri. Neytrallashdagi chiqindilar. Neytrallash usullari va texnologik rejimlari. Ishqor sovun muhiti uzluksiz neytrallash. Neytrallangan yog‘dan sovun qoldiqlari va namlikni yo‘qotish. Paxta yog‘ining ishqorli rafinatsiyasi. Davriy usulda rafinatsiya texnologik sxemasi. Paxta yog‘ini emulsiyali usulda uzluksiz rafinatsiyalash texnologik sxemasi.

Tayanch so‘z va iboralar: ishqor, moy quyqasi – fuza, soapstok, neytrallash, ishqorni ortiqcha miqdori, erkin yog‘ kislotalari, triglitserid


O‘simglik yog‘larida ma’lum miqdorda erkin yog‘ kislotalari bo‘ladi, bular yog‘ning sifatiga bog‘liq. Erkin yog‘ kislotalarining bo‘lishi yog‘ sifatini yomonlashtiradi, oziqaviy qiymatini kamaytiradi. Yuqori haroratda erkin yog‘ kislotalari apparatlarning korroziyanishiga olib keladi. Oziq-ovqat uchun ishlatiladigan yog‘larning kislota soni 0,2-0,3 mg KOH dan oshmasligi kerak. Bundan esa erkin yog‘ kislotalarini yo‘qotish zarurligi kelib chiqadi.

Sanoatda quyidagi usullar bilan yog‘ kislotalari yo‘qotiladi.

1. Erkin yog‘ kislotalarini ishqor bilan neytrallash (ishqorli rafinatsiya).
2. Yuqori haroratda va vakuum ostida erkin yog‘ kislotalarini yo‘qotish (distillyasiyali rafinatsiya).
3. Erkin yog‘ kislotalarini yog‘dan selektiv erituvchilar yordamida ajratib olish (ekstraksiyali rafinatsiya)

Sanoatda asosan ishqorli rafinatsiya va oxirgi yillarda distillyasiyali rafinatsiya ko‘proq ishlatilmoqda. Selektiv erituvchilar yordamida rafinatsiyalash hali amaliy jihatdan yog‘-moy korxonalarida ishlatilgani yo‘q.

Ishqorli rafinatsiya-keng tarqalgan usul hisoblanadi. Bu usulda yog‘ kislotalarini yog‘da erimaydigan tuzi, ya’ni sovun hosil bo‘ladi. Bu reaksiya quyidagicha ifodalanadi.



Sovunning suvli eritmasi katta zichlik hisobiga yog‘dan ajraladi. Ajralgan sovunli massa soapstok deyiladi. Sovun, o‘zining yuqori adsorbsion xususiyatiga ko‘ra yog‘dan quyidagi aralashmalarni ajratib oladi: fosfatidlar, oqsillar, shilimshiq moddalar, bo‘yovchi moddalar va x.k. Shuningdek sovun parchalari mexanik aralashmalarni ham ushlab qoladi. Ishqor ma’lum miqdorda neytral yog‘ (triglitserid)ni sovunlaydi. Ayrim vaqtida yog‘ni oqartirish uchun ishqorni ko‘p miqdorda qo‘shiladi.

Ishqor sarfini xisoblash. Rafinatsiya uchun zarur bo‘lgan ishqorning nazariy miqdori kislota soniga asosan quyidagi formula bilan topiladi.


$$I_n = Q \cdot 0,714 \text{ K.c. (kg)}$$

bu yerda: Q- neytrallananidan yog‘ miqdori, kg


$$0,714 = 40/56$$

K.c -kislota soni


Biroq, yog‘ni to‘liq neytrallash uchun ishqorning nazariy miqdori yetarli emas, chunki ishqorning bir qismi neytral yog‘ni sovunlanishi uchun sarflanadi.



Shuningdek ishqorni bir qismi yog‘dagi ayrim aralashmalar bilan reaksiyaga kirishadi. Masalan: paxta yog‘idagi gossipol bilan:



Va nihoyat ishqor eritmasining ma’lum miqdori soapstok bilan birga chiqib ketadi. Ishqor miqdorining yetishmasligidan esa nordon sovun hosil bo‘ladi.



Hosil bo‘lgan nordon sovun yog‘da yaxshi erib, suvda deyarli erimaydi. Natijada soapstokning yog‘dan ajralishi qiyin bo‘ladi. Shuning uchun ham ishqorni ortiqcha miqdorda olinadi. Ishqorning ortiqcha miqdori rafinatsiyalanadigan yog‘ning tabiatи va sifatiga bog‘liq. Och rangli yog‘lar uchun ishqorning ortiqcha miqdori 5-50 % bo‘lsa, to‘q rangli va qiyin rafinatsiyalanadigan yog‘lar uchun esa 200-300 % ni tashkil qiladi. Ishqor konsentratsiyasi esa yog‘ning turi va sifatiga bog‘liq holda 10 dan 300 g/l gacha olinadi.

Ortiqcha ishqor miqdori quyidagi formula bilan topiladi.

$$I_0 = \frac{U_y \cdot Y}{100}; \text{kg/m}$$

U – ortiqcha ishqor miqdori, %

Neytralizatsiya uchun ketadigan ishqorning umumiyo sarfi quyidagiga teng bo‘ladi.

$$I_u = I_n + I_0, \text{ kg/m}$$

Ishqor eritmasini tayyorlash. Zavodga natriy gidroksidi konsentrangan eritma (42-45%) yoki qattiq holda (92% li) 200-400 kg li temir barabanlarda olib kelinadi.

Kerakli konsentratsiyadagi ishchi eritmasini tayyorlash uchun konsentrangan ishqor eritmasiga suv qo‘shiladi.

Konsentrangan eritma sarfi quyidagicha bo‘ladi.

Og‘irlilikka nisbatan

$$g = \frac{U_y \cdot \rho}{a}; \text{ kg/m}$$

ρ - konsentrangan eritma zichligi, kg/l

a – konsentrangan eritma konsentratsiyasi, kg/l

Hajmga nisbatan

$$V_1 = \frac{U_y}{a}; \text{ l/m}$$

Ishchi eritmani sarfi esa og‘irligiga nisbatan

$$g = \frac{I_y \cdot \rho_1}{a_1}; \quad \text{kg/m}$$

ρ_1 – ishchi eritmani zichligi, kg/l

Hajmga nisbatan

$$V_2 = \frac{I_y}{a_1}; \quad \text{l/m}$$

a_1 – ishchi eritmani konsentratsiyasi, kg/l

Ishqorning ishchi eritmasini tayyorlash uchun sarflanadigan suv miqdori:

$$V = V_2 - V_1, \quad \text{l/t}$$

Ishqorli rafinatsiya mexanizmi. A.A. Shmidt tomchi usulini qo'llab rafinatsiya jarayonini to'liq tekshirgan. Bu usul, ishqor tomchisi yog' qatlamiga tushganda, uning harakatini kuzatishga asoslangan.

Ishqor eritmasi tomchisi yog'ga tushganda, erkin yog' kislotalari bilan reaksiyaga kirishishi hisobiga yog' yuzasida sovunli parda hosil bo'ladi. Yog'ning qarshiligi ta'sirida sovunli parda oldiniga tomchi harakatiga qarama-qarshi tomonga suriladi, keyin esa tomchidan ajralib chiqadi va shu vaqtida xaltacha hosil bo'ladi, bu xaltachani ichida ishqor va yog' bor. Bu ishqor yog'ni sovunlaydi. Ishqor tomchisini surilishiga qarab yangi parda hosil bo'ladi. Bu jarayon hamma ishqor sarf bo'lguncha yoki ishqor tomchisi apparat tubiga tushguncha davom etadi. Sovunli parda fosfatidlar, bo'yovchi moddalar va neytral yog'ni ma'lum miqdorini biriktirib oladi. Sovun qatlami orqali harakatda sovunli pardalar birlashib, parcha hosil qiladi. Bu parchalar apparat tubiga tushib, soapstokni tashkil qiladi. Shunday qilib, soapstok tarkibida: sovun, neytral yog', aralashmalar, ma'lum miqdorda ishqor, suv, hamroh moddalar bor. Rafinatsiya jarayonining borishi va soapstok strukturasining tuzilishi yog'ning haroratiga, ishqor, konsentratsiyasiga va jarayon sharoitiga bog'liq.

Rafinatsiya jarayoniga turli omillarning ta'siri. *Harorat.* Harorat ko'tarilishi bilan rafinatsiya tezligi oshadi va shu bilan birga neytral yog'ning sovunlanishi ham ortadi. Jarayonning harorati ishqor eritmasi konsentratsiyasiga bog'liq. Ishqor konsentratsiyasi qancha yuqori bo'lsa, jarayon harorati shuncha past bo'lishi kerak. Odatda harorat 20-25°C (paxta yog'i uchun) va 80-85°C (kungaboqar yog'i uchun) oralig'ida bo'ladi.

Ishqor konsentratsiyasi: Ishqor konsentratsiyasini oshishi bilan neytralizatsiya tezligi va neytral yog'ning sovunlanishi ham oshadi. Yuqori konsentratsiyali ishqor bo'yovchi moddalariga ta'sir etib, uning ajralishiga yordam beradi. Ishqor konsentratsiyasi yog' turi va kislota soniga bog'liq. Kerakli ishqor konsentratsiyasi odatda tajriba orqali aniqlanadi, chunki tozalangan yog'ning chiqishi (unumi) va uning sifati ishqor eritmasining konsentratsiyasiga bog'liq.

Aralashtirish: Bu omil ishqor konsentratsiyasiga va kontakt vaqtiga bog'liq. Ishqorning yuqori konsentratsiyasida kontakt vaqtida qisqa bo'lib, juda tez aralashtiriladi. Konsentratsiya eritmalar bilan ishslash vaqtida intensiv aralashtirish, jarayonni tezlatib, neytral yog'ni sovunlanishini kamaytiradi. Ishqorning mayda tomchilari yog' kislotalari bilan katta kontakt yuzasiga ega va hosil bo'lgan sovunli pardaga esa bo'yovchi moddalar adsorbsiyalanib, yog' rangi tiniqlashadi.

Neytrallashdagi chiqindilar. Neytralizatsiya jarayonining samara-dorligi neytral yog' sifatiga va chiqindi miqdoriga bog'liq. Chiqindi, bu soapstok bilan birga ajrab chiqadigan yog'li moddalar bo'lib, ulardan yog'ni qayta ishslash sanoatida xomashyo sifatida foydalaniladi.

Texnologlarning asosiy vazifasi shu chiqindilar miqdorini kamaytirishdir. Soapstokdagidan yog', undagi yog' kislotalari bilan neytral yog' larning yig'indisidir.

$$Y_o = Y_{O_k} + N_{Y_o}$$

bu yerda : Yo - soapstokdagi yog'; Yo_k- neytral yog'ni sovunlanishidan hosil bo'lgan yog' kislotalari va erkin yog' kislotalarini sovun holida soapstokka o'tgan yog' kislotalarini umumiy miqdori; N_{yo} - neytral yog'.

Soapstokdagi yog', soapstokning yog'lilagini ifodalaydi. Soapstok-dagi neytral yog'larning oshishi N_{yo}/ Yo_k nisbat bilan aniqlanadi. Bu nisbat qancha kichik bo'lsa, neytrallash jarayoni shuncha samarali boradi.

Soapstok ilashtirib ketgan yog' miqdori (yog' massasiga nisbatan % da) Ch_{yo} chiqindi miqdorini aniqlaydi va yog'dagi erkin yog' kislotalarini % dagi miqdori X ga proporsional bo'ladi.

$$Ch_{yo} = KX \text{ bundan } K = Ch_{yo}/X$$

Demak neytralizatsiya jarayoni neytrallash koefitsienti (K) bilan xarak-terlanadi, bu koefitsient soapstokdagi yog' miqdori, yog'dagi erkin yog' kislotala-ri miqdoridan necha marta kattaligini ko'rsatadi. Neytrallash koefitsienti yog'ning turiga va neytrallash usuliga bog'liq bo'ladi. Erkin yog' kislotalari miqdori X, kislota soni bo'yicha aniqlanadi. Tarkibida 18 uglerod atomli yog' kislotalari bo'lgan yog'lar uchun

$$X = 0,5 \cdot K \cdot s., \text{ u holda } Ch_{yo} = K \cdot 0,5 \cdot K \cdot s.$$

Rafinatsiyalangan yog'ning chiqish miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi:
 $Mr = 100 \sum (Y + \ddot{Y})$

bu yerda: $\sum (Y + \ddot{Y})$ - chiqindi va yo'qotishlar yig'indisi.

Neytrallash usullari va texnologik rejimlari. Neytrallash usullari asosan neytrallangan yog'-sovun eritmasi fazalarini ajratish prinsiplari bilan farqlanadi: davriy-fazalarni tuzli-suv asosli gravitatsion maydonda ajratish;

uzluksiz-fazalarni markazdan qochma kuch maydonida, ishqor-sovun muhi-tida ajratish,, uzluksiz emulsiyali usul.

Davriy usul - hozirgi vaqtida yog'larning uncha katta bo'limgan miqdori va paxta yog'i uchun ishlatilmokda. Bu usul xajmi 5, 10, 20 t bo'lgan neytralizator-larda bajariladi. Rafinatsiya quyidagicha olib boriladi.

Yog' neytralizatorga kelib tushadi va bug'li g'ilof yordamida kerakli haroratgacha (40-45⁰S) qizdirib aralashtiriladi. Tarqatuvchi yordamida, hisob-langan va shu haroratgacha qizdirilgan ishqor eritmasi beriladi, 30 min. davomida aralashtirib turiladi. Keyin yog'ning haroratini ko'tarib (60-65⁰S), soapstok parchalari hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Tindiriladi. Yog' sharnirli truba orqali quyib olinadi. Soapstokni esa maxsus sig'imga tushiriladi. Zarur bo'lganda suv yoki tuz eritmasini berish mumkin. 5-jadvalda kungaboqar va soya yog'larini rafinatsiyalashni texnologik rejimlari berilgan.

5 – jadval

Neytrallashning texnologik rejimlari

Ko'rsatgichlar	Kislota soni 7 gacha	Kislota soni 7dan yuqori
Ishqor konsentratsiyasi, g/l	85-105	125-145
Ortiqcha ishqor, %	10-20	10-20
Boshlang'ich harorat, ⁰ S	45-50	45-50
Oxirgi harorat, ⁰ S	55-60	55-60
Tindirish	6 soatgacha	6 soatgacha

Davriy usulning kamchiligi, tindirishning uzoqligi, soapstokda neytral yog' miqdorining ko'pligi va bu jarayon uzoq bo'lgani uchun ishqor neytral yog'ni sovunlaydi. Soapstok yog'ligini 30-50 % bo'ladi.

A.A.Smidt yangi usulni taklif qildi, ya'ni tuz-suv asosli neytraliza-siya. Bu usul, sovun pardasi osh tuzining kuchsiz eritmasida erishiga asoslangan va buni natijasida soapstokdagi neytral yog' ajralib chiqadi. Buning uchun neytralizatorga 1 % konsentratsiyali tuz-suv eritmasi beriladi. Sovunli parda cho'kmaga tusha turib, tuz-suv eritmasiga tushadi. Sovun erib, yog' ajralib chiqadi.

Neytralizatsiya harorati $90-95^{\circ}\text{S}$ (sovun shunday haroratda yaxshi eriydi). Ishqor konsentratsiyasi $40-45 \text{ g/l}$. Tuzli eritmaning miqdori yog'ning kislota soniga bog'liq va eritmadi sovun konsentratsiyasi $9-12 \%$ dan oshmasligi kerak. Tuz-suv asosli usul neytralizator unumdorligini oshiradi va soapstokdagi yog' miqdorini kamaytiradi.

Uzluksiz usul. Neytral yog'-soapstok fazalarini markazdan qochma kuch maydonida ajratish eng samarali va istiqbolli usul hisoblanadi. Bunda neytralizatsiya maxsus aralashtirgichlarda, fazalarga ajratish esa separatorlarda amalga oshiriladi. Bu usul bilan ishlovchi quyidagi qurilmalar mavjud: A1-JRN, "Alfa-Laval", "Vestfaliya", "Djanatssa", "Sharples". Bu qurilmalar bir-biridan unumdorligi va ishlatilayotgan separatorlar bilan farq qiladi. MDHda A1-JRN va "Alfa-Laval" qurilmalaridan keng foydalaniladi. Ularda ishqor konsentratsiyasi va uni ortiqcha miqdori yog'ni turiga va kislota soniga qarab tanlab olinadi (4.5-jadval). Bu qurilmalarda foydalanilayotgan ishqor eritmasini konsentratsiyasi nisbatan yuqori bo'lishiga qaramasdan, yog' bilan ishqor orasidagi kontakt juda qisqa muddatli bo'lganligi uchun, neytral yog'ni sovunlanishi ko'p emas.

Neytrallash harorati $85-90^{\circ}\text{S}$, soapstokni yog'liligi $15-25\%$, soapstokdagi neytral yog' bilan yog' kislotani nisbati $1:2,5$ dan ortiq emas, yog'dagi sruvanni qoldig'i $0,1\%$ dan ortiq emas. Neytrallash koeffitsienti gidratlangan yog'lar uchun $1,4$ va salomas uchun $1,5$ ni tashkil qiladi.

6 - jadval

Uzluksiz neytrallashni texnologik rejimlari

Neytrallanadigan yog'	Kislota soni, mg KOH	Ishqor eritmasi konsentratsiyasi, g/l	Ishqorni ortiqcha miqdori, % da nazariy hisoblanganga nisbatan
Kungaboqar, soya	2 gacha	70-90	10-20
Kungaboqar, soya	2-5	100-130	10-20
Kungaboqar, soya	5-10	150 gacha	5-10
Kungaboqar, soya	10 dan yuqori	150-170	10-30
Salomas	1 gacha	40-70	5-10

Barcha och rangli yog'larni neytrallashni imkoniyati borligi, bosim ostida ishlovchi separatorlardan foydalanish, yog' bilan ishqor orasidagi kontakti qisqaligi, jarayonni avtomatlashtirilganligi, soapstokni yog'liligi maqsadga muvofiqligi bu usulni afzalliklari hisoblanadi.

Bu usul yog' yuzasida neytralizatsiya qilishga asoslangan. Buning uchun yog' dispers holatda ishqor-suv eritmasida tarqaladi va zichliklar farqi hisobiga yuqoriga ko'tariladi. Erkin yog' kislotalari yog' tomchilari yuzasiga diffuziyalanadi va ishqor bilan reaksiyaga kirishib neytralanadi, sovun ishqor eritmasida eriydi. Bu jarayon yog' harakati-ning xamma yo'lida sodir bo'ladi. Yog', erkin yog' kislotalaridan ozod bo'lgach, yuqoriga chiqib to'planadi. Ishqor konsentratsiyasi $12-20 \text{ g/l}$, yog' va sovun ishqor eritmasining harorati $70-95^{\circ}\text{C}$, sovun ishqor eritmasidagi sovun konsentratsiyasi $8-12 \%$ erkin ishqor konsentratsiyasi $1-5 \text{ g/l}$ bo'lganda yaxshi natijalar olish mumkin.

Neytrallangan yog'dan sovun qoldiqlari va namlikni yo'qotish. Soapstok ajratib olingandan so'ng yog'da $0,05-0,3 \%$ miqdorda sovun qoladi, bu yog'ning ta'mini buzadi, oksidlaydi va gidrogenlash jarayonida katalizator aktivligini pasaytiradi. Sovun nikel oksidlari bilan reaksiyaga kirishib, salomasdan qiyin ajraladigan, nikelli sovun hosil qiladi. Neytrallangan yog' va moydagli sovunni yo'qotish usullaridan birini tanlashda, soapstok ajratilgandan keyin yog'da qolgan sovun qoldig'ini miqdori, asosiy omil hisoblanadi. Qolgan sovunni yo'qotish uchun yog' yuviladi yoki limon kislotosi bilan ishlanadi. Sovun miqdori $0,05 \%$ dan ko'p bo'lsa yog' yuviladi. Bundan kam bo'lsa limon yoki fosfor kislotosi bilan ishlanadi.

Yuvishni kondensat va yumshatilgan suv bilan amalga oshiriladi. Bu jarayon yog'ni issiq suv bilan aralashtirib, fazalarga ajratishga asoslangan. Yuvishni davriy yoki uzluksiz usulda olib borish mumkin.


Davriy yuvishda aralashtirgichli yuvish-quritish apparati qo'llaniladi. Yog‘ 2-3 marta yuviladi. Har bir yuvishdan so‘ng, yuvilgan suvni tindirish yo‘li bilan ajratib olinadi.

Uzluksiz usulda yuvishda esa kurakchali yoki pichoqli aralashtirgichlar ishlataladi. Fazalarga ajratish separatorlarda bajariladi.

Har bir yuvishda yog‘ga nisbatan 7-10 % suv sarf bo‘ladi. Suvni iqtisod qilish maqsadida birinchi yuvishga ikkinchi yuvindi suvni, ikkinchi yuvishga esa kondensatni ishlatish tavsiya qilinadi. Yuwilgan suvdagi yog‘lilik – birinchisida 1,5 %, ikkinchisida esa 0,05 % dan ortiq bo‘lmasligi lozim.

Yog‘larni yuvishda chiqindi miqdori 0,2% ni, yo‘qotishlar ham 0,2% ni tashkil qiladi.

Limon kislotasi bilan ishlov berish. Bunda yog‘dansovun butunlay yo‘kotiladi. Limon kislotasi sovunni parchalab temir va nikel ionlarini bog‘laydi.



Limon kislotasining tuzi quruq yog‘da erimaydi va uni filtrlash orqali yo‘qotiladi. Tarkibida sovun miqdori 0,01-0,02% bo‘lgan yog‘larni limon kislotasi bilan ishlangani uchun yog‘ni kislota soni bir oz oshadi xolos. 1 t yog‘ uchun 10 % li limon kislotasi eritmasidan 90-95°C da 30-50 g beriladi, keyin yog‘ quritiladi. Limon kislotasi bilan ishlov berilganda chiqindi bo‘lmaydi, yo‘qotish 0,02 % ga teng bo‘ladi.

Quritish – neytrallash jarayonining oxirgi bosqichi hisoblanadi. Quritish 90-95°C da vakuum ostida (qoldiq bosim 40-50mm sim.ust.) olib boriladi. Bunda namlik bug‘lanib havoga chiqib ketadi. Quritish davriy va uzluksiz usulda olib boriladi. Davriy usulda – yuvish-quritish apparatidan, uzluksiz usulda – vakuum-quritish apparatidan foydalaniladi.

Moya fosfat kislotasi bilan ishlov berish. Yuvuvchi suv miqdorini, yog‘ chiqindilarini kamaytirish va limon kislotasini tejash maqsadida neytrallangan moydagi sovun qoldig‘ini yo‘qotish uchun fosfat kislotasidan foydalaniladi. Almashinish reaksiyasi natijasida natriyli sovun erkin yog‘ kislotalarigacha parchalanadi. Ishlov berishni separatorli liniyalarda olib borish mumkin. Buning uchun konsentrangan fosfat kislotasi issiq suv bilan birinchi yuvishda moy massasiga nisbatan 10% miqdorida qo‘shib beriladi. Bunda 0,05-0,1% li fosfat kislotasining suvli eritmasi hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan natriy fosfat tuzi yuvindi suv bilan birga ajraladi. Ilmiy izlanishlar natijasini ko‘rsatishga fosfat kislotasidan foydalanib, separatsiyali qurilmalarda neytrallangan moyni bir marta yuvish mumkin. Sovun qoldig‘ini yo‘qotishning bu usuli shunday neytrallangan moyga qo’llash mumkinki, bunda sovun parchalangandan keyin moyning kislota soni me’yordan oshib ketmasligi kerak.

Yog‘lar rafinatsiyasining sxemasi. Yog‘larni rafinatsiya qilish uchun davriy va uzluksiz sxemalar qo’llaniladi. Uzluksiz sxemalarda separatorlarda ajratish va sovun-ishqor muhitida rafinatsiya qilish sxemasi keng miqyosda ishlatiladi.

Paxta yog‘ining ishqorli rafinatsiyasi. Paxta moyi tarkibida gossipol va uning o‘zgargan holatdagi hosilalari bo‘lgani uchun uni rafinatsiyalash ancha qiyichiliklar tug‘diradi. O‘zgargan gossipol hosilalari jadal spektor yutish xususiyatiga ega. Ular kislota xarakterli funksional gruppalarga ega bo‘lmasligi uchun hatto konsentrangan ishqor bilan ham reaksiyaga kirishmaydi.

Paxta moyini muhim sifat ko'rsatgichlaridan biri uning rangidir. DST bo'yicha rafinatsiyalangan paxta moyining rangi doimiy 35 sariq birlikdagi qizil birlik bilan baholanadi; bu ko'rsatgichda muvofiq moy navlarga ajratiladi: oliv nav-7, birinchi nav-10, ikkinchi nav-16.

Shu sababli paxta moyi rafinatsiyasi nafaqat erkin yog' kislotalarini yo'qotish, balki gossipolni ham yo'qotishga xizmat qiladi. Agar I va II navli yaxshi urug'lardan olingan moy bo'lsa, unda o'zgargan gossipol kam bo'ladi va uni rafinatsiyalash odatdagi ishqoriy qayta ishlanganda, olingan moy kislota soni yuqori va tarkibidagi o'zgargan gossipol hosilalari hisobidan rangi to'q bo'ladi. Bunday moylarni rangini bir marta ishqoriy neytrallash bilan pasaytirib bo'lmaydi. Shu sababli past navli paxta chigitidan arzon, tiniq moylar olish maqsadida rafinatsiyalashning yangi usullarini topish ishlari to'xtatilgani yo'q.

Paxta moyini antranilat kislotosi bilan qayta ishlanganda, antranil kislota u gossipol va uning hosilalari, masalan gossifosfatidlar bilan reaksiyaga kirishadi. Natijada moyda yomon eriydigan mahsulotlar hosil bo'ladi. Filtrlashdan so'ng olingan cho'kma va yog'sizlangan mahsulot antranilat gossipol deb ataladi.

Antranilat kislotosi yordamida moydan yoki misselladan 90% gacha gossipol va uning hosilalarini ajratib olish mumkin. Antranilat gossipol qoldig'i va reaksiyaga kirishmay qolgan atranil kislotosi moyni ishqor bilan neytrallash orqali yo'qotiladi. Hisoblanganiga ko'ra ishlatiladigan atranil kislotosi miqdori har 1% gossipol uchun 0,53% ga teng.

Antranilat kislotosi bilan gossipol yo'qotilgandan keyin moyning rangi taxminan 2 barobar, gossipol miqdori 5-10 barobar moyni kislota soni 0,5-1mg KON ga va fosfatidlar miqdori 3-6 barobar kamayadi.


Rafinatsiya qilinmagan paxta yog'ida 0,1 dan 2 % gacha gossipol va uning birikmalari mavjud, u yog'ning rangini xiralashtiradi.

Gossipol natriy bilan reaksiyaga kirishib, gossipolyat natriyni hosil qiladi. U suvda erib, osonlik bilan yog'dan ajraladi. Gossipolning o'zgarishidan hosil bo'lgan mahsulotlar sovunning (soapstok) absorbasiyasi hisobiga ajraladi.

Rjexin paxta yog'idan gossipolni ajratish usulini ishlab chiqkan. Bu usulda asosan paxta yog'i antranilat kislotosi bilan ishlanib yog'da erimaydigan antronilat gossipol hosil bo'ladi.

Agar yog'da gossipol miqdori 0,5 % dan oshsa antranilat kislotosi bilan ishlanadi. Bu jarayonni yog'da va missellada bajarish mumkin.

Davriy usulda rafinatsiyalash texnologik sxemasi (8-rasm). Sexga kelayotgan rafinatsiyalananmagan forpress paxta moyi 1-tarozli bakdan 3-baklarga, undan 4,5-nasoslar yordamida 23-reaktor-turbulizatorga beriladi. Reaktor-turbulizatorga ikkinchi tarafdan ya'ni, 25- sig'imdan kerakli konsentrasiyadagi ishchi ishqor eritmasi asta sekinlik bilan beriladi, so'ngra neytralizatorga berilib 30-45 minut davomida aralashtiriladi. Moy tarkibidagi hosil bo'lgan soapstok zarrachalarini yiriklashtirish maqsadida, moy massasiga nisbatan 1-3% miqdorda suv yoki tuzli suv beriladi va 15-20 minut aralashtiriladi. Odatda osh tuzi soapstok qiyin ajralgan paytlarda yaxshi yordam beradi. Soapstokni to'liq ajralishi uchun 8 soat davomida moy neytralizatorda tindirish uchun qoldiriladi. Bu vaqtida soapstok zarrachalari neytralizatorning konussimon qismiga cho'kib to'planadi. Ajralgan soapstok o'z oqimi bilan 30- soapstok uchun mo'ljallangan sig'imga ajratib olinadi, u yerdan soapstok 30-nasos yordamida qayta ishlanga uzatiladi. Neytrallash jarayoni 20-25°C haroratda boshlanadi va 50-55°C haroratda jarayon to'xtatiladi. Neytralizatorlarda neytrallash jarayoni aralashtirgichning aylanish soni 50-60 ayl/min holatida 30 min dan 60 min gacha davom etishi mumkin.



8 – rasm. Davriy usulda rafinatsiyalashni texnologik sxemasi

Neytrallangan moy tarkibidagi ortiqcha ishqor vasovun qoldiqlaridan tozalash uchun nasos yordamida 8-vakuum yuvish quritish uskunasiga uzatiladi. Bu yerga 35-sig' imdan moy massasiga nisbatan 8-10% miqdorda ikki marta suv beriladi va moy ikki yoki uch marta yuviladi. Yuvish sovunga sifat tahlili salbiy natija bergandagina to'xtatiladi. Yuvish tugagandan keyin moyni tindirib suvni cho'ktiriladi so'ngra moy 90-95°C haroratda 40-50 mm simob ustuni qoldiq bosim ostida quritiladi. Quritilgan moy tarkibida 0,1% gacha namlik qolishiga ruxsat beriladi. Hosil bo'lган yuvindi suv 36-moy tutqichga uzatiladi, u yerda moy tutib qolinadi va ajralgan texnik moy 39-nasos yordamida jarayonga qaytarib beriladi, suv esa tozalash tizimiga uzatiladi.


Yuvilgan moy tarkibidagi sovun qoldiqlari va ortiqcha ishqor miqdori buyicha nazoratdan o'tkazilgandan so'ng, nasos yordamida 9-oqlash apparatiga uzatiladi. Oqlash apparatiga moy massasiga nisbatan 1-3% miqdorda, ba'zi hollarda 5% miqdorda oqlovchi tuproq bilan ishlov beriladi. Oqlash apparatiga oqlovchi tuproq uskunada hosil qilingan vakuum yordamida 46-sig' imdan so'rib olinadi. Oqlash apparatida vakuum 40-60 mm simob ustuni qoldiq bosimida quritiladi. Oqlash harorat 90-95°C gacha yetkazilib, 30 min atrofida aylantirib turgan holda amalgamoshiriladi. Oqlash va yuvish quritish jarayonlari uchun vakuum 29-kondensator va 28-vakuum nasoslar yordamida hosil qilinadi. Moy tarkibidagi rang beruvchi moddalarni o'ziga adsorbsiyalagan oqlovchi tuproq 12-sig'imga ajratib olinadi, u yerdan tarkibidagi moydan ajratish maqsadida moyizlantirishga yuboriladi. Moy va oqlovchi tuproqli aralashma 12-nasos yordamida 14-filtrga beriladi. Filtrlangan moy standart talablariga javob bermasa jarayonga qaytariladi. Vertikal filtrdan ajralgan oqlovchi tuproq 20-sig' im orqali moysizlantirilib so'ngra qayta ishlashga beriladi. Moy polirovkali filtrlarda ikkinchi marta filtrlanib 20-sig'imga beriladi va u yerdan davriy dezodaratorga xidsizlantirish maqsadida uzatiladi.

Paxta yog'ini emulsiyali usulda uzlusiz rafinatsiyalashni texnologik sxemasi (11-rasm). Rafinatsiya qilinmagan paxta yog'i antranilat kislota bilan ishlangandan so'ng (agar zarur bo'lsa) avtomat tarozilar (1) orqali baklarga (2) kelib tushadi. U yerda nasos (3) bilan ikkita trubkali issiqlik almashinish apparatiga (4,5) yuboriladi:

Birinchi issiqlik almashinish apparatida (4) suv bilan sovutilsa, ikkinchisida esa (5) 25-30°C gacha namokob bilan sovutiladi. Sovutilgan yog' reaktor-turbulizatorga (6) keladi.

Konsentrangan ishqor eritmasi (34) bakdan (33) nasos bilan (32) filtr orqali (31) bakga yuboriladi, bu bakga tuzsiz suv ham yuboriladi. Nasos-dozator (30) bilan namokobi (29) sovitgich orqali ishqor eritmasi, (6) reaktor-turbulizatorga yuboriladi.

Hosil bo'lган aralashma (7) nasos bilan (8) isitgich (u yerda 65-70°C gacha soapstokning qovushqoqligini kamaytirish uchun qizdiriladi) orqali fazalarga ajratish uchun (28) tindirgich-ajratgich apparatiga keladi. Yog' uzlusiz ravishda (27) bakga quyilib turadi, u yerda qo'shimcha tindiriladi. (27) Bakda ajralgan soapstok, asosiy ajralgan soapstok bilan birga qayta ishlash uchun yuboriladi. Agar kerak bo'lsa, tindirgich-ajratgich apparatiga tushishdan oldin, aralashma suv bilan (9) aralashtirgichda aralashtiriladi. Yog' (27) bakdan (26) nasos bilan uzlusiz ravishda yuvish uchun, (25) isitkich orqali (85-90°C gacha qizdiriladi) pichoqli aralashtirgichga (10) yuboriladi va bir vaqtning o'zida suv ham beriladi. Aralashma (11) ajratgichda ajratiladi. Yog' (12) isitgich orqali (13) nasos bilan ikkinchi marta yuvish uchun pichoqli aralashtirgichga yuborilib, (15) ajratgichda ajratiladi. Ajratgichlardan chiqqan yuvilgan suv (23) yog'-tutgichga keladi. Bu yerda ajralgan yog' (24) nasosbilan (2) bakga yuboriladi, suv esa (22) nasos bilan tozalash sistemasiga beriladi. Yog' (16) isitgichga kelib, keyin vakuum-quritish (19) apparatiga keladi. Quritishdan oldin yog' limon kislotosi eritmasi bilan aralashtiriladi, u (17) bakda tayyorlanadi. Yog' vakuum-qurituvchi (19) apparatdan (20) nasos bilan rafinatsiyalangan yog' uchun (21) bakga yuboriladi. Rafinatsiyalangan paxta moyi 7-jalvalda ko'rsatilgan ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kerak.



11 – rasm. Paxta yog‘ini emulsiyali uzluksiz rafinatsiyalashni texnologik sxemasi

7 -jadval

Rafinatsiyalangan yog‘ ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Oliy nav	I nav
Rangi, qizil birlikda, 35 sariqda, ortiq emas	7	10
Kislota soni, mg KOH, ortiq emas	0,2	0,3
Namlik va uchuvchan moddalar, %, ortiq emas	0,1	0,2
Ekstraksiya moyini chaqnash harorati, °C, kam emas	232	232

Paxta moyini rafinatsiyalashda ishqor eritmasining konsentratsiyasi va ishqorni ortiqcha miqdori 8-jadvaldan moyni qaysi usulda ishlab chiqarilgani va kislota soniga qarab tanlab olinadi

8-jadval

Ishqor eritmasining konsentratsiyasi va uni ortiqcha miqdori

Moyni turi	Kislota soni, mg KON	Ishqor eritmasining konsentratsiyasi, g/l	Ishqorning moy massasiga nisbatan, ortiqcha miqdori. Quyidagi rangli likdag'i moy olish uchun, % da		
			7 q. bir	12 q. bir	16 q. bir
Forpress	4 gacha	125-180	0,3	0,5	-
	7 gacha	250-300	1,0	0,7	-
	14 gacha	300-400	-	1,2	1,0
Ekstraksiya	4 gacha	150-250	0,6	0,5	-
	7 gacha	250-300	0,6	0,5	-
	14 gacha	350-450	0,5	-	-

Paxta moyini rafinatsiyalashda soapstokdagi yog‘ni chiqindisi ko‘p bo‘ladi. Neytrallash koeffitsienti yog‘ sifatiga qarab 3 dan 6 gacha, soapstokni yog‘liligi 30-40% ni tashkil qiladi. Soapstok ajratib olingandan keyin moydagi sovunni miqdori 0,3-0,5% ga teng bo‘ladi, bu o‘z navbatida yog‘ni ko‘p marta yuvishni talab qiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Moylarni ishqoriy rafinatsiya qilish.
2. Rafinatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan ishqor sarfini xisoblash.
3. Ishqor eritmasini tayyorlash.
4. Ishqoriy rafinatsiya mexanizmi.
5. Rafinatsiya jarayoniga turli omillarning ta’siri.
6. Neytrallashdagi chiqindilar.
7. Ishqorning ortiqcha miqdori nima uchun olinadi?
8. Chiqindi miqdorini rafinatsiya usuli va yog‘ tabiatiga bog‘liqligi.
9. Neytrallash usullari.
10. Neytralizatsiyalangan yog‘dan sovun va namlikni yo‘qotish.
11. Paxta yog‘ini ishqorli rafinatsiyasi.
12. Yog‘lar rafinatsiyasining sxemasi.

5-MA’RUZA ADSORBSIYALI RAFINATSIYA

Reja: Adsorbsiya jarayonining maqsadi va mohiyati. Oqlovchi tuproqlarga qo‘yiladigan talablar. Aktivlashtirilgan oqartiruvchi tuproqlar. Yog‘larni davriy usulda oqlashning texnologik sxemasi. Yog‘larni De-Smet firmasi qurilmasida uzlusiz oqlash texnologik sxemasi.

Tayanch so‘z va iboralar: adsorbent, moyning rangi, pigmentlar, gossipol, karatinoitlar, aktivlangan tuproq

Yog‘lar tarkibida pigmentlar bo‘lib, ular yog‘ni bo‘yaydi. Masalan: ksantofillar yog‘ga sariq rang beradi, V-karotin qizil, xlorofill – yashil; gossipol – jigarrang yoki qora rang beradi.

Karatinoidlar ishqorga chidamli bo‘ladi, shuning uchun u ishqorli rafinatsiyada ajrab chiqmaydi. Ishqor eritmasini konsentratsiyasi yuqori bo‘lsa neytralizatsiya vaqtida karatinoidlar soapstokga sorbsiyalanadi va yog‘ qisman oklanadi (tiniqlashadi). Karatinoidlar qattiq sorbent yuzasida aktiv sorbsiyalanadi.

Xlorofillar karatinoidlardan farq qilib ishqor bilan reaksiyaga kirishib, birikma hosil qiladi. Biroq ishqorli rafinatsiyada to‘liq ajralib chiqmaydi. Kungaboqar yog‘ida karatinoid va xlorofillar bo‘lsa, paxta yog‘ida esa ular bilan bir qatorda gossipol ham mavjud. Tozalangan yog‘ va salomas tiniq rangda bo‘lishi kerak, bu margarin ishlab chiqarish uchun juda zarur omildir. Yog‘dan bo‘yovchi moddalarni yukotish uchun adsorbsiyali tozalash usuli qo‘llaniladi.

Adsorbsiya – bu qattiq yoki suyuq modda sirtida boshqa modda molekulalari va atomlari yig‘ilishi jarayonidir. Adsorbsiya adsorbent yuzasidagi aktiv markazlarni molekulyar kuchi ta’sirida borib, ularni sirt yuza energiyasini kamaytiradi. Adsorbsiyani yaxshi borishi adsorbsiyalanadigan moddalarni tabiatи va tuzilishiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan: qutblanmagan (kam qutblangan) birikmalar qutblanmagan adsorbentlarda yaxshi sorsiyalanadi (ko‘mirda) va polyarlangan birikmalar qutblangan sorbentlarda yaxshi sorsiyalanadi. Yog‘ va moylardagi hamma bo‘yovchi moddalarni tabiatи va strukturasi (tuzilishi) har xil. Lekin ular har biri uziga xos qutblikka ega. Shuning uchun ham adsorbsiyali rafinatsiyada tanlash qobiliyatiga va aktivlikka ega bo‘lgan qutbli adsorbentlar ishlatiladi. Buning uchun aktivlangan oqlovchi tuproqlar ishlatiladi. Bu tuproqlar tabiiy bentonit tuproqlar – alyumosilikatlardan olinadi.

Yog‘ni qayta ishslash sanoatidagi ishlatiladigan adsorbentlar yuqori adsorbsiyali sig‘imga va aktiv, rivojlangan yuzaga, yog‘ sig‘imi katta bo‘limgan va yog‘ bilan ximiyaviy reaksiyaga kirishmasligi va yog‘dan oson ajralishi kerak. Yog‘ni qayta ishslash sanoatida MDXda ishlab chiqilgan aktivlangan tuproq-askanit ishlatiladi, uning yog‘ sig‘imi – 75 %. Sorbent miqdori yog‘dagi bo‘yovchi moddalarni miqdoriga bog‘liq, u 0.5 dan 5 % oraligida bo‘ladi. Oqlash jarayonining samaradorligi oklangan yog‘ni rangi, ishlatilgan sorbent miqdori, yukotish va chiqindilar me’yoriga va oklangan yog‘ni chiqkan miqdoriga qarab aniqlanadi. Oqlash jarayonida aktivlangan tuproq ishlatilganda bir oz izomerizatsiya va bir muncha glitseridlar hosil bo‘lishi kuzatiladi. Bu esa oklangan yog‘ va moylarni saqlashda ularni sifati va saqlanish muddatini pasayishiga olib keladi. Yuqorida ko‘rsatilgan xolatlar va yog‘ sig‘imini kattaligi iloji boricha oqlash uchun ishlatiladi aktivlangan tuproq miqdorini kamaytirishni talab qiladi. Oqlash vaqt 20-30 minutni tashqil qiladi. Adsorbent bilan yog‘ning uzoq muddat ushlab turish, uning oksidlanishiga olib keladi va yog‘ yer ta’mini oladi.

Oqlash uchun gidratatsiya qilingan, neytralizatsiya qilingan, yuvilgan va quritilgan yog‘lar tavsiya etiladi. Oqlash jarayonida oksidlanishni kamaytirish maqsadida jarayon vakuum ostida olib boriladi. Oxirgi yillarda bizning mamlakatda va chet ellarda har xil konstruksiyaiga ega bo‘lgan cho‘kmani mexanik usulda tushiradigan germetik filtrlar o‘rnatilgan, uzlusiz oqlash usullar yo‘lga quyilmokda.

Hamma usullar uchun oqlash jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

- adsorbentning yog‘li suspenziyasini tayyorlash;
- deaeratsiya, oqlash jarayoni;
- adsorbentni filtr yordamida ajratib olish

- Oqlash jarayonida harorat $75-80^{\circ}\text{C}$, oqlash apparatidagi qoldiq bosim 4 kPa (40 mm. sim. ust. atrofida) bo‘ladi.

Oxirgi vaqtida MDXda va chet ellarda yog‘larni oqlashda turli apparatlar (De-Smet, Alfa-Laval, Speshim, Okrim va x.k.) ishlatiladi.

Oqlovchi tuproqlarga qo‘yiladigan talablar. Sorbentlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1.Ular yuqori adsorbsion yutish qobiliyatiga ega bo‘lishi va kamsarflanib yuqori adsorbsion rafinatsiya natijasini berishi kerak. Yog‘ va moylarni oqartirish uchun ishlatilayotgan adsorbentning aktivligi oqartirish faktori F_0 bilan xarakterlanadi va oqartirilgan va oqartirilmagan yog‘larning balandligining nisbatiga teng.

2. Bu ko‘rsatkich sorbentlar bilan oqartirilgan yog‘larda birdan katta bo‘ladi. Oqartirish faktori ko‘rsatkichi katta bo‘lsa, sorbent shunga aktiv bo‘ladi.Ba’zida oqartirish darajasi boshqa ko‘rsatkachlar bilan ifodalanadi. Masalan: oqartirilgan va oqartirilmagan yog‘lar rangini yodning har xil konsentratsiyali eritmasi bilan solishtirib ko‘riladi yoki svetomerda qizil va sariq rang birikmalari kombinatsiya qilinib aniqlagadi.

3. Sorbentning moyni yutish qobiliyati kam bo‘lishi kerak.(Sorbentning moyni shilish qobiliyati deganda, unda qolgan moyning % miqdori tushuniladi).Ishlatilgan sorbentning yog‘dan to‘liq va oson ajratib olinishi zarur.Sorbent yog‘ga kimyoviy ta’sir ko‘rsatmay va tozalab bo‘lmaydigan hid, maza qoldiradigan bo‘lmasligi kerak.

4. Sorbent yog‘dan oson texnik usulda ajratib olinishi kerak, masalan, filtratsiya yordamida.Oqartirish effektini oshirish uchun oqartiruvchi tuproq bilan aktivlashtirilgan ko‘mir OU yoki BAU markalarining aralashmalaridan foydalaniladi.

Aktivlashtirilgan oqartiruvchi tuproqlar. Tuproqlarning oqlash qobiliyatini sun‘iy ravishda aktivlashtirish uchun ularni $250-300^{\circ}\text{C}$ da termik qizdiriladi yoki kislotalar yordamida ishlov beriladi. Kislota yordamida oqartiruvchi tuproqni aktivlashtirish yuqori natija beradi, shuning uchun bu usul ko‘proq qo‘llaniladi.

Oqartiruvchi tuproqlarga mineral kislotalar ta’sirida Mg,Fe,Al,Ca metallarning erishi natijasida tuproqning g‘ovakligi oshib, aktiv yuzasi kattalashadi va kremnekislotalar hosil bo‘lishi tuproqning aktivligini oshiradi. So‘ngra yog‘ massasiga nisbatan 10-15% miqdorda 30-35% konsentratsiyali NCl yoki H_2SO_4 solinadi.

Tuproqni mineral kislota bilan aktivlashtirish uchun xom tuproq tozalanadi, maydalanadi, keyin bakga solinib suv bilan 25% suspenziya tayyorланади va nasos yordamida filtr orqali futerovkalangan changa beriladi. NCl ishlatilganda yaxshi natija beradi, lekin H_2SO_4 ko‘p qo‘llaniladi, chunki apparatni kamroq korroziyalaydi. Kislota solingandan so‘ng mahsulotga bug‘ berilib aralashtirilib, $100-105^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladi va 1 sutkaga qoldiriladi. Tindirilgan nordon suv neytralizatsiya qilinib kanalizatsiyaga yuboriladi. Cho‘kma filtpressga beriladi va suv bilan yuvilib, kislotadan tozalanadi. So‘ngra $100-110^{\circ}\text{C}$ da namligi 5% bo‘lguncha quritiladi. Quritilgan tuproq maydalanadi, elanadi va kraft qoplarga solinadi. Aktivlashtirilgan ko‘mirning oqartiruvchi qobiliyati 2 marta oshadi.

Yog‘larni davrida usulda oqlashni texnologik sxemasi. (12-rasm). Yog‘ korobka (1) dan vakuum yordamida (3) oqlovchi uskunaga tortib olinadi, $90-95^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladi. 40-60 mm.sim.ust. qoldiq bosim ostida quritiladi. Keyin (2) o‘lchagichdan oqlovchi tuproq tortib olinadi. 20-30 minut davomida yog‘ bilan tuproq yaxshilab aralashtiriladi. Oqlash oxiriga yetganda yog‘ (4) nasos bilan (5) filtpressga yuboriladi. Xira yog‘lar yig‘uvchi korobkada yig‘iladi, tiniq yog‘lar esa yiguvchi (6) korobkaga yig‘iladi. Filtratsiyadagi bosim $2,5-3,0 \text{ kg/sm}^2$ harorat esa $85-90^{\circ}\text{S}$ dan oshmasligi kerak. Ishlatilgan oqlovchi tuproq tarkibida ma’lum miqdorda yog‘ bo‘ladi. Oqlovchi tuproq tarkibidagi yog‘ miqdorini kamaytirish uchun filtpress siqilgan inert gaz bilan puflanadi. Filtrpressdan chiqqan yog‘ qayta ishqoriy rafinatsiyaga yuboriladi.

12 – rasm. Moylarni davriy usulda oqlashni texnologik sxemasi.


“Alfa-Laval” firmasi qurilmasida yog‘ va moylarni oqlash jarayonning texnologik sxemasi 13-rasmda ko‘rsatilgan. Rafinatsiyalangan yog‘ yig‘uvchi bakdan nasos (1) yordamida plastinkali yig‘gich (2) orqali oqlovchi apparat(3)ga beriladi.

Berilayotgan yog‘ning harorati rostlagich yordamida bir me’yorda saqlab turiladi. Oqlovchi tuproq bunker(6)dan deaeratsion kamera (5) orqali maxsus dozalovchi kamera(4)ga keladi. Agar deaeratsion kamera(5)da tuproq sathini kamayganligi haqida signal bo‘lsa, bunkerdagи vibrator ishga tushadi va to‘ldiruvchi klapan ochiladi. Oqlovchi tuproq deaeratsion kamera(5)ga tushadi, undan so‘ng releda ko‘rsatilgan vaqt o‘tgandan keyin dozalovchi kamera(4)ga va oqlovchi apparat(3)ga o‘tadi. Oqlovchi tuproq sarfi rostlovchi bilan avtomatik rostlanadi va bu operatsiya yog‘ sarfini rostlash bilan hamohang olib boriladi. YOg‘ miqdori oshsa avtomatik ravishda oqlovchi tuproq sarfi ham ko‘payadi. Jarayon uch sekxiyada uzlusiz aralashtirish bilan amalga oshiriladi. Oxirgi, pastki sekxiyadagi oqlangan yog‘ suspenziyasi nasos (16) bilan ikkita diskli filtr(9)lardan biriga beriladi.

Filtrlashni boshlang‘ich paytidagi xira rangli yog‘ qaytadan oqlovchi apparat(3)ga yuboriladi. Filtrlangan yog‘ nasos (12) yordamidasovutgich(11)ga tushadi, shundan so‘ng sovutilgan yog‘ yig‘uvchi bak – rezervuarga jo‘natiladi.

Oqlovchi apparat hamda filtrlar vakuum sistemasiga tomchi tutgich (7) va kondensator (8) orqali ulangan. Kondensator(8)dan suv sig‘im(10)ga tushadi. Filtrlash jarayoni tugagach disklardagi cho‘kma bug‘ va issiq havo bilan puflanadi. Suv-yog‘ emulsiyasi bug‘ uchun separator (14) orqali yog‘ tutgich(13) ga tushadi. YOg‘ nasos (15) orqali yog‘ yig‘uvchi bakga uzatiladi. Oqlash va deaeratsiya jarayoni davomiyligi 20...25 minutni tashkil qiladi. Oqlovchi tuproqni yog‘sizlantirgandan so‘ng tuproqning yog‘liligi 15%gacha bo‘ladi.

Oqlash jarayonini ba’yon etilgan sxemasi, hozirgi vaqtida ishlatilayotgan davriy usulning o‘rnini egallashi lozim. Gidrogenlashdan oldingi oqlashni oziqaviy salomas olishga mo‘ljallangan yog‘lar uchun yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri iste’molga chiqariladigan yog‘lar uchun amalga oshirilishi aqsadga muvofiq bo‘ladi.



13 – rasm. “Alfa-Laval” firmasi qurilmasida yog‘ va moylarni oqlashning texnologik sxemasi

Takrorlash uchun savollar

1. Moylarni oqlash-adsorbsiyali rafinatsiya.
2. Oqlash jarayonining moxiyati
3. Oqlavchi adsorbentlar.
4. Adsorbentlarga qo‘yiladigan talablar.
5. Moylarni oqlash usullari.
6. Moylarni oqlash zarurligi.
7. Moylardagi buyovchi moddalar.
8. Adsorbsiya – bu nima?
9. Moylarni oqlash jarayonida oqlavchi tuproqning miqdori.
10. Yog‘larni davriy usulda oqlash sxemasi
11. Yog‘larni De-Smet apparatida oqlashning texnologik sxemasi.

6-MA’RUZA YOG‘LARNI DEZODORATSIYALASH

Reja: Dezodoratsiya jarayonining maqsadi va mohiyati. Dezodoratsiyani texnologik sharoitlari. Davriy usulda dezodoratsiyalash texnologik sxemasi. A1-MND liniyasida uzlusiz dezodoratsiyalash texnologik sxemasi. Ishqorsiz rafinatsiya. Rafinatsiyada yog‘ni yo‘qotilishi va chiqindilarni me’yorlash. Rafinatsyaning har bir bosqichida yog‘ chiqindilari miqdorini aniqlash.

Tayanch so‘z va iboralar: dezodoratsiya, uchuvchan moddalar, aromatik moddalar, vakuum, bug‘ bosimi, deaeratsiya, bug‘ejektor, limon kislotasi

Rafinatsiya jarayonining oxirgi bosqichi dezodoratsiyalash (hidsizlanti-rish) dir, uning maqsadi —yog‘dagi noxush ta’m va hidni yo‘kotish hisoblanadi.

Bu ta’m va hidni yog‘da murakkab moddalar aralashmasi hosil qiladi. Bu moddalarga erkin yog‘ kislotalari, quyimolekulali yog‘ kislotalari (kapril, kapron va h.k.), alifatik uglevodorodlar, tabiiy efir moylari, aldegidlar, ketonlar, oksi-kislotalar va h.k. kiradi. Hidsizlantirish vaqtida zaharli silikatlar ham yo‘qotiladi.

Hidsizlantirish jarayonining mohiyati. Dezodoratsiya suyuqliklarni haydash (distillyasiya) usullaridan biri hisoblanadi. Hidsizlantirish jarayo-ni uch bosqichdan iborat: suyuqlik qatlamidagi hid beruvchi moddalarni bug‘lanish qatlamiga o‘tishi; hid beruvchi moddalarning bug‘lanishi; bug‘lanish qatlamidan bug‘langan moddalar molekulalarini yo‘qotish.

Uchuvchan moddalar sifat va miqdor jihatdan har xil tarkibli moddalarning murakkab kompleksidan tashkil topgan. Ular triglitseridlarga nisbatan ko‘proq bug‘ elastikligiga ega, ya’ni uchuvchanlik hosil qiladi. Hidsizlantirish samaradorligi hid beruvchi moddalar tarkibiga, uchuvchanligiga va jarayon haroratiga bog‘liq.

Haroratning ko‘tarilishi bilan hid beruvchi moddalarning uchuvchanligi va bug‘larning tarangligi oshadi. Agar harorat juda yuqori bo‘lsa, bu hol yog‘larning polimerizatsiyasi va oksidlanishiga olib keladi. Harorat 250°C dan oshsa, yog‘larni termik parchalanishi kuchayadi va yog‘larni yo‘qotish ortadi.

Aromatik moddalarni haydashda haroratni pasaytirish uchun hidsizlantirish jarayoni vakuum ostida, ochiq bug‘ ta’sirida olib boriladi.

Iste’mol qilishga mo‘ljallangan yog‘larni sifati dezodoratsiya jarayonini to‘liq va kamchiliksiz olib borishga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun dezodoratsiya yog‘larni tozalashdagi asosiy jarayonlardan biridir. Yog‘larni dezodoratsiya qilishdan maqsad, yog‘larni hid va ta’m beruvchi moddalardan tozalashdir. Bu moddalar moylarda yaxshi eriydi, hamda yuqori molekulyar massaga va past bug‘ bosimiga egadir. Uchuvchan moddalarning bug‘ bosimlari yog‘ kislotalarining bug‘ bosimiga yaqin bo‘ladi. Uchuvchan moddalarning va erkin yog‘ kislotalarining miqdori kamligi va bug‘ bosimini pastligi uchun ularning eritmalar ideal eritmalar xisoblanib ularning bug‘ fazasi Dalton konuniga bo‘ysunadi.

Dezodoratsyaning muhim belgisi bo‘lib, berilayotgan ochiq bug‘ va dezodoratsiya vaqtini hisoblanadi. Bu omillar o‘z navbatida dezodoratordagи bosimga, dezodoratsiyalanayotgan moyning miqdoriga, hamda hid beruvchi moddalarning boshlang‘ich va oxirgi konsentratsiyalariga bog‘liq. Ochiq bug‘ qurilmaga barbatyor, aralashtirgich va boshqa bug‘ taqsimlagich moslamalar orqali beriladi. Bu suyuqliki intensiv aralashtirishni ta’mindaydi, o‘ta qizib ketishni kamaytiradi. Mayda pufakcha ko‘rinishida haydalgan bug‘ yog‘ bilan bug‘ yog‘li ko‘pik holidagi aralashma hosil qiladi. Shu sababli hidli moddalar yog‘ tomchisidan uning yuzasiga diffuziyalanadi va suv bilan aralashadi. Natijada dezodoratsiya jarayoni tezlashadi va osonlashadi. Ko‘pgina dezodoratorlarda hidli moddalarni yo‘qotish jarayoni plyonkali qatlamda olib boriladi. Dezodoratsiyada bosimni kamayishi bilan hid beruvchi moddalarning qaynash harorati va ochiq bug‘ sarfi kamayadi. Chuqur vakuum otilib chiqayotgan bug‘ pufakchalarini maydalanish imkonini beradi; bunda pufakcha ishchi yuzasining oshishi bilan uning hajmi kengayadi. Natijada bug‘lanish koeffitsienti oshadi. Vakuum dezodoratsiyalash davomiyligiga, yog‘ sifatiga va bug‘ sarfiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tayyor mahsulot sifatiga ta’sir qiladigan boshqa omillardan biri dezodoratsiya jarayonining borish

sharoiti va qurilmani konstruksiyasi hisoblanadi. Har bir moy va yog‘ turi uchun alohida optimal dezodoratsiyalash harorati mavjud. Bu narsa hid beruvchi moddalar tarkibiga bog‘liq. Tarkibida past molekulyar massali hid beruvchi moddalar bo‘lgan kokos, palma yadro va shunga o‘xhash moylarni haydash harorati kungaboqar moyi, salomas va boshqa yog‘larnikiga nisbatan past bo‘ladi.

Dezodoratorlar albatta izolyasiyalangan bo‘lishi kerak, chunki hid beruvchi moddalar bug‘lari kondensatsiyalanmasligi va dezodoratsiyalangan moyga qaytmasligi kerak. Yog‘larni oksidlanishini kamaytirish uchun dastlab yuqori bo‘limgan haroratda deaeratsiya qilinadi.

Dezodoratsiyalangan yog‘ni barqarorligini oshirish uchun unga anti- oksidantlar yoki sinergistlar, asosan limon kislotasi qo‘shiladi. Ular metallarni aktivligini kamaytiradi va katalizator kabi oksidlashini oldini oladi.

Ba‘zi xollarda hid va ta’mni yog‘da qaytadan paydo bo‘lishi kuzatiladi. Agar dezodoratsiya jarayoni texnologik rejimga to‘la rioya qilgan holda olib borilsa, hid va ta’mni qaytadan paydo bo‘lishi yuz bermaydi. Barcha sharoitlar to‘g‘ri olib borilganda dezodoratsiyalangan yog‘ benuqson organoleptik ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi.

Yog‘lardagi individual uchuvchan moddalarning va erkin yog‘ kislotalarining miqdori aniq bo‘limganligi uchun hisoblashda, suyuqlik fazasi (yog‘) ikkita komponentdan tashkil topgan deb qabul qilinadi, ya’ni uchglitserid va erkin stearin kislotasi. Shuning uchun stearin kislotaning kamayishi bo‘yicha dezodoratsiya jarayoni nazorat qilinadi. Tajribaga qaraganda dezodoratsiya qilingan yog‘da stearin kislotasini miqdori 0,02 % -gacha bo‘lsa, u holda yog‘ hidsizlangan hisoblanadi.

Dezodoratsiyani texnologik sharoitlari. Sanoatda ishlatilayotgan dezodoratsiya qurilmalarida hid beruvchi moddalarni haydash jarayoni qalin qatlama, plyonkada yoki dastlab plyonkada, keyin esa qalin qatlama olib boriladi. Dezodoratsiya davriy, yarim uzlusiz yoki uzlusiz holda amalga oshiriladi. Davriy dezodoratorlarda bug‘ borbatyori ustidagi yog‘ qatlami katta bo‘lib, bug‘ni yog‘ bilan kontakti dezodoratorga berilayotgan bug‘ni tezligi yoki bosimiga bog‘liq bo‘ladi. Lekin berilayotgan bug‘ning tezligi chegaralangan, katta tezlikda bug‘ berilsa, dezodoratordan chiqayotgan bug‘ bilan ilashib ketadigan yog‘ ya’ni yo‘qotishlar ko‘payib ketadi.

Uzlusiz ishlaydigan dezodoratorlarda bug‘ va yog‘ kontakti yupqa qatlamlarda, tarelkalarda, plastinkalarda sodir bo‘lgani uchun osonlik bilan bug‘ va suyuqlik fazalari orasida muvozanatga, shunindek bug‘ bilan bir xil produvka qilishga erishiladi.

Yuqori sifatli dezodoratsiya qilingan yog‘ olish uchun umumiy talablardan (yuqori harorat, chuqr vakuum) tashqari quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

- 1) dezodoratsiya vaqtida yuqori haroratda yog‘ni iloji boricha qisqa vaqt ushslash kerak;
- 2) yog‘larni, dezodoratsiyadan oldin deaeratsiya ya’ni havosizlantirilishi shart;
- 3) yog‘larni qizdirganda, dezodoratsiya vaqtida va sovutish paytida nam havo bilan kontaktda bo‘lishidan saqlash kerak;
- 4) dezodoratsiya tamom bo‘lgandan keyin, uskunalar to‘xtatilsa ulardan yog‘ bo‘shatilishi va barcha qismlari yuvib tozalanishi lozim.

Yog‘larni dezodoratsiya qilish uchun turli dezodoratorlar ishlatiladi:

1. Davriy (uzlukli) dezodoratorlar.
2. Uzlusiz ishlaydigan dezodoratorlar (A1-MND, De-Smet, “Alfa-Laval”).


Davriy hidsizlantirish jarayonida harorat $170\text{--}210^{\circ}\text{C}$ bo‘lsa, uzlusiz jarayonda esa 230°C gacha bo‘ladi. Apparatlardagi qoldiq bosim 5mm simob ustuniga teng bo‘ladi. Vakuum hosil qilish uchun ko‘pbosqichli bug‘ejektorlar (bug‘-ejektorli vakuum nasos) ishlatiladi.

Bug‘ejektori harakatining mohiyati-shundaki, soploдан chiqayotgan bug‘ning tezligi 1000 m/c gacha yetadi. Bunday katta tezlikda bug‘ o‘zi bilan birga kameradagi bug‘ va gazlarni olib ketadi va kondensatorga kiradi va kondensatsiyalanadi. Dezodoratordan kameraga yangi bug‘ va gaz keladi. Shunday qilib sistemada vakuum hosil bo‘ladi.

Dezodoratsiya qilishdan oldin yog‘lar va moylar yaxshilab rafinatsiya qilinishi kerak. Dezodoratsiyaga berilayotgan yog‘ va moylar tarkibidasovun va oqlovchi tuproq qoldiqlari umuman bo‘imasligi kerak. Dezodoratsiyaga berilayotgan moyda agarsovun yoki oqlovchi tuproq

qoldiqlari bo'lsa, ular qayta filtrlashga yuboriladi. Dezodorat sifatini yaxshilash uchun bu jarayonda yog' va moylarga limon kislotasi eritmasi qo'shiladi. Limon kislotasi yog'larni oksidlanishini oldini oladi. Dezodoratsiya qilish uchun berilayotgan bug' tarkibida tuz, kislorod va boshqa gazlar bo'lmasligi va bug' quruq va neytral bo'lishi kerak.

Davriy usulda dezodoratsiyalashni texnologik sxemasi (15-rasm). Rafinatsiyalangan yog' (1) bakdan vakuum yordamida (4) dezodoratorga so'rib olinadi. Dezodorator, ishlashdan oldin unda vakuum hosil qilinadi va o'sha vakuum yordamida dezodorator yog' bilan yarmigacha to'ldiriladi. Yog' 100°C gacha qizdiriladi va qizdirish davom ettiligan holda dezodoratorga pastki qismagi-barbatyordan ochiq bug' beriladi. Harorat 180°C ga chiqqach kerakli bo'lgan bug' miqdori beriladi (250 kg/soat). Yog'ni 180°C gacha ko'tarilish vaqt 30 min. dan oshib ketmasligi kerak. Apparatdagi vakuum ejektorlar bloki yordamida hosil qilinadi. Apparatdagi qoldiq bosim 0,65 kPa(5mm sim. ust)dan oshmasligi kerak.



15 – rasm. Davriy usulda dezodoratsiyalashni texnologik sxemasi

Dezodoratsiyaning harorati kokos yog'i uchun 180°C , salomas va qolgan o'simlik yog'lari uchun $210-230^{\circ}\text{C}$ atrofida bo'ladi.

Dezodoratsiya jarayoni tugagach (dezodoratsiya vaqt 1,5-3 soat atrofida bo'ladi) dezodoratsiya qilingan yog' sovutish uchun (5) sovitgichga beriladi.

Sovitgichda yog‘ suv yordamida sovitiladi va (6) nasos bilan dezodoratsiya qilingan yog‘ga mo‘ljallangan bakka tushadi. Sistemada vakuum (7) ejektorlar bloki yordamida hosil qilinadi. Dezodoratordan chiqayotgan bug‘-havo aralashmasi (3) tomchi ushlagich dan o‘tib vakuum sistemasiga so‘rib olinadi. Tomchi (3) ushlagichda ushlanib qolgan yog‘ tomchilar (2) tomchi to‘plagichda to‘planadi.

Ejektor sistemasining kondensatorlariga berilayotgan suv uzlusiz ravishda barometrik quduq(8)qa tushib turadi.

Dezodoratsiya qilingan yog‘ni sifatini saqlab qolish uchununga dezodoratsiya jarayonida limon kislotasi eritmasi (20 %)li 1 t yog‘ uchun 0,6 l miqdorda qo‘shiladi. Bu usulni unumdorligi kuniga 20-25 tonnani tashkil qiladi.

A1-MND liniyasida uzlusiz dezodoratsiyalashni texnologik sxemasi (17-rasm). Sig‘im(1)dan yog‘ (2) nasos bilan (4) deaeratorga beriladi, u yerda deaeratsiyalanadi va dezodoratordan chiqayotgan issiq moy bilan isitiladi. Keyin esa yog‘ (2) nasos bilan (7) issiqlik almashgich apparatiga uzatiladi, u yerda hidsizlantirish haroratigacha ($180-200^{\circ}\text{C}$) isitiladi va (9) filtr orqali (11) dezodoratorga tushadi.

Dezodoratorga (10) o‘lchagich orqali limon kislotasi eritmasi beriladi. Hidsizlangan yog‘ (2) nasos bilan (4) deaerator orqali sovutish uchun sovitgich (8)ga yuboriladi. Sovigan yog‘ sig‘imga (5) keladi va iste’mol uchun chiqariladi.

Bug‘-gaz aralashmasini dezodoratordan (12) tomchitutgich orqali 5 bosqich-li bug‘ejektori (6) vakuum-nasos bilan tortib olinadi, suv kondensatordan (3) quduqqa tushadi. Liniyaning ishlab chiqarish quvvati 3,3 t/soat.


Ishqorsiz rafinatsiya¹. Xozirgi vaqtida yog‘ning glitserid qismiga ta’sir qiluvchi omillar harorat, havo kislороди va boshqalar bilan bog‘liq jarayonlarni qisqartirish yo‘nalishi aniq belgilab qo‘yildi. Shunga asosan moy va gidrogenlangan oziqa yog‘larini sifatini yaxshilash uchun ishqor bilan ishlov bermasdan, erkin yog‘ kislotalari va hid beruvchi moddalarini distillyasiyalari rafinatsiya usuli bilan yo‘qotish maqsadga muvofiq deb hisoblanmoqda.

Oziqa salomasini ishqorsiz rafinatsiyalash. Rafinatsiyalash uchun berilayotgan rafinatsiyalanmagan oziqa salomasi quyidagi ko‘rsatgichlarga ega bo‘ladi: kislota soni 1 mg KON dan ko‘p emas, namlik va uchuvchan moddalar miqdori 0,2% dan ko‘p emas va nikel miqdori 10 mg/kg dan ko‘p emas.

Ishqorsiz rafinatsiya jarayoni ikki bosqichdan iborat: birinchisi yog‘ni jarayonga tayyorlashdan, ikkinchisi erkin yog‘ kislotalari va hid beruvchi moddalarini distillyasiyalab haydash.

Birinchi bosqich salomasdagagi nikel va nikelli sovunni limon kislotasi bilan qayta ishlab salomasda erimaydigan nikel-limon nordon tuzini hosil qilish, so‘ng’ra uni kondensat bilan yuvish, separatorda fazalarga ajratish, quritish, nikelli sovun, yog‘ kislotalari, nikel qoldiqlarini yo‘qotish uchun adsorbsiyali rafinatsiyalashdan iborat.

¹ Wolf Hamm, Richard J. Hamilton, Gijs Calliauw. Edible Oil Processing, 2nd Edition. - USA, Wiley-Blackwell. 2013, 342 pages



17 – rasm. A1-MND liniyasida uzluksiz dezodoratsiyalashning texnologik sxemasi

Salomasga limon kislotasi bilan ishlov berilayotganda harorat 90°C , kislota konsentratsiyasi 5-15% va nikel miqdoriga qarab sarfi 25-50 g/t bo‘ladi. Oqlashda adsorbent miqdori moy massasiga nisbatan 0,4-0,5% bo‘ladi.

Oziqa salomaslari uchun ikkinchi bosqich yog‘ kislotalarni ushlab qoluvchi qo‘shimcha moslamalar bilan ta’minlangan uzluksiz dezodoratsiya qurilmalarida olib boriladi. Shuning uchun A1-MND va “De SMET” sxemalarida qo‘shimcha ravishda birinchi barometrik kondensatoridan oldin kondensator-tutgich, uchuvchi moddalarni yig‘gich o‘rnatilgan.

Moyni ishqorsiz rafinatsiyalash. Bu usul kislotaligi 10% va undan ortiq bo‘lgan moyni qayta ishlashda yuqqori samara beradi va natijada kislotaligi 0,5% dan kam bo‘lgan rafinatsiyalangan moy va distillangan yog‘ kislotasi olinadi. Distillyasiyaga tayyorlashni asosini moyni chuqur gidrotatsiya qilish va oqlash tashkil etadi. Distillyasiyali rafinatsiya jarayoni bir qator qurilmalarda olib boriladi. Eng ko‘p tarqalganlaridan biri bu, “Djanatssa” nomli Italiya firmasining liniyasi hisoblanadi.

Rafinatsiyada yog‘ni yo‘qotilishi va chiqindilarni me’yorlash. Yog‘-moy korxonalaridagi yo‘qotishlar va chiqindilar me’yorlari yuqqori tashkilotlar tomonidan belgilab beriladi va tasdiqlanadi. Ular qurilmalar, texnologik sxema va ish rejimiga qarab hisobga olinadi.

Rafinatsiya sexlarida me’yorlanishi lozim bo‘lgan asosiy hom ashyolar moy va yog‘lar hisoblanadi. Yordamchi materiallarga esa ishqor, limon kislotasi, oqlovchi tuproq, sulfat kislota va boshqalar kiradi. Hom ashyo sarf normasi mahsulot birligi, rafinatsiyalangan yog‘ tonnasiga qarab kilogrammlarda belgilanadi.

Texnologik yo‘qotishlar va chiqindilar ishlab chiqarish jarayonidan kelib chiqadi va bevosita unga bog‘liq bo‘ladi. Tashkil qilishga oid chiqindi va yo‘qotishlar texnologik jarayonlarga bog‘liq emas. Ular qaytariladigan chiqindilardan to‘liq foydalanmaslik, hom ashyolarni saqlash va

tashishdagi yo'qotish, tabiiy yo'qotishlar tufayli yuzaga keladi. Hom ashyo sarf me'yoriga yaroqsiz mahsulotlar, shuningdek texnologik rejimdan chetlashishlar, me'yordan ko'p bo'lgan tabiiy yo'qotishlar, texnologik qurilma nosozligi tufayli hosil bo'ladigan yo'qotish va chiqindilar kiritilmaydi.

Rafinatsiya sexida hom ashyonini ishlab chiqarish jarayoniga ishlatish uchun qaytarilmaydigan qismi chiqindi hisoblanadi. Yo'qotishlarga filtr matolarda qolgan yo'qolishi, qurilmaga yopishib qolgan, yerga to'kilgan, suv va oqlovchi tuproqda qolgan, hamda dezodoratsiya va quritishda hosil bo'lgan pogonlardagi yog'lar kiradi.

Rafinatsiyadagi chiqindilar miqdori yog' va moyni turi, sifati, qaysi maqsadda ishlatishga mo'ljallanganligi, sifati, rafinatsiyalash usuli va jarayon rejimiga bog'liq. Shuningdek chiqindi va yo'qotishlar moyni gidratatsiya qilinishi yoki qilinmasligiga ham bog'liq bo'ladi.

Rafinatsiyaning har bir bosqichida yog' chiqindilari miqdorini aniqlash. Gidratlash. Hisoblash gidratlangan va rafinatsiyalanmagan moy tarkibidagi fosfatidlar miqdoriga asoslanib olib boriladi.

Moydagagi fosfatidlarning miqdori F bilan gidratlashdagi chiqindilar gidratlanadigan moy massasiga nisbatan foizlarda olingan chiqindi miqdori Mg orasidagi bog'liqlik quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$CH_g = K_g \cdot F$$

bu yerda: K_g -moydagagi fosfatidlar miqdoridan chiqindi miqdorini necha marta kattaligini ko'rsatuvchi koeffitsient bo'lib, qo'llanilayotgan fosfatidlarni ajratish sxemasiga bog'liq.

K_g koeffitsienti fosfatidlar miqdoriga qarab yoki hisoblash yo'li bilan aniqlanishi mumkin. Fosfatid konsentrati olish bilan kungaboqar va soya moylarini gidratlashda belgilangan chiqindi miqdori gidratlanmagan moy massasiga nisbatan foiz hisobida quyidagicha bo'ladi. Separatorlarni qo'llash bilan gidratlash sxemasi uchun 1,7 F; tindirgichni qo'llash bilan gidratlash sxemasi uchun 2 F ga teng. Bu yerda 1,7 va 2 sxemaga mos keluvchi K_g koeffitsientlari.

Neytrallash. Soapstokdagi yog' chiqindilarining rafinatsiyalanmagan moyga nisbatan foizdagi miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$CH_{yo} = K \cdot X$$

bu yerda: K-neytralash koeffitsienti; X-neytrallashga kelayotgan yog'ning kislotaligi, %;

Yuvish. Yuvindi suvdagi chiqindilar yig'ilgan yog' deb nomlanuvchi yog' tutkichda ushlab qolningan yog'dan iborat. Bunday yog'lar tarkibida emulsiyalovchi moddalar va boshqa aralashmalar bo'ladi. Ularni rafinatsiyalangan moyga qo'shilsa, texnologik jarayonni buzilishiga va chiqindining ko'payishiga olib keladi. Shuning uchun bunday yog'lar yig'iladi va alohida rafinatsiyalanadi; agar ular ko'p bo'lsa, ular uchun alohida chiqindi va yo'qotishlar me'yori belgilanadi.

Oqlash. Chiqindilar ishlayotgan oqlovchi tuproqni moy sig'imiga, miqdori va turiga, hamda moyni filtrlash sharoitiga bog'liq. Chiqindilar (% da) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$CH_0 = MA/100$$

bu yerda A-oqlovchi tuproq miqdori, oqlanadigan moy-massasiga nisbatan % da. M-tuproqni moy sig'imi (ishlatiladigan tuproqlar o'rtacha moy sig'imi 40% ni tashkil etadi).

CH₀'kmani mexanik usulda ajratib olish bilan ishlatiladigan filtrlarda cho'kmani yog'sizlanishi kuzatilgani uchun chiqindi miqdori oqlashdagiga nisbatan ikki barobar kam bo'ladi

$$CH_0 = MA/(2 \cdot 100)$$

Dezodoratsiya. Chiqindi va yo'qotishlar yog' turiga qarab me'yoranadi. Kokos moyida boshqa yog'larga nisbatan quyi molekulali yog' kislotalari va ularning triglitseridlari ko'p bo'lgani uchun yo'qotish miqdori ko'proq bo'ladi. Ayni vaqtda, boshqa moylarga nisbatan chiqindilar kam bo'ladi. Bu narsa kokos moyidagi uchuvchan moddalarning barometrik kondensatorlarga boshqa yog'larnidan kam miqdorda kondensatsiyalanishi bilan tushuntiriladi. 9-jadvalda hozirgi vaqtda ishlatilayotgan yog'larni rafinatsiyalash sxemalarida chiqindi va yo'qotishlarning asosiy me'yorlari keltirilgan.

9 -jadval

Yog'larni rafinatsiyalashdagi chiqindi va yo'qotishlar me'yorlari

Rafinatsiya bosqichlari	Usul	Rafinatsiyalanmagan moyga nisbatan % da	
Och rangli moylar (kungaboqar, soya, yeryong'oq, makkajo'-xori)ni gidratatsiyasi	Separator qo'llanilganda	1,7 F	—
	Tindirgich qo'llanilganda	2 F	—
Och rangli moylarni	Uzluksiz	1,25 x	0,1
	Davriy	1,5 x	0,1
Oziqa maqsadi uchun emulsiyali usulda paxta moyini neytrallash	Davriy	5,5 x	1,7
	Uzluksiz	5,2 x	1,7
texnik maqsad uchun	Missellada	4,3 x	1,7
	Rafinatsiyaning barcha sxemalarida	4 x	1,7
Oziqa salomasini neytrallash	Separatorli liniyada	1,5 x	0,1
Yuvish	—	0,2	0,2
Quritish	—	—	0,05
Oqlash	Davriy	0,4 A	0,1 A
	Mexanizatsiyalashgan filtrlarda	0,2 A	0,1 A
Dezodoratsiya			
kokos moyi	—	0,05	0,30
boshqa yog' va moylar	—	0,15	0,05

Takrorlash uchun savollar

1. Dezodoratsiya jarayonining maqsadi.
2. Dezodoratsiya «hidsizlantirish» jarayonining moxiyati
3. Dezodoratsiya qilish texnologiyasining parametrlari
4. Dezodoratsiya jarayonida vakuumni ahamiyati
5. O'simlik moylaridagi hid va ta'm beruvchi moddalar.
6. Hidsizlantirish (dezodoratsiya)ning samaradorligi nimalarga bog'liq bo'ladi?
7. Dezodoratsiya jarayonining harorati va bosimi.
8. Moyni hidsizlanganligi qanday aniqlanadi?

7 – MA'RUZA

YOG'LARNI GIDROGENLASH. GIDROGENLASH JARAYONING NAZARIYASI

Reja: Gidrogenizatsiya jarayoni mohiyati. Yog'larni gidrogenlash jarayonida kimyoviy o'zgarishlar. To'yinmagan yog' kislotalarini selektiv gidrogenlash. To'yinmagan yog' kislotalarini izomerizatsiyasi.

Tayanch so'z va iboralar: gidrogenlash, salomas, selektivlik, izomerizatsiya

Yog'larni modifikasiyalash - bu yog'larni gliserid va yog' kislota tarkibini o'zgartirish yo'li bilan ularning dastlabki xossalari o'zgartirish bo'lib, yog'larni pereeterifikasiyalash, gidrogenlash, fraksiyalash va omuxtalash orqali amalga oshiriladi².

Halq xo'jaligining yog' mahsulotlariga bo'lgan extiyoji o'simlik yog'lari, mol yog'lari, sariyog' va shunga o'xshash yog'lar hisobiga qondiriladi. Yog'larning bir qismigina (mol yog'i,

² Frank D. Gunstone. The Chemistry of Oils and Fats. – UK: Blackwell Publishing Ltd, 2004. -288 p

sariyog‘) qattiq holatda bo‘lib, qolgan ko‘p qismi suyuq holda bo‘ladi. O‘simlik yog‘lari esa iqlimiylar sharoitlarga qarab yer sharining turli nuqtalarida turlicha holatda tarkib topadi. Masalan, tropik mamlakatlarda palma, kokos yog‘lari qattiq holda bo‘ladi. Kungaboqar, paxta, soya, raps va boshqa o‘simlik yog‘lari suyuq holatda ishlab chiqariladi. Qattiq yog‘larga bo‘lgan extiyojni o‘simlik yog‘larini gidrogenlab salomas ishlab chiqarish evaziga qoplanadi. Qattiq yog‘lar sanoatda katta ahamiyatga ega, ular margarin, xo‘jalik va atirsovunlar, stearin ishlab chiqarishda asosiy xomashyo hisoblanadi.

Biroq MDHda tabiiy qattiq yog‘lar miqdori chegaralangan, suyuq o‘simlik yog‘lari esa ko‘p miqdorda ishlab chiqariladi. Shuning uchun suyuq yog‘lar gidrogenlanib, qattiq holga keltiriladi. Gidrogenlash mahsuloti salomas deyiladi. Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda 5 ta gidrozavod ishlab turibdi. Gidrogenlash suyuq yog‘ tarkibidagi to‘yinmagan yog‘ kislotalarini vodorod bilan to‘yintirishga asoslangan. Bunday jarayon natijasida to‘yinmagan suyuq yog‘ kislotalari pirovardida to‘yingan va nisbatan yuqori haroratda suyuqlanadigan kislotalariga o‘tadi.

Har xil moddalarning molekulalararo kimyoviy reaksiyasining amalga oshishi uchun bunday molekulalar o‘zaro ta’sirda bo‘lishi, ya’ni reaksiyaga kirishuvchi qismi bir-biri bilan to‘qnashuvi zarur. Lekin ma’lum hajmda joylashgan va bir-biri bilan kerakli yo‘nalishda to‘qnashgan bunday molekulalarning juda oz qismigina o‘zaro ta’sirga kirishadi. Bu hol, oz miqdordagi molekulalargina energiyasining o‘zlaridagi bog‘larni o‘zgartirib yangi bog‘lar hosil qilish, ya’ni yangi birikma hosil qilish reaksiyasini amalga oshirish uchun yetarli ekanligini bildiradi. Berilgan reaksiyani amalga oshirish uchun yetarli bo‘lgan bunday aktiv molekulalarning minimal energiyasi uning aktivlash energiyasi deyiladi.

Molekulyar vodorod yuqori molekulali to‘yinmagan yog‘ kislotalariga va suyuq yog‘larning asosini tashkil qiluvchi ularning glitseridlariga oddiy sharoitda birikmaydi. Yog‘ harorati ko‘tarilganda ham, shunindek bosim anchagina oshirilganda ham bunday reaksiya bormaydi.

Bunday yog‘ kislotalariga vodorodning birikishi bu jarayonga spetsifik ta’sir ko‘rsatuvchi maxsus moddalar – katalizatorlar ishtirokida yuz beradi. Ularning ta’siri natijasida reaksiyaning tezlashuvi kataliz deyiladi.

Aftidan, vodorod va hatto biror-bir reaksiya natijasida “hosil bo‘lish momenti”dagi vodorod ham qo‘shbog‘larni to‘yintirish uchun energetik barer deb ataluvchi energetik qarshilikni yengish uchun yetarli aktivlikka ega bo‘lmasalar kerak. Bunday qarshilik katalizator ta’sirida ozmi-ko‘pmi darajada kamayadi.

O‘simlik yog‘larining kimyoviy va fizik xususiyati ularning yog‘ kislota tarkibiga bog‘liq. O‘simlik yog‘larida ko‘p miqdorda to‘yinmagan yog‘ kislotalar bor. (olein, linol va h.k. kislotalar), ular bitta yoki bir nechta qo‘shbog‘ga ega. Gidrogenlash jarayonida to‘yinmagan kislotalarni to‘yinishi bilan birga qo‘shbog‘larni migratsiyasi va transizomerizatsiya sodir bo‘ladi, bu esa erish harorati va yog‘ qattiqligini oshiradi.

Masalan: olein kislotasi:

	T _{er.} °C
Qo‘sh bog‘larning joylashishi	
9-10 sis	16
trans (elaidin)	44
11-12 sis	13
trans	39


Gidrogenlashda kungaboqar, paxta, soya, raps yog‘lari va soapstokdan ajratib olingan yog‘ kislotalari ishlatiladi. Gidrogenlash vaqtida xomashyoning kimyoviy tarkibiga va salomasning qo‘llanishiga bog‘liq. O‘simlik yog‘larini qisman gidrogenlash bilan, erish harorati T_{er}=31-34°C, qattiq ligi 160-320 g/sm, yod soni 62-82ga teng bo‘lgan salomas olinadi, bu salomaslar margarin, kulinar yog‘lari ishlab chiqarishda ishlatiladi. Bundan tashqari erish harorati T_{er}=35-37°C, qattiqligi 550-750 g/sm bo‘lgan salomaslar olinib, ular konditer mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Yog‘larni gidrogenlashning kimyoviy jarayonlari. Yog‘larni gidrogenlash jarayoni vodorod va katalizator ishtirokida kechadigan bir necha kimyoviy reaksiyalar yig‘indisidan iborat:


1. To‘yinmagan yog‘ kislotalarini etilen bog‘lariga vodorodning birikishi.



2. To‘yinmagan yog‘ kislotalarning pozitsiya izomerining hosil bo‘lishi.(uglerod molekulasi zanjirida etilen bog‘i migratsiyasi)



3. To‘yinmagan yog‘ kislotalar geometrik izomerlarining hosil bo‘lishi (sis-trans-izomeriya)




4. Uchglitseridda yog‘ kislotalarini qayta taqsimlanishi (pereeti-rifikatsiya)

Gidrogenlash jarayonida yuqoridagi qayd etilgan uchta reaksiya sodir bo‘ladi.

Reaksiya xarakteri va intensivligi glitserid tarkibi hamda gidrogenlanadigan yog‘ xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Paxta yog‘ini gidrogenlashda yog‘ kislotalari tarkibini o‘zgarishi 19-rasmida berilgan.




19 – rasm. Paxta yog‘ini gidrogenlashda yog‘ kislotalari tarkibini o‘zgarishi: 1-olein, 2-to‘yingan kislotalar, 3-linol

Gidrogenlash jarayonining tezligi. Glitseridlarni gidrogenlash tezligi ulardagi yog‘ kislotalari tarkibiga, katalizator aktivligi va miqdoriga, sistemadan vodorod o‘tkazishning intensivligi va uni yog‘da bir tekis tarkalishiga, yog‘ni qizdirish haroratiga bog‘liq.

Katalizator qancha aktiv bo‘lsa, gidrogenlash shunchalik tez kechadi. Katalizator miqdorini ko‘payishi, reaksiyani tezlashtiradi. Lekin katalizator yog‘ massasidan 0,3-0,4 %dan ko‘proq olinsa, reaksiya tezligi sezilarli darajada ortmaydi. Harorat oshishi bilan gidrogenlash tezligi ham oshadi. Sanoatda gidrogenlash 180-220°S haroratda olib boriladi. Gidrogenlash harorati katalizator aktivligiga va yog‘ tabiatiga bog‘liq.

Yog‘larni gidrogenlash jarayonining selektivligi. Yog‘larni gidrogenlash jarayonida uning tarkibi ya’ni yog‘ kislotalar, glitserid qismlarining o‘zgarishini o‘rganish natijasida qo‘yidagi umumiy qonuniyat ma’lum bo‘ldi.

Bir necha qo‘s sh bog‘li yog‘ kislotalar bosqichma-bosqich gidrogenlanadi va natijada qo‘s sh bog‘i soni kam bo‘lgan kislotaga aylanadi.



Linol va olein kislotalari bo'lgan yog'larni gidrogenlashda birinchi bo'lib, linol kislotasi to'yinadi. Bitta qo'shbog'li bir nechta kislotalarda birinchi bo'lib uglerod atom soni kam bo'lgan kislota to'yinadi, ya'ni olein kislotasi eruk ($S_{22:1}$) kislotasiga qaraganda tezroq gidrogenlanadi.

Selektivlik qo'shbog'larni tanlab to'yinishidir. Selektivlik yog' kislotalarining to'yinmaganlik darajasi va molekulyar massasi bilan bog'langan bo'lsa uni radikal selektivlik deyiladi. Trilinoleindagi linol kislotasi birinchi navbatda to'yinadi. Bunday tanlab to'yinish – glitserid selektivlik deyiladi. Yog' kislotalarining to'yinmaganlik darajasi katta bo'lsa, gidrogenlash tezligi yuqori bo'ladi.

Masalan, linolen kislotasini olein kislotasigacha to'yinish tezligi, olein kislotani stearin kislotasiga to'yinish tezligidan 2-10 marta katta. To'yinmaganlik darajasi har xil bo'lgan yog' kislotalari aralashmasini gidrogenlashda gidrogenlash tezliklari farqi katta bo'ladi.

Masalan, soya moyini nikel katalizatori ishtirokida yuqori haroratda gidrogenlash jarayonida linolen, linol, olein kislotalari atsillarining to'yinish tezlik konstantalari nisbati quyidagicha bo'ladi.

$$k_{LE} : k_L : k_{OL} = 30 : 20 : 1$$

To'yinmagan yog' kislota atsillarini gidrogenlash tezligi triglitserid tuzilishga bog'liq bo'lmaydi.

Yog'larni gidrogenlashdagi radikal selektivlik katalizator xossalari va aktivligiga bog'liq bo'ladi. Yuqori aktivlikka ega bo'lgan katalizatorlar, ba'zan aktivligi kamroq bo'lgan katalizatorlarga nisbatan kam selektivlik namoyon qiladi. Lekin bu hol faqat ma'lum metall negizida tayyorlangan, aktivligi jihatdan bir-biridan farq qiladigan katalizatorlarga xosdir. Masalan, yangi tayyorlangan katalizatorga nisbatan bir qancha vaqt ishlatilgan nikelli katalizatorda gidrogenlash jarayoni yuqori selektivlikda ketadi. Palladiyli katalizator o'zidan anchagina aktivligi past bo'lgan nikelli katalizatorga nisbatan yuqori selektivlik namoyon etadi.

Paxta, kungaboqar va shularga o'xshash yog'lar gidrogenlanayotganda harorat oshirilsa, radikal selektivlik ham kuchayadi. Bosimni ko'tarish esa, selektivlikning pasayishiga sabab bo'ladi. Ishlatilayotgan katalizatorning miqdori ham gidrogenlash jarayonining selektivligiga ta'sir ko'rsatadi.

Nikel va boshqa katalizatorlar ishtirokida gidrogenlash jarayonida selektivlik harorat pasayishi bilan pasayadi. Jarayon selektivligi bilan harorat orasidagi munosabat linol va linolen kislotalarni gidrogenlash mexanizmiga bog'liqidir.

Avval linol va linolen kislotalar katalizator yuzasida tutash qo'shbog'li izomerlarga aylanadi, so'ngra tutash qo'shbog'li dienlar yuqori tezlik bilan monoenlargacha gidrogenlanadi. Yuqorida qayd etilgan kislotalarning tutash qo'sh bog'li izomerlari hosil bo'lishi harorat ko'tarilishi bilan mos ravishda selektivlik oshadi.

O'simlik yog'lari qovushqoqligi harorat pasayishi bilan ortadi va suyuq fazadan selektiv gidrogenlangan mahsulotni olish sekinlashadi. Natijada katalizator yuzasida linolen kislota glitseridlarini konsentratsiyasi kamayadi. Monoto'yinmagan kislotalar glitseridlarini suyuq fazadagi konsentratsiyasi ortadi va monoto'yinmagan kislota atsillarining gidrogenlanishi oshadi va jarayon selektivligi pasayodi.

Jarayon selektivligi pasayishiga, vodorod bosimini oshishi ham yordam beradi. Bosim oshishi bilan katalizator yuzasida vodorod konsentratsiyasi oshadi natijada to'yinmaganlik darajasi turli bo'lgan yog' kislotalarning birdaniga gidrogenlanishi ehtimoli oshadi.

Amalda yog'larni gidrogenlash yod soni 50-80 bo'lguncha olib boriladi. Shuning uchun selektivlik salomasning xususiyatiga ta'sir qiladi.

Ko'rsatkichlar	paxta yog'i	selektiv gidrogen-	noselektiv
		langan yog'	gidrogenlangan yog'
Y.s. % J ₂	109,8	71,0	73,2
T _{er} , °C	-	30,6	35,5
Kislota tarkibi, %			
L	50,3	8,4	18,5
Ol	20,1	60,5	43,8
To'yigan	29,6	31,1	37,7

Selektivlik darajasi to'yinmagan yog' kislotalarni gidrogenlash reaksiyasi tezlik konstantalari nisbati bilan aniqlanadi.

Linolen kislotani gidrogenlash tezligi ($dL/d\tau$) vodorod bosimi o'zgarmagan holatda quyidagi formula bilan ifodalanadi.

$$dL/d\tau = -k_L \cdot L$$

bu yerda: k_L -linol kislotani gidrogenlanish tezligi konstantasi.

L-linol kislotani konsentratsiyasi

Olein kislotani gidrogenlanish tezligi quyidagicha

$$dS/d\tau = k_{OL} \cdot Ol ;$$

bu yerda: $dS/d\tau$ -stearin kislotanining yig'ilish konsentratsiyasi.

k_{OL} -olein kislotani gidrogenlanish tezligi konstantasi.

Gidrogenlash selektivligi quyidagi formula bilan topiladi.

$$S_I = K_I/K_{OL}$$

Selektivlik jarayoni katalizator tabiatiga bog'liq. Mis-nikel katalizatori nikel katalizatoriga qaraganda selektivroqdir, nikelga qaraganda palladiy katalizatori selektiv hisoblanadi. Ishlatilgan kattalizator yangi katalizatorga qaraganda selektivliroqdir.

Selektivlik turli omillarga bog'liq (harorat, vodorod bosimiga). Harorat ko'tarilishi bilan selektivlik oshadi, vodorod bosimi oshishi bilan selektivlik kamayadi.

Yog' kislotalarining izomerizatsiyasi. Yog'larni gidrogenlash jarayonida yog' kislotalarining izomerizatsiyasi sodir bo'ladi.

Olein kislotasi yoki uning efirlarini gidrogenlash, ularning yod soni ma'lum kattalikka kamayganda to'xtatilsa, olingan mahsulot tarkibida stearin kislotasi bilan birgalikda olein kislotasining yuqori haroratda (40-44°C da) eriydigan qattiq izomerlari ham hosil bo'ladi. Bunday kislotalar oddiy qilib aytganda izokislotalar deyiladi. Izoolein kislotalar gidrogenlangan yog'larning erish haroratini ko'taradi. Shu narsa qiziqarlik, olein kislotasi efirlari gidrogenlanayotganda izoolein kislotalari hosil bo'lishi stearin kislotasi hosil bo'lishiga nisbatan – bir necha marta ko'pdir.

Olein kislotadan hosil bo'ladigan izoolein kislotalar elaidin kislotasi va olein kislotasining qo'shbog'lari siljigan holatdagi transizomerlarining aralashmasi ko'rinishida bo'ladi. Gidrogenlash to'laroq olib borilganda, izoolein kislotalari tarkibida olein kislotasining molekulalarining metil gruppasiga siljigan qo'shbog'li trans- izomerlari ko'payadi. Izoolein kislotalar linol kislotasi gidrogenlanganda ham ko'p miqdorda hosil bo'ladi. Bu holda ham, hosil bo'ladigan izoolein kislotalar olein kislotasining trans-izomerlaridir. Izoolein kislotalarining hosil bo'lishi birlamchi kislotaning qo'shbog'iga vodorodning ta'siri natijasidir. Agar yog'lar vodorodsiz-lantirilgan katalizator ishtirokida va azot oqimida qizdirilsa, izoolein kislotalari hosil bo'lmaydi.


Tovar holatidagi salomasda izoolein kislotalarining miqdori ba'zan 40% dan ham ortadi. Bu miqdor birlamchi yog' tarkibiga, uning vodorod bilan to'yinish darajasiga va gidrogenlash jarayoni olib borilgan shart-sharoitlarga bog'liqdir. Tarkibida linol kislotasi ko'p bo'lgan yog'lardan olingan salomasda izoolein kislotalari yuqori miqdorda bo'lishi mumkin. Gidrogenlashni yuqori haroratda olib borish ham, izoolein kislotalarning ko'proq hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Katalizator tarkibi va aktivligi ham salomasdagi izoolein kislotalari miqdoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlatilgan katalizatorda olingan salomasda yangi tayyorlangan katalizatordagiga

qaraganda, izolein kislotalar kamroq bo‘ladi. Paladiyli katalizatorlarda nikelli katalizatorlarga nisbatan ko‘proq izolein kislotalar hosil bo‘ladi.

Salomas tarkibidagi izolein kislotalari miqdoriga ayniqsa, katalizator sirtini vodorod bilan qay darajada ta’minalash katta ta’sir ko‘rsatadi. Ta’minalash qanchalik yaxshi olib borilsa, izolein kislotalari miqdori miqdori shunchalik kam bo‘ladi. Izokislotalarni hosil bo‘lishi yarim gidrogenlanish mahsulotlarini hosil bo‘lishi bilan izohlanadi. Linol kislotani selektiv gidrogenlashda, avvalo tutash qo‘sibog‘li dienlar hosil bo‘ladi so‘ngra olein kislotani pozitsion izomerlariga aylanadi.

Etilen bog‘iga ikkita vodorod atomining bog‘lanishi bosqichma-bosqich boradi. Oldin katalizator bilan yarim gidrogenlangan mahsulot hosil bo‘ladi.

Yarim gidrogenlangan mahsulot juda beqaror modda bo‘lib, yana bir atom vodorod biriktirib olib to‘yingan birikmaga aylanish yoki bir atom vodorodni chiqarib yuborib to‘yinmagan izomerga aylanishi mumkin. Bu quyidagi reaksiyada ko‘rinib turibdi.



Izokislotalar erish harorati bilan salomas qattiqligini oshiradi. Masalan.

	T_{er} $^{\circ}\text{C}$
9-10 sis Olein kislota	16
trans (elaidin)	44
11-12 sis	13
trans	39

Izomerizatsiya tezligi katalizator tabiatiga harorat va vodorod bosimiga bog‘liq. Nikel va mis-nikel katalizatorlar past izomerlanish qobiliyatiga ega bo‘lsa, palladiy katalizatori yuqori izomerlash qobiliyatiga ega. Aktiv katalizator izomerlanish tezligiga qaraganda gidrogenlash tezligini oshiradi. Shuning uchun aktiv katalizatorlarda yumshoq konsistensiyali salomaslar olinadi. Yuqori qattiqlikga ega bo‘lgan salomaslar olish uchun ishlatilgan katalizatorlar qo‘llaniladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Moylarni gidrogenlash jarayoni mohiyati.
2. Moylarni gidrogenlash jarayonidagi kimyoviy o‘zgarishlar.
3. Gidrogenlash jarayonida selektivlik.
4. Yog‘ kislotalarining izomerizatsiyasi.
5. Sis, trans olein kislotalar.
6. Moylarni gidrogenlash zaruriyati
7. Gidrogenlash jarayoni – bu nima?
8. Gidrogenlash jarayoni mahsuloti
9. Gidrogenlash jarayonining tezligi
10. Izomerizatsiya tezligi nimalarga bog‘liq?


8 – MA’RUZA YOG‘LARNI GIDROGENLASH KATALIZATORLARI

Reja: Gidrogenlash jarayonida katalizatorlarning ahamiyati. Katalizatorning harakatining mohiyati. Aktiv markazlar to‘g‘risida tushuncha. Gidrogenlashda kataliz mexanizmi. Katalizatorlarga qo‘yiladigan talablar. Sanoat katalizatorlari.

Tayanch so‘z va iboralar: katalizator, kataliz, geterogen kataliz, aktiv markazlar, turg‘un katalizatorlar, fizikaviy adsorbsiya, xemosorbsiya


Gidrogenlashda katalizning mexanizmi. Vodorod va to'yinmagan modda – etilen katalizator yuzasiga adsorbsiyalanadi va aktivlashgan holga keladi. Aktivlashgan vodorod va to'yinmagan modda molekulalari bir-biriga juda yaqin joylashgan bo'lsa, ular o'zaro reaksiyaga kirishib, gidrogenlash jarayoni sodir bo'ladi. Natijada to'yingan modda etan hosil bo'lib, u fizikaviy adsorbsiyalangan bo'lgani uchun katalizator yuzasidan oson desorbsiyalanadi.

Kataliz mexanizmini, xemosorbsiyaning reaksiyaga kirishuvchi moddalar molekulalarini aktivlashtirish nuqtai nazaridan etilenni gidrogenlanishini quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin.




Bu yerda: $(\text{H}_2)_{\text{ad.akt}}$ va $(\text{C}_2\text{H}_4)_{\text{ad.akt.}}$ – aktivlashib adsorbsiyalangan vodorod va etilen, K-katalizator.

To'yinmagan birikmalar qo'sh bog'larini vodorod bilan to'yintirish murakkab bo'lib, u ikki bosqichda kechadi. Dastlab qo'shbog'ni bitta uglerod atomi vodorod bilan to'yinadi, keyin ikkinchisi to'yinadi. Shunday qilib, gidrogenlash jarayoni yarim gidrogenlanish oraliq faza orqali boradi. Buni quyidagilardan ko'rish mumkin.



Yarim gidrogenlanish oraliq fazada yarim gidrogenlangan mahsulot hosil bo'ladi, u juda chidamsiz modda, undan to'yinmagan modda hosil bo'lishi bilan bir atom vodorod ajralishining tezligi, to'liq gidrogenlanish tezligidan mahsulotni shu xususiyati, gidrogenlash jarayoni davrida, to'liq gidrogenlanmagan yog'larni xossalariiga ta'sir qiluvchi turli oraliq mahsulotlarni hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Katalizator harakatining mohiyati. Kimyoviy reaksiya amalga oshishi uchun molekulalar to'qnashishi kerak, lekin to'qnashishlarning juda kam qismi molekulalarning birikishiga olib keladi. Bu shu bilan izohlanadiki, juda kam qism molekulalarning energiyasi bog'larni uzib, yangi bog'lar hosil qilish qobiliyatiga ega. Molekulaning bu minimal energiyasi, reaksiyaning energiya aktivligi deyiladi.



Katalizator reaksiyaga kirishuvchi moddalar bilan birikib, yuqori reaksiya qobiliyatli yuzani hosil qiladi, atomlararo bog'lanishni parchalab, ularni tuzilishini o'zgartiradi.

Katalizatorlar reaksiya tezligini 10^6 - 10^{16} marta tezlashtiradi. Gidrogenlash jarayonining energiya aktivligi 700 kJ/mol dan 40-60 kJ/molgacha kamaytiradi.

Gidrogenizatsiya quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) reaksiyaga kirishuvchi moddalarni katalizator yuzasiga keltirish;
- 2) bu molekulalarni katalizator yuzasida adsorbsiyasi;
- 3) sorbsiyalangan molekulalarning kimyoviy almashinish va mahsulot hosil bo'lishi;
- 4) mahsulot molekulalari bog'larining katalizator yuzasidagi sarfi;
- 5) katalizator yuzasidan ularni ajratish.

Katalizator yuzasida ikki xil adsorbsiya yuz beradi.

1) fizikaviy 2) xemosorbsiya (aktivlashtirilgan adsorbsiya)

Fizikaviy adsorbsiyada adsorbsiyalangan molekulalar yuza atomlari bilan o'zaro ta'sir qilmaydi. Molekulalar xususiyati o'zgarmaydi, biroq molekulalar yuzaga mustahkam bog'langan bo'ladi.

Fizikaviy sorbsiyada molekulalarning desorbsiyasi oson va tez o'tadi. Harorat ko'tarilishi bilan fizikaviy adsorbsiya kamayadi va tez yo'qoladi, bu fizikaviy adsorbsiyalangan molekulalar bilan qattiq jism sirtining o'zaro ta'siri juda ham kuchsiz ekanligini bildiradi.

Fizikaviy adsorbsiyadan farqli o'laroq, xemosorbsiya katalizatorning butun yuzasida ro'y bermay, balki ayrim qismlarida (aktiv markazlarda) yuz beradi.

Xemosorbsiyada molekulalar aktivlashadi. Harorat ko'tarilishi bilan xemosorbsiya tezlashadi. Xemosorbsiya natijasida adsorbent sirti bilan sorsiyalangan modda o'rtasida kimyoviy ta'sir vujudga keladi, natijada xemosorbsion birikma hosil bo'ladi. Xemosorbsiya tanlash xususiyatiga ega, ya'ni modda va katalizator o'rtasida kimyoviy muvofiqlik bo'lishi kerak. Masalan, platina, palladiy, nikel vodorod va to'yinmagan birikmalarini xemosorbsiyalash qobiliyatiga ega. Vodorodning yuqori kimyoviy aktivlikka ega bo'lgan erkin atomlari nikel bilan birikib gidridlar hosil qiladi:



Aktiv markazlar to'g'risida tushuncha: Katalizator yuzasida turli aktivlikka ega bo'lgan adsorbsiya markazlari bor. Bunday adsorbsion markazlar katalizatorning aktiv markazlari deyiladi. Kristallchalarining qirralari yoki uchlari joylashgan atomlar kristallarning tomonlari va hajmida joylashgan atomlarga qaraganda energetik jihatdan kam to'yingan bo'ladi va ular aktiv markazlarni hosil qiladi. Akademik A.A.Balandin tomonidan rivojlantirilgan katalizning multiplet nazariyasiga ko'ra, katalizatorlarning aktiv markazlari kristall tomonlarida joylashgan va ma'lum ravishda joylashgan bir qancha atomlarining yig'indisidan tuzilgan va adsorbsion markazlar hisoblangan kristall murtaklardan iborat.

Ular bir nechta atomlardan tuzilgan, shuning uchun A.A.Balandin ularni multiplet deb ataydi. Aktiv markazlar tarkibidagi adsorbsion markaz soniga qarab:

- ikkita adsorbsion markazlarining dubletlar;
- uchta tripletlar,
- oltita sekstetlar va h.k.lar tushuniladi.

Aktiv markazlarining yuzasi umumiyligi katalizator yuzasining 1-2 % ni tashkil qiladi.

Yog'larni gidrogenlash sanoat katalizatorlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) faqatgina gidrogenlash jarayonini tezlatish qobiliyatiga ega bo'lishi va noxush reaksiyalar yuz berishi kerak emas;
- 2) yuqori aktivlik, unum dorlik va selektivlikga ega bo'lishi;
- 3) katalizator salomasdan oson ajralishi;
- 4) katalizator bahosi arzon, xomashyo va materiallar serob bo'lishi kerak.

Kukunsimon nikelli katalizator aktivligini aniqlash uchun, 50g yaxshilab rafinatsiyalangan kungaboqar moyini tezligi $0,18 \text{ m}^3/\text{soat}$ bo‘lgan vodorod bilan 200°S haroratda 1 soat davomida gidrogenlanadi. Katalizator aktivligi erishilgan moyni to‘yinish darajasi bilan ifodalanadi:

$$A = \frac{(n_M - n_C)100}{n_M - 1,4470}$$

Bu yerda: A – katalizator aktivligi, %;

n_M – moyni 60°S dagi nur sindirish ko‘rsatkichi; 1,4470 –

kungaboqar moyini y.s.=0 gacha gidrogenlangandagi nur sindirish ko‘rsatkichi (60°S).

Moyni nur sindirish ko‘rsatkichini $1 \cdot 10^{-4}$ ga pasayishi yod sonini bir birlikka kamayishiga mos keladi.

Nikel asosli katalizatorlar aktivligi bo‘yicha quyidagi guruhlarga ajratiladi.

Yuqori aktiv – A=80-100% (moydagi nikel miqdori 0,05%)

Aktiv – A=70÷100% (moydagi nikel 0,1%)

O‘rtacha aktiv – A=45-69% (moydagi nikel 0,1%)

Past aktiv – A=25-44% (moydagi nikel 0,1%)

Ba’zan katalizator aktivligi yuqoridagi gidrogenlash sharoitiga eritilgan salomasni erish harorati bilan ifodalanadi.

Aktivlikka mos holda salomasni erish harorati va moyni to‘yinmaganlik darajasining o‘zgarishi quyida ko‘rsatilgan.

A %	30	37	45	51	58	66	73	80	88	96	100
t, $^\circ\text{C}$	20	25	30	35	40	45	50	55	60	65	69

Salomasning erish harorati nafaqat gidrogenlash (to‘yinish) chuqurligiga, balki jarayon selektivligi va monoto‘yinmagan kislotalar izomerlarining to‘planishiga ham bog‘liq. Shu sababli katalizator aktivligini erish harorati bilan baholash bir tomonlama natija beradi.

Katalizator selektivligini baholash uchun 1kg puxta rafinatsiyalangan kungaboqar moyi turbina aralashtirgichli reaktorda, 200°C haroratda barbotajdagi tezligi $0,12 \text{ m}^3/\text{soat}$ bo‘lgan vodorod va tarkibidagi nikel konsentratsiyasi 0,05 yoki 0,1% bo‘lgan moy bilan nur sindirish ko‘rsatkichi 1,4540 – 1,4530ga yetguncha gidrogenlanadi. Jarayon berishi davomida gidrogenizatdan namuna olinadi, olein va linol kislotalar glitseridlari bo‘yicha reaksiya tartibi aniqlanadi, xomashyodagi bu kislotalarning gidrogenlanish tezlik konstantasi va gidrogenlash selektivlik koeffitsienti ushbu formula bo‘yicha hisoblanadi.

$$S_I = K_I / K_{ol}$$

Ko‘p hollarda linol kislotosi atsillarining gidrogenlanish reaksiyasi tartibi jarayon borishiga qarab nolinchidan birinchigacha o‘zgaradi. U holda selektivlikni quyidagi tenglama bilan qulay hisoblanadi.

$$S_I = (O_I - O_{lo}) / (L_o - L),$$

Bu yerda: S_I – linol kislota glitseridlari bo‘yicha selektivlik koeffitsienti;

L_o, L – linol kislotosining boshlang‘ich va oxirgi miqdori;

O_{lo}, O_I – olein kislotosining boshlang‘ich va oxirgi miqdori.

Nikel asosli katalizatorlar selektivligi bo‘yicha quyidagi guruhlarga bo‘linadi.

	S_I	S_I
Yuqori selektiv	25-50	0,96-0,99
Selektiv	15-24	0,90-0,95
O‘rtacha selektiv	10-14	0,78-0,88

Katalizatorni izomerlash qobiliyati uch usuldan biri bilan baholanadi.

- Linol kislotasining gidrogenlanishi va transizomerizatsiya tezlik konstantalari nisbati: $A_t = K_t/K_l$
- Yog‘dagi linol kislota miqdorining kamayishi bilan transizomerlar miqdorining oshish nisbati: $A_t = \Delta T/\Delta L$
- Yog‘ yod sonining pasayishi bilan transizomerlar miqdorining oshish nisbati: $A_t = \Delta T/\Delta y.s.$

Bu yerda: A_t – katalizator izomerlash aktivligi, K_t – transizomerizatsiya tezlik konstantasi; ΔT – transizomerlar miqdorining oshishi, %; ΔL – yog‘ glitseridlaridagi linol kislotasi miqdorining kamayishi, %; $\Delta y.s.$ – yog‘ yod sonining pasayishi, %

Yuqori izomerlash qobiliyatiga ega bo‘lgan katalizatorlar uchun K_t/K_l va $\Delta T/\Delta L$ nisbatlar 0,9-1,2 g oraliqda bo‘ladi.

Yog‘larni gidrogenlashda nikel asosidagi katalizatorlar ishlatiladi, shuningdek nikel va mis katalizatorlari ham ishlatiladi. Qo‘sishimcha sifatida xrom, titan, palladiy, platina va boshqa metallar ishlatiladi.

Katalizatorlar strukturasiga ko‘ra kukunsimon va granullangan, qotishma holida bo‘ladi. Kukunsimon katalizatorlar suspenziya (yog‘da) ko‘rinishida ishlatiladi, ularni dispersli yoki suspenziyalangan deyiladi. Qotishma bo‘laklarini kattaligi 10-15 mm bo‘lsa, ularni turg‘un katalizatorlar deyiladi.


Katalizatorlarni yuzasini ko‘paytirish uchun metallarni yuzasi g‘ovakli bo‘lgan materialga cho‘ktiriladi. Bu usul bilan olingan katalizatorni eltuvchili katalizator deyiladi.

Katalizatorlar olinish usuliga qarab ikkiga bo‘linadi.


- cho‘ktirilgan
- qotishmali.

Sanoat katalizatorlari. *Nikel kizelgurlu katalizator.* Bu katalizatorni ishlab chiqarish quyidagi bosqichlarga ega:


5-8 % li NiSO_4 eritmasi tayyorlanadi, bu eritmada 8-12 % kizelgur suspenziyalanadi; 80-90°C haroratda 10-20 % soda (Na_2CO_3) eritmasi bilan kizelgurda nikel karbonatni cho‘ktiriladi.



Yuvish, quritish va cho‘kmani maydalash; 250-300 °C haroratda nikel karbonatni nikel oksidigacha parchalash.



Nikel-mis katalizatorlari. Bu katalizatorlar nikel va mis karbonatlarini birgalikda soda Bilan quyidagi reaksiya bo‘yicha cho‘ktirishga asoslangan.




Yog‘larni gidrogenlaydigan nikel-mis katalizatorlari ikki usulda olinadi: nikel mis karbonatlarini birgalikda cho‘ktirish yoki nikel va mis karbonatlarini mexanik aralashmasiga ammiakning suvli eritmasi bilan ishlov berish.

Nikel va mis karbonatlarining birgalidagi cho‘kmasini olish uchun ularning sulfatlarini nikel:mis 3:1 yoki 1:1 nisbatidagi konsentratsiyasi 35g/l bo‘lgan suvli eritmasi tayyorlanadi. 40-45°S da eritmaga 20-30% ortiqcha miqdori bilan 10% li soda eritmasi qo‘shiladi. Kerak bo‘lganda dastlabki eritmaga asta-sekin eltuvchilar – kizelgur, perlit, aktivlangan ko‘mir qo‘sib boriladi. Cho‘ktirish so‘ngida cho‘kma filtrlanadi va filtrda ortiqcha soda va sulfatlar yuvib tashlanadi. Keyin cho‘kma 120°C dan yuqori bo‘lmagan haroratda quritiladi va maydalanadi.

CHO‘ktirilgan karbonatlar tarkibi cho‘ktirish va quritish sharoitlariga bog‘liq.

CHO‘ktirilgan tiklanmagan katalizatorning asosiy qismini metall karbonatlari aralashmasi tashkil etadi. Masalan, nikel va misning o‘zaro nisbati 2:1 bo‘lgan karbonatning struktura formulasini quyidagicha ifodalash mumkin.



Agar eltuvchida cho'ktirish davom etsa, tiklanmagan katalizatorda eltuvchidan tashqari yana nikel va mis silikatlari ham bo'ladi. Bundan tashqari unda doimo oz miqdorda mis va nikel sulfatlari ham bo'ladi. Agar qoldiq sulfatlar miqdori 1% dan oshib ketsa katalizator aktivligi keskin pasayadi.

Bizning mamlakatimizda ishlatilayotgan kimyoviy toza nikel va mis karbonatlari tarkibi quyidagicha: $\text{Ni}_2(\text{OH})_2\text{SO}_3 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ va $\text{Cu}_2(\text{OH})_2\text{CO}_3$. Ushbu karbonatlarni ishlatishda nikel-mis karbonatli katalizator olish usuli joriy qilinadi va ishlov beriladi. Bunga belgilangan nisbatdagi metall karbonatlari aralashmasiga $30-60^{\circ}\text{C}$ da 30-80% namlikdagi pasta hosil bo'lguncha 10-25% li ammiakli suv bilan ishlov berish kiradi. Eltuvchili katalizator olish uchun pastaga kizelgur, perlit va aktivlangan ko'mir qo'shiladi. Pastaga ishlov berilgandan so'ng harorat $120-150^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarilib quritiladi, keyin sovutiladi, olingan nikel mis karbonatlari kimyoviy tarkibi bo'yicha cho'ktirilgan karbonatlarga o'xshash bo'ladi. Hozirgi paytda bu usul nikel: mis nisbati 1:1 va 1:2 bo'lgan tiklanmagan katalizatorlar olish uchun ishlatilmoqda.

Usul nikel mis aminokarbonatli komplekslari hosil bo'lishiga asoslanadi. Haroratni astasekin oshirilganda bu komplekslar ammiak, SO_2 va suvganajal qaytariladi va nikel-mis karbonatlariga aylanadi. Tayyorlangan katalizatorda ammiakning qoldiq miqdori 1% dan oshmaydi.


Nikel-mis karbonatli katalizatorlarning xususiyati shundaki, bunda nikel metall xoligacha osn qaytariladi. Nikel oksidi faqatgina harorat $400-500^{\circ}\text{C}$ bo'lganda qaytariladi. Mis nikelni qaytarilish haroratini pasaytiradi ya'ni mis oksidi oson qaytarilgani uchun metall holidagi miss hosil bo'ladi, ya'ni nikel-mis karbonatlari $\text{Cu}-\text{NiO}$ sistemaga o'tadi. Misga xemosorbsiyalangan vodorod mis-nikel oksidi ajratish chegarasiga ko'chadi va oxirida qaytariladi. Nikel qaytarilishida ajratuvchi yuza o'lcham bo'yicha o'sib boradi va nikel oksidi qaytarilishi birdaniga ko'payadi. Shuning uchun misli katalizatorlarda nikelning qaytarilishi harorat 260°C ga yetganda tamom bo'ladi.

Misda o'zi gidrogenlash xususiyati kuchsiz, ammo mahsulotlar nikel mis karbonatlariga qaytarilganda metall holidagi mis va nikel oksidi asosiy rol o'ynaydi. Bu o'z navbatida nikel mis katalizatorini moydagi suspenziyasi holida qaytarishga, keyin tiklangan katalizatorni gidrogenlash jarayonida foydalanishga yoki gidrogenlashni to'g'ridan-to'g'ri tiklanmagan katalizator ishtirokida olib borishga imkon beradi.

Tiklanmagan nikel-mis katalizatorlari gidrogenlashni $160-180^{\circ}\text{C}$ da boshlaydi. Aktivligi 80-100% (0,1% nikel), selektivligi 90-93% va izomerlash qobiliyati 0,6-0,8% ni tashkil qiladi.

Tiklanmagan nikel-mis katalizatorlarida quyidagi kamchiliklar mavjud: filtrlanishi past darajada, qayta foydalanilganda aktivligini tez yo'qotadi, yog' kislotalari bilan oson reaksiyaga kirishib salomasda nikelli va misli sovunlar hosil qiladi.

Qotishmali (turg'un) katalizator. Bu katalizatorlar kolonna tipidagi reaktorlarda nikel-mis-alyumin yoki nikel-titan-alyumin va boshqa qotishmalardan olinadi. Bu qotishmalar 45-50% Al, 12-23% Cu 25-45% Ni va turli promotorlar (qo'shimchalar)dan iborat. Qotishma donador (granul) 5-15 mm kattalikda ishlab chiqariladi. Keyin qotishma aktivlanadi buning uchun 3-10% alyumin konsentratsiyasi 3-10% bo'lgan natriy gidroksid eritmasi bilan yuvib tashlanadi.



Ishqor bilan yuvish darajasini ajralib chiqqan vodorod miqdoriga qarab baholanadi. Masalan: 1t qotishmadan 5 % alyuminiy ajratib olishda 30 m^3 vodorod ajrab chiqadi.

Ishqor bilan ishlangandan so'ng, alyuminiyi erishi natijasida, qotishma yuzasi aktiv bo'lib, qoladi. Ishqor bilan yuvilgan qotishma kondensat bilan neytral reaksiyagacha yuviladi, quritiladi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Moylarni gidrogenlash uchun ishlataladigan katalizatorlar.
2. Katalizator harakatining moxiyati.
3. Gidrogenizatsiya bosqichlari.
4. Aktiv markazlar to‘g‘risida tushuncha.
5. Sanoat katalizatorlari.
6. Geterogen kataliz nazariyasi.
7. Katalizatorlarga qo‘yiladigan talablar
8. Katalizatorlarni sinflanishi
9. Katalizator yuzasidagi adsorbsion jarayonlar
10. Katalizatorlarni tayyorlash.

9– MA’RUZA GIDROGENLASH TEKNOLOGIYASI

Reja: Gidrogenlash usullari. Avtoklavning tuzulishi va ishlashi prinsipi. Uzluksiz gidrogenlashning texnologik sxemasi. Turg‘un katalizatorda gidrogenlash. Gidrogenlash jarayonining texnologik rejimlari. Katalizatorni katalizator regeniratsiyasi. Gidrogenlangan yog‘larning sifat ko‘rsatgichlari.

Tayanch so‘z va iboralar: gidrogenlash, uzluksiz usul, avtoklav, regeneratsiya, gidrogenlash rejimi, yog‘sizlantirish, salomas, qaynatish, texnik salomas, qattiqlik, davriy usul, yod soni

Gidrogenlash usullari. Yog‘larni gidrogenlash – suyuq fazali geterogen – katalitik jarayondir. Vodorod va qattiq – suspenziyali yoki turg‘un katalizatorlar ishlataladi.


Gidrogenlash davriy va uzluksiz usullar bilan olib boriladi. Avtoklav orqali o‘tayotgan vodorod harakatining xarakteri jihatdan quyidagi usullarga bo‘linadi:

1. To‘yinish usuli - bunda vodorod reaktor ichida bosim ostida sirkulyasiyalanadi va reaktorga vodorod, uning sarfiga qarab beriladi. Bu usul chet elda keng qo‘llaniladi.

2. Vodorodni tashqi sirkulyasiyalash usuli – bu usulda vodorod reaktorga ortiqcha miqdorda beriladi va avtoklavdan chiqarilib turiladi. Keyin, tozalangandan so‘ng jarayonga qaytariladi. Bu usul MDHda keng qo‘llaniladi.

3. Oquvchi (struevoy) usul – turg‘un katalizator reaktorga joylashtiriladi. Yog‘ning vodorod bilan aralashishi katalizator qatlami orqali o‘tadi.

Gidrogenlash uchun reaktorlar (avtoklavlar) aralashtirgichli va aralashtirgichsiz, kolonna tipidagi reaktorlar ishlataladi.



20 – rasm. Yog‘larni gidrogenlash uchun avtoklav

Avtoklav (20-rasm) Sig‘imi $12,5 \text{ m}^3$ bo‘lgan reaktor kislotaga chidamli po‘latdan yasalgan bo‘lib, sferik qopqoq va taglikdan iborat. Apparat o‘qi bo‘ylab trubinali aralashtirgich bo‘lgan val (1) o‘tgan bo‘lib, reduktor orqali elektromotor (2)ga birkirtilgan. Apparat qopqog‘ida lyuk (3), vodorodni kirishi va chiqishi, katalizator suspenziyasi uchun patrubkalar mavjud. Reaktor ostida apparatni bo‘shatish uchun patrubka (7) joylashgan. Trubinali aralashtirgich ostida vodorod barbateri (6) bo‘lib, uning teshiklari diametri 2mm bo‘lgan halqasimon ko‘rinishidagi ikki trubadan iborat. Trubinali meshalka ustida apparat peremetri bo‘yicha oltita zmeevlikli issiqlik almashgich (4) o‘rnatilgan bo‘lib, ulardan uchtasi gidrogenlashdan oldin moyni qizdirish uchun ishlatsilsa, qolgan uchtasi tayyor mahsulot – salomasni sovitish uchun ishlataladi. Uzluksiz gidrogenlash uchun reaktorda quyish patrubkasi (5) mavjud. Reaktorni isituvchi bug‘ bosimi $2,5-3,5 \text{ MPa}$. Apparatda ruxsat etilgan ishchi bosim $0,5 \text{ MPa}$ gacha va harorat 280°C gacha bo‘ladi

Uzluksiz gidrogenlashning texnologik sxemasi. (21-rasm). Uzluksiz usul bilan gidrogenlash batareyalarida amalga oshiriladi. U uchta avtoklavdan iborat bo‘lib, ular gazlift yoki quyuvchi truba orqali birlashtirilgan.

Rafinatsiyalangan va oqlangan yog‘, (1) yig‘uvchi bakdan (2) nasos dozator bilan uzluksiz ravishda (3) issiqlik almashgich orqali (u yerda tayyor salomasning issiqligi hisobiga isitiladi) (4₁) avtoklav ga keladi. Bu avtoklavda yog‘ yuqori bosimli bug‘ bilan $190-200^\circ\text{C}$ gacha isitiladi.

Avtoklav (4₁) ga ketma-ket ishlovchi yig‘uvchi (15) baklardan (16) nasos dozator bilan uzluksiz ravishda katalizator berib turiladi.

Katalizator, (13) aralashtirgich dagi yangi katalizator va ishlataligan (14) katalizator aralashtirib 1:4 yoki 1:5 nisbatda tayyorlanadi. Katalizator avtoklavga konsentratsiyasi 5% bo‘lgan yog‘li suspenziya shaklida yuboriladi. Yog‘ ikkinchi (4₂) avtoklavga harorat $200-210^\circ\text{C}$, keyin esa uchinchi (4₃) avtoklavga quyiladi, harorat $210-220^\circ\text{C}$ ga teng bo‘ladi.

Tayyor salomas ishlatalgan katalizator bilan birga (12) gazajratgich, issiqlik almashinish (3) apparati orqali salomas yig‘uvchi – tindirish (5) apparatiga keladi, u yerda salomas qisman katalizatordan ajratiladi, keyin (6) sovitgich orqali (7) filtrpressga keladi va katalizatordan ajratiladi. Salomasning harorati oziqaviy salomas uchun 100°C dan, texnik salomas uchun $120-130^\circ\text{C}$ dan oshmasligi kerak.

Filtrlangan salomas (8) bakda yig‘iladi. Ajralgan vodorod gaz ajratgichdan gaz tozalash sistemasiga yuboriladi, u ikkita markazdan qochma tomchi (17,20) ajratgich suvli va ishqorli (18,19) skrubberlardan iborat. (19a) Apparat da ishqor tomchisini ajratish uchun. Rashig xalqasi tuzilishida nasadka bor. Tozalash sistemasidan ishlatalgan vodorod (21) aralashtirgichga keladi, u yerda yangi vodorod bilan aralashtiriladi. Bu aralashma (21) aralashtirgichdan (22) kompressor bilan yuqori bosimli (23) ressiverga yuboriladi, u yerdan (24) sovitgichdan rassol bilan $3-5^\circ\text{S}$ gacha sovitiladi va suv (25) ajratgich orqali (4₁;4₂;4₃) avtoklavlarga keladi. Siqish va sovitish orqali vodorod quritiladi. Suv miqdori $25-40 \text{ g/m}^3$ dan 3 g/m^3 gacha kamayadi.

21 – rasm. Uzluksiz gidrogenlashning texnologik sxemasi


Agar kerak bo'lsa, gidrogenlanayotgan yog'ni sovuq yog' bilan (9) bakdan (10) nasos yordamida (11) sovitgich orqali sovitiladi.

Avtoklavdan avtoklavga yog' gazlift yordamida o'tadi. Gazliftda ishchi gaz vodorod hisoblanadi. Gazlift ikkita bir-birini ichiga qo'yilgan truba bo'lib, u avtoklav tagigacha tushgan bo'ladi. Ichki truba orqali vodorod yuboriladi, bu trubaning pastki qismida mayda teshikchalar bor. Vodorod yog' bilan aralashib, kichik solishtirma og'irlilikdagi aralashmani hosil qiladi. Shuni hisobiga trubadagi yog' ko'tariladi va biriktiruvchi truba orqali keyingi avtoklavga quyiladi. Yog' quyilishining tezligi vodorod uzatilishini o'zgarishi bilan nazorat qilinadi. Gazliftda yog' katalizator bilan yanada yaxshiroq kontaktda bo'ladi, bu esa yog'ning to'la to'ynishiga olib keladi.

Davriy usulda gidrogenlash 22-rasmida ko'rsatilgan.

Sexga kirayotgan moy dastlab 1-bakda yig'iladi. So'ng 2-nasos orqali 3-isitgichda isitilib, 4-bakga uzatiladi. 4-bakning ishchi hajmi 10 t bo'lib, undagi moy vodorod bosimi yordamida 5-avtoklavga uzatiladi. Avtoklavlardagi moy zmeyeviklarga berilayotgan suv bug'i orqali qizdiriladi. Avtoklavdagi harorat $115\text{-}120^{\circ}\text{C}$ ga yetganda 12-arashtirgichdagi katalizator beriladi.

So'ng aralashtirgan holatda, harorat 130°C ga yetguncha qizdirilib, vodorod berila boshlanadi. Harorat 180°C ga yetganda zmeyevikka berilayotgan suv bug'i to'xtatiladi va avtoklav ichidagi harorat ekzotermik reaksiya issiqligi hisobiga 200°C ga yetguncha aralashtirib turiladi. Kerakli ko'rsatkichlarga ega salomas tayyor bo'lgandan so'ng, avtoklav bug' ko'ylagiga sovuq suv berilib, $100\text{-}120^{\circ}\text{C}$ gacha sovitiladi. Sovutilgan salomas vodorod bosimi ostida 6-arashtirgich-tindirgichga uzatiladi. U yerda salomasga oqlovchi tuproq qo'shib aralashtiriladi. Aralashtirish jarayonida salomas biroz soviydi. So'ng aralashma 7-nasos orqali 8-filtrlarga berilib, filtrlanadi. Filtrlangan salomas 9-bakka yig'iladi. U yerdan 14-nasos yordamida bak xo'jaligiga yuboriladi.



22 – rasm. Davriy usulda gidrogenlashning texnologik sxemasi.

Agar filtr yangi tozalangan bo’lsa, unga berilgan dastlabki salomas xira chiqadi. Ana shu vaqtida chiqqan dastlabki salomas filtrdan sirkulyatsion 10-bakka beriladi va undan 11-nasos yordamida yana filtrga qaytariladi.

Avtoklav ichidagi vodorodning bir qismi 4-bakdagи moyni chiqarish uchun, bir qismi esa 12- aralashtirgichdagi katalizator suspenziyasini chiqarish uchun beriladi. Bak va aralashtirgichdagi vodorodlar 13-moy tutgichlarda moyi tutib qolinib, atmosferaga chiqarib yuboriladi. 13-moy tutkichiga sexdagи maxsus bakdan suv berilib, vodorodli aralashmaga purkaladi. Hosil bo’lgan suv moy aralashmasi moy ajratkichga yig‘iladi va moy ajratib olinadi.

Avtoklavlardagi salomas bo’shatilgach, ular moy bilan to’ldirib qo’yiladi.

Gidrogenlash jarayonining texnologik rejimlari. Gidrogenlash rejimi gidrogenlanadigan xomashyoni sifati va yog’ kislota tarkibiga, salomas, gidrogenlash qurilmasi va katalizatorni turiga bog‘liq bo’ladi.

Marginin mahsulotlari uchun mo’ljallangan salomas odatda uzlusiz usul bilan avtoklav batareyalarida 0,05-0,2 MPa bosim ostida kukunsimon nikel-mis katalizatori ishtirokida olinadi.

Past titrli va yuqori titrli texnik salomaslar ham shu sharoitda olinadi.

10 -jadval

Texnologik rejimlar

Ko’rsatkichlar	Salomas			
	oziqaviy		texnik	
	1-marka	2-marka	1-marka	2-marka
Qurilma unumдорлиги, t/soat	6-8	6-8	4-6	3-5
Harorat, °C (maksimal)				

1-nchi avtoklav	200	200	200	200
2-nchi avtoklav	210	220	220	230
3-nchi avtoklav	220	230	230	240
Qurilmaga berilayotgan vodo-rod miqdori, m ³ /soat	700-1000			700-1000
Gidrogenlanayotgan yog'dagi nikelning massa ulushi, %	0,1-0,2	0,2-0,4	0,2-0,4	
Ishlatilayotgan va yangi katalizatorning nisbati	4:1	5:1	4:1	3:1
Gidrogenizatning o'rtacha erish harorati, °C				
1-nchi avtoklav	23	27	30	34
2-nchi avtoklav	27	30	37	42
3-nchi avtoklav	32	34	42	48

Qandolatchilikda ishlatiladigan salomas davriy usulda avtoklavlarda gidrogenlash bilan quyidagi texnologik rejimda ishlab chiqariladi.

Avtoklavga beriladigan paxta yog'ining miqdori, t	6
Yog'dagi nikelni massa ulushi, %	0,25-0,35
Ishlatilgan va yangi katalizatorni o'rtacha nisbati	8:2
Jarayonni boshlang'ich harorati, °C	190-210
Maksimal harorati, °C	220
Avtoklavga berilayotgan vodorod miqdori, m ³ /soat	120-240
Gidrogenlashni o'rtacha davomiyligi, soat	2,5

Gidrogenlashni barqaror sharoitida xomashyoning to'yinmaganlik darajasi, bir maromda, salomasni ko'rsatkichlarini o'zgarishiga mos holda, kamayib boradi. Bu, jarayonni vodorod sarfi va salomasni ko'rsatkichlaridan biri erish harorati yoki nur sindirish ko'rsatkichi bo'yicha nazorat qilish hamda borishini rostlab turishga imkon beradi.

Katalizatorning regeneratsiyasi. Ishlatilgan katalizatorning regeneratsiya jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat.

- 1) yog'sizlantirish;
- 2) qaynatish
- 3) eritmani tozalash
- 4) cho'ktirish


Ishlatilgan katalizatorda yog' miqdori 60-90 % oralig'ida bo'ladi.

Yog'sizlantirish. 6 m³ sig'imli avtoklavlarda soda (Na₂CO₃) ning 5% li eritmasi bilan olib boriladi. 105-107°C gacha isitiladi va aralashtirilgan holda (50-60 ayl/min) 3-4 soat davomida ushlab turiladi.

Keyin avtoklavga 1,6m³ issiq NaCl eritmasi quyiladi, 30 min. davomida aralashtirib, 6-8 soat tindiriladi. Yog'li qatlam bakka quyiladi, o'rta-tuzli qatlam soapstok yig'uvchi bakga quyiladi. Quyi qatlam – katalizatorni esa 3-4 marta issiq suvda yuviladi, bunda yuvilgan suvdagi ishqor 2-3 g/l bo'lishi kerak. 1 t ishlatilgan katalizatorga 2m³ Na₂CO₃ eritmasi qo'shiladi.

Qaynatish. Bu jarayon chanlarda amalga oshiriladi, bunda katalizator H₂SO₄ bilan 6-8 soat davomida qaynatiladi. Nikel-mis katalizatorini temir gidrat oksidi ishtirokida qaynatiladi. Qaynatish vaqtida NiSO₄ va CuSO₄ tuzlari hosil bo'ladi. Bu tuzlar eritmasida temir tuzlari bor. Shuning uchun ularni tozalash kerak.

Tozalash. Bu jarayon gipoxlorid natriy-javel suvi bilan amalga oshiriladi. Bunda quyidagi reaksiyalar sodir bo'ladi.



Tozalangan eritma filtrpresslarda filtrlanib va cho'ktiruvchi changa yuboriladi. U yerda soda (Na_2CO_3) bilan cho'ktiriladi.

Gidrogenlangan yog'larni sifat ko'rsatkichlari. Sanoatda ishlab chiqqa-rilayotgan gidrogenlangan yog'lar oziqaviy va texnik salomaslarga bo'linadi. Oziqaviy salomas olish uchun yuqori sifatlari o'simlik moylari va eritilgan mol yog'laridan foydalaniadi.

11-jadval

Oziqaviy salomas

Ko'rsatkichlar	Salomas markasi			
	1	2	3	4
T_{er} , $^{\circ}\text{C}$	31-34	32-36	35-37	42-45
Qattiqligi, g/sm 15°C da	160-320	160-320	500-700	Aniqlanmaydi
Qattiq triglitserid miqdori, 20°C da	29-37	29-40	>45	Aniqlanmaydi
Yod soni, % J_2	70-85	70-85	60-70	Aniqlanmaydi
Kislota soni, mg KON, ortiq emas	1,0	1,0	2,0	3,0

1 – margarin mahsulotini ishlab chiqarish uchun salomas, o'simlik yog'larini gidrogenlab olinadi.

2 – margarin mahsulotini ishlab chiqarish uchun salomas, o'simlik va mol yog'i aralashmasini gidrogenlab olinadi.

3 – qandolatchilik uchun salomas, paxta yog'ini gidrogenlab olinadi.

4 – qandolatchilik uchun salomas, palma yadrosi yog'ini gidrogenlab olinadi.

12-jadval

Texnik salomas

Ko'rsatkichlar	Salomas markazi					
	1	2	3	4	5-3	6
Yod soni, % J_2 , ortiq emas	65	65	65	55	17	1
Titr, $^{\circ}\text{S}$	39-43	39-43	46-50	46-50	58	54
Kislota soni, mg KON, ortiq emas	3,5	Aniqlanmaydi	5	Aniqlanmaydi	6	3
Nikel miqdori, mg/kg, ortiq emas	20	60	20	60	20	20

1 – o'simlik va mol-yog'laridan olingan salomas (atirsovun uchun)

2 – soapstokning distillangan yog' kislotalaridan olingan salomas (atirsovun uchun)

3 – O'simlik va mol yog'laridan olingan salomas (xo'jaliksovuni uchun)

4 - soapstokning distillangan yog' kislotalaridan olingan salomas (xo'jaliksovuni uchun)

5,6 – o'simlik va mol yog'laridan olingan salomas (stearin uchun).

Takrorlash uchun savollar.

1. Yog'larni gidrogenlash usullari.
2. Moylarni gidrogenlash texnologiyasini parametrlari.
3. Moylarni avtoklavlarda gidrogenlash.
4. Gidrogenlashga bosim va haroratni ta'siri.
5. Turg'un katalizator ishtiroqida gidrogenlash.
6. Katalizatorni regeneratsiya qilish.
7. Gidrogenlangan yog'larning ko'rsatkichlari.
8. Uzluksiz gidrogenlashning texnologik sxemasi
9. Gidrogenizatsiya rejimi.
10. Gidrogenlash uchun reaktorlar.

10– MA’RUZA VODOROD ISHLAB CHIQARISH

Reja: Vodorod ishlab chiqarishning sanoat miqyosidagi usullari. Vodorod ishlab chiqarish texnoloik sxemasi. Vodorodni saqlash.

Tayanch so‘z va iboralar: vodorod, elektroliz, anod, temir bug‘, elektrolizyor, gazgolder, konversiyalash, katod

Vodorod eng ko‘p tarqalgan kimyoviy element hisoblanadi. Tabiatda faqat bog‘langan holatda uchraydi. Massalan: suvda 11% bog‘langan vodorod, tabiiy gaz va neft uglevodorodlarida esa 25%ni vodorod tashkil etadi.

Yuqorida qayd etilgan mahsulotlar vodorod ishlab chiqarishning asosiy xom ashyolari hisoblanadi.

Vodorod zaharli emas, rangsiz, eng yengil gaz hisoblanadi. Atmosfera bosimida 0°S haroratda vodorod zichligi $0,09 \text{ kg/m}^3$ vodorodning havo bilan portlash chegarasi (hajmiy foizda) pastki chegarasi – 4%, yuqori chegarasi – 75% ni tashkil etadi.

Vodorod qiyin eriydigan gazlar jumlasiga kiradi, ya’ni moy, yog‘ va yog‘ kislotalarida erish harorat va bosim ko‘tarilishi bilan oshadi.

Gidrogenlashga vodorodninig nazariy sarf miqdori V_t (m^3/t yog‘da) quyidagi formula bilan ifodalananadi.

$$V_t = 0,8825 (Y.S_b - Y.S_0)$$

$Y.S_b$ va $Y.S_0$ – gidrogenlanlanayotgan yog‘ning boshlang‘ich va oxirigi yod sonlari .

Korxonalarda salomas ishlab chiqarishda vodorodning sarf miqdori ancha ko‘proq bo‘ladi, chunki vodorodning ma’lum miqdori gidrogenizatsiya uskunalarini davriy ravishda tozalash jarayonida ancha miqdori atmosferaga chiqib ketadi, xamda kommunikatsiya, uskunalarini zinch mahkamlanmaganligi va salomas bilan ham yo‘qotiladi.

Amaliy vodorodning sarf miqdori V_f (m^3/t yog‘)ga teng

Ozuqa salomasi ishlab chiqarishda

$$V_f = (0,95 \div 1,1) (Y.S_b - Y.S_0),$$

Texnik salomas ishlab chiqarishda

$$V_f = (1,05 - 1,2(Y.S_b - Y.S_0))$$

Vodorod ishlab-chiqarishning sanoat miqyosidagi usullari. Texnik vodorod 3 xil usulda ishlab chiqariladi:


1) temir bug‘ usuli (kontaktli)

2) konversiya usuli


3) elektrolytik usuli

Temir bug‘ usuli (kontaktli)

Temir bug‘ usuli bilan vodorod olish Fe metallini suv bug‘i yordamida oksidlanish reaksiyalariga asoslangan.




Umumiy ko‘rinishda quyidagi tenglama bilan yozish mumkin




Hosil bo‘lgan temir oksidi suv gazi yordamida temir metall holatiga qaytariladi.



Yoki umumiy ko‘rinishda quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin



Temir oksidini suv gazi yordamida kayrarilish reaksiyasi kuyidagi tenglama bilan ifodalananadi



Hosil bo‘lgan temir metallini hil qaytadan suv bug‘i bilan oksidlanadi. Vodorod ishlab chiqarish jarayoni ikki fazada olib boriladi.

1. Temir suv bug‘i bilan vodorod hosil qilinadi.


2. Hosil bo‘lgan temir oksidi suv bug‘i yordamida temir holatiga qaytariladi. Temir – bug‘ usuli bilan vodorod ishlab-chiqarish navbatma-navbat kechadigan oksidlanish – qaytarilish jarayonlaridan iborat.

Tabiiy gazni konversiyalash usuli bilan vodorod olish.

Metan neftga hamroh gazlarining asosiy qismini tashkil etadi. Konvertorlarda nikel, magniy oksid yoki kobalt katalizatorlari ishtrokida $1000\text{-}1100^{\circ}\text{C}$ haroratda metan gazi suv bug‘i yordamida oksidlanadi.



Hosil bo‘lgan gaz bosim ostida bilan etanolamin eritmasi bilan yuvish jarayonida CO gazidan tozalanadi. 500°C haroratda CO gazi temirxrom katalizator yordamida bug‘ yordamida CO_2 gaziga aylantiriladi.




Suvni elektroliz qilish bilan vodorod ishlab-chiqarish.


Elektrolitning suvli eritmasiga joylashtirilgan 2ta elektrod (katod va anod) elektroliz apparatini hosil qiladi (elektrolitik yacheykalar). Elektrodlarga doimiy kuchlanish berilsa, elektrokimyoviy reaksiyalar ya’ni oksidlanish-qaytarilish jarayonlari kechadi. Suvning sanoat korxonalarida vodorod va kislardoga elektrolitik parchalanishida ishqoriy elektrolit eritmalaridan foydalaniladi. (KON-gidroksid kam holatda, NaON – natriy gidroksid).

Ishqoriy elektrolitik eritmalaridan elektr toki o‘tkazilganda qo‘yidagi reaksiya kechadi.


Katodda suvning qaytarilish jaraenida molekulyar (H_2) va gidroksid ioni hosil bo‘ladi.




bilan gidroksid ionii oksidlanib, suv va molekulyar kislardan (O_2) hosil bo‘ladi.



Elektrokimyoviy jarayon tenglamasi quydagicha.



Elektrolitik yacheyka sxemasi quydagicha



Elektrolitik yacheykadagi katod 2 va anod 3 da hosil bo‘lgan gazlarni ajratib olish uchun, anod, katod qismlarini g‘ovakli to‘siq (diagramma) 1 bilan to‘siladi. To‘siqdan suv, elektrolit ionlari o‘ta oladigan, lekin gaz xolatidagi moddalar o‘ta olmaydirgan bo‘lishi kerak. Elektrolitik yacheykalardan 1 A.soat tok o‘tkazilganda bilan $419 \cdot 10^{-6} \text{ nm}^3 \text{ N}_2$, bilan $209,5 \cdot 10^{-6} \text{ nm}^3 \text{ O}_2$ hosil bo‘ladi. Hozirgi zamon elektrolizerlari elektr tokining foydali ish koefitsienti 0,95- 0,98ga teng. Elektr tokini qolgan qismi qo‘shimcha elektrokimyoviy jarayonlarga sarf bo‘ladi.

Suvni eletroliz qilganda ajralib chiqqan gazlarning miqdori (m^2 da) quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$H_2 = 419 \cdot 10^{-6} b I N\tau$$


$$O_2 = 209,5 \cdot 10^{-6} b I N\tau$$

Bu yerda b – tokga nisbatan gaz chiqishi (har bir elektrolizer uchun tajriba yordamida aniqlanadi); I – tok kuchi, A; N – elektrolizerdagи elektrolitik yacheykalar soni; τ – elektrolizerni ishlash vakti, soat.

Gidrogenizatsiya zavodlarda FV-250 va FV-500 elektrolizerlar ishlataladi. Quvvati 250, 500 nm^3 H_2 ishlab chiqaradi.


Elektrodlarni doimiy kuchlanish manbasiga ulash usuliga qarab elektrolizer FV bipolyar hisoblanadi.

Bipolyar elektrodni ulash sxemasi.



Yuqoridagi rasmda ko'rsatilgandek kuchlanish oxirgi elektrodlar 2 va 5ga beriladi, ular monopolyar bo'ladi, hamda katod va anod bo'lib xizmat qiladi. Oraliqda elektrodlar ketma-ket ulangan yacheykalar bipolar hisoblanadi. Elektrodnning anodga qaragan tomoni manfiy zaryadlanadi va katod hisoblanadi. Elektrodnning katodga qaragan tomoni musbat zaryadlanadi va anod bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib har bir elektrod qo'shni yacheykalarni bo'laklarga bo'ladi va biriga katod bo'lib, ikkinchisiga anod sifatida xizmat qiladi. Yacheyka ichki qismidagi katod va anod bo'shliqlari diafragma 3 ramaga maxkamlangan diafragma 4 to'siq bilan bo'lingan. Elektrolit eritma yaxshi aylanishi hamda gazlar tez ajralishi uchun katod, anod yuzasi diametri 6 mm teshiklar teshilgan.



Bipolyar elektrod konstruksiyasi.


O'rtada joylashgan po'lat taxta 2 (asosiy) qo'shni elektrolitik yacheykalarni bo'laklarga bo'ladi. Olinadigan 1 va 3 lar elektrodlar 4 ankerlar yordamida maxkamlanadi. Po'lat taxta 2 pastki qismida 2 ta diametri 15 mm o'yiq bo'lib, elektrolit eritmasining bir yacheykadan ikkinchisiga oqib o'tishini ta'minlaydi. Asosiy po'lat taxta anod tomoni nikellanadi. Katod esa oddiy uglerodli po'latdan yasaladi.

Vodorodni saqlash. (24-rasm). Gidrozavodlarda vodorod 2.7-3.6 kPa bosim ostida xajmi 3000 m^3 gacha bo'lган ho'l gazgolderlarda saqlanadi. Gazgolder qalpog'ining ko'tarilish balandligi gazgolderdagи vodorod miqdoriga bog'liq. Yuqori chegaralovchi sath shunday o'rnatiladiki, bunda qalpoqning pastki qismi suv basseyniga 0,2-0,3 m botirilgan bo'lishi kerak.

Suv bilan to‘ldirilgan temir beton hovuz ustida suv yuzasiga ochiq tomoni bilan o‘rnatilgan qo‘ng‘iroq, suvli gazgolderning asosiy qismi hisoblanadi. Gaz sexdan bosim ostida 4 quvur orqali beriladi va qo‘ng‘iroq asta – sekin suvdan ko‘tariladi. Qo‘ng‘iroqning suvdan qancha ko‘tarilishi gazgolderga yig‘ilgan gaz hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Eng yuqori sathida qo‘ng‘iroqning pastki qismi suvgaga 0,2 – 0,3 m cho‘kib turishi kerak. Shu orqali H₂ gazini orqali atmosferaga chiqishini oldi olinadi. Gazgolder H₂ gazidan tozalash uchun qo‘ng‘iroqning ustidagi ventil orqali olib boriladi.

Gazgolderdan vodorod 9 va 7 quvurlar orqali chiqadi. Quvurlar 4 va , hamda 3 va 9 lar gidravlik zatvor 6 orqali ulangan. Ishchi holatda gidravlik zatvorlar bo‘sh bo‘ladi. Elektrolizer uzoq muddat ishlashi uchun (10 – 20 yil) distilangan suv ishlatish kerak. uning tarkibida temir, xlor, va karbonat tuzlari bo‘lishi mumkin emas.

Yuqoridagi tuzlarning yig‘ilib qolishi elektrolizer elementlarini korroziyaga olib keladi. Ishqoriy eritma tayyorlashda toza kimyoviy kaliy ishqorini ishlatish kerak. elektrolizerlarning chidamligini oshirish uchun 1 m³ elektrolit eritmasiga 2 – 3 kg bixromat solinadi.



24 – rasm. Gazgolder

Vodorod ishlab chiqarish texnologik sxemasi. (25-rasm). Distillangan suv (2)distillyatordan (3) kondensat yig‘uvchiga kelib tushadi, u (4) yerdan nasos bilan (5) bakga yuboriladi. (5) bakdan suvning bir qismi (6) boshqa bakga yuboriladi, u yerda konsentratsiyasi 29% yoki 320-380 g/l bo‘lgan KON eritmasi tayyorlanadi va (1) elektrolezerga yuboriladi. (7) bak elektrolyzer remonti va avariya holatda bo‘lganda KON eritmasini tushirib olish uchun xizmat qiladi. Elektrolezerga doimiy elektr toki to‘g‘rilovchi (выпрыгиватель) asbob orqali keladi. Elektroliz 80-85°C haroratda amalga oshiriladi.

Olingan vodorod va kislorod gaz kanallariga keladi, keyin (12) kondensator da sovitiladi. Kondensatordan vodorod va kislorod (13) gaz yig‘uvchiga kelib bil sovitiladi va yuviladi, keyin esa (9,10) gidrozatvorlarga orqali vodorod gazgolderga yuboriladi, kislorod esa o‘zini gazgolderiga yoki atmosferaga chiqarib yuboriladi. Gidrozatvorlar vodorod va kislorod sistemalariga bir xil bosim berib turadi.

25 – rasm. Elektrolitik usulda vodorod ishlab chiqarishni texnologik sxemasi

Takrorlash uchun savollar

1. Vodorod ishlab chiqarishning zarurligi.
2. Vodorod ishlab chiqarishning usullari.
3. Suvni elektroliz qilish usuli bilan vodorod olish.
4. Vodorodni saqlash.
5. Temir-bug‘ usulida vodorod ishlab chiqarish
6. Tabiiy gaz konversiyasi bilan vodorod ishlab chiqarish
7. Elektrolizerda N₂ olish texnologik sxemasi.
8. Elektroliz usulida elektrolit sifatida nima ishlataladi?
9. Elektroliz usulida qancha elektroenergiya sarf bo‘ladi?
10. Elektroliz usulida H₂ olishning yutug‘i.

11 – MA’RUZA MARGARIN ISHLAB CHIQARISH VA RESEPTURA TUZISH. SUT VA KOMPONENTLAR TAYYORLASH

Reja: Margarin mahsulotlari assortimenti. Margarin ishlab chiqarish hom ashyo va yordamchi mahsulotlari. Margarinning yog‘li qismini tanlash va retseptura tuzish. Emulsiya haqida tushuncha.

Tayanch so‘z va iboralar: Margarin, kulinariya yog‘i, sutli margarine, sutsiz margarine, emulsiya, qandolat yog‘i, aromatizator., tuz, sut, shakar, emulgator, vitamin, rangli modda, pasterizatsiya, retseptura, ivitish, aromatizatorlar, sterelizatsiya, komponentlar

Margarin sariyog‘ga o‘xshash yog‘ sifatida 1869 yilda fransuz kimyogari Mej-Mure tomonidan ishlab chiqarilgan. U eritilgan mol yog‘ining tez eriydigan qismini sigir oshqozonidagi zardob yordamida emulsiyalashni taklif etdi. Hosil bo‘lgan aralashmani yaxna suvda sovutilganda yarim qattiq, och sariq rangli yaltiroq donachalar hosil bo‘ldi. Mej-Mure ularni margarin deb atadi, bu (margjaret – fransuzcha – marvarid) marvarid ma’nosini bildiradi.

Margarin – bu mayda zarrachali emulsiya bo‘lib, uning tarkibiga: yog‘lar, sut, tuz, shakar, vitaminlar, fosfatidlar, emulgator va boshqalar kiradi.

Birinchi margarin zavodlari MDHda 1930 yilda Moskva va Sankt-Peterburgda ishga tushirilgan. Hozirgi vaqtida MDHda 38ta zavod faoliyat ko'rsatmoqda va yiliga 1 mln. 400 ming tonnadan ko'p margarin mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda, Respublikamizda Toshkent yog'-moy kombinatida qattiq va yumshoq margarin tayyorlanmoqda.

Moylarning oziqa qiymati ularning energetik qiymati va fiziologik ta'siri orqali aniqlanadi. Margarin kishi organizmiga singishi jihatidan sut yog'idan past emas va energetik qiymati jihatidan esa undan yuqori turadi. Buni quyidagi 13-jadvaldan ko'rish mumkin.

13-jadval

Yog'larni energetik qiymatlari

Yog'lar	O'rtacha energetik qiymati, kJ	Kishi organizmiga singishi, %
Sut yog'i	38,64	93-98
Paxta moyi	39,48	95-98
Kungaboqar moyi	39,23	95-98
Qo'y yog'i	38,84	74-84
Mol yog'i	38,84	75-83
Sariyog'	32,51	93-98
Margarin	32,61	93-98

13-jadvaldan ko'rinish turibdiki, margarin organizmiga singishi bo'yicha sariyog'dan qolishmaydi, energetik qiymati bo'yicha esa undan ustun turadi.

Ma'lumki, mayda zarrachali emulsiya holatidagi yog'lar kishi organizmiga yaxshi singadi. Bunga yog'learning suyuqlanish harorati, mazasi va hidi ham ta'sir etadi. Shu sababli, margarin uchun ishlatiladigan yog'lar aralashmasi shunday tanlab olinadiki, tayyor mahsulotning erish harorati $31-34^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo'lmasligi kerak. Margarinda mavjud bo'lgan essensial (to'yinmagan) yog' kislotalari uning fiziologik qiymatini oshiradi. Yog'lar va ulardan olingan mahsulotlarni oziqaviy qiymati, yog'larni yog' kislota va glitserid tarkibiga, ularda fosfatidlar, yog'da eruvchi vitaminlar, sterollar, karotinoidlar va boshqa fiziologik faol moddalarni borligiga bog'liq bo'ladi.

Ko'p yillik biologik tadqiqotlar natijasida modda almashinishi buzilgan va ateroskleroz bilan kasallangan kishilarga mo'ljallangan dietik oziqa yog'lari tarkibida 40% gacha linol kislotosi bo'lishi zarurligi aniqlangan. Tabiiy o'simlik moylari suyuq bo'ladi, bu holat ularni ishlatish sohasini chegaralaydi, ayniqsa novvoylik va qandolat sanoatida ulardan foydalanib bo'lmaydi. Margarin bu kamchilikdan holi bo'lib, retseptura va tayyorlash texnologiyasini o'zgartirib, turli sohada ishlatiladigan mahsulot olish mumkin.

Margarin mahsulotlarining assortimenti. Margarin mahsulotlari quyidagilarga bo'linadi:

1.margarinlar (bu yog' va sut yoki suv emulsiyasi) tarkibidagi yog'ning miqdori 82 % dan kam bo'lmasligi kerak. (sutli margarinlar).

2. yog'lar (qandolat, non mahsulotlari va oshpazlik uchun), yog'ning miqdori 99,7 % gacha bo'ladi.

Ishlatilishiga va retsepturaga qarab margarinlar quyidagi guruhlarga bo'linadi: oshxona va sara (buterbrod) margarinlar; sanoatda qayta ishlash va umum ovqatlanish tizimi uchun; maza kirituvchi qo'shimchalar qo'shilgan (yog'liligi 62 % dan kam bo'lmasligi kerak) margarinlar. Margarinlar qattiq, yumshoq va suyuq holatda bo'lishi mumkin. Yumshoq margarinlar buterbrod yog'i sifatida ishlatiladi. Suyuq margarinlar non mahsulotlari, unli kandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Oshxona guruhidagi margarinlardan buterbrod mahsulotlari sifatida shuningdek, qandolat va kulinar mahsulotlari tayyorlash uchun ham foydalaniladi. Oshxona (sutli) guruhidagi "Noviy", "Era" sariyog'li margarinlari tarkibidagi yog' miqdori 82% dan kam bo'lmagan holda tayyorlanganadi.

Sara margarinlar tarkibida turli yog'lar salomasni bir nechta turi, kokos yoki palmoyadro moyi, pereeterifikatsiyalangan yog'lar va boshqa qo'shimchalar mavjud.

Past kalloriyalı margarinlar "Stoloviy", "Raduga", "Solnechniy", "Gorodskoy" tarkibida 40% dan 75% gacha yog', shu jumladan 23-40 foizi suyuq o'simlik moyidan tayyorlangan har xil

qotish va erish haroratiga ega bo‘lgan oziqa salomasi bilan pereeterifikatsiyalangan yog‘ bo‘ladi. Bularidan tashqari tarkibida pereeterifikatsiyalangan yog‘ va fosfatid konsentrati bo‘lgan “Zdorove” parxez margarinlari ham ishlab chiqariladi.

Margarinlar qandolatchilik, non mahsulotlari sanoati va umumiy ovqatlanish tizimi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, tarkibida yog‘ miqdori 82% dan kam bo‘lmaydi. Maza kirituvchi moddalar bor margarinlar (shokoladli) tarkibida kakao-poroshok, ko‘p miqdorda shakar bo‘ladi va ular qandolat mahsulotlar tayyorlash uchun ishlatiladi. Qandolat yog‘lari quyidagi assortimentda ishlab chiqariladi: pechene, shokolad va vafli mahsulotlari uchun keks tayyorlash uchun pereeterifikatsiyalangan yog‘lar asosidagi qattiq yog‘lar pereeterifikatsiyalangan. Non mahsulotlari uchun ishlatiladigan yog‘lar fosfatid qo‘silib suyuq holatda tayyorlanadi.

Kulinar yog‘lari turli tarkibga ega bo‘lib quyidagi komponentlardan iborat: salomas, pereeterifikatsiyalangan yog‘, o‘simlik moyi. Ba’zi kulinar yog‘lar tarkibiga mol yog‘i ham qo‘shiladi.

Margarin ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyolar. Margarin ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo yog‘ va sut hisoblanadi. Margarinning organoleptik va strukturaviy xususiyatlari uni tarkibidagi yog‘ning sifati bilan baholanadi. Yog‘da aromatik va ta’m beruvchi, bo‘yovchi moddalar va erkin yog‘ kislotalarini bo‘lishi uni asosida yuqori sifatlari margarin olishga yo‘l qo‘ymaydi.

Shu tufayli margarin olish uchun foydalaniladigan hamma yog‘lar to‘liq ravishda rafinatsiyalangan, oqlangan, dezodoratsiyalangan bo‘lishi va kislota soni 0,3mg KOH dan yuqori bo‘lmasligi kerak.

Yog‘li xomashyo. O‘simlik moyi asosiy xomashyo bo‘lib, suyuq va gidrogenlangan (salomas) holda ishlatiladi. Bu maqsadda kungaboqar, paxta, raps va soya yog‘i keng qo‘llaniladi. Yuqorida ko‘rsatilgan yog‘lardan tashqari paxta yog‘idan 6-8⁰Sda ajratib olingan erish harorati 19-25⁰S bo‘lgan paxta palmitini hidsizlantirilgan holda qo‘llaniladi. Margarin mahsulotining retsepturasidagi asosiy komponent – gidrogenlangan yog‘lardir. Ularni asosiy sifat ko‘rsatkichlarini quyidagilar tashkil qiladi: ranggi, erish harorati, organoleptik ko‘rsatkichlari, qattqlik va mahsulot plastikligi.

Hayvon yog‘laridan sariyog‘, eritilan mol yog‘i va qo‘y yog‘i ishlatiladi. Qoramol yog‘laridan faqat oliy navli margarin olishda qo‘llaniladi. Yoqimsiz hid va ta’mga ega bo‘lgan sariyog‘dan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Hayvon yog‘lari yoqimsiz hid va ta’mga ega bo‘lmasligi kerak va oziqa mol yog‘larining kislota soni 1,1 mg KON dan yuqori bo‘lmasligi kerak. Shu bilan birga hayvon yog‘lari tabiiy holda yoki pereeterifikatsiyalangan va gidropereeterifikatsiyalangan holida ham qo‘llaniladi.

Sut. Margarin mahsulotining muhim komponenti hisoblanadi, u margaringa yoqimli ta’m va hid beradi, uning oziqaviy qiymatini oshiradi. Margarin ishlab chiqarish uchun yangi, pasterizatsiyalangan, sut achitqilari bilan ivitilgan yoki limon kislotosi bilan koagullangan sutdan foydalaniladi. Pasterizatsiyalangan va biologik ivitilgan sut margarinning retsepturasiga bog‘liq holda qo‘siladi.

Ivitilgan sut nafaqat margarin ta’mini yaxshilaydi, balki uning saqlanish muddatini ham oshiradi. Suv-sut fazasini muhitni margarinda rN=3,0-5,5ga teng bo‘lishi lozim. Bunday kuchsiz kislotali muhit margarinni saqlashda keraksiz mikrobiologik jarayonlar sodir bo‘lishini oldini oladi.

Sof sut murakkab kimyoviy tarkibga ega bo‘lib, u qoramol zotiga, uni boqish rejimi va ozuqasiga bog‘liq. Sutda tirik organizm uchun kerak bo‘ladigan barcha aminokislotalar mayjud. Fosfoproteinlar gruppasiga kiruvchi kazein miqdori sutdagagi mayjud umumiy oqsillarning 80% ni tashkil etadi. Kazein sutda kalsiy kazeinat ko‘rinishda kolloid hosil qiladi. Bu modda yuqori haroratga chidamli, lekin limon, sut kislotalarida chidamsizdir. Sutdagagi boshqa oqsillardan biri albumindir. Buni kazeindan farqi, tarkibida fosfor saqlamaydi. Albumin sutda yaxshi eriydi, ammo 60⁰S dan yuqori haroratda koagullanadi va qiyin ajraladigan quyindi hosil qiladi. Sutdagagi oqsillar mikroorganizmlar rivojlanishi uchun yaxshi ozuqa muhitni hisoblanadi.

Sut shakari sutning shirin ta'mini oshiradi. Fermentlar, mikroorganizmlar ta'sirida sut shakari gidrolizlanadi va sut kislotasi hosil qiladi. Sutda yog'da eriydigan va suvda eriydigan A, D, B, E va C vitaminlari mavjud. Ular doimiy miqdorga ega emas.

Sut mikrofloraları. Sut mikroorganizmlar rivojlanishi uchun yaxshi muhit hisoblanib, yashash jarayonida ulardan ayrimlari ma'lum darajada uni kimyoviy va biologik tarkibini o'zgartirishi mumkin. Bakterial mikrofloralar asosini bakteriyalar, achitqi(drojji)lar va mog'orlar tashkil etadi.

Bakteriya hujayralari haroratga sezgir bo'lib, sut harorati 60°S dan oshganda ularning ko'p qismi nobud bo'ladi. Ayrim bakteriyalar spora hosil qiladi va 120°C haroratga ham saqlana oladi. Bakteriyalar ichak bakteriyalar, chirituvchi bakteriyalar, moy kislotali va sut kislotali, bijg'ituvchi bakteriyalar gruppalariga ajraydi. Sanitariya nuqtai nazaridan ichak bakteriyalar miqdori fekal ifloslanish ko'rsatkichi hisoblanadi va ayrimlari ichak kasalliklariga olib kelishi mumkin.

Chirituvchi bakteriyalar, sutni sanitariya shartlariga rioya etmagan holda olingen va tashiganda ko'payib, u sutga begona bo'lgan achchiq ta'mni berishi mumkin. Bu guruhning ayrim vakillarga limon kislotani ishlatib, sutning ivish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chirituvchi bakteriyalar oqsillarni parchalaydi va hosil bo'lgan moddalar noxush hid beradi. Bu guruhga aerob bakteriyalarning sporalarini ham kiradi. Ular sutni tez buzadi, hatto kislotaligi oshmagan quyuq massaga aylantirib qo'yadi.

Moy kislotasi bakteriyalari shakar va sut kislotalarini jadal bijg'itadi. Natijada quyundi hidli moy kislotalari hosil bo'ladi. Ular kislotali muhitga sezgir bo'lib, ularning yo'qolishi sutni 100°C dan yuqori haroratgacha qizdirilgandan so'ng yuzaga keladi. Achitqilar sutni ivitish jarayonida shakarni karbonat kislotasi va spirit ajralishi bilan bijg'itishi mumkin. Ivitilgan sutda achitqilarning jadal rivojlanishi, sutda achitqi ta'mini yuzaga keltiradi.

Mog'or hujayralari sutga havodan chang, hayvon junlari va boshqalar bilan tushadi. Mog'orlar bakteriya va achitqilarga nisbatan sekin rivojlanadi. Ular oqsillarni ammiakkacha parchalaydi, ayrimlari yog'larni yog' kislotasi va glitseringacha parchalaydi. Mog'orlar sutni tez aynitadi. Margarin zavodlarida qabul qilingan sut zudlik bilan pasterizatsiya qilinishi kerak. Agar sutni kislotasi soni 23°T dan yuqori bo'lsa u pasterizatsiya qilinmaydi.

Emulsiya haqida tushuncha. Margarin qotgan holdagi suv-yog' emulsiyasidan iborat. Emulsiya, sistemaga tashqi tomondan qaralganda bir jinsli bo'lib ko'rindi, aslida esa bir modda boshqasida mayda zarrachalar (tomchilar) holida yoyilgan bo'ladi. Emulsiya ikki xil bo'ladi: to'g'ri emulsiya-qutbsiz suyuqlik (moy) qutbli(suv)da, M-C; teskari emulsiya-qutbli suyuqlik(suv) qutbsiz(moy)da,C-M. Emulsiyaning aralashgan turi moyning suvdagi yuqori konsentratsiyasida, bo'lishi mumkin. Masalan, sariyog'. Shu tufayli sariyog' eritilganda sachramaydi. Margarin olishda aralash emulsiya hosil qilishga harakat qilinadi.

Fazalararo yuzadagi ortiqcha erkin energiya sababli suyuqlikning alohida tomchilarini bir-biri bilan o'zaro birlashishi emulsiya agregativ jihatdan beqaror ekanligini ko'rsatadi. Amalda bu narsa emulsiyaning to'liq buzilishga va uning ikki qatlama ajratilishiga olib keladi. Agregativ barqarorlikli oshirish uchun maxsus stabilizator-emulgatorlar(SFM)dan foydalilanadi. Gidrofil emulgatorlar suvda yaxshi eriydi va M-C tipidagi emulsiya hosil qiladi, gidrofob (oleofil) emulgatorlar esa moyda yaxshi eriydi va C-M tipidagi emulsiyani turg'unlashtiradi.

Emulgator termodynamik nuqtai nazarda qaraganda fazalar chegarasida qobiq ko'rinishda adsorbsiyalanadi va fazalar aro taranglikni pasaytirib, dispers faza zarralarini birlashishiga qarshilik qiladi, hamda ularni dispers muhitda ushlab turadi. Natijada emulsiyani agregativ barqarorligini ta'minlaydi. Adsorbsion qatlama qalinligi qanchalik kichik bo'lsa, shunchalik emulgator kam talab etiladi.

Emulgator molekulalari difil xarakterga ega bo'lib, ular uglevodorod radikali (qutbsiz qismi) va qutbli guruhdan tashkil topgan. Ularning emulsiyalash qobiliyati qutbli va qutbsiz guruhlar muvozanatiga bog'liq. Yaxshi muvozanatlangan difil xarakterli molekulaga fosfatidilxolin (letsitin) kiradi. U sanoat uchun ishlatiladigan emulgatorlarni sintez qilishda ishlatiladi.


Margarin ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan emulgatorlar:

-oziqaviy fazilatga ega bo'lishi va fiziologik zararsiz bo'lishi;

- emulsiyaning yuqori dispersligi va barqarorligini mustahkamlashi;
 - ishlab chiqarish jarayonida mexanik ishlov berganda margarinda namlikni tutib qolishi;
 - sachrashga qarshi xossalarga ega bo‘lishi;
- margarinli saqlashda turg‘unligini ta’minalashi kerak.

Asosiy vazifa – emulsiyani mustahkamlashdan tashqari, emulgatorlar margarinni plastikligini oshiradi, non mahsulotlari uchun ishlatiladigan yog‘lar chiqarishda esa bir qancha maxsus xossalarni namoyon qiladi. (mahsulot hajmi va g‘ovakligini oshiradi). Sanoatda T-1, MGD, T-2, T-F emulgatorlari ishlatiladi. Sariyog‘ning bir grammi 9-25 mld. moyli zarrachalardan va 8-16 mld suvning tomchilaridan iborat.


T-1 emulgatori glitserinni yog‘ kislotasi bilan eterifikatsiyalash orqali olinadi.



MGD emulgatori – mono va diglitserid aralashmasidir. Monoglitseridning miqdori. 45-50 %.

T-F emulgatori – 3:1 nisbatda T-1 emulgatori va fosfatid konsentrating aralashmasidan iborat.

MGD emulgator glitseroliz – triglitseridni glitserin bilan pereeterifikatsiyalash reaksiysi orqali olinadi:



Yog‘li faza retsepturasini tuzish. Margarinni ko‘rinishi, sifati, ma’zasi uni tarkibiga, qo‘shiladigan moddalarning turi va miqdoriga bog‘liq bo‘ladi.

Margarinni yog‘li asosi turli yog‘larning aralashmasidan iborat. Erish harorati, qattiqlik va qattiq faza miqdori margarinni asosiy ko‘rsatkichlar bo‘lib hisoblanadi. Margarinni suyuqlanish harorati yog‘li asosni tarkibiga bog‘liq. Mo‘tadil struktura hosil bo‘lishi uchun margaringa suyuqlanish harorati har xil bo‘lgan salomasning bir necha turlari, pereeterifikatsiyalangan moylar va suyuq o‘simplik yog‘larni qo‘shiladi. Qandolat, non mahsulotlari uchun va kulinar yog‘larning yog‘li asos retsepturalari ularni ishlatilishga qarab tuziladi.

Suv-sutli faza retsepturasini tuzish. Suv-sutli faza sariyog‘ga o‘xshash organoleptik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan margarin olishni ta’minalashi kerak.

Margarin tarkibiga sut, tuz, shakar, suv va suvda eruvchi boshqa qo‘srim-chalar kiradi. Oshxona, umumiyligi ovqatlanish tarmoqlari va qayta ishlash uchun ishlatiladigan margarinlar retsepturasida suv-sutli faza 17,75% ni tashkil etadi. Boshqa turdag'i mahsulotlarda, masalan shokoladli margarinning ayrim navlarida suv-sutli faza kata (37,8% gacha) bo‘ladi. Past kalloriyalı margarinlarda 30% gacha bo‘lishi mumkin. Margarinni ta’m va hidini ta’minalashi uchun unga ivitilgan sut yoki aromatizator qo‘shiladi. Mahsulot turiga qarab qo‘shiladigan sut miqdori 4,5 dan 18% gacha bo‘lishi mumkin. Masalan, shokoladli margaringa 18% gacha, saralangan butterbrod margariniga-15% gacha, oshxona margariniga 4,5 dan 9% gacha sut qo‘shiladi.

Margarina yengil sho‘r ta’m berish uchun va konservant sifatida 0,15-1,2% miqdorida osh tuzi ishlatiladi. Osh tuzi margarinni qizdirganda sachrab ketishini kamaytiradi. Qandolatchilikda, krem, shokolad uchun ishlatiladigan margarinlarga va kulinar yog‘lariga tuz qo‘shilmaydi. Boshqa qo‘srimcha ta’m beruvchi sifatida shakardan foydalaniladi. Shakar asosiy vazifasidan tashqari

tayyor mahsulot oziqa qiymatini oshiradi. Margarinning asosiy navlariga 0,3-0,5% miqdorida shakar qo'shiladi, shokoladli navga esa 18% gacha va non mahsulotlari uchun ishlatalidigan suyuq margarinlarga shakar qo'shilmaydi.

Margarin ishlab chiqarishda shakar, tuz, quruq sutni eritish uchun, sutsiz margarin olishda sut o'rnini qoplash uchun, yoki kam sut qo'shilgan margarinlarda me'yorga keltirish uchun suv qo'shiladi. Tayyor mahsulotda oksidlanish jarayonini tezlashtirmaslik uchun suv bakterial toza, unda erigan tuz va temir birikmalari bo'lmashligi kerak.

Retseptura komponentlarini tayyorlash. *Emulgator eritmasini tayyorlash.* Sanoatda yog'liligi 82% bo'lgan margarin tarkibiga qo'shilgan emulgator (T-1, T-F, MD, MGD) 0,1-0,5% ni tashkil qiladi. Yog'liligi 75% va undan kam bo'lgan margarin tarkibiga esa 0,8% gacha emulgator qo'shiladi.

Yog'li fazada emulgatorni bir tekisda tarqalishini ta'minlash va ta'sir qilishining samaradorligini oshirish uchun emulgator dezodoratsiyalangan yog'da 1: 4 nisbatda 60-65°C harorat ostida eritiladi. MGD emulgatorini esa 1: 10 nisbatda 90°C haroratda eritiladi.

Bo'yovchi moddalar va vitaminlarni tayyorlash. Margarinlarni bo'yashda karotin yoki annatoni yog'li eritmasi ishlataladi.

Karotinning yog'li eritmasi sabzi va qovoqning bo'yovchi moddalarini rafinatsiyalangan kungaboqar yog'ida ekstraksiya qilish bilan olinadi.

Bo'yovchi moddalar yog'li eritma holida bankalar va flyagalarda keltiriladi. 1kg yog'li eritmada 2-2,4g quruq β-karotin yoki 1-1,2g annato bo'ladi.

Margarinning har bir saralangan va dietik navlariga, kulinar yog'lariga ularni biologik qiymatini oshirish maqsadida vitaminlar qo'shiladi.

A va B vitaminlar dezodoratsiyalangan yog'da 1: 10 nisbatda eritiladi.

C vitaminini, parxezli margarinlarini ishlab chiqarishda ishlataladi.

Yog'larni saqlash va tayyorlash. Rafinatsiyalangan yog'lar saqlashga chidamsiz, chunki, ularni tarkibidan tabiiy antioksidant moddalar ajratib olingan. Shuning uchun rafinatsiyalangan va dezodoratsiyalangan yog'larni saqlash 24 soatdan oshmasligi va turlariga qarab alohida saqlanishi kerak. Saqlash baklarda bug' ko'ylaklari bo'lib, ular yordamida iliq suv bilan haroratni bir me'yorda ushlab turiladi. Saqlash baklarda harorat suyuq yog'lar uchun 25°C dan oshmasligi kerak. Qattiq yog'lar uchun esa ularni erish haroratidan 5-6°C baland bo'lishi shart.

Rafinatsiyalangan yog'larni saqlash muddatini uzaytirish uchun, inert gaz atmosferasida saqlash tavsiya etiladi. Zavodlarda bunday gazlar sifatida azot yoki karbonat angidrid gazlaridan foydalaniлади.

Aromatizatorlarni tayyorlash. Margarin mahsulotlarini organoleptik hususiyatini oshirishda hid va ta'mni yaxshilashda aromatizatorlardan foydalaniлади. Margarinni aromatizatsiyalashda yog' va suvda eriydigan aromatizatorlar ishlataladi. Ular har xil organik moddalar aralashmasidan iborat. Yog'da eriydigan aromatizatorlar konsentrangan holida o'tkir hidga ega. Suvda eriydigan kompozitsiyalar esa yumshoq hidga ega bo'lib, ularni yog'da eriydigan aromatizatorlar bilan birgalikda margaringa qo'shiladi. VNIIJ tomonidan bir necha xil aromatizatsiya kompozitsiyalari ishlab chiqilgan. Ular margarinni turi va nima maqsadda ishlatalishiga qarab qo'shiladi. Margarinni ko'p turlari uchun sutli ta'm va hid beruvchi aromatizatorlar ishlataladi.

Saralangan va buterbrodli margarin turlari uchun sariyog' yoki eritilgan sariyog' hidi va ta'mini beradigan aromatizatorlar ishlatalali.

Aromatizatorlar aniq miqdorda (1t uchun 1,2-100g) yog'li aralashmaga yoki suv-sutli fazaga qo'shiladi.

Sariyog'ni tayyorlash. Margarinning sariyog'li turiga 10% miqdorda sariyog' qo'shiladi. Ishlatishdan oldin uni idishdan va pergamentdan ajratiladi, pichoq bilan ustki qavati olib tashlanadi. Chunki noxush organoleptik hususiyatlar va mikrofloralar boshqa massaga nisbatan ustki qismida ko'p bo'ladi. Qattiq yog'li massani yog'-kesgichda 2-3kg li bo'laklarga bo'lib 40°C haroratda mahsus qozonda eritiladi.

14-jadvalda sutli margarinlar, 15-jadvalda yumshoq margarin va 16-jadvalda kulinar yog'larini retsepturasi ko'rsatilgan.

14-jadval

Sutli margarinlar retsepturasi

Komponentlar	oshxona	sariyog‘li	ekstra
	miqdori, %		
Salomas, T_{er} 31-34°C, qattiqligi 160-320 g/sm	46	50	26
Salomas, T_{er} 35-36°C, qattiqligi=350-410 g/sm	11	8	12
Paxta palmitini, T_{er} 18-22°C	8	-	8
O’simlik moyi	16	15	10
Kokos yog‘i	-	-	25
Sariyog‘	-	-	-
Bo‘yoq	0,2	0,2	0,2
Sut	12	8	16
Emulgator	0,2	0,2	0,2
Tuz	0,4	0,3	0,3
Shakar	0,4	0,3	0,3
Suv	6	8	2
Jami	100	100	100
Shu jumladan yog‘lilik, sut yog‘i bilan birgalikda	82	82	82

15-jadval

Yumshoq margarinni retsepturasi

Komponentlar	Miqdori, %
Salomas, T_{er} 31-34°C, qattiq ligi 160-320 g/sm	15
Salomas, T_{er} 35-37 °C, qattiq ligi 550-750 g/sm	10
O’simlik moyi	25
Kokos yog‘i	9
Bo‘yoq	0,3
Emulgator	0,4
Tuz	0,3
Sut	15
Suv	25
Jami	100
Shu jumladan yog‘lilik, sut yog‘i bilan birgalikda	60,25

16-jadval

Kulinar yog‘larining retsepturasi

Komponentlar	Pechene uchun konditer yog‘i	O‘simlik yog‘i	Kulinar yog‘i	
			Shar q	Belorus
Salomas, T _{er} 31-34°C, qattiq ligi 160-320 g/sm	73	70	65	35
Mol yog‘i	24	-	-	30
Qo‘y yog‘i	-	-	15	-
O‘simlik moyi	-	10	10	20
Paxta palmitini	-	20	10	15
Fosfatid konsentrati	3	-	-	-
Jami	100	100	100	100

SUV – SUT FAZA KOMPONENTLARINI TOZALASH

Reja: Sutni tayyorlash. Plastinkali pasterizator. Ivitish vannasi. Retseptura bo‘yicha komponentlar va ularni tayyorlash.

Sut murakkab kimyoviy tarkibga ega bo‘lib, uning tarkibi qora mollarni zotiga hamda ularni boqish rejimiga bog‘liq.

Sigir sutining tarkibi, % hisobida

Suv	87 dan 89 gacha
Yog‘	3,0-6,0
Oqsillar	3,4-4,0
Laktoza	4,0-5,5
Mineral moddalar	0,6-0,8

Oqsil – bu, sut albumini, sut globulini va kazeindir. Oqsilning umumiy miqdoriga nisbatan kazein 80 %-ni tashkil etishi mumkin.

Sutdagi quruq qoldiqning mavjudligi, sutning oziqalik kiymatini ifodalaydi va ularning kamayishi sutning suv bilan suyultirilganligini ko‘rsatadi. Sutni tayyorlashning birinchi bosqichida mikrofloralarni yo‘qotish uchun issiqlik ishlovi beriladi. Bunday ishlov berishda ikki usul-pasterizatsiya va sterilizatsiyadan foydalilanadi. Pasterizatsiyada sut 100°C dan oshmagan haroratgacha qizdiriladi, sterilizatsiyada esa harorat 120-130°C gacha ko‘tariladi.

Pasterizatsiyada bakteriyalarning vegetativ shakli nobud bo‘ladi, ammo bakteriyalarning sporalari saqlanadi; sterilizatsiyada esa bateriyalarning barcha shakli nobud bo‘ladi. Yuqori haroratgacha qizdirilganda laktozaning oqsil va bir nechta er-kin aminokislotalar bilan amino-karbonil bog‘lari yuzaga keladi va u sutni qo‘ng‘irlashtiradi. Issiqlik ishlovi berilganda sut yog‘lari kam o‘zgaradi, ammo fermentlar va vitaminlar aktivligi yo‘qoladi. Bu o‘zgarishlarning barchasi harorat uzoq vaqt ta’sir etganda jadallahadi. Yuqori haroratgacha tez qizdirilganda esa kutilgan sifat o‘zgarishlari yuzaga kelmaydi. Eng samarali issiqlik ishlovi berish, yuqori harorat 120°C da sterilizatsiyalangan yoki sterilizatsiyalagan sut tezlik bilan sovutilishi lozim.

Pasterizatsiyalashning ikkita usuli qo‘llaniladi.

1. Qisqa pasterizatsiyalash, ya’ni 8-10 sek davomida, 90-95°C da qizdirish va sovutish.
2. Uzoq pasterizatsiyalash, ya’ni 25-30 min davomida, 65-75°C da qizdirish va sovutish.

Bakteriyalarni to‘la yo‘qotish maqsadida aralash (kombinirovanniy) usulda pasterizatsiya qilinadi. Bunda 90-95°C da qisqa pasterizatsiyalangandan so‘ng sovitilmasdan shu haroratda ivitish vannalarida 20-30 minut saqlanib turiladi va so‘ngra sovutiladi.

Pasterizatsiyalash uchun turli apparatlar ishlataladi: uzoq pasterizatsiyalash vannalari, siqib chiqarish barabaniga ega bo‘lgan pasterizatorlar, plastinkali va trubali pasterizatorlar.

Plastinkali pasterizatorlar. U zanglamas, po'lat plastinkalardan iborat bo'lib, ular yig'ilganda, orasida kanallar hosil bo'ladi va bu kanallardan qayta ishlanayotgan sut harakatlanadi. Plastinkalar umumiy bir asosga (stanina) yig'iladi va boltlar yordamida zichlanadi. Yig'ish davomida to'rtta seksiya hosil bo'ladi. V – seksiyyasida yangi sut pasterizatsiyalangan sut yordamida issiqlik almashinish bilan isitiladi. B – seksiyyasida sut pasterizatsiyalananadi, A – seksiyyasida sut oldindan sovitiladi. Agarda sut darhol ivitishga mo'ljallanmagan bo'lsa, unda u G - seksiyyaga solinadi va 8-10°C gacha namakob bilan sovutiladi. Aralash pasterizatsiyalashda sut sovitilmaydi, aksincha darxol vannada 90-95°C da saqlanadi.

Sutga yuqori haroratda ishlov berish uchun avtomatlashirilgan P8-OUV rusumli qurilmadan foydalanadi. Bundan tashqari sutni pasterizatsiyalash uchun trubkali pasterizator PT-5 dan ham foydalaniladi. Uning unumдорлиги 110°C da 500 l/soat. PT – 5 pasterizatori ikkita gorizontal issiqlik almashtirgichlardan iborat, ular trubkalardan tashkil topgan. Har bir issiqlik almashtirgichda sut trubkalar ichida to'g'ri va teskari harakatlanadi. Pasterizatsiyalangan sutni bir qismi ivitishga yuboriladi. Ikkinci ya'ni ivitilmagan holda margaringa qo'shiladigan yoki ivitilgan sut bilan aralashtirib ishlatiladigan qismi esa saqlash uchun tankga keladi va u yerda retseptura bo'yicha sarflanadi. Sutni tayyorlashning ikkinchi bosqichi ivitish bo'lib, u biologik yo'l bilan yoki kislotali koagulyasiyalash orqali oshiriladi.

Biologik ivitish, kislotaligi 70-100°Т, smetana tuzilishidagi, sut kislotali ta'm va hidga ega ivitilgan sut olish uchun ishlatiladi. Biologik ivitish asosida sut shakarining sut kislotali bakteriyalar ta'siri ostida bijg'ish jarayoni yotadi. Dastlab sut shakari glyukoza va galaktozaga ajraydi. So'ng fermentlar ta'siri ostida glyukoza to'liq aylanadi. So'ng glyukoza oraliq mahsulotlar orqali vino kislotasiga va undan sut kislotasiga aylanadi.

Bijg'ish boshlanganda bir vaqtning o'zida sut shakarining gidrolitik parchalanishi bilan bir qatorda uning izomerlari, dekstrin polimerlari, hosil bo'ladi. Ular oqsillar bilan birga smetana ko'rinishdagi, qovushqoq konsistensiyadagi ivigan sutni yuzaga keltiradi.

Ivitish, pasterizatsiya qilingan sutga maxsus tayyorlangan sut kislotali kulturalarning alohida shtammlari, tomizg'ilarini qo'shish bilan amalgalash oshiriladi. Mahsulot hosil qilish xarakteriga qarab, sut kislotali bakteriyalar ishtirokidagi bijg'ish gomo va geterofermentativga bo'linadi.

Gomofermentativ bijg'ishda sut shakari sut kislotasiga aylanadi. Sut kislotasi va ishlatilayotgan limon kislotasi sutning kislotaliligini oshirib yuboradi. Natijada kalsiy kazeinat parchalanadi va hosil bo'lgan kazein koagulyasiyalanadi. Noma'lum ta'mli smetana ko'rinishdagi quyuq massa yuzaga keladi.

Geterofermentativ bijg'ishda esa sut kislotasidan tashqari spirt, sirka boshqa uchuvchan kislotalar hosil bo'ladi. Sifatlari tarkibida, umumiy kislotaligiga nisbatan 10% gacha sirka kislota, 0,2% etil sperti va optimal miqdordagi karbonat kislotasi bo'ladi. Uchuvchan kislotalar va spirt, ivitishda oz miqdorda efirlar, asosan etilatsetat, hosil qiladi.

Ivitilgan suttagi muattar hid asosan, glyukoza va limon kislotasi ishtirokida hosil bo'lgan diatsetil $\text{CH}_3\text{COCOCH}_3$ va atsetoin $\text{CH}_3\text{CHOHCOCH}_3$ miqdori bilan ifodalanadi. Bunda atsetoin ortiqcha miqdorda hosil bo'ladi. Diatsetil beqaror modda bo'lib, parchalaganda atsetoin va 2, 3-butilenglikol- $\text{CH}_3\text{CHOHCHOHCH}_3$ hosil qiladi. Shu sababli sut ivitilgandan so'ng, 2-3 kun o'tib xushbo'y hidi yo'qoladi. Sutni ivitish uchun tarkibida 60-70% Streptococcus diacetilactis va 30-40% Streptococcus cremoris bo'lgan sut kislotali achitqilar ishlatiladi. Achitqilar to'plami VNIIJ tomonidan tayyorlanadi va zavodlarga quruq holda germetik berkitilgan flakonlarda yuboriladi. Bu achitqidan boshlang'ich achitqilar tayyorlanadi. Quvvati katta bo'lmagan, 4000 l atrofidagi sutni qayta ishlaydigan zavodlarda boshlang'ich achitqidan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishga ruxsat etiladi va bu achitqi 3-5 kungacha ishlatilishi mumkin. Katta miqdordagi sutni qayta ishlovchi zavodlarda ishchi achitqilar tayyorlanadi. Ishchi achitqilar tabiiy suttan tayyorlanadi. Buning uchun achitqich yoki sig'imi katta bo'lmagan vannalardan foydalaniladi. Sut pasterizatsiya qilingandan so'ng bir soat davomida issiq holda ushlab turiladi, so'ng 28-30°C gacha sovutiladi, 1% dan kam bo'lmagan miqdorda boshlang'ich achitqidan solinadi, aralashtiriladi va 9-12 soat to'liq iviguncha tinch qo'yiladi. Kislotaliligi 60-70°Т bo'lgan tayyor ishchi achitqi 6-8°C gacha sovutiladi va ishlatishdan oldin aralashtiriladi. Sutni ivitish va saqlash uchun vannalar, universal tank yoki tank-kultivatorlar

ishlatiladi. Sutni ivitish margaringa sutli va xushbo‘y ta’m beradi va uni saqlanish muddatini oshiradi. Sut ivishi davomida hosil bo‘lgan sut kislotasi margarinda hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan mikroflorani rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Ivitmasdan, yangi sutdan tayyorlangan margarin uzoq saqlanishi mumkin emas, ya’ni tez buziladi. Sut margaringa ivitilgan yoki ivitilmagan holda, 1:1, 1:3 nisbatda aralashdirib qo‘shiladi. Sutni achitish uchun sut-kislotasi bakteriyalaridan foydalaniladi, ular gomo-va geterofermentativ guruhlarga bo‘linadi.

Uzluksiz achitish. Bu usul nordon sut bakteriyalarini sut oqimida faol o‘sish fazasida rivojlantirishga asoslangan.

Afzalligi: mikroorganizmlarning aktivligi oziqa muhitining doimiy to‘ldirib borish hisobiga ortib boradi va jixozlarning ishlab chiqarish quvvati 4-5 barobar ortadi. Shu bilan birgalikda jarayonni avtomatlashtirish uchun sharoit yaratiladi.

Uzluksiz ivitishda pasterizatsiyalangan sut tank-kultivatorga $70\text{-}90^{\circ}\text{C}$ da beriladi va 1 soat davomida saqlanadi. So‘ngra 30°C gacha sovitilgach 1 % achitki qo‘shilib 5 minut davomida aralashdiriladi. Sutning kislotaliligi $58\text{-}59^{\circ}\text{T}$ ga yetgach, jarayonni uzluksiz xolatga o‘tkaziladi. Buning uchun tank-kultivatordan 1 porsiya achitilgan sut olinib, unga shu hajmga teng bo‘lgan 30°C gacha isitilgan pasterizatsiyalangan sut qo‘shiladi.

Kislotali koagulyasiyalash shundan iboratki, sutni 10 %-li limon kislotasi bilan $18\text{-}20^{\circ}\text{C}$ da nordonlashtiriladi. Limon kislotasi sutga tuz va shakar qo‘shilgandan *so‘ng solinadi*.

Retseptura buyicha komponentlar va ularni tayyorlash. Fosfatid konsentrati. Yangi o‘simlik moyi (kungaboqar, soya) dan olinadi va emulgator sifatida ishlatiladi hamda kulinaruya yog‘larining oziqa qiymatini oshirish maqsadida qo‘shiladi .Fosfatid konsentratida 50 % dan kam bo‘limgan miqdorda fosfatid bo‘lishi va namligi 4 % dan ortmasligi kerak. U quyidagi nisbatda eritiladi M:F=4:1.

Osh tuzi. Margarinning ta’mini yaxshilash uchun qo‘shiladi, hamda osh tuzi konservant modda hisoblanadi.

Shakar. Margarinning ta’mini yaxshilaydi.

Bo‘yoqlar. Margaringa och-sariq, ya’ni sariyog‘ga o‘xshash rang berish maqsadida karotinning yoki annatoning yog‘li eritmalaridan foydalaniladi. Karotinning (A-provitamin) sabzinining yoki vitaminli qovoqni rang beruvchi moddalarini ekstraksiya qilish yo‘li bilan olinadi. Bunda tozalangan kungaboqar yog‘idan foydalaniladi. Hozirgi vaqtida qo‘ziqorinlar oilasidan bo‘lgan Blaceslea trispara dan biosintez yo‘li bilan olingan V – karotin qo‘llanilmokda. Annato – bo‘yog‘ini hind o‘simligi (Orlean tree)da mavjud bo‘lgan pigmentlarni o‘simlik yog‘ida eritish usuli bilan olinadi.

Vitaminlar. Ulardan margarinning biologik xususiyatlarini oshirish maqsadida foydalaniladi. 100 g sariyog‘da: 0,8 dan 12 mg gacha A-vitamini va 0,001-0,008 mg D-vitaminlari mavjud.

Margarinni tarkibidagi vitaminlar bo‘yicha sariyog‘ga yaqinlashtirish maqsadida unga A, D, E, C vitaminlar qo‘shiladi. («Ekstra», «Osobiy», «Slovenskiy», «Zdorove»). 1 margaringa yuqoridagi vitaminlardan 50 M. Ye. miqdorda qo‘shiladi (M. Ye. – halqaro o‘lchov birligi). Halqaro o‘lchov birligi sifatida biologik aktivligi – 0.3γ ($1\gamma = 10^{-9} \text{ kg}$ yoki 10^{-3} mg) ga teng bo‘lgan sof kristall holdagi A vitamini qabul qilingan. Bu esa sof- β karotinning 0.68γ miqdoriga to‘g‘ri keladi. Ye-vitamini «Zdorove» margarinining 1kg miqdoriga 300 mg qo‘shiladi (1 M.E. = 0.3 mg).

Xushbo‘y hid beruvchi qo‘shimchalar margaringa xushbuy ta’m berish uchun va uning organoleptik xususiyatlarini yaxshilash uchun ishlatiladi. Aromatizatorlar quyidagi turli organik moddalar aralashmasidan iborat: diatsetil, past molekulali to‘yingan yog‘ kislotalari (C_2 dan C_{12} – gacha), δ - deka va δ - dodekolantlar, atsetoin, oksikislotalar, glitserin, etil spirti va boshqa moddalar. Ular muayyan aniq nisbatlarda olinadi.

VNIIJ –ilmiy tadqiqot instituti tomonidan bir necha aromatizatorlar ishlab chiqilgan. Ular margarinlarning qaysi soxaga mo‘ljallanganligiga qarab ishlatiladi. Masalan: VNIIJ –31, VNIIJ-32 kulinariya yog‘lari uchun, VNIIJ –10 esa sutli margarinlarga qo‘shiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Margarin ishlab chiqarishning zarurligi.
2. Margarin retsepturasi. Margarin maxsulotlari assortimenti
3. Margarin ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyolar.
4. Emulsiyalar haqida tushuncha.
5. Margarin uchun ishlatiladigan emulgatorlar
6. Sutli margarin retsepturasi
7. Yumshoq margarin retsepturasi
8. Kulinar yog‘lari retsepturasi.
9. Sutni tayyorlash, pasterizatsiyalash. Sutni achitish
10. Retseptura bo‘yicha komponentlar va ularni tayyorlash.
11. Ta’m va xushbo‘y xid beruvchi qo‘srimchalar (aromatizatorlar).
12. Sutning tarkibi.
13. Sutni pasterizatsiyalashda ishlatiladigan pasterizatorlar.
14. Sutni achitish jarayoni sxemasi.
15. Sutni achitish uchun ishlatiladigan tomizgilar

12 – MA’RUZA

MARGARIN ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASI. MARGARIN ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIK SXEMASI

Reja: Retseptura komponentlarini dozalash. Aralashtirish. Margarin emulsiyasini o‘ta sovitish va kristallash.

Tayanch so‘z va iboralar: emulsiyalash, aralashtirish, dozalash, o‘ta sovitish, struktura, kristall struktura, vatator (o‘ta sovitgich), dekristalizatsiya, banderollash, konsistensiya, tomizg‘i

Margarin ishlab chiqarish quyidagi operatsiyalardan iborat: dozalash, aralashtirish, emulsiyalash, o‘ta sovitish, kristallash va qadoqlash.


Dozalash. Dozalashning ikki usuli ma’lum: og‘irligi va hajmi bo‘yicha. Og‘irligi bo‘yicha dozalash komponentlarni aniq miqdorda olishni ta’minlaydi. Komponentlarni miqdorini aniqlash uchun quyidagi tarozilar ishlatiladi: siferblat qurilmali va korobkali. Ular ikki qismidan iborat, katta qism yog‘lar uchun, kichik qism sut-suv fazasi uchun mo‘ljallangan. Siferblatli qurilma mahsulotlarni kerakli miqdorda ketma-ket o‘lchash imkoniyatini beradi. Buning uchun esa tarozining bosh qismiga datchiklar o‘rnatalgan. Ularning soni retseptdagagi komponentlarning soniga teng.

Tarozi ishga tushganda uning strelkasi datchikka tegib, elektroimpuls pnevmatik o‘zlashtirgichga uzatiladi. Shu vaqtida siqilgan havo porshenli klapan orqali trubani ochadi. Natijada taroziga birinchi komponent oqib tushadi. Shu paytda tarozini strelkasi (1) harakatga keladi, toki ikkinchi datchikka yetkuncha. Elektrreleli qurilma avtomat holatda mos bo‘lgan klapanlarni qayta qo‘sadi. Shu vaqtida birinchi komponent kelayotgan klapan yopiladi va ikkinchi komponent oqib tushishi uchun kerak bo‘lgan klapan ochiladi va hokazo. Komponentlar tarozidan olinayotganda, strelka teskari harakatlanadi. Tarozi komponentlardan to‘liq bo‘shagach, tarozi «0» holatini ko‘rsatishi kerak.

Hajm bo‘yicha taqsimlash uchun bir necha har xil diametrдagi porshenli silindrлarga ega bo‘lgan dozator nasoslar ishlatiladi. Bunda umumiy bitta dvigatel bo‘ladi. Suyuqlikning hajmi maxsus qurilma yordamida, ya’ni porshenning harakatini o‘zgartiruvchi qurilma yordamida boshqariladi.

Aralashtirish. Yog‘li asos va suv-sut faza alohida-alohida qilib tayyorlanadi va dozalanadi. Shuning uchun ularni yaxshilab aralashtirish kerak. Ishlab chiqarishda sut 15-20°C da yog‘larniki esa suyuqlanish haroratidan 4-5°C yuqori haroratda kiritiladi. Aralashtirish vaqtida harorat 38-40°C ga yetkaziladi va dag‘al emulsiya hosil qilinadi.

Vertikal silindrli aralashtirgich (28-rasm) korpus (10) dan, taglik (1)dan va qiya qilib joylashtirilgan chiqarish trubasi (12) dan iborat. Qopqoq (5) ustida reduktor (6) va elektrodvigatel (7) joylashgan va ramaga mahkamlangan. Mahsulot kirishi uchun shtutser (8) mavjud. Silindr qismining ichida 60 ayl/min aylanish chastotasiga ega bo‘lgan vintli aralashtirgich (2) joylashgan. Silindr ichida vintga parallel qilib otboynik (9) mahkamlangan, u aralashmani meshalka yo‘nalishi bo‘yicha aylanib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Aralashtirgich bug‘li ko‘ylak (3) bilan ta’minlangan. Suv ko‘ylakdan truba (4) orqali quyiladi va sath o‘lchagich (11) orqali rostlab turiladi. Bu turdag‘i aralashtirgichdan margarin ishlab chiqarishning uzluksiz liniyalarida foydalaniladi.




28 – rasm. Vertikal silindrli aralashtirgichni sxemasi.

Emulsiyalash. Aralashmadan mayda zarrachali emulsiya hosil qilish uchun gomogenizatorlardan foydalaniladi. Ular gorizontal uch plunjerli yuqori bosimda ishlaydigan nasoslardir. Ularning asosiy elementi bo‘lib gomogenizatsiyalovchi qismi hisoblanadi. Dag‘al emulsiya nasos kamerasiga tushgach, tirkish (tirqishning kengligi 100 mkm) va klapan orqali siqib chiqariladi. Shu vaqtida yuqori dispers emulsiya hosil bo‘ladi. Nasos hosil qilgan yuqori bosim emulsiyanı o‘ta sovitgichdan kadoqlash avtomatigacha bo‘lgan trubalardagi qarshilikni bartaraf qilish uchun sarf bo‘ladi. Nasosning quvvati 1670-3700 l/soatga teng, ish bosimi 2,2-2,5 MPa. Yuqori bosim ostida ishlaydigan nasos suyuqlik bilan to‘ldirilgan holda ishlaydi va doimiy sathni ta’minlash uchun maxsus moslama ishlatiladi.

O‘ta sovitish. Margarin emulsiyasini sovitilganda kristallanish jarayoni sodir bo‘ladi. Bunda kristallar turg‘un formaga o‘tadi. Buni poliformizm jarayoni deyiladi. Kristall strukturalarining turlarini α ; β - shaklida belgilanadi. α - turi past suyuqlanuvchan va turg‘un bo‘limgan, β - o‘rta, β - turg‘un va yuqori haroratda suyuqlanuvchi kristalldir. Kristall strukturalarining shakllanishi sovitish va aralashtirish tezligiga, to‘yingan va to‘yinmagan glitseridlarning miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Sekin sovitilganda katta kristallar (β) hosil bo‘ladi. Ular margaringa dag‘allik, mo‘rtlik va maydalanuvchanlik xossalalarini beradi.

Tez sovitish va aralashtirishda turg‘un bo‘limgan kristallar hosil bo‘ladi (α -shakl). Ularning suyuqlanish harorati ham past. Ular β - formaga tez utishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy margarin ishlab chiqarish korxonalarida o‘ta sovitish aralashtirish bilan birgalikda olib boriladi. Natijada tez suyuqlanuvchan, egiluvchan va yaxshi konsistensiyali margarinlar olinadi.


Sovitish uchun 3 va 4 –silindrli sovitgichlar ishlataladi. Kerak bo‘lgan kristall strukturali, birxil va muloyim konsistensiyali mahsulot olish va kadoqlash uchun kristallizatorlar o‘rnataladi.



29 – rasm. Uch silindrli o‘tasovutgichni sxemasi

Uch silindrli o‘tasovutkich (29-rasm) O‘tasovutgich ketma-ket ishlaydigan uchta bir xil issiqlik almashgich silindrлardan tashkil topgan. U quyidagi asosiy qismlarga ega: (1) stanina yuritmasi bilan, sovituvchi (2) silindrлar bloki, emulsiya kiruvchi patrubka 5, issiq suv uchun patrubka va ammiakli (3) sovitish sistemasi.

Aylanish yo`nalishi



30 – rasm. O‘ta sovitgichni silindrini sxemasi

Silindrлar stanina ustiga o‘rnatilgan bo‘lib, har biri (30-rasm) izolyasiya (8)li “truba ichida truba” tipidagi issiqlik almashtirgich apparati (4) dan iborat. Birinchi ichki truba (2) ishchi kamera hisoblanib, unga ichi bo‘s sh val (5) joylashtirilgan. Val ichiga harorati 50°C atrofida bo‘lgan issiq suv beriladi. Val (5) ga butun uzunligi bo‘ylab bir-biriga qaramaqarshi joylashgan 12ta pichoqlar mahkamlangan.

Pichoqlar qo‘zg‘aluvchan bo‘lib, ular gorizontal va vertikal yo`nalishlarda siljishi mumkin.

Val 500 ayl/min tezlik bilan aylanadi. Birinchi (2) va ikkinchi (6) trubalar orasida bug‘latish kamerasi mayjud bo‘lib, unga sovituvchi agent (ammiak) uchun tarnov (3) joylashtirilgan. Ammiakning bug‘lanishi natijasida margarin emulsiyasini soviydi va truba (2) ning ichki yuzasida kristallanadi. Hosil bo‘layotgan kristallar pichoq (7) bilan devordan ajratiladi.

Uchinchi silindrдан chiqayotgan sovitilgan margarin emulsiyasining harorati $12\div13^{\circ}\text{C}$ bo‘ladi. Uchsilindrli o‘tasovutkichining ishlab chiqarish quvvati 2,5-2,8 t/soat.

MARGARIN ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIK SXEMALARI

Reja: A1 – JLU liniyasida margarin olish texnologiyasi. Quyma margarin ishlab chiqarish. Qandolatchilik, oshpazlik, va nonvoylig yog‘larni ishlab chiqarish. Margarin mahsulotlarni saqlash va tashish.

Sut qabul qilish va qayta ishlash. Margarin zavodiga sut, sut zavodlaridan avtotsisternalarda keltiriladi. Avtotsisternalardagi sut qabul qiluvchi rezevuarga quyiladi va u erdan nasos orqali tarkibidagi mikroorganizmalar va fermentlardan tozalash uchun yuqori haroratli plastinkali posterizatorga beriladi. Pasterizatsiyalangan sut ivitish vannaga kelib tushadi. 60-80° ternergacha ivitilgan sut margarin sexiga beriladi.

Rafinatsiyalangan, dezodoratsiyalangan o’simlik moylari, tabiiy va gidrogenlangan yog‘lar margarin zavodlariga qabul qilinadi 1,2,3,4 chi rezervuarlarda saqlanadi. Komponentlarni retseptura bo‘yicha dozalash og‘irligi bo‘yicha avtomat tarozi 12da amalga oshiriladi.

Margarin komponentlari emulgator, ozuqa bo‘yog‘i dezodoratsiyalangan o’simlik moyida eritiladi. Aralashtirgichli quti 5da emulgator dezodoratsiyalangan moy bilan aralashtirilib 12chi taroziga beriladi. 6chi va 7chi aralashtirgichda eritilgan tuz va shakar eritmasi 13chi suv va sut fazasi uchun taroziga kelib tushadi. SHu taroziga 8chi pasterizatordan sut kelib tushadi. 12 va 13chi tarozida tayrlangan komponentlar aralashtirgichlar 14 va 15ga beriladi. Aralashtirgichlarda dag‘al emulsiya xosil qilinadi.

Bu emulsiya o‘z oqimi bilan satx rostlovchi bak 16ga tushadi va u erdan yuqori bosimli nasos 17ga beriladi. Nasos emulsiyani votator 18 ga atm.bosimda xaydab beradi. Votatorda emulsiya 15-18°C gacha sovutiladi. Sovutilgan emulsiya 19 sig‘imga yig‘iladi taqsimlovchi uskuna 20 yordamida ikkita oqimga taqsimlanadi va qadoqlovchi uskuna uzatiladi.

Agar tayyorlangan mahsulot talabga javob bermasa qayta ishlash uchun tayyor emulsiya uchun mo‘ljallangan bak 16 ga qaytarib beriladi.


Uzlusiz ishlaydigan avtomatlashtirilgan liniyalarning ko‘pchiligining unum dorligi soatiga 2,5 t ga teng. Ba’zi bir zavodlarda quvvati soatiga 5 t ga teng bo‘lgan yuqori unum dorli liniyalar o‘rnatalgan. U yerda 4-silindrli sovutgichlar qo‘llaniladi va me’yorlash, me’yorlovchi nasoslar yordamida xajmiy usul bilan bajariladi. Bu liniyalarda uchta aralashtirgichlar o‘rnatalgan.

Quyma margarin ishlab chiqarish. Parvez quyma margarinlar tarkibida ko‘p miqdorda suyuq o’simlik moyi bor. Quyma margarinlar tarkibida 82 % va 60% yog‘ bilan ishlab chiqariladi. Bu margarinlar kasallikni oldini olish va davolash uchun mo‘ljallangan. Ular polimer idishda (stakan va bankalarda) ishlab chiqariladi.

Quyma margarin ishlab chiqarish texnologik jarayoni yuqorida keltirilgan jarayonga uxshash. Farqi shundaki, sovutgichdan keyin margarin mexanik ishlov berish uchun dekristalizatorga, so‘ngra qadoqlashga yuboriladi.

Suyuq margarin ishlab chiqarish. Suyuq margarin non pishirish sanoatida ishlatiladi va quyidagi retseptura bo‘yicha ishlab chiqariladi.

Komponentlar	Miqdori, % da
Salomas $T_{er} = 35-36^{\circ}\text{C}$,	
Qattiqligi 350 g/sm dan kam bo‘lmasligi kerak.	10
Suyuq o’simlik moyi	72,0
Emulgator	0,8
Fosfatidli konsentrat	0,5
Suv	16,7
Ja’mi	100 %



31 – rasm. Margarin olishni texnologik sxemasi

Suyuq margarinni tayyorlash quyidagicha bajariladi. Me'yorlangan komponentlar (yog', emulgator, fosfatidli konsentrat) aralashtirgichga kelib tushadi, $45-56^0$ C gacha isitilib, so'ngra aralashtirgichga suv qo'shilib, 10-15 minut davomida aralashtiriladi va $28-32^0$ C gacha sovitiladi. Emulsiyani TOM- 2M rusumlisovutgichda, yoki "Votator" rusumlisovutgichda $10-12^0$ C gacha sovitiladi.

Sovitilgan emulsiyani nasos-emulsator yordamida aralashtirgich – me'yorlagichga yuboriladi.

Bu yerda kristalli strukturani buzilishi natijasida oquvchan sistema hosil bo'ladi. Tayyor margarin avtotsisternaga quyiladi.

Qandolatchilik, oshpazlik va nonvoylik yog'larini ishlab chiqarish.

Bu yog'lar tarkibida suv-sut fazalar bo'lmaydi. Ular butunlay o'simlik yog'ları, salomas, pereeterifikatsiyalangan va gidropereeterifikatsiyalangan yog'larini, hamda mol yog'ini aralashmasidan iborat bo'ladi. Ishlatilish maqsadiga muvofiq tarkibiga quyidagi qo'shimchalar emulgator, bo'yoq, vitaminlar va aromatizatorlar qo'shiladi.

Suv-sut fazalarini tayyorlash jarayoni bo'lmagan uchun bu yog'larini ishlab chiqarish texnologiyasi oson hisoblanadi.

Mayda yoki kichik idishlarga qadoqlangan tayyor mahsulot ishlab chiqarishda o'ta sovitish usulidan foydalilaniladi. Mayda qadoqlangan (200-250 g) mahsulot ishlab chiqarishda "Djonson" liniyasi va A1- JLP quvvati 2-2,5 t/soat bo'lgan uskunalardan foydalilaniladi.

Mahsulot 10,15 va 20 kg massali monolit shaklida ishlab chiqarilganda, sath saqlovchi bakdan keyin berilayotgan yog'li aralashmalar haroratini pasaytirish uchun o'tasovutgichdan oldin birlamchi sovutgich o'rnatiladi. Sovutgich silindrishimon korpusli bo'lib, ichki qismiga 30 ta o'ramli zmeevik o'rnatilgan.

Yog' zmeevikni ichki qismidan oqib o'tadi, sovutgich korpusining ichiga beriladigan suv bilan sovitiladi. Bunda aralashmaning harorati $3-5^0$ C ga pasayadi. O'ta sovutgichdan so'ng sxemada dekristallizator qo'yiladi.

Sanoatda quvvati 2-2,5 t/c bo'lgan korobkalarga qadoqlaydigan A1 – JLK, A1 – JLU (universal) liniyalaridan foydalilaniladi.

Ba'zi korxonalarda o'ta sovutgich sifatida uchsilindrli apparat TOM-2M ishlatiladi.

Qadoqlashda faqat yangi karton koropkalardan foydalilaniladi. Har bir qadoqlangan mahsulot yorlig'ida kerakli ma'lumotlar ko'rsatib qo'yiladi.

Margarin mahsulotlarini saqlash va tashish. Margarin mahsulotlari uzoq vaqt saqlanganda yoki tashishda buziladi.

Oshpazlik, qandolatchilik va nonvoylikda ishlatiladigan yog'lar margaringa qaraganda tez buzilmaydi. Lekin havo tarkibidagi kislород bilan oksidlanishi mumkin, natijada perekisli birikmalar, erkin yog' kislotalar yig'ilib qoladi.

Margarin sifatining buzilish sababi shundaki suv - sut fazasi mog'orlaydi va boshqa mikroorganizmlar bilan zararlanadi. Omborxonalarda havo namligi yuqori bo'lganda, mog'orlash jarayoni tez kechadi.

Yaxshi tanlangan tomizg'ida ivitilgan suctan tayorlangan margarin uzoq saqlanadi. Bu ko'rsatkichga mahsulot tayyorlash texnologik rejimlari, yog'li asos tarkibi, qadoqlash idishlarini zichligi ta'sir qiladi.

Margarin mahsulotlari begona hidni tez yutib oladi, shu tufayli ularni alohida, boshqa mahsulotlar bo'lmagan xonada saqlash kerak.

Margarin mahsulotlarini saqlash harorati 0^0 C da havoning namligi 80% dan ko'p bo'imasligi kerak.

Omborxonadan jo'natiladigan margarin mahsulotining harorati 10^0 C dan ortiq bo'imasligi lozim.

Margarin mahsulotining sifatini baholash. Margarin mahsulot-larining sifati amal qiluvchi davlat standarti, tarmoq standarti va organoleptik, fizik – kimyoviy ko'rsatkichlari bilan baholanadi.

Margarin sifatini baholash. Margarin mahsulotlari sifatiga qo'yiladigan talablardan biri unda begona hid va maza bo'imasligi, sariyog'ga o'xshash hid va mazaga ega bo'lishi kerak.

Margarin konsistensiyasi tez eruvchi, plastik, zich, qirqilganda yuzasi yaltirashi hamda ko‘rinishi quruq bo‘lishi kerak. Bo‘yalgan margarin rangi butun massasi bo‘yicha och sariq rang, shokoladli margarin rangi jigar rangdan to‘q jigar ranggacha bo‘ladi. Margarin pachkalari ezilmagan, yorliqlari aniq bo‘lishi lozim.

Maza va hidning buzilishi. Ivitilmagan sut qo‘shib hid beruvchi moddalar qo‘shilmaganda, hidsiz va mazasi noma’lum bo‘lgan margarin olinadi.

Mazasiz sut, yomon aromatizatorlar, yomon dezodoratsiyalangan yog‘ ishlatilganda bemaza margarin ishlab chiqariladi. Yomon tuz va sutning kuyundi mazasi mahsulotga taxir maza beradi. Kislotaligi yuqori bo‘lgan sut ishlatilsa margarinda nordon maza hosil bo‘ladi.

Margaringa mol yoki qo‘y yog‘i aralashib qolsa, mol yog‘i mazasi keladi. Achib ketgan sutni ishlatilganda margarindan pishloq, tvorog mazasi keladi. Mahsulot metal idishda uzoq vaqt saqlansa metall maza kelishi mumkin. Sovun qoldiqlari bo‘lgan yog‘ ishlatilsa margarinda ishqor maza bo‘ladi.

Margarin konsistensiyasi nuqsonlari. Margarin yumshoq, qattiq, uqlanib ketadigan konsistensiyali bo‘lsa, bu margarin tarkibidagi yog‘ retsepturasi noto‘g‘ri tuzilganligi yoki yog‘ aralashmasining qattiqligi yuqori bo‘lganidan dalolat beradi.

Sovutish rejimi noto‘g‘ri olib borilsa, margaringa ortiqcha mexanik ishlov berilsa kristallar juda maydalanih ketsa ham margarin konsistensiyasi buziladi. Loyqa tomchi hosil bo‘lishi ivitilmagan yoki yaxshi ivitilmagan sut ishlatilganligini ko‘rsatadi. Emulgator kam qo‘shilsa yoki sifati past bo‘lsa yirik sut tomchilari hosil bo‘ladi.

Qadoqlash va rangidagi nuqsonlar. Emulsiya bir maromda sovutilmasa, margarin yuzasi marmar tusiga ega bo‘lmay, yo‘l-yo‘l va hol-hol bo‘lib qoladi. Bo‘yovchi modda sifatsiz bo‘lsa, yoki miqdori yetarli bo‘lmasa rangi och bo‘ladi. Tayyor mahsulot rangi kul rangga yaqin bo‘lsa, bu yog‘ yaxshi oqlanmaganligidan dalolat beradi. Margarin mahsulotini saqlash davrida taraning namlanib qolishi, bu margarin emulsiyasining barqarorligi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Margarinni fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari uni oziqa qiymatini belgilaydi. Amaldagi davlat tarmoq standartlarida yog‘ miqdori, namlik va uchuvchan moddalar miqdori, erish harorati, kislotaligi qat’iy chegaralanib qo‘yiladi.

Margarindagi yog‘ miqdori uni energetik qiymatini, mahsulotni to‘yimlilagini belgilaydi va qaysi maqsadda ishlatilishiga qarab o‘zgaradi.

Margarindagi suv miqdori sut tarkibidagi shakar va tuz eritmalar bilan kiritilgan suvni umumiyl miqdori bilan birga hisobga olinadi.

Davlat standarti bo‘yicha mahsulotning ko‘pchilik turida namlik miqdori 17% atrofida, past kaloriyalı uchun 24% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Margarindan ajratib olingan yog‘ning erish harorati 27°C dan 32°C gacha, margarin kislotaligi 2 dan 2,5 Kettstorfer graduslarida bo‘lishi lozim.

Qandolatchilik, oshpazlik va nonvoylig yog‘larining sifatini baholash

Mahsulotni mazasi va hidi uning turi va retsepturasiga bog‘liq bo‘ladi. Yog‘lar fosfatid konsentrati qo‘shib tayyorlangan bo‘lsa, fosfatid mazasi keladi. Pechene, shokolad mahsulotlari, keks ishlab chiqarishda ishlatiladigan yog‘lar begona maza va hidsiz bo‘lishi va qo‘shilgan hid beruvchi moddaning hidi kelishi kerak.

Rangi butun massa bo‘yicha oq rangdan sariq ranggacha bo‘lib, bir xil bo‘lishi lozim.

Yog‘lardagi namlik va uchuvchan moddalar miqdori 0,3% dan ortiq bo‘lmasligi ; kislota soni 0,4 dan 1 mg KON gacha; erish harorati vafla ishlab chiqarishda foydalanilsa $26-30^{\circ}\text{C}$ bo‘lishi kerak.

Takrorlash uchun savollar.

1. Margarin ishlab chiqarish texnologiyasini parametrlari.
2. Margarin ishlab chiqarish usullari.
3. Margarin ishlab chiqarish bosqichlari
4. Uzluksiz margarin ishlab chiqarish texnologik sxemasi
5. Aralashtirish, emulsiyalash jarayonlari

6. Margarin retsepturasi qanday tuziladi?
7. Margarin ishlab chiqarishning asosiy xomashyolari nimalardan iborat?
8. Margarin ishlab chiqarish texnologiyasining texnologik rejimlarini ayting.
9. Margarin ishlab chiqarish usullari haqida gapirib bering.
10. Quyma margarin ishlab chiqarish haqida nima bilasiz?
11. Suyuq margarin ishlab chiqarish haqida nima bilasiz?
12. Oshpazlik yog‘lari ishlab chiqarish haqida gapiring.

13 – MA’RUZA MAYONEZ ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI

Reja: Asosiy hom ashylari va komponentlarni tayyorlash. Mayonez pastasini tayyorlash. Mayonez ishlab chiqarish texnologik sxemasi va bayoni. Margarin mayonez sexlardagi sanitar – gigienik sharoitlar.

Tayanch so‘z va iboralar: tuxum kukuni, gorchitsa kukuni, letsetin, ozuqaviy soda, o‘simplik moyi, komponentlar, quruq sut, mayonezli masla, shakar, qora muruch, tuz

Mayonez aksariyat aholining kundalik suyub istemol qiladigan mahsulotlaridan biri hisoblanadi. U taomlarni hazm bo‘lishi va ta’mi yaxshilaydigan qo’shimcha sifatida, hamda turli ovqatlarni tayyorlashda masalliq sifatida qo’llaniladi.

Mayonezlar malhamsimon mayda dispersli “moy-suv” tipidagi emulsiya bo’lib, rafinatsiyalangan, hidsizlantirilgan o‘simplik moylariga emulgator, stabilizator, ta’m beruvchi moddalar, quyultiruvchi modda, xushbo‘y xid va ma’za beruvchi moddalar qo’shib tayyorlanadi.

Soussimon ta’m beruvchi qo’shimchalar butun dunyoda azaldan ma’lum, biroq amalda ular fransuz oshpazlari tomonidan kashf etilgan deb hisoblanadi. Ular turli xil bo’lib(3000 xil atrofida), asosan fransuzcha sous nomi bilan tanilgan. An’anaga ko’ra ular muallif nomi, sous yaratilgan joy yoki suyub iste’mol qilinadigan xudud nomi bilan atalgan. Mayonezni yaratilishi bevosita Magonaning birinchi gersogi sarkarda Lui Krilon nomi bilan bog’liq. U boshchiligida 1782 yilda ispanlar O’rta yer dengizidagi Monerku orolini bosib olishadi. Urushdan so’ng mamlakat poytaxti Maon shahrida g’oliblarga ziyofat uyuştiriladi va shunda orlda yetishtiriladigan zaytun moyi, indeyka tuxumi, limon sharbatи va qizil qalampirdan tayyorlangan sous dasturxonga tortiq etiladi. Bu sous maoncha nomi bilan fransuzchada mayonez (mayonnaise) deb talaffuz etiladi.

Hozir kungacha mayonez ancha ommalashib, uning nomi tarkibida o‘simplik moyi, tuxum va sirka(yoki limon soki) mavjud bo’lgan barcha sousli ma’sulotlarning umumiy nomiga aylandi.

MDHda mayonezni qo’llash uslubi G’arbiy Yevropadan farq qiladi. Masalan Rossiya standarti bo'yicha mayonezlar tarkibidagi yog’ miqdoriga qarab yuqori, o’rta va past kaloriyaligi turlarga bo’linadi.

Standartga muvofiq yuqori kaloriyalilarga (yog’ miqdori 55% dan ortiq) “Provansal”, “Sutli”, “Tuxumli”, “Bahor” va h.k.; o’rta kaloriyalilarga (yog’ miqdori 40% dan 55% gacha ortiq) “Lyubitelskiy”, “Osenniy”; past kaloriyalilarga (40% dan kam) “Xantalli”, “Salatli” va boshqalar kiradi. Yevropada mayonez asosan buterbrod va poliz mahsulotlaridan tayyorlangan salatlarda (bunda “yengil mayonez”, ya’ni yog’liligi kam bo’lgan mayonez) qo’llaniladi, Rossiyada esa go’shtli va baliqli taomlarda yuqori yog’li mayonezlar qo’llaniladi.

Horijda turli xil mayonezlar ishlab chiqariladi va ular quyidagicha sinflanadi:



Oziqaviy emulsiyalar haqida tushuncha

Emulsiya – bu ikkita bir birida erimaydigan yoki kam eriydigan suyuqliklardan tashkil topgan geterogen sistema bo’lib, bunda bir suyuqlik(dispers faza) ikkinchi suyuqlik (dispers muhit)da juda ko’p mayda tomchilar ko’rinishida tarqalgan bo’ladi. Mayonez o’simlik moyi va suvli eritma aralashmasidan iborat emulsiya hisoblanadi.

Emulsiya, sistemaga tashqi tomondan qaralganda bir jinsli bo’lib ko’rinadi, aslida esa bir modda boshqasida mayda zarrachalar (tomchilar) holida yoyilgan bo’ladi.

Emulsiyalar ikki xil bo’ladi: to’g’ri emulsiya-qutbsiz suyuqlik (moy) qutbli(suv)da, M-S; teskari emulsiya-qutbli suyuqlik(suv) qutbsiz(moy)da, S-M. Emulsiyaning aralashgan turi moyning suvdagi yuqori konsentrasiyasida, bo’lishi mumkin. Masalan, sariyog’. Shu tufayli sariyog’ eritilganda sachramaydi. Sariyog’ning bir grammi 9-25 mld moyli zarrachalardan va 8-16 mld suvning tomchilaridan iborat.

Mayonez emulsiyasi birinchi tur emulsiyaga kiradi.

Emulsiyalar mono- va polidispers kabi turlarga bo’linadi, ya’ni bunda dispers faza tomchilarining o’lchamlari bir xil yoki turli xil bo’ladi. Dispers fazaning konsentrasiyasi bo’yicha emulsiyalar suyultirilgan, konsentrangan va yuqori konsentrangan bo’ladi. Suyultirilgan emulsiyalar 0,1% gacha dispers fazaga ega bo’ladi. Ular yuqori dispers hisoblanib, ulardagи tomchilar diametri 100 nm atrofida va tomchilar doira shaklida bo’ladi. Konsentrangan emulsiyalarga 74% gacha dispers fazaga ega bo’lgan emulsiyalar kiradi. Bu mono dispers sistemada (bir xil o’lchamli tomchilarda) deformasiyalangan doira shaklidagi tomchilarning bo’lishi mumkin bo’lgan miqdoridir. Bunday konsentrasiyada emulsiya faqat emulgator bo’lganda barqaror bo’ladi, dispers fazaning bir nechta tomchilari kontaktda bo’ladi va ular birlashib ketishi mumkin.

Yuqori konsentrasiyali emulsiyalar deformasiyalangan tomchilarga ega bo’ladi, dispers muhit esa ularni yupqa qatlam – emulsiya pardasi bilan qisman o’rab oladi.

Oziqaviy emulsiyalar, haqiqatda, ko’p komponentli bo’ladi va murakkab sistema hisoblanadi.

Emulsiya – fizikaviy beqaror sistema bo’lib, qatlamlarga ajralgan bo’ladi. Emulsiyani barqarorligini oshirish uchun emulgatorlardan foydalilanadi.

Fazalararo yuzadagi ortiqcha erkin energiya sababli suyuqliknинг alohida tomchilarini bir-biri bilan o’zaro birlashishi emulsiya aggregativ jihatdan beqaror ekanligini ko’rsatadi. Amalda bu narsa emulsiyaning to’liq buzilishiga va uning ikki qatlamga ajralishiga olib keladi. Aggregativ barqarorlikni oshirish uchun maxsus stabilizator-emulgatorlar(SAM)dan foydalilanadi. Gidrofil emulgatorlar suvda yaxshi eriydi va M-S tipidagi emulsiya hosil qiladi, gidrofob (oleofil) emulgatorlar esa moyda yaxshi eriydi va S-M tipidagi emulsiyani turg’unlashtiradi.

Emulgator termodinamik nuqtai nazardan qaraganda, fazalar chegarasida qobiq ko’rinishda adsorbsiyalanadi va fazalararo taranglikni pasaytirib, dispers faza zarralarini birlashishiga qarshilik qiladi, hamda ularni dispers muhitda ushlab turadi. Natijada emulsiyani aggregativ barqarorligini ta’milnadi. Adsorbsion qatlam qalinligi qanchalik kichik bo’lsa, shunchalik emulgatori sarfi kam bo’ladi.

Emulgator molekulalari difil xarakterga ega bo’lib, ular uglevodorod radikalni (qutbsiz qismi) va qutbli guruhdan tashkil topgan. Ularning emulsiyalash qobiliyati qutbli va qutbsiz guruhlar muvozanatiga bog’liq. Yaxshi muvozanatlangan difil xarakterli molekulaga fosfolipidilxolin

(lesitin) kiradi. U sanoat uchun ishlatiladigan emulgatorlarni sintez qilishda ishlatiladi.

Mayonez ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan emulgatorlar:

-oziqaviy fazilatga ega bo'lishi va fiziologik zararsiz bo'lishi;

-emulsiyaning yuqori dispersligi va barqarorligini mustahkamlashi; -ishlab chiqarish jarayonida, mexanik ishlov berganda, mayonezda namlikni tutib qolishi;

-sachrashga qarshi xossalarga ega bo'lishi;

-mayonezni saqlashda turg'unligini ta'minlashi kerak.

Emulgatorlar ikki tomonlama harakat mexanizmiga ega:

- emulgator ajratuvchi faza sirtiga adsorbsiyalanib, sirt tarangligini kamaytiradi;

- dispers fazalar sirtiga emulgator molekulasi joylashib olib ularga itarilib turuvchi elektr zaryad beradi.

Emulgatorlar quyidagilar bo'yicha sinflanadi:

- suvli sistemadagi elektrokimyoiy zaryadga ko'ra;

- erituvchiga nisbatan;

- molekuladagi funksional guruhlarga nisbatan;

- gidrofil va lipofil guruhlar nisbatiga (gidrofil-lipofil balansi GLB) ko'ra.

Shu qilib, emulgatorlar birlamchi disperslanishni osonlashtiradi va emulsiyaga biroz barqarorlik beradi. Biroq uzoq muddatli barqarorlikni emulgatorlar ta'minlay olmaydi.

Emulsiyani buzilishi quyidagi jarayonlarda kuzatiladi: agar emulsiyada qatlamlarga ajralish (sedimentasiyali yoki kinetik beqarorlik); flokulyasiya(dispers faza zarrachalarining aggregatlarini hosil bo'lishi); kolessensiya(agregativ beqarorlik); Osvald bo'yicha yetilish sodir bo'lsa.

Monodispers emulsiyani qatlamlarga ajralish(sedimentasiya) jarayoni Stoks qonuniga bo'y sunadi:

$$U = \frac{2gr^2(\rho_1 - \rho_2)}{9\eta}$$

bu yerda U – sedimentasiya tezligi;

r - zarracha radiusi;

ρ_1, ρ_2 - dispers faza va dipers muhit zichligi;

η - dispers muhit qovushqoqligi;

g - og'irlilik kuchi tezlanishi

Sedimentasiya tezligi qanchalik katta bo'lsa, dispers faza tomchisining o'lchami shuncha katta va dispers muhit qovushqoqligi shuncha kichik bo'ladi.

Osvald bo'yicha yetilish jarayoni polidispers sistemalarda mayda tomchilar hisobiga yirik tomchilarni ko'payish yo'li bilan sodir bo'ladi. Bu dispers muhitda moddalarning mayda tomchilarini yuqori eruvchanligi va keyinchalik bu moddalarni yirik tomchi sirtiga o'tirgan eritmadan ajralib chiqishi sababli yuzaga keladi.

Yupqa dispersiyali emulsiyalarni barqarorligini dispers muhit qovushqoqligini oshirib ko'tarish mumkin. Buning uchun stabilizatorlar yordam beradi. Bu moddalar faqatgina suvli fazada erishi va kolloid eritma hosil qilish yo'li bilan uning qovushqoqligini oshirishi lozim.

Uzun zanjirli strukturaga egaligi sababli stabilizatorlar dispers faza zarralarini qoplab oladi, emulgatorlarga o'xshab struktura ichiga kirmaydi, elektr zaryadni kuchaytiradi(solvat qobiqni mustahkamlaydi). Shu sababli sistema barqarorligini oshiradi. Makromolekulyar gidrofil stabilizatorlar sedimentasiyaga qarshilik qiladigan qovushqoq eritmalar hosil qiladi. Bularga gidrokolloidlar kiradi.

Tarkibida ko'p suv tutadigan quyi va o'rta kaloriyalı mayonezlarning barqaror qovushqoq gelsimon strukturasini hosil qilish uchun resepturaga quyultiruvchi-struktura hosil qiluvchi moddalar qo'shiladi. Dispers muhitda quyultiruvchi modda qo'llanilganda emulsiya gelga aylanadi. Bu emulsiyani fazalarga ajralib qolishiga yana bir to'siq bo'ladi.

Mayonez olish uchun asosiy homashyolar

Mayonezning asosiy komponenti bo'lib rafinatsiyalangan hidsizlantirilgan o'simlik moyi hisoblanadi. Salomas ishlatilishi mumkin emas, chunki u emulsiyani buzadi. Emulgator sifatida

quruq sut yoki tuxum kukuni ishlataladi. Quruq sut struktura tuzuvchi bo'lib, oqsillar suvda bo'kib, namlikni ushlashiga (saqlashga) yordam beradi.

Xantal kukuni ta'm beruvchi qo'shimcha bo'lib hisoblanadi. Uning tarkibidagi oqsillar emulsiyalashni ta'minlaydi.

Tuz, shakar ta'm beruvchi qo'shimchalar sifatida ishlataladi.

Oziqa sodasi aniq pHni saqlaydi, bu esa sutning oqsillari bo'kishini yaxshilaydi.

Sirka kislotasi, ta'm beruvchi qo'shimcha bo'lib, mayonezning bakterisid xossalarini oshiradi.

Suv esa tuz va shakarni eritish, oqsillarni eritish va bo'kdirish uchun ishlataladi.

Suyuq o'simlik moylari, shakar, sut, tuzlarni sifatiga margarin ishlab chiqarishda qanday talablar qo'yilgan bo'lsa, xuddi shunday talablar qo'yiladi. Tuxum kukuni begona hid va ta'mga ega bo'lmasligi kerak. Xantal(xantal) kukuni quruq bo'lishi va o'tkir allil moyi hidiga ega bo'lishi lozim.

Mayonez resepturasi va assortimenti

Mayonezlar ziravorli, maza beruvchi va dirildoq hosil qiluvchi qo'shimchalar qo'shilgan oshxona, parhyez va bolalar uchun guruhlarga bo'linadi:

-Oshxona («Provansal», «Sutli», «Lyubitelskiy») mayonezlari nafis nordonroq ta'mga, yaxshi qovushqoqlik va konsistensiyaga ega.

-Ziravor qo'shilgan mayonezlar («Baxor» ukropli; «Xantalli»va boshqalar) o'zini ta'mi va mazasi bo'yicha "Provansal" mayoneziga o'xshaydi, lekin qo'shilgan dorivorni ta'mi va hidi sezilib turadi. Bu mayonezlar salatlar va sabzavotli, baliqli, go'shtli taomlarni xushxo'r qilish uchun ishlataladi.

Ziravorli, maza beruvchi va dirildoq hosil qiluvchi qo'shimchali mayonezlar achchiq va shirin ta'mli guruhlarga bo'linadi. Achchiq ta'milarga "Gorchichnyy", "Prazdnichnyy", "Ogonyok" va boshqalar , shirin ta'milarga esa "Apelsinli", "Asalli" va boshqalar kiradi. Bu mayonezlar qo'shilgan essensiya xos shirin ta'mga ega bo'ladi. Ularda dirildoq hosil qiluvchi qo'shimcha sifatida fosfatli kraxmal ishlataladi va bu mayonezlardan mevali va boshqa salatlarni xushxo'r qilishda foydalaniladi. Shuningdek ular bolalar ovqatlanishida va buterbrod mahsuloti sifatida ham ishlataladi.

«Diabetik» mayonezga shakar o'rniga ksilit qo'shiladi. Bu mayonezga shirin ta'm beradi.

Ayrim mayonezlarning resepturasi 17 – jadvalda ko'rsatilgan.

17 - jadval

Mayonez retsepturasi

Komponentlar	Mayonez turi		
	provansal	bahor	xantalli
<i>O'simlik moyi</i>	65,4	65,6	35,0
Tuxum kukuni	5,0	5,0	6,0
<i>Quruq sut</i>	1,6	1,6	2,5
Shakar	1,5	1,5	3,0
Tuz	1,2	1,3	2,0
Soda	0,05	0,05	0,05
Gorchitsa kukuni	0,75	0,75	1,2
80 %-li sirka kislotasi	0,65	0,75	1,1
Qora murch	-	0,175	-
Garmdori	-	0,05	-
Suv	23,85	23,2	49,15
Ja'mi	100 %	100 %	100 %

Mayonez ishlab chiqarish texnologiyasi

Mayonez ishlab chiqarishda davriy va yarim uzluksiz ishlovchi texnologik sxemalardan foydalaniladi.

Davriy usul quyidagi bosqichlardan iborat:

- komponentlarni tayyorlash
- pastani tayyorlash
- «dag’al» emulsiyani tayyorlash
- mayda dispersli emulsiyani tayyorlash
- aromatik va ta’m beruvchi qo’shimchalarini qo’shish.

Komponentlarni tayyorlash. Sochiluvchan komponentlar: quruq sut, shakar, tuxum va xantal kukunlari va tuz, katakchalar o’lchami 1-3 mm li vibroelaklarda elanadi.

Sirka kislota qo’shilgan tuzli eritma maxsus idishda tayyorlanadi. U yerga birinchi konsentrasiyasi 13-15% bo’lgan tiniq tuzli eritma beriladi, keyin 80 %-li sirka kislota kerakli miqdorda solinadi. Eritmani konsentrasiyasi 7-9 % bo’lishi kerak.

Mayonez pastasini tayyorlash. Aralashtirgichlarning biriga 90-100°C li suv quyiladi va xantal kukuni solinadi. Xantal kukuni: suv nisbati 1: (2-2,5)ga teng bo’lishi kerak. Bir jinsli modda hosil bo’lguncha aralashtiriladi. So’ngra 35-40°Cli suv, quruq sut, soda va shakar qo’shiladi. Quruq sut: suv nisbati 1:3ga teng bo’lishi lozim. Keyin aralashtirgichni ishlatib g’ilofiga bug’ beriladi. Komponentlarning yaxshi erishi uchun haroratni 90-95°Cgacha yetkazib 20-25 minut davomida ushlab turiladi. So’ngra aralashmani 40-45°Cgacha sovitiladi.

Ikkinci aralashtirgichga tuxum kukuni va 40-45°Cli suv beriladi. Ularning nisbati 1:2ga teng bo’lishi lozim. Aralashtirib, 60-65°Cgacha isitilib, 20-25 minut davomida ushlab turiladi. Keyin 30-40°Cgacha sovitiladi.

Mahsulotni dispersiyalash va gomogenlash

Tovar holdagi mayonez olishning tugal bosqichi gomogenlash jarayoni hisoblanib, u porshenli gomogenzatorlar yordamida amalga oshiriladi. mayonez emulsiyasini gomogenlash ruxsat etilgan past bosimda olib borilishi lozim.

Gomogenizasiya deb suyuq va pyuresimon oziq-ovqat mahsulotlarini ingichka halqasimon tirqishlar orqali yuqori bosim ostida katta tezlikda o’tkazish hisobiga maydalash jarayoniga aytildi. Turli gidrodinamik omillarni ta’siri natijasida mahsulotni qattiq zarrachalarini maydanishi va ularni jadal mexanik ishlov berilishi sodir bo’ladi. Gomogenzasiya nafaqat mahsulotni oqsil komponentdarini o’zgartiradi, balki mahsulotni fizik-kimyoviy xossalari(zichlik, qovushqoqlik va boshqalar)ga ham ta’sir etadi. Gomogenlash vaqtida shar shaklidagi zarrachalar o’lchami 3,5-4 mkm dan 0,7-0,8 mkm gacha kamayadi.

Gomogenizatorlar klapanli, diskli yoki markazda qochma va ultratovushli kabi turlarga bo’linadi. Gomogenizatorlar konstruksiyasini belgilovchi asosiy omil undagi plunjeler soni hisoblanadi. Plunjeler soniga qarab gomogenzatorlar bir, ikki, uch va besh plunjeli bo’ladi.

Eng keng tarqalgani klapanli gomogenizatorlar bo’lib, ularning asosiy mexanizmlari yuqori bosimli nasos va gomogenlovchi qalpoqcha(golovka) hisoblanadi. Gomogenizatorda bosim miqdori gomogenlovchi qalpoqcha(golovka)dagi tor tirqish(zazor)ni boshqarish orqali belgiladi.

Emulsiyani gomogenizatorga uzatishda talab etilayotgan konsistensiyadagi mayonez olishni ta’minlaydigan optimal bosim o’rnataladi. Kerakli bosim o’rnataligunga qadar mayonez gomogenzatordan keyin qaytadan katta aralashtirgichga kelib tushaveradi. Yuqori yog’li mayonezlar uchun optimal bosim 0,9-1,1 MPa, yog’ligi past bo’lgan mayonezlar uchun 15,0-17,5 MPa, salatlgi qo’shimchalar uchun 12,5-13,0 MPa belgilangan.

Katta aralashtirgichda emulsiya sekin aralashadi, jadal aralashtirish emulsiyani buzilishiga(qatlamlarga ajralishiga) yoki fazalarni o’zgarishiga, cho’kma hosil bo’lishi(aralashtirmaganda) olib keladi, hamda qatlamlarga ajralishga olib kelishi mumkin. Kerakli bosim o’rnatalgandan so’ng mayonez gomogenizatordan tayyor mayonez bakiga yo’naltiriladi. Optimal bosimdan chetlanish aniq konsentrasiyala emulsiyani buzilishiga olib keladi: bosim oshib ketgan vaqtda adsorbsion plynoka buziladi va bu moyli va suvli fazalarni koalessensiyasiga olib

keladi; bosim pasayib ketganda esa nozik dipersiyagacha yetib bormaydi, bu albatta barqaror emulsiya olish imkonidan mustasno qiladi.

Porshenli gomogenizatorlardan foydalanilganda havoni so'riliш imkoniyati va uni klapan ostiga joylashib, klapanning va umuman gomogenizatorning, ishlashini buzishi mavjud emas.

Tayyor mayonez sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri reseptura komponentlari bilan birga qo'llaniladigan texnologik uslub, rejim, hamda texnologik qurilmalar hisoblanadi.

Mayonez olishning zamonaviy usullari davriy, yarim uzlusiz va uzlusiz kabi turlarga bo'linadi.

Yarim uzlusiz liniyalarga "Gilder Corp" AQSh(1t/soat), "Cherry Burrell" AQSh(680 kg/soat), "Shreder" Gollandiya firmalarining liniyalari kiradi.

Yog' moy korxonalarida mayonez ishlab chiqarish uchun "Shreder" yarim uzlusiz liniyasi keng qo'llaniladi. Ushbu liniyada mayonez ishlab chiqarish texnologiyasi barcha reseptura komponentlarini 4 fazaga ajratishni asoslangan: o'simlik moyi, tuxum kukunini o'simlik moyidagi suspenziyasi, sirka kislota eritmasi va boshqa reseptura komponentlari. Dastlab kombinator-emulgatorda ikkinchi va to'rtinchi fazalarni birinchi faza bilan jadal aralashtirib dag'al emulsiya olinadi. Gomogenlash stator va rotor oralig'idagi tor tirkish(0,1-1,5mm) orqali dag'al mayonez emulsiyasini yuqori bosimda o'tkazish bilan visko-rotorda amalga oshiriladi. Visko-rotorga dag'al emulsiya bilan birga sirka kislota ham beriladi. Tayyor mayonez sovutiladi va qadoqlashga beriladi.

Uzlusiz liniyalarga "Holsum Food Co" AQSh(6000l/soat), "Jonson"(1t/soat gacha) va "A1-JMO"(1t/soat) liniyalari kiradi.

"Jonson" uzlukchiz liniyasida mayonez ishlab chiqarish quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- reseptura komponentlarini dozalash;
- massani emulsiyalash;
- emulsiyani filtrlash;
- deaerasiyalash, vatatorda sovutish;
- dispersiyalash va gomogenlash;
- quyish va qadoqlash;
- etiketkalash va korobkalarga joylash;
- omborga jo'natish.

Mayonez resepturasi bo'yicha tortilgan komponentlar quyidagi ketma-ketlikda asosiy aralashtirgichga beriladi: suv, sirka, tuxum kukuni; biroz vaqtidan keyin – quruq sut, xantal, shakar, soda, tuz va rafinatsiyalangan-dezodorasiyalangan moy.

Aralashtirishdan so'ng dag'al emulsiya 0,2-0,25 MPa bosim ostida deaeratorga haydaladi. Bu yerda emulsiyadagi havo va xantalningshuchuvchan aromatik moddalari yo'qotiladi(0,008-0,013 MPa).

Keyin emulsiya vatatorga beriladi, bu yerda sovuq suv bilan sovutiladi va ta'minlash baki orqali gomogenlashga beriladi. Gomogenlash 1,5-2,0 MPa bosim ostida amalga oshiriladi, buni natijasida 1-10 mkm disperslik darajasi ta'minlanadi. Keyin tayyor mahsulot qadoqlashga beriladi.

Mayonez ishlab chiqarishning yarim uzlusiz va to'liq uzlusiz liniyalari bir qator kamchilik va afzalliklarga ega.

Afzalliklari:

- yuqori unumдорлик;
- to'liq avtomatlashtirish imkoniyati;
- mahsulot sifatining doimiylik kafolati;
- eskirgan va nosoz qismlarini almashtirishning osonligi.

Kamchiliklari:

- katta maydon egallashi;
- xom ashyo sig'imining kattaligi;
- yuvish vositalarini ko'p sarf etilishi;
- sanitar-gigiyenik chora-tadbirlarni olib borishda mahsulot yo'qotilishining ko'pligi.

Davriy usulga ishlab chiqarish quvvati 600-1200 kg/soat bo'lган "Shtefan" va "Korum"

firmalarining liniyalari kiradi.

Davriy usulda mayonez ishlab chiqarish texnologiyasi quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- sochiluvchan va suyuq komponentlarni tayyorlash
- mayonez pastasini tayyorlash va uni pasterizasiyalash
- dag'al emulsiya olish
- nozik dispersiyali emulsiya olish(gomogenlash)
- sovutish, quyish, qadoqlash
- saqlash, realizasiya.

Resetura komponentlarini apparatga solish ma'lum ketma-ketlikda amlga oshiriladi. Dastlab suv solinadi va u $40-45^{\circ}\text{C}$ haroratgacha qizdiriladi, keyin vakuum hosil qilinib sochiluvchan komponetlar(quruq sut, shakar, xantal, tuz, soda va b.) aralashtirgichga solinadi. Hosil bo'lган aralashma $65-75^{\circ}\text{C}$ haroratgacha qizdiriladi va keyin 50°C haroratgachasovutiladi, so'ng tuxum kukuni solinadi. Komponentlarni yaxshi taqsimlanishi va disperslik darajasino oshirish uchun aralashma nasos gomogenizator orqali sirkulyasiya qilinadi. Olingan mayonez pastasi 40°C haroratgachasovutiladi va unga moy qo'shiladi. Natijada to'g'ri emulsiya hosil bo'ladi. Moy qo'shib bo'lingandan keyin sirka kislotasi qo'shiladi. Emulsiya gomogenizator o'tkaziladi va sovutishga beriladi. Sovutilgan mayonez qadoqlashga ketadi.

Mayonez emulsiyasini tayyorlashning davriy usuli ikkita muhim afzalliklarga ega: uskunalarni arzonligi, hamda katta bo'lмаган ishlab chiqarishga moslashuvchan va barqarorlik.

Mayonez ishlab chiqarishni texnologik sxemasi (32-rasm). Mayonez pastasini tayyorlash jarayonini avtomatik boshqarish pult orqali olib boriladi. Apparat komponentlarni berish va bo'shatish patrubkalari, hamda sath, bosim, harorat datchiklari bilan jihozlangan. Qurilma tarkibiga surf sig'imi^lari va dozalash jihozlari ham kiradi. Mayonez tayyorlash quyidagi texnologik sxema bo'yicha olib boriladi.

Rafinasiyalangan va dezodorasiyalangan yog' surf baki(2)ga beriladi. Sirka kislotaning 9 % eritmasini tayyorlash uchun idish(4)ga kerakli miqdorda suv solinadi va konsentrangan sirka kislotasi vakuum nasos yordamida beriladi. Tayyor eritma mayonez ishlab chiqarishga sarflanadi va avtomatik ravishda dozalanadi. 70-80%li oziqa sirka kislotasini ham ishlatish mumkin.

Aralashtirgich(6)ga bak(3)dan dozalash uskunasi orqali suvning reseptura bo'yicha kerakli miqdori beriladi va 40°C gacha isitiladi.

Suvni isitish bak – aralashtirgichning bug' kuylagiga bug' berish bilan aralashtirgich va dispergator(8) ishchi holatda bo'lгanda olib boriladi. Suvning harorati 40°C gacha yetganda, vakuum sharoitida, quruq komponentlar aralashtirgichi(5)dan xantal kukuni beriladi.


Aralashtirgichni ishchi holatida xantal kukuni solingandan so'ng, xantalli aralashma resirkulyasiya qilinib, harorati 50°C ga yetkaziladi, so'ngra vakuum ostida quruq komponentlar: quruq sut, tuz, shakar, soda bak(1)dan beriladi.

Quruq sut – xantal aralashmasidagi komponentlarni yaxshi erishi va pasterizasiyalanishi uchun haroratni $65-70^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tariladi, keyin $50-45^{\circ}\text{C}$ gachasovutilib, 1-bakdan tuxum kukuni beriladi.

Komponentlar dispersligini oshirish uchun mayonez pastasini doimiy dispergator(8) orqali resirkulyasiya qilinadi.

Tayyorlangan mayonez pastasi 40°C gachasovutiladi va uni ustiga uzluksiz aralashtirish va resirkulyasiyalash ostida sig'im(2)dan $20-25^{\circ}\text{C}$ haroratdagi o'simlik moyi beriladi. So'ngra sig'im(4)dan dozalash uskunasi orqali sirka kislotasining kerakli miqdori beriladi va 1-2 min davomida aralashtiriladi. Tayyor mayonez bak(9)ga uzatiladi va nasos yordamida qadoqlashga yuboriladi.

Dastlab mayonez UD-2 markali apparat(10)da idishlarga quyiladi va UU-5 markali apparat(13)da qopqoqlanadi. So'ng idishlar EM-155 markali apparat(14)da etiketkalanadi. Keyin mahsulot nazoratdan o'tkazilib TPTS-45 apparati(15)da o'raladi va omborga yuboriladi. Xar bir partiyadan tezkor nazorat uchun namunalar olib turiladi.



32 – rasm. Mayonez olishni texnologik sxemasi

Margarin zavodlaridagi sanitar-gigienik sharoit. Saqlashga chidamli va sifatli margarin mahsulotlari ishlab chiqarish zavoddagi sanitar-gigienik tartib qoidalarga rioya qilinishiga bog‘liq.

Binoning sanitar holati. Ishlab chiqarish binolari ko‘p tabiiy yorug‘likka ega bo‘lishi kerak; binoni yetarli shamollatish uchun oynalar framuga bilan ta’minlanishi, yoz faslida asosiy mikrob tashuvchilar-pashshalardan himoya qilish uchun to‘r bilan to‘silishi kerak.

Sut bo‘limiga tozalik-bo‘yicha jiddiy talablar qo‘yilada, u boshqa bo‘lim-lardan ajratilgan bo‘lishi kerak va begonalar kirishiga yo‘l quyilmaydi.

Devorlar kamida 2m balandlikkacha kafel bilan qoplanadi yoki moyli kraska bilan bo‘yaladi va haftada kamida bir marta yuviladi. Hamma binolarning pollari suv o‘tkazmaydigan metlax plitalar bilan qoplangan va kanalizatsiya suvi chiqib ketadigan tomonga qiya qilib yasaladi va bir kunda bir necha marta yuviladi. Devor va shipda mog‘orlar paydo bo‘lganda oqlashdan oldin mahsus anseptik moddalar bilan ishlov beriladi. Ishlab chiqarish binolarini, eshiklari va tutqichlari har kuni issiq sovunli suvda yuviladi. Ishlab chiqarish va maishiy binolar orasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa bo‘lmasligi kirish-chiqish eshiklari alohida bo‘lishi kerak.

Sovutkich-omborxonalarda mahsulotni buzilishiga olib keluvchi asosiy sabab mikrofloralarni faoliyatidir, shu sababli bu yerda yuqori sanitar-gigienik shart-sharoitlarni ta’minlash uchun maxsus choralar ko‘rilishi lozim. Omborlar mahsulotdan bo‘shatilib davriy ravishda dezinfeksiyalab turiladi.

Uskunalar sanitar holati. Olinadigan mahsulot sifati yuqori darajada uskunaning sanitar holatiga bog‘liq. Uskunani bakterial tozaligini ta’minlash uchun ish to‘xtatilgandan so‘ng u darhol yuvilishi kerak. Avvalo u moy qoldig‘i, sut, shakar siropi, margarin emulsiyasi yoki margarindan holi etilishi kerak. Uskunani yuvilishi yopiq sikldagi yuvuvchi eritma sirkulyasiyasi yordami bilan amalga oshiriladi.

Ishchilarning shaxsiy gigienasi. Margarin zavodiga har bir ishchi ishga kirayotganda va keyin har uch oyda tibbiy ko‘rikdan o‘tadi. Margarin zavodida ishlaydigan har bir ishchi tibbiy texminimum topshiradi va uning sanitar-daftarchasiga tibbiy ko‘rik va texminimum natijalari qayd qilib beriladi.

Margarin ishlab chiqarishni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari. Ishlab chiqarishda avtomatik liniya va yuqori quvvatli moslamalar, hamda yuqori unumdonli qadoqlash avtomatlar o‘rnatish va mahsulotni pachkalarga qadoqlashdan tashqari, uni polimer materialdan tayyorlangan taralarga quyish usulini qo‘llash mo‘ljallanmoqda.

Margarin mahsulotlari sifatini yanada yaxshilash va maqsadli yo‘nalishlarda margarin ishlab chiqarishni tashkil etish bilan uning assortimentlarini ko‘paytirish ko‘zda tutilmoqda.

Bozor ehtiyojlari, umumiyligi ovqatlanishi sistemasi va ishlab chiqarishdan kelib chiqib, margarinli mahsulotlari quyidagi assortimentlarda chiqariladi:

-oziq-ovqat ehtiyojlari uchun-buterbodli margarin, parhez margarinlari.

-uy xo‘jaligi va umumiyligi ovqatlanish sistemasida kulinar maqsadlar uchun-yog‘lar va oshxona margarinlari.

-non va konditer mahsulotlari ishlab chiqarish uchun tarkibi va texnologik sifati bo‘yicha ularni talablariga to‘liq javob beradigan maxsus turdaggi margarin va yog‘lar.

Retseptura tayyor mahsulotni yuqori oziqaviyligi, istemolchi va texnologiyani etiborga olib tuziladi.

Margarin tarkibida suyuq o‘simlik moylari miqdori oshadi va quyma, kam yog‘li, bolalar va o‘smlar istemoli uchun mo‘ljallangan, parhez margarin mahsulotlari ishlab chiqariladi (olinadi).

Takrorlash uchun savollar

1. Mayonez bu nima?
2. Xomashyo va komponentlari haqida tushuntiring.
3. Mayonez retsepturasi qanday tuziladi.
4. Mayonezli pastani tayyorlashning texnologik rejimlarini aytib bering.
5. Mayonez ishlab chiqarish texnologiyasini qisqacha tushuntirib bering.

14 – MA’RUZA

YOG‘LARNI GIDROLIZI

Reja: Gidroliz jarayoni nazariy asoslari prinsipi. Davriy usulda avtoklavlarda yog‘larni gidrogenlashning texnologik sxemasi. Avtoklavning tuzilishi va ishlashi prinsipi. Glitserinli suvni tozalan usullari. Glitserinli suvni texnologik sxemasi.

Tayanch so‘z va iboralar: gidroliz, harorat, glitserid, geteron sistema, tezlik, glitserin, yog‘ kislotasi, dissorsiyasiya darajasi, gidrolizlanish darajasi, petrov kontakti

1779 yilda birinchi bo‘lib nemis olimi Sheelee qo‘rg‘oshin oksidi ishtirokida zaytun yog‘ini sovunlash natijasida glitserin olgan. Shuning uchun glitserin «Sheelening shirin yog‘i» deb atalgan. 1823 yilda fransuz olimi Shevrol unga «Glitserin» deb nom bergan. Glitserin formulasini 1836 yili Peluz topgan. Nitroglitserin olingandan so‘ng glitserinni sanoatda ishlab chiqarish XIX asr o‘rtalarida rivojlana boshlandi.

Ayrim sanoat tarmoqlarining o‘sishi natijasida (plastmassa, maxsus laklar, buyoqlar, mono va diglitserid, parfyumeriya-kosmetika va farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish.) xalq xo‘jaligining glitseringa bo‘lgan talabi yil sayin o’sa boshladi.

Kosmetika sanoatida glitserin kremlarni (inson yuz, qo‘llarida foydala nish uchun surkov kremlar), lab buyoqlarini sifatini oshirishda, parfyumeriyada esa qo‘sishimcha mahsulot sifatida qo‘llaniladi. Bundan tashqari glitserin mato tayyorlashda, maxsus qog‘ozlar ishlab chiqarishda, rezina olishda, mashina va soatsozlik surkov moylarini, yelim va jelatin ishlab chiqarishda, fotografiya sanoatida va h.k. sohalarda keng qo‘llaniladi.

Yog‘ kislotalari har-xil turdagи sovunlar, yuqori molekulali yog‘ spirlari, alifatik aminlar olishda, rezinotexnik buyumlar ishlab chiqarishda plastifikator sifatida, ipak, jun va paxtali gazlamalar ishlab chiqarishda moylovchi sifatida keng qo‘llaniladi. Yog‘ kislotalari bilan kimyo, rezina texnika, yengil sanoat ehtiyojlarini qondirish uchun texnik olein va texnik stearin kislotalar olishda keng foydalaniadi.

Mamlakatimizda glitserin va yog‘ kislotalar asosan yog‘larni gidroliz qilish yo‘li bilan olinadi.


Glitserin va yog‘ kislotalarini olish maqsadida yog‘larni qayta ishlashni asosan ikki xil usuli mavjud:

1.- glitserinli suv va yog‘ kislotalarini olishda yog‘larni reaktivsiz parchalash. Xom glitserin olish uchun aralashmalardan tozalangan glitserinli suv konsentrланади. Glitserin va yog‘ kislotalarini yuqori sifatli navlarini olishda, xom glitserin va xom yog‘ kislotalari distillyasiya qilinadi.


2.-yog‘larni ishqor bilan sovunlab, sovun va sovun osti ishqori olish va sovun osti ishqoridan glitserinni ajratib olish.

Respublikamizda glitserin va yog‘ kislotalarni yog‘larni reaktivsiz gidroliz qilish yo‘li bilan olinadi. Bu usulda yog‘larni sovunlash orqali glitserin olishga qaraganda yuqori sifatli va ko‘proq glitserin va yog‘ kislotalari olinadi. Bundan tashqari, erkin yog‘ kislotalaridan sovun pishirishda, kaustik sodaga qaraganda arzonroq bo‘lgan natriy karbonat qo‘llaniladi.

Yog‘larning gidrolizi (sovunlanishi) – kimyoviy jarayon bo‘lib, uch glitseridni suv bilan ta’siriga asoslangan. Bunda glitserin va yog‘ kislotasi hosil bo‘ladi.



Gidroliz yoki sovunlanish texnikada yog‘ning parchalanishi deyiladi. Gidroliz bosqichli jarayon bo‘lib, mono va di glitseridlarni hosil bo‘lishi bilan boradi.



Triglitseridning gidroliz jarayoni davrida uchglitseridni miqdori sekin-asta kamayib boradi. Mono va di glitseridlar esa jarayon boshida tez ko‘payadi, keyin kamayadi. Glitserin va erkin yog‘ kislotalari miqdori jarayon boshida jadallik bilan oshib boradi, so‘ngra bu ortib borish susayib qoladi.

Turli yog‘larda 9,7 % dan 13 % gacha glitserin bor. Glitserinni nazariy chiqishini % xisobida quyidagi formuladan topiladi.

$$X = (\text{S.s.} - \text{K.s.}) / 0,0547,$$


bu yerda: 0,0547 – neytral yog‘ni to‘liq sovunlanishida 1 mg KOH sarfida 0,0547 glitserin ajralishiga ekvivalent bo‘lgan koeffitsient; S.s.-yog‘ni sovunlanish soni, mg KOH; K.s.-yog‘ni kislota soni, mg KOH.

Amalda glitserin chiqishi nazariyga qaraganda kam, bu sanoatdagи yo‘qotishlar bilan izohlanadi. Gidroliz tezligiga turli omillar ta’sir qiladi: yog‘ tabiatи, harorat, katalizator. Quyi molekulali yog‘ kislotalarining gidroliz tezligi, yuqori molekulali yog‘ kislotalarnikiga qaraganda katta, to‘yingan kislotalar esa to‘yinmagan yog‘ kislotalarga qaraganda tezroq gidrolizlanadi. Yog‘ning gidrolizi vodorod ionlari va gidroksid ionlari hisobiga tezlashadi, shuning uchun gidroliz jarayoni – katalitik jarayondir. Bu ionlar yog‘-suv sistemasiga kislota va boshqa moddalar (Petrov kontakti) sifatida kiritiladi, yoki suvni dissotsiatsiyalanishi darajasini oshirish uchun sharoit yaratib sistemadagi H^+ va OH^- ionlar konsentratsiyasi ko‘paytiriladi. 100°C dan past haroratda suvni yog‘ va yog‘ kislotalarida erishi sezilarli emas. 150°C da yog‘ kislotalarda 3-6%, 250°C da esa suv 12-25% eriydi. Harorat ko‘tarilishi bilan, dissotsiatsiya darajasi oshadi. 25°C da suvning ionlari $1,04 \cdot 10^{-14}$ mol/l bo‘lsa 200°C da esa $46 \cdot 10^{-14}$ mol/l ga yetadi. Bu esa gidrolizni katalizatorsiz olib borishga imkon beradi.

Gidroliz tezligiga yana oraliq mahsulotlar ham ta’sir qiladi, ya’ni di-, monoglitseridlar. Ular uchglitseridlarga nisbatan qutbliroq bo‘lib, yog‘da suvning erishini oshiradi. Bu gidrolizning avtokatalitik xarakterini izohlaydi, buni esa quyidagi 34- rasmida ko‘rish mumkin.

Oraliq mahsulotlar mono va di glitseridlar reaksiyani dastlabki momentida gidroliz tezligiga ta’sir etadi. Bu birikmalar tarkibidagi gidroksidlangan molekulalari hisobiga triglitseridlarga qaraganda ancha polyar bo‘ladi. Bu narsa suvni yog‘da erishini ko‘paytiradi va gidroliz tezligini oshiradi. Bundan tashqari sirt faollik xususiyati mavjudligidan ular suv-yog‘ emulsiyasini hosil qiladi, hamda sovunlashish reaksiyasini tezlatadi. Qisqacha qilib aytganda mono va di glitseridlar hosil bo‘lishi bilan gidroliz tezligini oshadi. Bu yog‘lar gidrolizining avtokatalitik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Yog'lar gidrolizlanish jarayonining kinetik xarakteristikasi S-simon egri chiziq ko'rinishida aks etib, bu avtokatalitik jarayon uchun xarakterli hisoblanadi.(34-rasm)



34 – rasm. Yog'ning gidrolizi reaksiyasini borishi

Gidroliz - qaytar jarayon, asosiy reaksiya bilan bir vaqtida qaytar reaksiya – yog' kislotalar va glitserinning eterifikatsiyasi sodir bo'ladi. Dastlabki momentda reaksiya tezligi past bo'ladi, bu narsa geterogen sistemada suvni yog'da kam erishi bilan tushuntiriladi. (34 – rasmdagi egri chiziqni *ab* qismi). Sistemada mono va diglitseridlarning hosil bo'lishi bilan reaksiya tezligi birdaniga oshib ketadi (*bv* egri chiziq). Gidroliz mahsulotlarning (glitserin va erkin yog' kislotalari) konsentratsiyasi oshishi bilan eterifikatsiya reatsiyasining tezligi oshadi, glitseridlarning sovunlashi esa, aksincha, kamayadi. Oxirida, to'g'ri va teskari reaksiyalar tezligi tenglashgach, sistema kimyoviy muvozanatga erishadi.

Sistemani muvozanatga yaqinlashish holati *vg* egri chiziq uchastkasida ifodalangan bo'lib, u absissa o'qiga parallel liniyaga asimtotik yaqin.

Yog'ning gidrolizi reaksiyaning turli bosqichida gidrolizlanish darajasi bilan xarakterlanadi, ya'ni parchalangan yog'dagi yog' kislotalarning miqdori (%) bilan ifodalananadi.


Muvozanat holatning surilishidagi hal qiluvchi omil bu – suvning miqdoridir. Yog' og'irligiga nisbatan suvning nazariy miqdori 6 % dir. Amalda esa suv ko'proq qo'shiladi, chunki suv H^+ va OH^- ionlarini yetkazib beradi va glitserinни yaxshi erituvchisi hisoblanadi. Suvda glitserin konsentratsiyasi qancha kam bo'lsa yog' shuncha to'liqroq gidrolizlanadi. Shuning uchun sanoatda yog'ning gidrolizi ikki davrda olib boriladi. Bunda muvozanat holatni kutmasdan gidroliz jarayoni to'xtatiladi, glitserinli suv quyib olinadi va ikkinchi davrga tarkibida glitserin bo'limgan toza suv beriladi. Reaksiya muxitidan hosil bo'lgan mahsulotlardan biri glitserinни chiqarish reaksiyani o'ng tomonga siljishiga ya'ni gidrolizlanish darajasini oshishiga olib keladi, bu 35- rasmida ko'rinish turibdi. Odatda gidroliz uchun suv va yog' 6:10 nisbatda olinadi.

Hozirgi vaqtida $200 - 225^{\circ}C$ haroratda va $2 - 2,5 \text{ MPa}$ ($20 - 25 \text{ kg/sm}^2$) bosim ostida katalizator ishtirokisiz olib boriladigan reaktivsiz usul eng istiqbolli hisoblanadi. Bu usul olinadigan mahsulotlarni sifatli bo'lishi bilan birga glitserin va yog' kislotalarning chiqishini yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Yog'larni reaktivsiz gidroliz qilish avtoklavlarda davriy yoki uzluksiz ravishda olib boriladi.

Avtoklav ichiga sirkulyasiya trubasi o'rnatilgan bo'lib, silindrik qism, sferik taglik va qopqoqdan iborat. Truba ichiga purkagich orqali bosimi $2,5 \text{ MPa}$ gacha bo'lgan ochiq bug' beriladi. Yog' va suv avtoklav tubigacha tushirilgan trubadan beriladi. Bu truba apparat tubigacha tushirilgani uchun birinchi bosqich gidrolizdan so'ng glitserinli suvni chiqib ketishini ta'minlaydi. Truba esa ikkinchi bosqich gidrolizdan so'ng yog' kislotalari chiqib ketishi uchun xizmat qiladi.

Sferik yuzada trubalar shtutserlari mavjud, bundan tashqari bug' chiqishi yoki avtoklavdagi kislotani chiqishi uchun kerakli bosimni ta'minlaydigan bug'ning kirishi uchun

shtutser hamda nazorat o‘lchov asboblari uchun shtutserlar o‘rnatalgan. Sanoatda sig‘imi $9,5 - 20 \text{ m}^3$ bo‘lgan, kislotaga chidamli po‘latdan yasalgan avtoklavlar keng qo‘llaniladi.



35 – rasm. Ikki davr bilan ishlaganda yog‘ning gidrolizi reaksiyasini borishi

Glitserinli suvni tozalash. Yog‘larni reaktivsiz parchalashdan olingan glitserinli suv tarkibida, glitserin va suvdan tashqari, xilma xil turdag‘i organik va mineral aralashmalar ham bo‘ladi. Bu aralashmalar miqdori gidrolizlanayotgan moy sifati va assartimentiga bog‘liq. Aralashmalarning ko‘p qismi lipidlar, ayniqsa yog‘ kislotalari bo‘lib, ular glitserinli suvning 0,3-1,5% ini tashkil etadi. Bundan tashqari 0,05-0,1% amino birikmalar, jumladan, 0,02-0,04% amino kislotalar, 0,04-0,08% karbonal birikmalar, 0,004-0,008% uglevodlar, mineral tuzlar va boshqalar mavjud.

Bu moddalarning ko‘pligi sirt aktivligiga ega bo‘lib, suv-yog‘ emulsiyasi turg‘unligini oshiradi. Bu esa glitserinli suvni qayta ishlashtiradi.

Glitserinli eritmani konsentrlashdan avval, u aralashmalardan tozalanadi. Bundan maqsad:

- birinchidan, standart talablarga javob beradigan toza glitserin olish
- ikkinchidan, bug‘latish jarayonini texnologik shartlarini to‘liq ta’minlash (isitish trubalarida qo‘yqa hosil bo‘lishini kamaytirish vakuum apparatlarda glitserinni ko‘piklanishini oldini olish va boshqalar)
- uchinchidan, apparatni korroziyadan himoya qilishdir.

Glitserinli suvni tozalash usullari. Yog‘larni reaktivsiz gidrolizidan olingan glitserinli suv murakkab geterogen sistema bo‘lib, tarkibida har xil tabiatli aralashmalar, chin va kolloid eritmalar holida, hamda emulsiya ko‘rinishda bo‘ladi. Shu sababli bunday suvdan aralashmalarni ajratish bir qator asosiy texnologik jarayonlarni talab etadi: kolloid sistema barqarorligini buzish; lipidlarni glitserinli suv bilan hosil qilgan emulsiyani parchalash; lipidlarni, suvda eriydigan ionogen va noionogen birikmalarini yo‘qotish. Bu barcha jarayonlarni amalga oshirish uchun glitserinli suvni tozalashni bir necha usuli mavjud.

Tindirish, qaynatish vasovutish. Tindirish glitserinli suv va yog‘ kislotalari zichliklarining farqiga asoslangan: dastlab glitserinli suv ustiga yog‘ kislotalar ajraladi, keyin u yoki bu usul bilan ajratib olinadi.

Glitserinli suvni qaynatish natijasida suv-yog‘ emulsiyasi buziladi, yog‘ kislotalari va neytral yog‘ ajraladi, so‘ngra tindirish orqali ular ajratib olinadi.

Glitserinli suvni sovutish undagi aralashmalarni eruvchanligini pasaytiradi. Natijada kristallizatsiya va qiyin eruvchan yog‘ kislotalar agregatlanishi sodir bo‘ladi. Hosil bo‘lgan moddalar tindirish yoki filtrlash orqali ajratib olinishi mumkin.

Glitserinli suvni kalsiy gidroksid bilan neytrallash. Bu usul asosida quyidagi kimyoviy reaksiya yotadi:



Hosil bo'lgansovun o'z yuzasiga rang beruvchi moddalar (karotinoidlar, xlorofillar va boshqalar) va boshqa hamroh moddalarini adsorbsiyalab oladi.

Neytrallash uchun kalsiy gidroksidning suvli suspenziyasidan (ohakli suttan) foydalaniladi. Neytrallash jarayoni neytralizatorlarda bug', havo yoki mexanik aralashtirgich yordamida, 80°C haroratda olib boriladi. Ishkor nazariy miqdorga nisbatan ortiqchasi bilan qo'shiladi. Ishqorning ortiqcha miqdori titplash usuli bilan topiladi: 25ml glitserinli suvga 0,01n li 3-5ml xlorid kislota eritmasi sarf bo'lsa, bu ortiqcha ishqor miqdori kalsiy oksid hisobida 0,003-0,005% ga to'g'ri kelishini bildiradi.

Neytrallash jarayoni tugagach, mahsulot tindiriladi va kalsiyli suvun ajratiladi. Glitserinli suv esa aralashtiriladi va romli filtrlarda filtrlanadi.

Quyqadagi kalsiyli suvunni natriyli suvunga aylantirish uchun quyqaga Na_2CO_3 bilan ishlov beriladi. Jarayon quyidagi reaksiya asosida sodir bo'ladi:



Usul, keng yoyilganiga qaramay, bir qator kamchiliklarga ega. Ma'lumki kalsiyli suvunning glitserinli suvda erishi yog' kislotalarinikidan yuqori. Bu esa usulning maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatadi.

Glitserinli suvda kalsiyli suvning bo'lishi distillyasiya paytida ko'piklanishga olib keladi. Bundan tashqari ishqorli suv glitserinli suvning ishqoriyligini oshiradi. Natijada, glitserinli eritmaga ishlov bergandan keyin, unda kul va organik moddalar miqdori oshib ketadi.

Glitserinli suvni kalsiy gidroksid bilan neytrallashdan boshqa, alyuminiy sulfat va kislota bilan qayta ishlab, separatsiyalash bilan, hamda ion almashinish usuli bilan tozalash mumkin.


Glitserinli suvni tozalash sxemasi. Glitserinli suv, tarkibidagi hamroh moddalar va aralashmalarning xilma xilligi sababli, uni tozalashning texnologik sxemasida bir necha tozalash usullari uyg'unligidan foydalaniladi. Ular quyidagi tartiblarda uyg'unlashishi mumkin: tindirish-sovutish-filtrash; tindirish-separatsiyalash; tindirish-separatsiyalash-ohakli sut bilan ishlov berish-filtrash; va hokazo.

Davriy usulda avtoklavlarda yog'larni gidrolizlash, glitserinli suvni tozalash va bug'latishning texnologik sxemasi (36-rasm).

Yog' 1-bakdan (u yerda $85-90^{\circ}\text{C}$ gacha isitiladi 2-nasos bilan 3-avtoklavga yuboriladi. Ayni vaqtda yuqori bosimli suv ham avtoklavga beriladi. Avtoklavda bosim 20-25 atm bo'lib $220-225^{\circ}\text{C}$ gacha isitiladi. 3 soat qaynatilgandan so'ng yog' 85-87% parchalanadi. Shundan so'ng bug' berish to'xtatiladi va avtoklavdag'i aralashma 15 min davomida tindiriladi. Tarkibida 15-16% gliserini bo'lgan gliserinli suv bosimpasaytirgich 7-bakga quyiladi. Yog' kislotalariga yana kondensat qo'shiladi va parchalashni ikkinchi davri boshlanadi, u 2 soat davom etadi. Shundan so'ng gliserinli suv bakga, yog' kislotalari esa 10-bakga yuboriladi.

Keyin esa yog' kislotalari 9-bakdag'i kondensat bilan (yog' kislotsasi og'irligiga nisbatan 10%) yuviladi. Yog' kislotalari 8-nasos bilan keyingi ishlovga beriladi.

Gliserinli suvda 0,2-0,3% erigan yog' kislotalari bor, shuning uchun uni tozalanadi. Buning uchun gliserinli suv 12- bakdan 13-neytralizatorga keladi, u yerda u 85°C gacha qizdiriladi. Aralashtirilgan holda 15-o'lchagichdan natriy gidroksid eritmasi (kuchsiz ishqor reaksiyasigacha) qo'shiladi. So'ng 14-aralashtirgichda alyuminiy sulfat eritmasi bilan ishlov beriladi. Shundan so'ng gliserinli suv 17-nasos bilan 18-filtrga yuboriladi. Filtrlangan gliserinli suv 21-bakda yig'iladi va 22-nasos bilan bug'latishga yuboriladi. 23-bug'latish qurilmasida 15-20% konsentrasiyalii gliserinli suv qizdirilib konsentrланади. Qurilmadagi massa 24-nasos bilan sirkulyasiyalab turiladi. Gliserin konsentrasiyasi 86% ga yetgach 24-nasos orqali distillyasiyalashga yuboriladi. 23-qurilmadan chiqayotgan suv bug'lari 25-tomchi ajratkich orqali 26-kondensatorga keladi. Bu yerda kondensatlanib 27-quduqqa yig'iladi.



36 – rasm. Davriy usulda avtoklavlarda yog‘larni gidrolizlanishni texnologik sxemasi

Takrorlash uchun savollar

1. Yog‘larni gidroliz jarayoni.
2. Gidroliz bosqichlari.
3. Gidroliz natijasida glitserid, glitserin va yog‘ kislotalarining tarkibini o‘zgarishi.
4. Gidroliz – bu nima?
5. Gidrolizning ahamiyati
6. Gidroliz tezligiga turli omillarning ta’siri
7. Yog‘ kislotalarida suvning erishi
8. Gidrolizlanish darajasi
9. Gidroliz jarayonida suvning miqdori
10. Gidroliz jarayonining mexanizmi.

15-MA’RUZA **GLITSERIN ISHLAB CHIQARISH TEKNOLOGIYASI**

Reja: Texnik glitserin olinishi. Uzluksiz ishlaydigan “Pod’yomnik” rusumidagi qurilmaning texnologik sxemasi. Distillangan glitserin olinishi. Glitserinni distillyasiya qilish qurilmasining texnologik sxemasi.

Distillangan glitserinni oqlash.

Tayanch so‘z va iboralar: qo‘rg‘oshin oksidi, zaytun moyi, nitroglitserin, texnik glitserin, distillangan glitserin, disstillatsion kub, bug‘ isitgich, bug‘, kondensator

Texnik glitserinning olinishi. Konsentratsiyasi 86-88% bo‘lgan xom glitserin olish uchun, tozalangan glitserinli suv bug‘latiladi (konsentrلانadi). Bug‘latilganda suv bug‘lari bilan qisman glitserin ham haydaladi. Bu yo‘qotish miqdori glitserin konsentratsiyasini va haroratni oshib borishi bilan ko‘payadi. Haroratning o‘ta yuqorilab ketishi glitserinning termik parchalanishiga, chiqayotgan mahsulot miqdorining kamayishiga va rangini xiralashishiga olib keladi. Yuqori konsentratsiyali glitserin eritmasi o‘ta qovushqoq bo‘ladi, shuning uchun bug‘latish jarayonida intensiv sirkulyasiya qo‘llaniladi. Glitserinni bug‘lanib ketishi va termik parchalanishni oldini olish uchun glitserinli suvni bug‘latish, vakuum ostida va suyuqliklarni sirkulyasiyasi bilan vakuum-bug‘latish qurilmalarida amalga oshiriladi.


Bug‘latish jarayonida glitserin kuchli ko‘piklaydi, hosil bo‘lgan ko‘pik vakuum sistemaga so‘rib olinishi natijasida ko‘p glitserin yo‘qotiladi. Shuning uchun glitserinli suvni konsentrash uchun faqat vertikal va yetarli bug‘ bo‘shlig‘iga ega bo‘lgan apparatlardan foydalaniladi. Yog‘-moy korxonalarida har-xil konstruksiya va o‘lchamdagи vakuum apparatlar ishlatiladi. Ko‘pincha alohida isitgichli, bir yoki ko‘p korpusli qurilmalardan foydalaniladi.

Iqtisodiy jihatdan eng samarador uskuna uzluksiz ishlaydigan bir necha korpusli bug‘latish qurilmalari hisoblanadi. Bu apparatlarni afzalligi shundaki, bir korpusdan chiqqan ikkilamchi bug‘ keyingi korpus uchun isituvchi bug‘ vazifasini o‘taydi. Bu, o‘z navbatida bug‘ sarfini tejalishiga olib keladi.

Glitserinli suvda 10-25% glitserin bo‘ladi. 86-88% konsentratsiyali texnik glitserin olish uchun glitserinli suv bug‘lantiriladi. Bug‘lanish vakuumda va vakuum bug‘latuvchi apparatlarda suyuqlikni intensiv sirkulyasiyasi ostida olib boriladi.

Yog‘ sanoatida turli konstruksiyadagi va kattalikdagи vakuum-bug‘latuvchi apparatlar ishlatiladi. Isitkichli vakuum-bug‘latuvchi apparatlar keng tarqagan. Bu apparatlar bitta korpusli va ko‘p korpusli bo‘ladi.

Yog‘ sanoatida ikki korpusli «Pod’yomnik» rusumdagи apparat keng tarqagan. U ikkita korpusdan iborat bo‘lib, har bir korpus isitgich va bug‘latgichga ega, birinchi korpus atmosfera bosimida ishlasa, ikkinchi korpus esa 650-680 mm simob ustuniga teng vakuumda ishlaydi.



39 – rasm. Ikki korpusli uzlusiz ishlaydigan “Pod’yomnik” qurilmasini texnologik sxemasi

Uzlusiz ishlaydigan «Pod’yomnik» rusumdagи qurilmaning texnologik sxemasi (39-rasm). Tozalangan glitserinli suv (14) korobkadan (15) nasos bilan birinchi korpusining (3) rostlagichi orqali (1) isitgichga keladi, u yerda 0,5 – 0,8 MPa bosimli bug‘ bilan, qaynaguncha isitiladi glitserinli suv (2) bug‘latgichga o‘tadi, bu yerda eritmadan suv bug‘lanadi. 30-35% konsentratsiyali glitserinli suv (7) rostlagich orqali (9) isitgichga keladi, bu yerda ikkilamchi bug‘ bilan isitiladi. Tayyor glitserin uzlusiz ravishda (8) bug‘latgichdan (12) bo‘shatgich yordamida ajralib, bakga yuboriladi. Ikkilamchi bug‘ kondensati (9) isitgichdan (11) bo‘shatgich yordamida bo‘shatiladi.

Glitserin konsentratsiyasi zichlik rostlagichi yordamida bir me'yorda ushlab turiladi. Bug‘ (8) isitgichdan (6) tomchitutgich orqali (5) barometrik kondensatorga boradi, kondensatsiyalanmagan bug‘ va gazlar birinchi bosqichli ejektor bilan tortib olinib, (4) barometrik kondensatorga yuboriladi. Havo va gazlar ikkinchi bosqichli ejektor bilan atmosferaga chiqarib yuboriladi. Kondensatorlardagi (4,5) suv barometrik truba yordamida (13) quduqqa oqib tushadi. Apparatning ishlatish vaqtida vakuum, (10) vakuum-nasos yordamida hosil qilinadi.

Bu rusumdagи apparatlarni ikki xili bor. Isitgichning bug‘latish yuzasi 30m^2 ($2 \times 15\text{ m}^2$) va 60 m^2 li. Ularning tuzilishi va ishlatilishi bir xil.

Har bir apparatning quvvati 88% li glitserin uchun kuniga 4 t va 8 t ga teng.

Texnik glitserinni sifat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Glitserin navlari		
	I	II	III
Glitserin miqdori, %, kam emas	86	86	78
Kul miqdori, %, ortiq emas	0.35	1.8	9.5
Uchmaydigan organik qoldiqlar miqdori, %, ortiq emas	0.85	2.0	4.0

Sifat ko'rsatkichlariga qarab ham glitserin I, II va III navlarda ishlab chiqariladi.

Organoleptik ko'rsatkichlari bo'yicha I va II nav xom glitserin tiniq, sirtida ko'piksiz va och sariqdan to'q jigarranggacha bo'lishi kerak. III nav xom glitseringa ozgina xiraroq bo'lishiga ruxsat etiladi, rangi esa jigarrangdan to'q bo'lmasligi lozim.

Fizik – kimyoviy ko'rsatkichlari bo'yicha xom glitserin 18 – jadvalda ko'rsatilgan talablarga mos kelishi kerak.

Distillangan glitserinning olinishi. Distillangan glitserin texnik glitseringa nisbatan yuqori konsentratsiyaga (98 %) va sifatga ega.

Distillangan glitserin olishning ikki xil usuli ma'lum:

- 1) texnik glitserinni distillyasiyasi
- 2) glitserinli suvni ion almashinish usuli bilan tozalash so'ngra bug'latish.

Xom glitserinni aralashmalardan tozalash suv bug'i bilan vakuum ostida haydash orqali amalga oshiriladi. Toza glitserinni qaynash harorati 290°C ga teng. Bunday haroratda glitserin akrolein va turli kislotalar hosil qilib parchalanadi. Shuning uchun atmosfera bosimida distillyasiya jarayonini o'tkazish glitserin sifatini yomonlashtiradi. Hozirgi vaqtida glitserinni distillyasiyalash $170\text{-}180^{\circ}\text{C}$ da vakuum (15-20 mm simob ust) ostida olib boriladi. Glitserinni distillyasiyalash vaqtida hosil bo'lgan bug'ni sekin-asta yoki fraksiyali kondensatsiya qilinadi. Bunda havoli va suv yuzali kondensatorlar ishlataladi. Bunda birinchi navbatda yuqori haroratda qaynovchi komponent - glitserin kondensatsiyalanadi, demak havoli kondensator-dan so'ng yuqori konsentratsiyali 98 % li glitserin olinadi.

Yuqori va 1-navli glitserin olish uchun distillyasiyalangan glitserin aktivlangan ko'mir bilan oqlanadi (glitserin og'irligiga nisbatan 0,25-0,75%). Oqlash jarayoni 2-3 soat davomida 80°C da olib boriladi.


Glitserinni distillyasiya qilish qurilmasining texnologik sxemasi (40-rasm).

Texnik glitserindan distillangan glitserin olish uchun 24-nasos orqali kelayotgan glitserin 30-bakda yig'iladi. Undan 31-nasos yordamida 32-issiqlik almashgichga keladi va bu yerda qizdiriladi. So'ng 33-distillyatorda qizdirilgan mineral moy va ochiq bug' yordamida bug'latiladi. 34-nasos orqali 35-distillyatorda yana bug'latish davom etadi. 36- va 37- bug'latgichlarda tugal haydash amalga oshirilgach gudron hosil bo'ladi. Gudron 38-sig'imga yig'ladi va bu yerdan chiqarib yuboriladi.

33,35 va 37-distillyatorlardan chiqayotgan glitserib bug'lari o'zaro ketma-ketlikda ishlovchi 41 va 42-kondensatorlarda kondensatlanadi. Suyulgan glitserin 43-baklarga yig'iladi. Undan 44-arashtirgi beriladi va bu yerda aktivlangan ko'mir qo'shib oqlanadi. So'ng 45-nasos orqali 46-filtga berilib filtrlanadi va ko'mir ajratib olinadi. Oqlanagan va distillangan glitserin 47-sig'imda yig'iladi va 48-nasos orqali omborga yuboriladi.

41 va 42-kondensatorlarda sovumagan glitserin bug'lari 49-kondensatorga keladi va bu yerda suyuqlanib 50-sig'imga yig'iladi. Undan 30-bakka qaytariladi.

Bug'latish qurilmalaridagi vakuum 39-vakuum nasos yordamida hosil qilinadi.



40 – rasm. Glitserinni distillyasiya qilish qurilmasining texnologik sxemasi

Distillangan glitserinni oqlash. Oliy va I nav glitserin olishda mahsulot rangi va hidini yaxshilash, yog‘ kislotalar, murakkab efirlar, uchmaydigan organik qoldiq va mineral aralashmalar miqdorini kamaytirish maqsadida distillangan glitserin aktivlangan yog‘ och ko‘miri bilan oqlanadi. Sarflanadigan aktivlangan ko‘mir miqdori chiqayotgan distillyatning sifatiga bog‘liq va u glitserin massasiga nisbatan 0,25-0,75% ni tashkil etadi. Oqlash jarayoni 80°C haroratda 2-3 soat davomida uzlusiz aralashtirish bilan olib boriladi va filtr-pressda ajratiladi. Kerak bo‘lganda standart talablarga mos keladigan Oliy va I navli glitserin olish uchun aralashtirgichga hisoblangan miqdordagi kondensat qo‘shib glitserin eritmasi 9,4 % gacha suyultiriladi.

Filtr-pressda ajralgan aktivlangan ko‘mir dastlab yuviladi, (alovida aralashtirgich yoki filtr-pressni o‘zida) so‘ng bo‘g‘latishga yo‘naltiriladi. Ishlatilgan aktivlangan ko‘mir tarkibidagi qoldiq glitserin miqdori 2% dan oshmasligi kerak. Ishlatilgan ko‘mir regeneratsiyadan so‘ng, ya’ni yaxshilab yuvish, 100-110°C da quritish va moydalashdan keyingina, qayta ishlatilishi mumkin.

19-jadval

Distillangan glitserinni sifat ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Glitserin			
	Dinamitli	Oliy nav	I-nav	II-nav
Glitserin miqdori, %, kam emas	98	94	94	88
Kul miqdori, %, ortiq emas	0,14	0,01	0,02	0,25
Uchmaydigan organik qoldiq miqdori, %, ortiq emas	0,1	0,02	0,04	0,25
Sovunlanish koeffitsienti 1 g glitseringa mg KOH, ortiq emas	0,7	0,65	Aniqlanmaydi	

Distillangan glitserin asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari bo‘yicha 19-jadvalda ko‘rsatilgan talablarga mos kelishi kerak.

Takrorlash uchun savollar

1. Glitserin ishlab chiqarishni ahamiyati.
2. Glitserin olish usullari.
3. Texnik glitserin olish.
4. Distillangan glitserin olish.
5. Glitserinni distillyasiya qilish apparati
6. Distillangan glitserin ko‘rsatkichlari
7. Glitserinni olinishi.
8. Uzlusiz ishlaydigan «Pod’yomnik» apparatining texnologik sxemasi.
9. Texnik glitserinni sifat ko‘rsatkichlari
10. Glitserinni distillyasiyalashning texnologik sxemasi.

16-MA’RUZA YOG‘ KISLOTALARI ISHLAB CHIQARISH

Reja: Soapstokni qayta ishlash. Paxta soapstogidan xom yog‘ kislotalari olishning texnologik sxemasi va bayoni.

Tayanch so‘z va iboralar: soapstok, gidroliz, yog‘ kislotosi, olein, stearin.

Yog‘ kislotalari xo‘jalik va atir sovunlari, yuqori yog‘ spirtlari, alkid smolalarini ishlab chiqarish, plastifikatorlar sifatida, avtoshinalar ishlab chiqarishda va x.k. larni ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Yog‘ kislotosining suyuq fraksiyasi (olein kimyoviy tolalarni lavsan, neylon) ishlab chiqarishda ishlatiladi. Texnik stearin kislotosi avtoshinalarni, fotoplyonkalarni, polistirollarni tayyorlashda ishlatiladi. Yog‘ kislotalarini olishda xomashyo sifatida tabiiy va gidrogenizatsiyalangan o‘simlik va mol yog‘lari, shuningdek soapstok qo‘llaniladi. Yog‘lardan yog‘

kislotalari gidroliz yo‘li bilan olinib, olingen yog‘ kislotalari distillyasiya qilinadi. Soapstokdan yog‘ kislotalarini olish halq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega. Chunki soapstokni ishlatib o‘simplik va hayvon yog‘lari tejaladi.


Soapstokni qayta ishlash. Yog‘ tabiatи va rafinatsiya usuliga ko‘ra soapstok tarkibida 30-60 % yog‘ bo‘ladi. Soapstokni qayta ishlashning bir necha usullari mavjud. Och rangli yog‘larni rafinatsiyasidan (kungaboqar) olingen soapstokni konsentrangan sulfat kislota bilan quyidagicha ishlanadi:

Soapstokka, uning og‘irligiga nisbatan 5% suv qo‘shiladi. Havo ta’sirida aralashtirib turib, konsentrangan sulfat kislota qo‘shiladi, bunda jarayon oxirida suvli qatlama 2-3 % erkin H_2SO_4 qolishi kerak. Bu aralashma 1-1,5 soat, 85-95°C da aralashtirib, 4-6 soat tindiriladi. Bunda sovunni parchalanishi natijasida eritma yuzasiga erkin yog‘ kislotalari va neytral yog‘ aralashmalari qalqib chiqadi. Uchta qatlam hosil bo‘ladi. Quyi, suvli qatlam, neytralizatsiyadan so‘ng yog‘ tutgich orqali kanalizatsiyaga tushiriladi. Oraliq qatlam (smolali moddalar), emulsiya yig‘uvchi sig‘imga yuboriladi. Yuqori, soapstok yog‘li qatlam, natriy sulfat va yog‘siz moddalardan tozalash uchun yuviladi, bu moddalar parchalanish jarayoniga va glitserin sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim vaqtida yog‘li qatlamni oldin karbonat sodasi bilan keyin esa suv bilan yuviladi.


Hosil bo‘lgan yog‘ kislotalari va neytral yog‘ aralashmasi parchalanadi. Glitserin miqdori neytral yog‘ og‘irligiga nisbatan 7% ni tashkil qiladi. Parchalangandan so‘ng yog‘ kislotalari distillyasiya qilinadi. Paxta yog‘idan olingen soapstok boshqa yog‘lardan olingen soapstokka qaraganda tarkibidagi yog‘ miqdorini ko‘pligi, yuqori qovushqoqligi va bo‘yovchi moddalar ko‘pligidan, qora rangda bo‘lishi bilan farq qiladi. Pigmentlarning turli xilligi va murakkab kimyoviy tabiatи soapstokni qayta ishlanishini qiyinlashtiradi.

Soapstok tarkibida neytral yog‘ bor, bu yog‘, yog‘ kislotsasi bilan birga distillyasiya vaqtida yaxshi haydalmaydi. Soapstok sulfat kislota bilan parchalashdan

oldin kaustik soda bilan sovunlanadi, ya’ni hamma soapstokdagи neytral yog‘ sovun holiga o‘tkaziladi.



Shundan so‘ng, hosil bo‘lgan sovun sulfat kislota bilan parchalanadi.



Paxta yog‘idan olingen soapstokni sovunlanishining ikki xil usuli bor:

- 1) elimli usul
- 2) yadroli usul

Elimli usulda soapstok 30-40% li kaustik soda eritmasi bilan sovunlanadi va hosil bo‘lgan yelimi aralashma tindirilmasdan sulfat kislota bilan parchalanadi. Yadro orqali olish usulida esa sovunli yelim tindiriladi va hosil bo‘lgan sovun yadrosi parchalashga yuboriladi. Qozonda qolgan sovunli yelim soapstok bilan neytrallanib osh tuzi bilan tuzlanadi. Tindiriladi yadro parchalashga, sovun osti ishqori esa yog‘ tutgichga yuboriladi.

Paxta yog‘i soapstogidan xom yog‘ kislotalari olishning texnologik sxemasi (41-rasm).

Soapstok tarozi(1)da tortilib sig‘im(22)ga, undan nasos (21) bilan sovun pishirish qozoniga (3) keladi. Ochiq bug‘ bilan qaynaguncha isitilgan soapstok 30-40%li NaOH eritmasi bilan sovunlanadi. Ishqor eritmasi sig‘im(2)dan keladi. Sovunlanish 4-5 soat davomida aralashtirilgan holda sovunli yelimda ortiqcha ishqor miqdori 0,4-0,5% hosil bo‘lguncha davom etadi. So‘ngra bug‘ berish to’xtatilib 4-5 soat davomida tindiriladi. Sharnir truba yordamida sovunli

yadro sig'im(16)ga tushiriladi va nasos (17) bilan parchalash uchun chan(6)ga yuboriladi.

Qozonda qolgansovunli yelim soapstok bilan neytrallanadi va quruq tuz bilan tuzlanadi, 4 soat tindiriladi. Tindirilgansovun osti ishqori yog' tutgich(14)ga tushiriladi. Sovun osti ishqorida qoldiq yog' 2%, ishqor 0,5%, Na_2CO_3 0,8%dan oshmasligi kerak. Sovun osti ishqori bilan birga yog'siz moddalar va bo'yovchi pigmentlar ham chiqib ketadi (45% atrofida).

Tuzlangan yadroga yangi soapstok kelib tushadi, kaustik soda bilansovunlanadi va ortiqcha ishqor ikki fazaga bo'linadi. 4-5 soat tindirilgandan so'ng yadro sulfat kislota bilan parchalash uchun yuboriladi.


Sovun bilan sulfat kislota 80-92% konsentrasiyada 90 $^{\circ}\text{C}$ da aralashtiriladi. Sulfat kislota o'lchagich(4)dan ingichka oqim bilan kelib tushadi. Ko'p miqdorda sulfat kislota berilsa qozondan ko'pirib chiqib ketadi. Kerak bo'lsa, sovunga 22-30%gacha kondensat qo'shiladi. Kondensat o'lchagich(5)dan keladi. Sovun bug' bilan aralashtirilgan holda parchalanadi. Sulfat kislota qo'shilgandan so'ng 1 soat aralashtiriladi va nordon suvda 1% erkin sulfat kislota bo'lishi kerak. Shundan so'ng 1soat tindiriladi va nordon suv yog' tutgich(14)ga tushiriladi, u yerdan tozalash uchun yuboriladi. Yog' kislotalari chan(6)dan nasos (13) bilan yuvish uchun apparat(7)ga yuboriladi. U yerga o'lchagich(5)dan yog' kislotasi og'irligiga nisbatan 50-100% miqdorda 80-85 $^{\circ}\text{C}$ da kondensat beriladi. Yuvish, neytral reaksiyagacha olib boriladi. Yuwilgan suvda sovun va Na_2CO_4 tuzlari bo'lmasisligi kerak. 1,5-2 soat tindirilgandan so'ng yuvilgan suv yog' tutgich(11)ga tushiriladi. Yuwilgan yog' kislotalar nasos(12) yordamida tarozi(8) orqali sig'im(9)ga keladi va nasos bilan distillyasiyaga yuboriladi.

Xom yog' kislotalar quyidagi talablarga javob berishi kerak.

qotish harorati, 28 $^{\circ}\text{C}$ dan kam emas;

sovunlanmaydigan moddalar miqdori, 4%, ortiq emas;

namlik miqdori, 2,5% ortiq emas.



41 – rasm. Paxta yog'i soapstogidan xom yog' kislotalari olishning texnologik sxemasi

Olingan mahsulot sifatini yaxshilash va halq xo'jaligining turli tarmoqlari ehtiyojini qondirish uchun xom yog' kislotalari distillyasiya qilinadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Yog‘ kislotalar ishlab chiqarishni ahamiyati
2. Soapstokni qayta ishlash
3. Soapstokdan xom yog‘ kislotalar olish texnologiyasini ximizmi
4. Xom yog‘ kislotalariga qo‘yiladigan talablar
5. Yog‘ kislotalarining ishlatilishi.
6. Soapstokni qayta ishlash usullari
7. Paxta yog‘idan olingan soapstokdan xom yog‘ kislotasini olish texnologik sxemasi.
8. Soapstok tarkibida yog‘ miqdori.
9. Yog‘ kislotalar olishda ishlatiladigan xomashyolar
10. Xom yog‘ kislatalari olish texnologik parametrlari.

17-MA’RUZA DISTILLANGAN YOG‘ KISLOTALARI ISHLAB CHIQARISH

Reja: Distillyasiya jarayoni mohiyati. Yog‘ kislotalarini uzlusiz distillyasiyalash texnologik sxemasi. Uzlusiz ishlaydigan listillyasion kubning tuzilishi va ishlash prinsipi. Texnik olein va stearin olish.

Tayanch so‘z va iboralar: distillyasiya, distillangan, yog‘ kislota, palmitin, stearin, qoldiq bosim, gudron, polimerizatsiya

Distillangan yog‘ kislotalar olish. Distillyasiyaning maqsadi – tarkibida aralashmasi kam miqdorda bo‘lgan yog‘ kislotalarini olish. Kimyo sanoati rivojlanishi bilan tozalangan yog‘ kislotalari keng ishlatilmokda, u quyidagi talablarga javob berishi kerak: rangi tiniq bo‘lishi, tabiiy yog‘ bo‘lmasligi,sovunlanmaydigan moddalar minimal miqdorda bo‘lishi kerak. Yog‘ kislotalari bu talablarga fakatgina distillyasiyadan so‘ng javob beradi.

Atmosfera bosimida yog‘ kislotalari yuqori qaynash haroratiga (250°C dan yuqori) ega bo‘ladi. Shuning uchun atmosfera bosimda olib borilayotgan distillyasiya jarayonida yog‘ kislotalari parchalanadi, tuyinmaganlari polimerizatsiyalanadi. Qaynash haroratini kamaytirish uchun distillyasiya vakuum ostida olib boriladi. Vakuumni qaynash haroratiga ta’sirini palmitin va stearin kislatosi misolida ko‘ramiz.

	5 mm simob ust.	760 mm simob ust.
Palmitin	192	354
Stearin	209	370

Demak, stearin kislatosi atmosfera bosimida ya’ni 760mm simob ust.da 370°C da qaynaydi. Agar bosimni 5mm simob ust. gacha pasaytirsak stearin kislatosi bor yo‘g‘i 209°C da qaynar ekan. Demak, apparatda qoldiq bosim qancha kam bo‘lsa, yog‘ kislotalarining qaynash harorati shuncha past bo‘ladi. Distillyasiya haroratini o‘tkir bug‘ berish bilan ham pasaytirish mumkin. Distillyasiya vaqtida XYOK distillyasiya kubda qaynaguncha isitiladi, hosil bo‘lgan bug‘ chiqarilib yuboriladi va kondensatsiyalanadi. Distillyasiya kubida yuqori haroratda qaynovchi bo‘yovchi moddalar, qiyin uchuvchan yog‘ kislotalari, oksikislotalar, metall sovunlar, polimerizatsiya mahsulotlari, mineral tuzlar va neytral yog‘lar qoladi. Kubdagisi qoldiq gudron deb ataladi.

Hozirgi vaqtida yog‘ni qayta ishlash kombinatlarida davriy va uzlusiz ishlaydigan “Komsomolets” rusumidagi distillyasiya qurilmasi ishlatiladi.

Davriy ishlaydigan qurilmalarda yog‘ kislotalari distillyasiya kubiga berilib, u yerda $230-240^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladi va o‘tkir bug‘ yordamida uzlusiz xaydalib turiladi. Kubda asta-sekin distillyasiyalangan qoldiq gudron yig‘ilib boriladi. Gudronni tushirish uchun qurilma ishdan to‘xtatiladi. Yuqori haroratda yog‘ kislotalarining kubda uzoq vaqt turishi natijasida ma’lum miqdordagi yog‘ kislotalari polimerizatsiyalanadi, natijada distillyatning chiqish miqdori kamayadi.

Uzluksiz ishlaydigan qurilmalarda esa gudron uzluksiz ravishda chiqarilib turiladi. Bu qurılma yuqori texnik samaradorlik ko'rsatgichiga ega.

Yog' kislotalarini uzluksiz distillyasiyalashning texnologik sxemasi (42-rasm). Yog' kislotalarini uzluksiz usulda distillyasiyalash quyidagicha amalga oshiriladi. Xom yog' kislotalar bak(30)dan nasos-dozator (25) bilan issitgich (1) orqali vakuum-quritgich apparati(2)ga beriladi. Bu erda $80\ldots100^{\circ}\text{C}$ harorat va 6 KPa bosim ostida yog' kislotalar deaeratsiya qilinadi va tarkibidan qisman namlik uchiriladi. So'ng yog' kislotalar nasos-dozator (25) yordamida isitgich (3) orqali seksiyali isitgich-quritgich(4)ga beriladi. 140°C haroratgacha isitilgan va quritilgan yog' kislotalarni distillyasiya kubi(6)ning birinchi seksiyasiga so'rib olinadi. U erda yog' kislotalari ketma-ket hamma seksiyalarga o'tkaziladi.

Distillyasiya jarayonida kub ichida bosimni 1,33 KPa dan oshirilmaydi. Yog' kislotalar harorati distillyasion kub ichidagi seksiyalarda birinchidan tortib oxiragacha oshib boradi. Xar bir seksiyada harorat keng diapazonlarda, yog' kislotalarini tabiatiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Masalan, 2-seksiyada harorat $195\ldots210^{\circ}\text{S}$ bo'lsa, 9-seksiyada esa $225\ldots240^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tariladi.

Distillyasiya jarayonini samarali olib borish uchun har bir seksiya ichiga ochiq bug' beriladi. Bunda yog' kislotalarini seksiyadan seksiyaga o'tishi bilan bug' miqdori oshib boradi.

Vakuum-quritgich apparati (2) va seksiyali issitgich(4)dan chiqqan bug' aralashmasi kondensator(5)ga keladi. Bu erda suv kondensati bilansovutilgandan so'ng uchuvchan komponentlar bak(28)ga oqib tushadi, so'ngra nasos (29) orqali yig'uvchi idishga uzatiladi.


Distillyasiya kubi(6)da hosil bo'lgan bug'-gaz aralashmasi kondensator(7)ga beriladi. Sovutadigan suv kondensati nasos (23) yordamida sovutgich (24) orqali sath rostlovchi bak yoki (19) bakdan beriladi. Kondensatsiyalanmagan kislota bug'lari kondensator(7)dan yuvuvchi apparat(8)ga kelib tushadi. U erga bak(26)dan nasos (27) yordamida sovutgich (10) orqali distillangan yog' kislotalari beriladi. Distillangan yog' kislotalari kondensator (7) va yuvuvchi apparat(8)dan bak(2)ga quyiladi.

60% erkin yog' kislotalarni tashkil qiluvchi kub qoldig'i (kislota soni 80 mg KOH) to'qqizinchi seksiyadan kub(20)ga oqib tushadi. U erda distillyasiya kubidagidek bosim ostida, lekin ($245\ldots250^{\circ}\text{C}$) haroratda ochiq bug' berib yana yog' kislotasi olinadi. Bu erdan chiqqan yog' kislota bug'lari sovutgich(9)ga berilib, kondensatsiyalangan yog' kislotalari nasos dozator (25) orqali bak(31)ga quyiladi.

Kub(20)dan chiqqan gudron sovutgich(21)ga beriladi va u erdan nasos dozator (25) yordamida yig'gich(22)ga tushadi va realizatsiyaga jo'natiladi.

Sistemada vakuum uch bosqichli bug' ejektorli vakuum-nasos (11) yordamida hosil qilinadi. Kondensator va suv ajratgichdan chiqqan suv barometrik bak(18)ga oqib tushadi.

Gudron neytral yog', yog' kislotalari (20-25%) oksikislotalar, sovunlan-maydigan moddalar, gossipol va turli uchmaydigan moddalardan iborat. Gudron miqdori shu moddalarning xom yog' kislotadagi miqdori va distillyasiya rejimiga bog'liq. Yuqori harorat va distillyasiya kubiga havo kirishi natijasida gudron miqdori oshadi. Sistemada vakuum uch bosqichli bug'-ejektori vakuum nasosi yordamida hosil qilinadi.



42 – rasm. Yog' kislotalarini uzluksiz distillyasiyalashning texnologik sxemasi

Uzluksiz ishlaydigan distillyatsion kub silindrik apparat bo‘lib, tubiga 9 ta seksiya o‘rnatalgan. Seksiyalar elektr isitkich yoki yuqori haroratli organik issiqlik eltgich bug‘lari (VOT) yordamida qizdiriladi. 0,3MPa bosimli ochiq bug‘ning berish uchun barbatyor joylashtirilgan. Xom yog‘ kislotalari markaziy seksiyanidan kub, doirasi bo‘ylab joylashtirilgan 8 ta seksiyyaga shtutser orqali ketma-ket oqib o‘tadi. Distillyasiya yuzaga kelib, yog‘ kislotalari bug‘lana boshlaydi.

Kubning yuqori qismida yog‘ kislotalari tomchilarini mexanik ravishda ajratadigan ikkita konussimon tutgichlar va 5 mm teshikli panjara o‘rnatalgan. Patrubka orqali esa yog‘ kislotalari bug‘lari kondensatorga chiqib ketadi.

Gudron esa apparatning oxirgi seksiyasidan uzluksiz chiqib turadi. Kub kislotaga chidamli po‘latdan yasalgan bo‘lib, isitish yuzasi $11,85 \text{ m}^2$ ga teng.

Texnik olein va stearin olish. Texnik olein kislotasi (olein) suyuq yog‘ kislotalari asosan olein kislotasini aralashmasidan iborat bo‘lib, uni tarkibida oz miqdorda to‘yingan yog‘ kislotalari, yog‘ kislotalarining polimerlangan va parchalangan ko‘rinishidagi organik aralashmalari (aldegidlar, ketonlar, uglevodorodlar va boshqalar) bo‘ladi.

Texnik oleinning uch xil A, B va V markalari ishlab chiqariladi. A va B markali olein kislotalar distillangan, V markasi esa distillanmagan bo‘ladi. Ularning asosiy sifat ko‘rsatkichlari 20-jadvalda ko‘rsatilgan.

20-jadval

Texnik oleinni ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich nomi	Olein markasi		
	A	B	V
Suv siz mahsulotdagi yog‘ kislotalar miqdori, %, kam emas	-	95,0	92,0
Suv siz mahsulotda naften kislotalar 15% dan ko‘p bo‘lmaganda umumiy yog‘ kislotalar miqdori, %, kam emas	95,0	-	-
Sovunlanmagan va sovunlanmaydigan moddalar miqdori, %, kam emas	3,5	3,5	6,5
Yod soni, % J ₂	80-90	80-105	-
Qotish harorati, °C, ortiq emas	10,0	16,0	34,0

B markali olein ishlab chiqarish uchun xomashyo ikki yoki uch xil o‘simplik moylari aralashmasidan iborat bo‘ladi. Aralashma shunday tuzilgan bo‘lishi kerakki, undan olingan kislotaning qotish harorati $14-18^{\circ}\text{C}$ va yod soni 90-105% J₂ ga teng bo‘lishi lozim. Tayyorlangan aralashma reaktivsiz yoki kontaktli usul bilan 95% dan kam bo‘lмаган gidrolizlanish darajasigacha parchalanadi. Tarkibida sulfat kislotasi bo‘lмаган yog‘ kislotalar quritiladi, so‘ng qotish harorati, kislota va yod sonlari bo‘yicha texnik shartlarga mos kelishi tekshiriladi va distillanadi.

A markali olein ishlab chiqarish texnologiyasi ham xuddi shunday, faqat yog‘ kislota distillyatiga 15% gacha naften kislotasi qo‘shiladi.

V markali olein yuvilgan va quritilgan, ammo distillanmagan o‘simplik moylari yoki soapstokning yog‘ kislotalaridan iborat.

To‘qimachilik sanoatida ishlatiladigan texnik olein kislotaga, u bilan moylangan gazlamalarni o‘z-o‘zidan yonib ketishga olib keladigan oksidlanishdan himoya qilish maqsadida 0,5% β-naftol qo‘shiladi. Texnik stearin kislotasi (stearin) to‘yingan yog‘ kislotalari, asosan stearin va palmitin, hamda oz miqdorda to‘yinmagan kislotalar, olein va izoolein kislotalari aralashmasidan iborat. Sanoatda stearin chuqur gidrogenlangan o‘simplik moylari, hayvon yog‘larini gidrolizlab, hosil bo‘lgan yog‘ kislotalarni yuvib, quritib va distillyasiyalab olinadi.

Stearin qaysi maqsadda ishlatilishiga qarab, har xil navlarda ishlab chiqariladi, ularning asosiy sifat ko‘rsatkichlari 21-jadvalda keltirilgan.

21-jadval

Stearinni ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Stearin			
	Maxsus		I-nav	II-nav
	A marka	B marka		
Rangi	oq	oq	oq	oq, biroz sarg‘ishlik bilan
Yod soni, % J ₂ , ortiq emas	3,0	10,0	18,0	32,0
Sovunlanmaydigan moddalar miqdori, %, ortiq emas	0,5	0,5	0,5	0,7
Qotish harorati, °C, ortiq emas	65,0	59,0	58,0	53,0
Namlik, %, ortiq emas	0,2	0,2	0,2	0,2
Kul miqdori, %, ortiq emas	0,2	0,2	0,2	0,2

Stearin paxta yog‘i soapstokidagi yog‘ kislotalarni gidrogenlab ham olinishi mumkin, bunda olingan mahsulotni sifati past bo‘ladi, rangi sariq tarkibida 0,9% gachasovunlanmaydigan moddalar va namligi 0,5%, efir soni 3-5 mg KOH bo‘ladi. Stearin iste’molchiga temir yo‘l sisternalarida yoki tangacha shaklida qoplarda yetkazib beriladi. Tangacha shaklida bo‘lishi uchun distillangan yog‘ kislotasi 70°C da (A markali stearin uchun 80-90°C) sovutuvchi barabanga yuboriladi. Sovutuvchi baraban bir-biriga ustma-ust o‘rnatilgan ikkita po‘lat silindrda iborat bo‘lib, silindrlar orasida sovutuvchi suv sirkulyasiya qilinadi. Sovutuvchi baraban yuzasidan pichoqlar bilan tangacha shaklida qirib olingan stearin yarim avtomat tarozilarning ta’minlagichiga uzatiladi va kraft qoplarga qadoqlanadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Distillangan yog‘ kislotalar olishni zarurligi
2. Distillyasiya usullari
3. Yog‘ kislotalarni uzlusiz distillyasiya qilish texnologiyasi.
4. Distilyasiya rejimlari.
5. Distillyasiyaning maqsadi.
6. Distillyasiya – bu nima?
7. Distillyasiya jarayonida vakuum va xarorat
8. Yog‘ kislotalarni uzlusiz distillyasiyalashning texnologik sxemasi.
9. Distillyasiya jarayonining qoldiq mahsuloti.
10. Polimerizatsiya jarayoni

18-MA’RUZA SOVUN ISHLAB CHIQARISH


Reja: Sovun olish usullari. Sovunning fizik-kimyoviy xossalari. Sovunning suvli eritmasi fizik-kimyoviy xossalari.

Sovun bu yuqori molekulalı yog‘ va naften kislotalarining tuzlaridir. Yuvish va tozalash uchun ishlatiladigan sovun 10 dan 20 gacha uglerod atomidan tashkil topgan yog‘ kislotalarining natriyli va kaliyli tuzlaridir. Tarkibida uglerod atomi soni 10 kam bo‘lgan yog‘ kislotalarining tuzlari yuvish qobiliyatiga ega emas. Sovunlar qo‘llanishiga qarab quyidagi ko‘rinishlarga ega: xo‘jalik sovuni, bu asosan matolar va boshqa har xil narsalarni yuvishda qo‘llanadi, atir sovun, tozalikni saqlash, yuz, qo‘llarni yuvishda ishlatiladi. Metall sovunlar (ishqoriy – yer va og‘ir metallar tuzlari), bu sovunlar tekstil sanoati, plastmassa va rezinotexnika sanoatida, farmatsevtika preparatlarini tayyorlashda qo‘llaniladi.


Xo‘jalik sovunlari hozirgi vaqtida uch turda 60%, 70% va 72% li sovunlar ishlab chiqarilmoqda. Yog‘ kislotalarini distillyasiya qilish qurilmalarini rivojlanishi, yog‘ chiqindilari va yog‘ o‘rnini bosuvchi mahsulotlar hidini va rangini yaxshilanishiga olib keladi, hamda 70% li yuqori sifatli sovun olishga imkon beradi. Qattiq xo‘jalik sovunlari 250 va 400 g og‘irlilikda ishlab chiqariladi. Suyuq xo‘jalik sovunlari esa 40-60% yog‘ kislotalari miqdorida xo‘jalik va texnik maqsadlar uchun tayyorlanadi.

Atir sovunda 73-80% yog‘ kislotalari mavjud bo‘lib, hozirgi vaqtida “Ekstra”, I, II, III guruh va bolalar sovuni (80%) ishlab chiqarilmoqda. Qattiq atir sovunlar o‘z navbatida 10g dan 200g gacha bo‘lgan turlari ishlab chiqariladi. Ular oq yoki rangli, ochiq yoki qadoqlangan holda bo‘lishi mumkin.

Sovun olish usullari. Sovun yog‘ kislotalarini o‘yuvchi va karbonatli ishqorlar bilan neytrallash tufayli hosil bo‘ladi.




Shuningdek sovun neytral yog‘larni sovunlanishi natijasida ham hosil bo‘ladi.




Suyuq sovun olishda kaliy karbonat va kaliy gidroksiddan foydalilanadi.

Etonolaminli sovunni olish reaksiyasi quyidagicha bo‘ladi:



Sovun olishni har qanday usulida, nordon sovun hosil bo‘lishini oldini olish maqsadida, sovunlanish jarayoni ortiqcha ishqor ishtirokida olib boriladi.

Nordon sovun hosil bo‘lishi quyidagi reaksiya bilan ifodalanadi.




Yog‘lar va ishqorlarni tuzilishiga ko‘ra, sovun qattiq, yumshoq yoki malham holida bo‘lishi mumkin. Qattiq yog‘ kislotalaridan qattiq sovun, yumshoq yog‘ kislotalaridan yumshoq va malham simon sovun chiqadi. Bundan tashqari natriyli sovunga nisbatan kaliyli sovun yumshoq bo‘ladi.

Sovunning fizik-kimyoviy xossalari

Erucchanlik. Sovun spirtda, issiq suvda yaxshi eriydi va natriyli sovunlarga qaraganda kaliyli sovunlar yaxshi eriydi. Sovun molekulasidagi uglerod atomi sonini ko‘payishi, uning erucchanligini kamayishiga olib keladi. Dietil efirida, benzinda, atsetonda sovun erimaydi. Tuyingan yog‘ kislotalari sovunlariga nisbatan to‘yinmagan yog‘ kislotalari sovunlari yaxshi eriydi va harorat oshganda erucchanlik ortadi. Nordon sovunlar suvda qiyin eriydi, lekin qutbsiz erituvchilarda yaxshi erish qobiliyatiga ega.

Elektro‘tkazuvchanlik. Sovunlarning suvdagi eritmasi elektr toki o‘tkazish xususiyatiga egadir. Bu xususiyat sovun molekulalarini dissotsiatsiyasi bilan tushuntiriladi.




Harorat ko‘tarilganda elektr o‘tkazish ortadi. Sovun eritmasiga elektrolit qo‘shilganda elektro‘tkazuvchanlik ortadi.

Zichlik. Sovunlarning zichligi tabiatiga, sovutish sharoitiga ko‘ra 960-1020 kg/m² oraliqda bo‘ladi.

Erish harorati. Suvsiz sovunlarni erish harorati 225-270°C ga teng. 60% li sovunni erish harorati 100°S dan past.


Gigroskopiklik. Sovunlar nam tortish, bo‘kish, xususiyatlariga ega, bunda issiqlik ajralib chiqadi. Natriyli sovunlarga qaraganda, kaliyli sovunlarni gigroskopikligi yuqori bo‘ladi.

Sovun gidrolizi. Suvli eritmalarda sovun gidrolizlanadi:



Gidroliz darajasi sovunning tabiatiga, eritmaning konsentratsiyasiga, haroratiga bog‘liq. Konsentratsiya pasayganda gidroliz kuchayadi. Harorat ortganda sovunning gidrolizlanishi ham ortadi. Eritmaga ishqor va spirt qo‘shilganda gidrolizlanish pasayadi.


Kislotalarni sovunga ta’siri. Kislota ta’sirida erkin yog‘ kislotalari ajralib chiqish bilan parchalanadi.




Hosil bo‘lgan erkin yog‘ kislotasi neytral sovun bilan reaksiyaga kirishib nordon sovun hosil qilishi mumkin. Sovunni to‘liq parchalanishi uchun uni uzoq vaqt qaytanish lozim.

Qovushqoqlilik. To‘yinmagan yog‘ kislotalari sovunlariga qaraganda tuyingan yog‘ kislotalar sovunlari ko‘proq qovishqoqlikka ega. Harorat pasayganda sovun eritmalarini kiritirilishi sovun eritmalarini qovishqoqligini oshiradi. Buning natijasida yadro va sovun osti ishqori hosil bo‘ladi.

Almashinish-parchalanish reaksiyasi. Suvli eritmalarda sovun almashinish reaksiyasi kirishishi mumkin. Masalan, natriyli sovunni kaliy karbonat bilan ishlanganda, u qisman kaliyli sovunga o‘tadi.



Natriy karbonat bilan kalsiyli sovunga ta’sir qilinganda, u natriyli sovunga aylanadi.



Sovun polimorfizmi. Sovunlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash usullariga ko‘ra ularda bir necha polimorf turlanish sodir bo‘ladi. Ular shakli va kristallarning kattaligi bilan farqlanadi va har xil qattiqlik, zichlik, eruvchanlik, Ter kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Sovunlarda α,β,δ va ω polimorf turlanish bo‘lishi aniqlangan.

Tovar holidagi sovunlarda β,δ,ω - fazalar aralashmasi aniqlangan. α oson β fazaga aylanadi.


β - modifikatsiya sovunni sekin sovutishda (< 70°C) yoki sovuq sovunga mexanik ishlov berilganda hosil bo‘ladi. Sovunlar β - modifikatsiyada yuqori eruvchanlik, yaxshi ko‘piklanish xususiyatlariga ega. U δ va ω - fazaga ko‘ra qattiq, nam tortishi kam, kam sarflanadigan bo‘ladi. Tarkibida ω - faza bor sovunga ko‘ra, ustida shilimshik qatlam paydo bo‘lmaydi, sovuganda sovun o‘z shaklini saqlab qoladi, yoriq paydo bo‘lmaydi va qatamlarga ajralib ketmaydi.

ω modifikatsiya 70°C dan oshiq haroratga chidamli bo‘ladi. Mexanik qayta ishlashda ω-modifikatsiya β-modifikatsiyaga aylanadi. ω-modifikatsiyadagi sovunning ko‘piklanishi past, erish tezligi baland emas, β-fazadagi sovunga ko‘ra yumshoqroq. δ-modifikatsiya past haroratlarda hosil bo‘ladi (30°C). δ- modifikatsiyadagi sovun β va ω fazalar orasidagi o‘rinni egallaydi. Vakuum – quritish uskunasida sovun olinganda, tez quritish natijasida birinchi α -faza paydo bo‘ladi va tezlik bilan β-modifikatsiyaga aylanadi. Bu hol vakuum-quritishdan oldin sovun 120-160°C gacha qizdirilganda tezlashadi. Mexanik ishlov berish (sovunni ishqlash, aralashtirish, presslash, reshetskali mayda teshiklardan siqib chiqarish) belgilangan sharoitlarda (sovun massasining harorati, zichlashdagi bosim) sovunda β- modifikatsiyani ko‘proq hosil bo‘lishiga olib keladi.

Sovun suvli eritmasining fizik-kimyoviy xossalari. Sovun eritmasining tabiat. Sovun eritmasini tabiatni to‘g‘risida ikki xil fikr bor. Ba‘zi kishilar fikricha sovun eritmalarini kolloid ya’ni ikki fazali sistema hisoblanadi. Bu konsentrangan sovun eritmalarini yuqori qovushqoqligi, eritmaning konsentratsiyasi oshganda qaynash harorati o‘zgarmasligi, kolloid eritmaga xos

ekanligidir. Boshqa kishilar hisoblaydiki, sovun eritmalar bir fazali, xaqiqiy yoki molekulyar eritmadir. Buning isboti shundaki elektro'tkazuvchanlik, gidroliz xossalari borligidir. Sovun eritmalarining kolloid va molekulyar xususiyatlari quyidagicha tushuntiriladi.

Sovunning ko'pgina xususiyatlari uni molekulasi tuzilishi bilan tushuntiriladi. Sovunning formulasi ikki ya'ni oleofil (moyga moyil, qutbsiz) va gidrofil (suvga moyil, qutbli) qismlardan tashkil topgan.




Sovunning molekulasini to'g'ning nagichiga o'xshatish mumkin. Tayoqcha molekulani (qutbsiz) qalpoqcha (qutbli) qismi bo'ladi. Shunday qilib, sovun difil bo'lib, bu o'z navbatida uni yuvish qobiliyatini ta'minlaydi. Sovun eritmasing tuzilishi murakkab bo'lib, bu quyidagilar bilan tushuntiriladi: suvli eritmada sovun gidrolizlanishi natijasida bir vaqtin o'zida eritmada RCOONa, RCOOH va NaOH lar bo'ladi. Sovun dissotsiyalanadi.



O'z navbatida yog' kislota ham dissotsiyalanadi.




Suvli eritmada sovun va yog' kislotalari bo'ladi va yog' kislotasining molekulasi sovun bilan reaksiyaga kirishadi va nordon sovun hosil qiladi.




Nordon sovunlar suvda erimaydi. Ular suspensiya tashkil qiladi. To'yinmagan yog' kislotalarining nordon sovunlari yuqori haroratda sovun eritmasing eriydi. Konsentrangan sovun eritmalarida uglevodorod radikallari bir biriga tortilishi tufayli kationlar assotsiatsiyalanadi, COO⁻ gruppalar bir biridan uzoqlashadi. Shuning uchun assotsiatlar sfera shakliga kiradi. Ularni ionli mitsella deyiladi, 44a-rasmida ko'rsatilgandek (ularni shar shaklidagi mitsella ham deyiladi). Shuningdek, tuzilishi tufayli mitsella ionlari elektr zaryadiga ega bo'ladi.

Konsentratsiyasi yuqori bo'lgan eritmarda sovun molekulalari ham assotsiatsiyalashadi, dastlab bir biriga tortilgan COONa guruhlari bilan qo'sh molekulalar tashkil topadi. Bu juftlar molekulyararo tortish kuchi tufayli assotsiatlar hosil qiladi va ular shakliga ko'ra plastinkasimon mitsella deyiladi (44b-rasm).



44 – rasm. Sovun mitsellasi tuzilishini sxemasi

Sovun eritmalarida ionli va plastinkasimon mitsellalar kislotalar anioni konsentratsiyasiga bog'liq holda muvozanat holatda joylashadi.



Sovun eritmasining konsentratsiyasiga, sovunning tabiatiga, va haroratga qarab muvozanat u yoki bu yo'nalishga harakatlanishi mumkin.


Missella hosil qilishni kritik konsentratsiyasi (MKK). Sovunli eritma konsentratsiyasini o'zgarishiga qarab, ikki turdag'i mitsellani hosil bo'lishi bu eritmani xossalariqa sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Sovun eritmasining mitsella hosil bo'lishi kuzatildigan konsentratsiyasi MKK deyiladi.

MKK – sovunning tabiatiga, haroratiga (eritmaning) va elektrolitni mavjudligiga bog'liq. Harorat ko'tarilishi bilan eritmaning MKKsi ortadi. Sovun eritmasiga spirt qo'shilishi MKK ni oshiradi, bu sovunni spirtda yaxshi erishi bilan bog'liq. MKK – katta amaliy ahamiyatga ega. Yuvuvchi moddalar eritmasining konsentratsiyasi MKK ga teng yoki undan yuqori bo'ladi. Sovunli eritmalarini konsentratsiyasi MKK dan past bo'lganda, ular yuvish qobiliyatiga ega emas.

Erituvchanlik qobiliyat(solyubilizatsiya). Sovunlarning konsentrangan eritmalarini suvda erimaydigan organik moddalar (yog' va moylar, alifatik va aromatik uglevodorodlar)ni kalloidli eritish xususiyatiga ega.

Solyubilizatsiyada organik moddalar sovun molekulalarini hidrofob qismini orasiga joylashadi. Sovun eritmasining konsentratsiyasi va temperaturasini ko'tarilishi erituvchanlik xususiyatini oshiradi. Sovun erimasidagi erkin yog' kislotalari solyubilizatsiyani yaxshilaydi. Solyubilizatsiyada plastinkasimon mitsellalarning joylashishini o'zgarishi 45- rasmda ko'rsatilgan.



45 – rasm. Natriy oleat mitsellasida benzolni erishining sxemasi


Sirt faollik. Sovunning suvdagi eritmasi sirt faoldir, ya'ni sirt taranglikni pasaytiradi (fazalar orasidagi tutash yuzani ozod energiyasini kamaytiradi). Suvli eritmalaragi sovun molekulalari ikki faza (xavo-suv, suv-suyuqlik, suv-qattiq jism) ni tutash yuzalariga

adsorbsiyalanib mono molekulyar qavat hosil qiladi. Natijada taranglik kamayadi. Uglevodorodlarning sirt tarangligi suvnikiga qaraganda anchagina harorat ko'tarilishi bilan sovunli eritmani sirt tarangligi kamayadi.

Sirt taranglik: suv 20°C da – 73 erg/sm^2
 kerosin 20°C da – 24 erg/sm^2
 spirt 20°C da – 22 erg/sm^2
 simob 20°C da – 472 erg/sm^2
 suv 80°C da 62 erg/sm^2

Sirt tarangligi past bo'lganligi uchun har xil moddalarni sovunli eritmasi oson xo'llaydi. Shu jumladan oleofil moddalarni ham.

Ko'piklanish xususiyati. Ko'pik – uyali dispers sistema bo'lib, bunda xavo pufakchalari sovun pardasi bilan o'ralgan (46-rasm). Ko'pik uch komponentli sistema bo'lib, havo-suv-sirt faol modda (SFM) dan iborat.



46 – rasm. Ko'pik zarrachasining tuzilishi

Ko'pik sirt taranglik kamligida paydo bo'ladi. Sovunli eritmaning xavo-suyuqlikni to'tash yuzasida mustaxkam parda hosil qilish ko'piklanish xususiyatini belgilaydi, bu ko'pikning barkarorligini ta'minlaydi.

Bu xususiyat sovun eritmasini ko'pik soni bilan xarakterlanadi.

Ko'pikning barkarorligi – 5 min dan keyin parchalanib ketgan ko'pik xajmining dastlabki hajmiga nisbati bilan aniqlanadi.

Ko'piklanish xususiyati va ko'pik barkarorligi sovunning tabiatiga, konsentratsiyaga, haroratga, elektrolit mavjudligiga bog'liq.

To'yingan yuqori molekulali yog' kislotalari sovunlari ($\text{S}_{16}, \text{S}_{18}$) mayda yachevkali, lekin barqaror ko'pikni hosil qiladi. O'rtamolekulali yog' kislotalari sovuni yirik yachevkali ko'pikni hosil qiladi. Yuqori molekulali yog' kislotalarini ko'piklanish xususiyati qizdirilganda ortadi.

Pastmolekulali yog' kislotalari sovuni harorat ortganda ko'piklanish xususiyati kamayadi. Yuqori molekulali yog' kislotalarining kaliyli sovunlari natriyli sovunlarga qaraganda ko'piklanish xususiyati yuqori. Aksincha, past molekulali yog' kislotalarining natriyli sovuni kaliyli sovunga nisbatan yaxshi ko'piklanish xususiyatiga ega.

Maydalash-peptizatsiyalash qobiliyati. Sovunli eritmaning fazalarni to'tash yuzasida parda hosil qilishi, qattiq yuzani gidrofillashga va xo'llashga sharoit yaratib beradi. Shu tufayli sovunli eritma qattiq zarrachaning g'ovakcha va yoriqlari orasiga osongina kirib borib, uni maydalaydi va mayda zarrachali suspenziya hosil qiladi. Qattiq zarrachalar sovunli eritmaning yupka qatlamlarini panalovchi bosimi ta'sirida parchalanadi. Qattiq jismning yuzasida yupka parda hosil bo'lishi eritmadi maydalangan zarrachalarning barqarorligini oshirib muallak holatda ushlab turishga imkon yaratadi.

Peptizatsiyalash va stabilizatsiyalash sovunning tabiatiga, haroratga, qattiq jismining maydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Sovunni suvli eritmasi sintetik sirt faol moddalar (SFM)

dan fark qilib, yuqori stabillash, kirni qaytadan mato yuzasiga utirishiga karshilik qilish qobiliyatiga ega.

Sovunni yuvish qobiliyati. Moddalarning yuvish qobiliyatini bilish uchun avvalo xo‘llanish nimaligini aniqlashimiz kerak. Yaxshi xo‘llanishda suyuqlik qattiq jismning ustida tekis yoyiladi va uning yoriqlariga singadi. Yomon ho‘llanish simob donachalarini oyna ustidagi harakati shaklida ko‘rinadi. Simob oyna yuzasida xech kanday iz qoldirmaydi. Shuningdek oleofil (moyga moyil) yuzani suv yaxshi ho‘llamaydi. Bu sirt taranglik bilan tushuntiriladi. Ho‘llanishni yaxshilash uchun sirt taranglikni kamaytirish kerak. Ma’lumki suvga, ayniksa simobga qaraganda spirt va kerosin yuzani yaxshi ho‘llaydi. Savol tug‘iladi: Sirt tarangligi yuqori, demak, ho‘llash qobiliyati past bo‘lgan suvda yuvish qobiliyati kanday amalga oshirish mumkin? Sirt taranglikni kamaytirish mumkinmi? Mumkin: harorat 20 dan 80 °C ortganda sirt taranglik 73 dan 62 erg/sm² gacha kamayadi. Bu xech qancha emas. Agar olein kislotasini natriyli sovunidan 0,1 % qo‘shilsa, suvni sirt tarangligini 26,5 erg/sm² gacha pasayadi. Shuning uchun sovunli eritma oleofil yuzada yaxshi yoyiladi va matoga yaxshi singadi.


Suvni sirt tarangligini kamaytiradigan moddalar sirt faol moddalar deb aytildi, yoki ikki jismning fazalararo tutashgan yuzasida to‘planish xususiyatiga ega bo‘lgan vositachilar sirt faol moddalar deyiladi. Sovunning suvdagi eritmasi ham SFM dir. Mato yuzasidan kir (qurum, moy) ni ketkazishni quyidagicha tushinish mumkin.

Sovunni suvda eritilan eritmasida karboksil guruh (qalpoqcha) qoladi, uglevodorod guruhi (tayoqcha) esa eritma yuzasiga siqb chiqariladi. Agar sovunni eritmasiga yog‘ tomchisi yoki boshqa qutbsiz modda tushib kolsa, unda molekulaning tayoqchasi yog‘ga sanchilib kiradi. Shunday qilib, sovun suvda erimaydigan yog‘ moddalarini eritma bilan bog‘laydi, ya’ni yog‘ tomchisi atirofida, suv va yog‘ni o‘zaro tutashtirib, yuzalarida monomolekulyar qavat hosil qiladi. Eritmada sovun molekulalari ko‘p bo‘lganligi uchun, ular yog‘ tomchisi atirofida elastik parda hosil qiladi. Mato yuzasidan yuvib tashlanadigan qattiq moddalar (kukun) bilan ham shunday hodisa sodir bo‘ladi. Sovunning eritmasi yuqori xo‘llash qobiliyatiga ega, shuning uchun sovun eritmaga solingan mato yuzasiga yaxshi yoyiladi. Bunda sovunning molekulalari o‘zlarining tayoqcha qismi bilan materialga joylashishadi. Shuningdek sovun kir sirtiga yopishadi.

Sovun molekulasingin qutbli qismi suvli eritmada quyidagicha dissotsiatsiyalanadi:



Buning natijasida elektr maydoni hosil bo‘ladi. Xo‘llangan material va kir sirtining elektr zaryadi, bir xil va bir biridan itariladi. Shu tufayli kir, chirk materialdan ajraydi va eritmaga o‘tadi (47-rasm). Xuddi shu zaryad kirning mato yuzasiga qayta cho‘kishiga va bir biri bilan birlashishiga to‘sqinlik qiladi.



47 – rasm. Yuvish jarayonini sxemasi: a,b-birinchi bosqich (mato va kirni ho'llanishi), c-ikkinchi bosqich (kirni matodan uzilishi), d,e-uchinchi bosqich (kirni yuvuvchi eritmada turishi)

Takrorlash uchun savollar.

1. Sovun o‘zi nima? Sovun ishlab chiqarishni axamiyati
2. Sovunlarning fizik kimyoviy xususiyatlari.
3. Sovun polimorfismi
4. Sovunli eritmaning fizik kimyoviy xossalari.
5. Mitsella hosil qilishni kritik konsentratsiyasi.
6. Sovunlarni eruvchanligi.
7. Sovunni elektr o‘tkazuvchanlik xossasi
8. Sovunni gidrolizi
9. Sovunlarning erituvchanlik qobiliyati (solyubilizatsiya)
10. Sovunli eritmaning sirt aktivligi.

19-MA’RUZA SOVUN ISHLAB CHIQARISH UCHUN XOMASHYO VA YORDAMCHI MATERIALLARI. SOVUN PISHIRISH JARAYONI ASOSLARI

Reja: Yog‘li xom-ashyo. Yordamchi materiallar. Retseptura tuzish. Xo‘jalik sovuni yog‘li retsepturasi. Atir sovun yog‘li retsepturasi.

Tayanch so‘z va iboralar: Xomashyo, Qo‘sishma materiallar, Yog‘ o‘rinbosarlari, Retseptura, Atir sovun, Titr, Bevosita usul, Bilvosita usul, Sovun osti yelimi, Sovun osti ishqori, Qaynatish, Kaustik sovunlash, Birinchi sovunlash, Birinchi tuzlash, Ikkinchisovunlash, Ikkinchisovunlash, Uchinchi sovunlash, Karbonatli sovunlash

Yog‘li xomashyo. Sovun sifati ishlatiladigan yog‘lar sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Atir sovuniga ishlatiladigan xomashyolarga yuqori talablar quyiladi. To‘q rangli yokimsiz hidli xomashyolar xo‘jalik sovunga ishlatiladi. Xayvon yog‘lari: qo‘y, mol yog‘lari sovun uchun kimmatlari xomashyo


hisoblanadi, ayniksa atirsovun uchun. Texnik xayvon yog‘lari – xo‘jalik va atirsovunlarga ishlatiladi. Ularni tarkibida yog‘ bo‘lgan xomashyolarni qizdirish usuli bilan olinadi. Kokos va palma yadro moylari atirsovuni uchun ishlatiladi. Ularda 52 % gacha laurin va 19 % gacha miristin kislotosi bor. Bu yog‘lar sovunning qayishqoqligini oshiradi. Palma yog‘i yog‘ kislota tuzilishiga qaraganda hayvon yog‘lariga yakin va atirsovun olishi uchun ishlatiladi. Salomas – yuqori titrli (46-48⁰C) xo‘jalik sovuni uchun, past titrli (39-42⁰C) atirsovun uchun ishlatiladi. Soapstokdan olinadigan yog‘ kislotalari distillangan holida ishlatiladi. Sintetik yog‘ kislotalari sovun pishirishda tabiiy yog‘ kislotalari o‘rniga ishlatiladi. Fraksiyasi C₁₀-C₁₆ bo‘lganlar kokos yog‘i o‘rniga, C₁₇-C₂₀ qattiq yog‘ o‘rniga ishlatiladi.

Sintetik yog‘ kislotalarni kamchiligi:

C₁₀-C₁₆ fraksiyasi tarkibida 4-5 % past molekulali C₅-C₉ kislotalar bo‘lib, ularni sovuni ko‘piklamaydi va yuvish qobiliyatiga ega emas, bundan tashqari bu sovunlarning suvdagi eritmalari odam terisiga ta’sir qiladi, terini quritadi.

C₁₇-C₂₀ fraksiyali sintetik yog‘ kislotalari (SYoK) tarkibida 15-20 % yuqori molekulali yog‘ kislotalari (C₂₅ gacha) bo‘lib, ularni sovuni suvda yaxshi erimaydi va past yuvish qibiliyatiga ega. Shu sababdan sintetik yog‘ kislotalari sovun pishirishda tabiiy yog‘ kislotalarini to‘la qonli o‘rnini bosa olmaydi. Sifatli sovun olish uchun sintetik yog‘ kislotalari tarkibida asosan C₁₂-C₁₆ va C₁₇-C₁₈ fraksiyali kislotalar va yuqorida sanab o‘tilgan aralashmalardan holi bo‘lishi lozim.

SYoK katalizator ishtiroqida parafinni kislorod bilan oksidlash natijasida olinadi. Katalizator sifatida 0,2% kaliy permaganat yoki marganetsning oksidlari ishlatiladi. Oksidlanish jarayonida parafin molekulasi kislorod bilan bog‘lanadi, bog‘lar har joyidan uziladi va ikkita yog‘ kislota molekulasi hosil bo‘ladi.



Yog‘ o‘rinbosarlari (kanifol, tal yog‘i, neft kislotalari) ayrim xo‘jalik sovunlari olishda ishlatiladi.

Soapstokni distillangan yog‘ kislotalari xo‘jalik va atirsovun olishda ishlatiladi.

Qo‘shimcha materiallar. Natriy gidroksid (NaOH) yoki – kaustik soda, zavodga qattiq holda temir barabanlarda, (92-96 % li) yoki suyuq holda sisternalarda (42-43% li) keladi.

Natriy karbonat (Na₂CO₃) yoki kalsinatsiyalangan soda. Zavodga qattiq holda (91 – 96% li) keladi.

Natriy xlor (NaCl) tovar nomi – osh tuzi, qattiq holda keladi (92-98 %li).

Bo‘yoqlar – atirsovunni bo‘yash uchun ishlatiladi. Bu maqsadda suvda, yog‘da eriydigan bo‘yoqlar va pigmentlardan foydalananiladi.

Suvda eriydigan anilinli bo‘yoq sifatida kizil rodamin C₁₈H₃₁O₃N₂C₁; sariq rangli metanil (C₁₈H₁₄O₈N₃Na) qizil-ko‘k, flyuoreatsein (limonli) jigar rang (C₂₀H₁₀O₅Na₂) lar ishlatiladi. Suvda eriydigan bo‘yoqlar qisman rangsizlanadi va sovun ko‘pigini bo‘yaydi. Shuning uchun keyinchalik yog‘da eriydigan bo‘yoqlar (kizil J va S markali, sarik J markali) va suvda eriydigan (sariq, ko‘k, yashil, jigarrang) bo‘yoqlar taklif qilindi. Bo‘yoqlar suvdagi eritma konsentratsiyasi 0,5% li holida 1t sovunga 10- 270 g gacha sovunni turiga qarab qo‘shiladi.

Oq atirsovun ishlab chiqarishda uning rangini yaxshilash, qattiqligini oshirish uchun unga, sink yoki titanli belila 1t ga 2-10 kg gacha qo‘shiladi.

Xushbo‘y hid beruvchi moddalar (aromatizatorlar) yaxshi hid bo‘lishi uchun qo‘shiladi. Ular har xil xushbo‘y atir-upa kompozitsiyalarni, tabiiy (efir moylari) va sintetik moddalarni aralashmasidan buket shaklida tayyorlanadi. Xushbo‘y moddalardan 1t sovunga 5-15 kg atirofida qo‘shiladi.

Oksidlanishga qarshi moddalar – bular sovunlarni oksidlanish va yomon bo‘lib qolishidan asraydigan moddalardir. To‘yinmagan yog‘ kislotalarini oksidlanish natijasida sovunning hidi va

rangi o'zgaradi. Oksidlanishga karshi ishlatiladigan moddalar: sifatida natriy silikat ($\text{Na}_2\text{O} + \text{SiO}_2$), limon kislotasi ishlatiladi.

Qayishqoq moddalar (plastifikatorlar) sovunni mo'rtlikdan asraydi va uni plastikligi va elastikligini ta'minlaydi. Stabilizatorlar – xushbo'y moddalarni barkarorligini va sovun ko'pigini chidamliligini oshiradi.

Oksidlanishga qarshi va sovunni qayishqoq qiladigan (plastifikator) preparatlar mavjud: bular «Antal P-2» va «Plastibol-9» Tarkibi: «Antol P-2» niki – natriy karboksimetilsellyuloza, limon kislotasi, oksibenzoy kislotasini metil efiri, polietilenglikol.

«Plastibol-9» – dietanolamin, bor, benzoy, oksibenzoy va vino kislotasini natriyli tuzi.

Moylaydigan qo'shimchalar terini yog'sizlanishdan saqlaydi. Buning uchun lanolin - tozalangan jun yog'i, spermatset-hayvon yelimi, glitserin va boshqalar ishlatiladi.

Dezinfeksiyalovchi qo'shimchalar sovunlarni antiseptik xususiyatlarini kuchaytiradi. Bular: geksoxlorofen (gigienik sovuni), fenol (karbal sovuni), bor kislotasi (bolalar sovuni).

Profilaktik davolovchi moddalar teri kasalligiga karshi ishlatiladi. Ularga: xlorofil-karotin pastasi (Lesnoe) sovuni, xna (Gayane), oltingugurtli selen, (Sulsenli sovun) berestinli deget (Degtyarli sovun) kiradi.

Retseptura tuzish. Sovunning yog'li xomashyo retsepturasiga uning fizik-kimyoviy xususiyati, tannarxi, tayyorlash texnologiyasi bog'liq bo'ladi. Shuning uchun retseptura tuzish sifatli sovun ishlab chiqarishning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Retseptura tuzganda shunday yog'larni tanlash kerakki sovun qattiq va qayishqoq, yaxshi eriydigan, kam sarflanadigan va yaxshi yuvish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Retseptura tuzishda yog'li xomashyo tarkibiga kiruvchi yog' kislotalarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Sovun pishirishda qo'llanadigan yog' kislotalar miqdori sovun turiga, uni ishlatish sharoiti, hamda saqlashdagi hidi, rangi, plastiklilagini barqarorligiga qarab belgilanadi. Sovun ishlab chiqarish xomashyosi bo'lgan yog' kislotalar (neytral yog'lar)ning xossalari xarakterlaydigan asosiy fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- yog' kislotalar titrli, sovunning qattiqligi, plastikligi va sovunni suvda eruvchanligini shu ko'rsatkichlar belgilaydi;
- yog' kislotalarning neytrallanish soni (yog'larning sovunlanish soni), sovun pishirishda ishqor sarfi shu ko'rsatkichga bog'liq;
- yod soni, yog' kislotalarning to'yinmaganlik darajasining ko'rsatkichi bo'lib, oksidlanish va qo'shimcha chidamlilikni ko'rsatadi;
- o'rtacha molekulyar massa, sovunning yuvish qibiliyati, sovun yelimini tuzlashda elektrolit konsentratsiyasi va boshqalar shu ko'rsatkichga bog'liq bo'ladi.

Sovunni asosiy fizik-kimyoviy ko'rsatkichi bo'lgan titr quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$T_{ar} = (T_1C_1 + T_2C_2 + \dots + T_pC_p) / 100,$$

bu yerda:

$T_1; T_2; \dots; T_p$ – yog'li aralashmadagi komponentlarni titri, $^{\circ}\text{C}$;

$C_1; C_2; \dots; C_p$ – yog' aralashmasidagi komponentlarni miqdori, %.

Sovunni biror turi uchun hisoblangan titr, standart bo'yicha shu ko'rsatkichga qo'yiladigan talablarga mos kelishi lozim.

Xo'jalik sovunining yog'li retsepturasi. Mamlakatimizda xo'jalik sovuni ishlab chiqarish uchun keng ko'lamdagi yog' va yog' o'rribbosarlari assortimentlari ishlatiladi. Jumladan: o'simlik moylaridan olingan yuqori titrli salomas yog' kislotalari; sintetik yog' kislotalarning $C_{10}-C_{16}$ va $C_{17}-C_{20}$ fraksiyalari; o'simlik moylari rafinatsiyasidan olingan soapstokni yog' kislotalari va hayvon yog'lari. To'q rangli va noxush hidga ega bo'lgan texnik o'ayvon yog'lari, yog' o'rribbosarlari va yog'li chiqindilar sifati yaxshilangan holatdagina ishlatiladi.

Xo'jalik sovunlarining yog'li retsepturasini 22-jadvalda ko'rsatilgan.

22-jadval

Xo‘jalik sovunini retsepturasi

Xomashyo	Yog‘ kislotalar miqdori, %	
	72%-li sovun	60 %-li sovun
Salomas	38-60	22-46
Mol yog‘i	5-17	5-12
Soapstok Yo.K.	0-7	23-25
S.Yo.K.	12-40	16-48

Yog‘li aralashma titri $35-42^{\circ}\text{C}$ bo‘lishi kerak.

Atir sovunni yog‘li retsetrurasi. Atir sovun iliq va sovuq suvda ishlatishga mo‘ljallanganligi bilan xo‘jalik sovunidan farq qiladi. Buning uchun u yaxshi yuvish qobiliyatiga ega bo‘lishi, barqaror ko‘pik hosil qilishi va quritilganda yorilib ketmasligi kerak. Bu talablarni qondirish uchun atir sovunni yog‘li tarkibiga yog‘ yelimli yog‘lar qo‘shiladi. Atir sovun retsepturasini tuzishda qo‘yiladigan asosiy talab bu, sovun quritish va mexanik ishlov berishdan so‘ng uni yaxshi plastik holati ta’milanishi kerak. Jumladan, natriy palmitat sovunga plastiklik, suvda yaxshi eruvchanlik va bir jinslilik bergani uchun atir sovun ishlab chiqarishda tarkibida 30% gacha palmitin kislotosi bo‘lgan mol yog‘idan foydalaniladi.

MDH va xorijiy mamlakatlarda qabul qilingan klassik oliy navli atir sovun yog‘li retsepturasida 80-85% eritilgan mol yog‘i (yog‘ kislotalar titri $41-43^{\circ}\text{C}$) va 15-20% kokos moyi bo‘ladi. Bu yog‘lar tarkibida 20-22% stearin, 23-25% palmitin, 11-15% miristin va laurin, 35-37% olein kislotalari bo‘lib, tayyor mahsulotni ishlatilish xossalari va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi, hamda sovunga mexanik ishlov berishning qulay sharoitlarini hosil qiladi. Bunday retseptura “Ekstra” va I guruh sovunlarini ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

Atir sovunni boshqa guruhlarini ishlab chiqarishda klassik retseptura etalon sifatida ishlatiladi va bunga muvofiq mol yog‘i va kokos moylari qisman yoki to‘liq boshqa yog‘lar bilan almashtiriladi. Jumladan yog‘li yadro sifatida o‘simplik moylaridan olingan past titrli salomas (asosan tarkibida 22-25% palmitin kislotosi bo‘lgan paxta moyi salomasi); I navli tiniq texnik hayvon yog‘lari yoki distillangan texnik hayvon yog‘larining yog‘ kislotalari ishlatiladi. Gidrogenlangan cho‘chqa yog‘lari (atir sovun retsepturasiga kiritiladigan, tarkibida 8% gacha linol va oz miqdorda linolein kislotalari bo‘lgan, tabiiy cho‘chqa yog‘i 15-20% dan oshmagan holda ishlatiladi) kabi yog‘li xomashyolar ishlatiladi. II va III guruh sovunlari retsepturasidagi kokos moyi SYoK ning $\text{C}_{10}-\text{C}_{16}$ ($\text{C}_{12}-\text{C}_{16}$) fraksiyalariga almashtirilishi mumkin “Ekstra”, I guruh va “Bolalar” sovunlariga sintetik yog‘ kislotalari qo‘shilmaydi.

Atir sovunlarining yog‘li retsepturasi 23-jadvalda berilgan.

23-jadval

Atir sovunini retsepturasi

Xomashyo	Yog‘ kislotalar miqdori, %			
	I-guruh “Ekstra”	II-guruh	III-guruh	Bolalar sovuni
Xayvon yog‘lari	70-60	33-27	17-13	33-27
DYoK	-	32-38	52-48	32-38
SYoK $\text{C}_{10}-\text{C}_{16}$	-	16-10	14-16	-
Kokos moyi	13-17	6-8	3-5	13-17


Yog‘ aralashmasini titri $31-41^{\circ}\text{C}$ bo‘lishi kerak.

SOVUN PISHIRISH JARAYONI ASOSLARI

Reja: Neytral yog‘larni sovunlanishi. Yog‘ kislolarini neytralizatsiyasi. Yog‘li aralashmalarni sovunlash uchun ishqor sarfini hisoblash. Sovun pishirish usullari.

Neytral yog‘larni sovunlanishi. Neytral yog‘larni sovunlantirish ishqorlar bilan amalga oshiriladi (NaOH , KOH). Neytral yog‘larni oddiy sharoitda karbonatli soda sovunlantirmaydi.


Neytral yog‘larni sovunlantirganda ikkita reaksiya sodir bo‘ladi. Birinchi navbatda uchglitserid gidrolizlanib, glitserin va kislota, keyin yog‘ kislota ishqor bilan reaksiyaga kirishib, sovun va suv hosil bo‘ladi.



Sovunlanish reaksiyasi sekin boradi, chunki yog‘lar ishqorli suvda erimaydi, shuning uchun reaksiya tezligiga emulsiyalarni disperslanganligi ta’sir qiladi.

Masalan: mol yog‘ini sovunlantirish 35 %-li NaOH bilan 45°C da olib borilganda disperslikni sovunlanish darajasiga ta’siri 48-rasmida ko‘rsatilgan.


Emulsiya dispersligini oshib borishi sovunlanish reaksiyasining tezligini 20-30 marta ko‘paytiradi. Reaksiya muhitida sekin-asta sovun hosil bo‘lib borishi bilan yog‘ni konsentrangan sovun eritmasida erishi ortadi, sovunlanish tezlashadi va reaksiya tezligi gomogen muhittagi reaksiya tezligiga yaqinlashadi.



48 – rasm. Emulsiyani boshlang‘ich dispersligiga qarab yog‘larni sovunlanish tezligini o‘zgarishi.

1-emulsiyani sovunlanishi emulgatorda olib borilganda; 2-sun’iy olingan emulsiya; 3-turboaralashirgich bilan sovunlantirish; 4-qo‘lda aralashirish

Shunday qilib tutashish yuzasini kuchaytirish uchun, emulgator bo‘lishi kerak.



49 – rasm. Yog’larni ishqor bilan sovunlashni tezligi : 1-50 %li sovundagi yog’ eritmasi; 2- toza yog’lar

Haroratni ortishi reaksiya tezligini oshiradi, lekin emulsiyani buzulishiga olib keladi. Shuning uchun reaksiya boshida harorat $60-80^{\circ}\text{C}$ bo‘lishi kerak va sovun to‘plangan sari $100-105^{\circ}\text{C}$ gacha ko‘tariladi.

Ishqor eritmasining konsentratsiyasi oshganda sovunlanish tezligi oshadi. Lekin konsentrangan eritma sovunni tuzlanishga olib keladi. Shuning uchun dastlab konsentratsiyasi past bo‘lgan ishqor eritmasi, keyin konsentrangan eritma ishlatiladi.

Yog’ kislotalarini neytralizatsiyasi. Yog’ kislotalaridan sovun pishirganda ularning neytralizatsiyasini karbonatli ishqor bilan amalga oshirish mumkin. Bu karbonatli sovunlanish deyiladi.


Karbonatli sovunlanish reaksiysi



Natriy bikarbonat



Natriy bikarbonat parchalanadi:



Shunday qilib, yog’ kislotasini natriy karbonat bilan neytrallaganda yog’ kislota NaOH bilan reaksiyaga kirishadi.

Yog’ kislotasini Na_2CO_3 bilan neytrallashni yuqori haroratda olib borish kerak.

Nordon sovun hosil bo‘imasligi uchun karbonat sovunlanish va kaustik tugal sovunlanish jarayonlarida ishqor miqdori nazariy talab qilinganidan 0,1-0,3 % ortiqcha ishlatiladi.

Agar nordon sovun hosil bo‘lsa sovun massasida kuyuklik paydo bo‘ladi, keyin bu kuyuklikni eritish juda qiyin.

Yog’li aralashmalarini sovunlash uchun ishqor sarfini xisoblash. Nazariy tomondan 1 t yog’ aralashmasini sovunlashga kerak bo‘lgan NaOH miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$I_{\text{NaOH}} = 0,714 \text{ S.s.} \quad \text{yoki} \quad I_{\text{NaOH}} = 0,714 \text{ N.s.}$$

bu yerda : S.s. – yog’ aralashmasini sovunlanish soni,

$$0,714 - \text{KOH ni NaOHga qayta hisoblash koeffitsienti} \\ (40,0/56,1 = 0,714)$$

Yog’ kislotalaridan sovun ishlab chiqarishda yog’larni sovunlashga sarf bo‘lgan karbonat sodani va tugal sovunlashga ketgan NaOH miqdori aniqlanadi.

$$I_{\text{Na}_2\text{SO}_3} = I_{\text{NaOH}} = 1,32 / 100,$$

bu yerda: K – karbonat sovunlanish darajasi (70-80 %)

1,32 – NaOH dan Na_2CO_3 ga o‘tish koeffitsienti.

49-rasmdagi egri chiziqlardan ko‘rinib turibdiki, yog’larni sovunlanishi, sovun eritmasida bir necha marta tezroq boradi.

Emulgator vazifasini, dastlabki davrda hosil bo‘lgan yoki qo‘shiladigan sovun bajaradi.

Sovunlanish tezligi, sovunlanadigan massada 20 % va undan ko‘proq sovun hosil bo‘lganda juda tezlashib ketadi.

$$\frac{106 \cdot 92}{2 \cdot 40 \cdot 95} = 1,32$$

ya'ni 1 kg NaOH o'rniga 1,32 kg Na₂SO₃ ishlatish kerak bo'ladi.

106 – Na₂CO₃ ning molekulyar og'irligi

40 – NaOHning molekulyar og'irligi

92 - kaustik sodadagi NaOH miqdori

95 – Na₂CO₃ dagi soda miqdori

2 – Na₂CO₃ da natriy atomi soni


Sovunlashga ketgan NaOH miqdori:

$I_{NaOH} = I_{NaOH} (100-k)/100$

Shuningdek tayyorsovunda qoladigan erkin ishqorni ham xisobga olish kerak. Odatda tayyorsovunda (0,2-0,3 %) ishqor bo'ladi.

Suvsizsovun miqdorini aniqlash.

Sovun hosil bo'lish reaksiyasi:



U holda suvsizsovunni hosil bo'lishi quyidagicha aniqlanadi

$$G_C = RCOOH + Na - N$$

Yoki G_C ishlatilgan yog' kislotasi og'irligiga nisbatan % hisobida

$$G_C = \frac{(M_{\text{e.k.}} + M_k - 1) \cdot 100}{M_{\text{e.k.}}}$$

bu yerda: M_{yo.k.} – yog' kislotalarini o'rtacha molekulyar massasi; M_k – ishqor metalini molekulyar massasi, 1-vodorodni atom massasi.

Masalan: M_{yo.k.} = 270 bo'lsa

$$G_C = \frac{(270 + 23 - 1)}{270} = 108,1\%$$

va tovar xolidagisovunda (70 %-li) sofsovunni miqdori:

$$G_C = \frac{70 \cdot 108,1}{100} = 75,6\% \text{ bo'ladi}$$

Sovunni namligi quyidagi formula buyichaaniqlanadi:

$$W = 100 - (G_C + I_{Er} + Q + A) \%$$

I_E – sovundagi erkin ishqor miqdori, %

Q – sovunga qo'shiladigan qo'shimchalar, %

A – har-xil aralashmalar miqdori, %

Masalan: W = 100 – (75,6 + 0,3 + 1 + 1) = 22,1 % ga teng.

Sovun pishirish usullari. Qo'llanilayotgan xomashyo, sovun turi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablarga ko'ra, sovun pishirish turli usullarda olib boriladi. Ular bevositava bilvosita asosiy usullar hisoblanadi.

Bevosita usul yog'li aralashmalarni, ularga mos keluvchi soda mahsulotlari bilan neytrallab, sovun yelimi olishga asoslangan. Olingan sovun yelimi, yog' kislotalari konsentratsiyasi va elektrolitlar miqdori bo'yicha belgilangan texnik shartlar me'yorlariga mos bo'lishi kerak. Bu usulda pishirilgan sovun qo'shimcha jarayonlarsiz keyingi ishlov berishga yuboriladi. Yaxshi tozalangan yog'li xomashyolardan xo'jalik sovuni pishirishda bevosita usul keng qo'llaniladi. Bevosita usul bilan pishirilgan sovun yelimi elektrolit eritmalarib ilan ishlanganda sovunli massa ikki faza (yadro va sovun osti ishqori yoki yadro va sovun osti yelimi) yoki uch fazaga (yadro sovun osti yelimi va sovun osti ishqori) ajralishi bilan boradigan usul bilvosita usul deyiladi.

Tarkibida 60-63% yog‘ kislotalari bo‘lgan,sovun yadrosini tuzlash natijasida olingen sovun, bevosita usul bilan pishirilgan sovun kabi sovitiladi, quritiladi va unga mexanik ishlov beriladi.

Har xil iflosliklarga ega bo‘lgan yog‘li xomashyolardan, soapstoklardan, texnik hayvon yog‘larining to‘q rangli navlaridan, neytral yog‘lardan xo‘jalik sovuni pishirilganda; yog‘ kislotalari va neytral yog‘lardan atir sovunining hamma turlari ishlab chiqarilganda bilvosita usul qo‘llaniladi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Sovun ishlab chiqarish uchun xomashyolar.
2. Qo‘srimcha materiallar.
3. Sovun retsepturasini tuzish.
4. Xo‘jalik sovun retsepturasi
5. Atir sovuni retsepturasi
6. Sovun ishlab chiqarishda ishlatiladigan sintetik yog‘ kislotalari (SYOK)
7. Yog‘ o‘rbosarlari
8. Kir sovunga ishlatiladigan asosiy xomashyolar
9. Atir sovunga ishlatiladigan asosiy xomashyoga qo‘yiladigan talablar.
10. Xushbuy xid beruvchi moddalar va ularni miqdori.
11. Sovun pishirish jarayonini parametrlari.
12. Sovun pishirish usullari
13. Xo‘jalik sovuni asosinit tayyorlash.
14. Sovun osti yelimiga ishlov berish.
15. Sovun osti ishqoriga ishlov berish.
16. Atir sovun asosini tayyorlash.
17. Neytral yog‘larni sovunlanishi
18. Yog‘ kislotalarni neytralizatsiyasi
19. Xo‘jalik sovuni asosini uzlusiz usul bilan tayyorlash texnologik sxemasi.
20. Atir sovun asosini neytral yog‘lardan tayyorlash
21. Atir sovun asosini yog‘ kislotalardan tayyorlash.

20-MA’RUZA **XO‘JALIK VA ATIR SOVUN ASOSLARINI TAYYORLASH**

Reja: Davriy usulda sovun asosini tayyorlash. Sovun pishirish qozoni. Davriy usulda xo‘jalik sovuni asosini tayyorlash sxemasi. Xo‘jalik sovuni asosini uzlusiz usulda TNB-2 uskunasida pishirish.


Tayanch so‘z va iboralar: Sovun yelimi, Birinchi sovunlash, Soapstok yadrovi, Ikkinci sovunlash, Karbonatli massa, Ikkinci tuzlash, Sovun osti ishqori, Uchinchi tuzlash

Xo‘jalik sovunining asosini tayyorlash. *Davriy usulda sovun pishirish.* Bu usul hajmi 200 m³ gacha bo‘lgan qozonlarda amalga oshiriladi.

Gidrolizlangan yog‘lar va yog‘ o‘rniga ishlatiladigan xomashyodan xo‘jalik sovunini asosini davriy ishlaydigan apparatlarda tayyorlash bevosita yoki bilvosita usul bilan bajariladi. Yog‘li aralashmaning yog‘ kislotalarini neytrallash, toza qozonda, sifati yaxshilangan soapstok yadrovi yoki qozonda oldingi pishirishdan qolgan sovun qoldig‘i ishtirokida olib boriladi.

Sovun pishirish qozoni (50-rasm) silindrik korpus (1) dan, konussimon taglikdan va qopqoqdan tashkil topgan. Hosil bo‘lgan CO₂ va ishlatilgan ochiq bug‘ni atmosferaga chiqarib yuborish uchun qozonni qopqog‘ida so‘rvuchi patrubok (5) bor. Qopqoq ostiga halqasimon purkagichlar (3 va 4) joylashtirilgan, ular orqali yog‘ kislotalari, yog‘lar, ishqor eritmasi, tuz eritmasi, issiq suv qozonga beriladi. Ko‘rish oynasi (6) sovun pishirish jarayonini kuzatish (ba’zan

quruq tuzni solish uchun) uchun xizmat qiladi. Tindirilgansovun yadrosi ulangan sharnirli sifon truba (7) orqali quyib olinadi. Sharnirli truba zanjir va lebyodka (2) yordamida harakatga keltiriladi. Sovun yadrosini qizdirish uchun zmeevik (8) o'rnatilgan. Qozonni pastki qismida sovun osti ishqori va sovun osti yelimini bo'shatish uchun shtutser (9) mavjud.



50 – rasm. Sovun pishirish qozoni

Davriy usulda xo'jalik sovuni asosini tayyorlash sxemasi (51-rasm).

Sovun pishirish sexining 18 sig'imidagi osh tuzi eritmasi nasos(19) orqali sarf o'lchagichga(4) uzatiladi. Natriy karbonat eritmasi (24)bakdan nasos(23) yordamida sarf o'lchagich(1)ga uzatiladi. Sovun pishirish uchun tayyor holatga keltiriladi. To'g'ridan – to'g'ri sovun pishirish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda parchalangan yog' kislotalar, sintetik yog' kislotalar, distillangan yog' kislotaldar, texnik hayvon yog'lari omborlardan yig'uvchi sig'implar (2,5,6,7)ga olinadi. Sovun resepturasi asosida hisoblangan ishqor sarfi miqdori sarf o'lchagich(3) dan 28-30% li konsentrangan ishqor eritmasi sovun pishirish qozoni(9)ga beriladi. So'ngra qozonlarga ochiq bug' berilib, qaynash darajasiga yetkaziladi. Yog'li xom ashyolardan, qozonlarga tabiiy yog'lar, yog' o'rnini bosuvchilar, sintetik yog' kislotalar issiq holda beriladi.


Sovun pishirish jarayoni asta sekinlik bilan davriy ravishda ochiq bug' yoki isitilgan xavo yordamida amalga oshiriladi. Karbonatli sovunlash jarayoni sovun tarkibida massa ulushi 80%

bo'lganda tugagan hisoblanadi. Hosil bo'lgan sovun osti ishqori va sovunosti kleyi nasos(14) yordamida yordamchi qozon(10) ga o'tkaziladi. Hosil bo'lgan sovun yadrosi nasos(12) yordamida sovun pishirish qozoni(8) ga uzatiladi. Ajratib olingan sovun osti kleyi va ishqori sig'im(13)da sovigandan so'ng sovun asosi ajratib olinadi va nasos (14) orqali qayta ishlashga yuboriladi.

Hosil bo'lgan karbonatlari aralashmada yog' kislotalari massa ulushi 60-70% bo'lishi kerak. Karbonatlari sovunlash tugashi bilan 40-42% li kaustik ishqor (NaOH) bilan sovunlash olib boriladi. Kaustik ishqor oz-ozdan qaynatish va aralashtirish vaqtida berib turiladi. Sovunlanayotgan aralashmadagi ortiqcha ishqor miqdori 0,1-0,2 % qilib jarayon oxirigacha yetkaziladi.

Sovunlash vaqtida eng avvalo erkin yog' kislotalarini neytrallash jarayoni qatori so'ng neytral yog'lar sovunlanadi. Kautik ishqor bilan sovunlash sovun asosida ortiqcha ishqor miqdori 30 minut davomida o'zgarguncha davom etadi. Shu usulda olingan sovun asosi bir jinsli bo'lishi, tarkibidagi yog' kislotalar miqdori 60% dan kam bo'lmasligi, ortiqcha ishqor miqdori 0,15 % dan oshmasligi kerak. Shundan so'ng sovun pishirish jarayoni tugagan deb hisoblanadi. Sovun asosi (9,10) qozonlardan nasos(17) orqali maxsus saqlagich-sig'im(11) ga yuboriladi.

U yerdan (25) filtr orqali va 0,3MPa bosim ostida (26) me'yorlovchi nasos yordamida quritish va mexanik ishlov berishga uzatiladi.



51 – rasm. Davriy usulda xo'jalik sovuni asosini tayyorlashning texnologik sxemasi

Sovun pishirishning bevosita usuli bo'yicha ikkita ketma-ketlikdagi jarayon o'tkaziladi: natriy karbonat (Na_2CO_3) eritmasi bilan karbonatlari sovunlash va neytral yog'ni o'yuvchi ishqor (NaOH) eritmasi bilan sovunlash (kaustik tugal sovunlash). Karbonatlari sovunlashda qozonga, ishchi konsentratsiyasi 28-30% bo'lgan, natriy karbonat eritmasining hisoblangan miqdori solinadi, qaynaguncha ochiq bug' bilan qizdiriladi va avval qaynoq tabiiy yog' kislotalari va yog' o'rmini bosuvchilar, keyin sintetik yog' kislotalari beriladi.

Karbonat angidridning ko'p miqdorda hosil bo'lishi natijasida, sovunli massani toshishini oldini olish maqsadida kislotalar asta-sekinlik bilan yaxshilab aralashtirib turgan holda beriladi. Teskari tartibda, ya'ni qozonga avval yog' kislotalari so'ngra soda eritmalari solib bo'lmaydi. Bunday holda nordon sovun hosil bo'lib qolishi mumkin. Yog' kislotalarining neytrallash reaksiyasi issiqlik ajralishi bilan borganligi sababli, reaksiya ketayotgan massani faqatgina jarayonning boshlanishidagina isitiladi. Sovun massasini aralashtirish va karbonat angidridni oson ajralishi uchun qozonga davriy ravishda ochiq bug' yoki siqilgan havo berib turiladi. Yog'li aralashmalar berib bo'lingandan so'ng, SO_2 to'liq ajralib chiqishi uchun bir qancha vaqt mobaynida

massaga juda kam miqdorda bug‘ berib qaynatib turiladi. Sovunli massaga bug‘ berish to‘xtatilgandan so‘ng, uning hajmi o‘zgarmasligi va yuzasiga pufakchalar chiqmasligi karbonatli sovunlanish tugaganligini bildiradi. Massa tarkibidagi Na_2CO_3 miqdori 0,5% dan ko‘p bo‘lmaganda karbonatli sovunlanish tugagan hisoblanadi. Natriy karbonat konsentratsiyasi ko‘payib ketgan taqdirda massaga (qozonga) hisoblangan holda yog‘ kislotalari qo‘shiladi yoki qo‘shimcha qaynatiлади. Karbonatli massada yog‘ kislotalar miqdori 67-70% bo‘lishi kerak.

Karbonatli sovunlanish tugagandan so‘ng, tugal sovunlash uchun, qozonga konsentratsiyasi 40-42% bo‘lgan natriy gidroksid (NaOH) eritmasi kam-kam miqdorda massani qaynatib, bug‘ bilan aralashtirib turgan holda beriladi. Sovunlash jarayonida nordon sovun hosil bo‘lishini oldini olish maqsadida massada ortiqcha ishqor miqdori bo‘lishi shart. Jarayon oxirida ishqor miqdori 0,1-0,2% dan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Tugal sovunlanishda birinchi navbatda qozondagi yog‘ kislotalar neytrallanadi (shuningdek, nordon sovunlar va natriy bikarbonatlarni ham, agar ular bor bo‘lsa), keyin neytral yog‘ sovunlanadi. Sovunli massani 30 minut davomida qaynatiлгандан so‘ng uning tarkibidagi erkin ishqor miqdori o‘zgarishsiz qolgan taqdirda, kaustik sovunlanish tugagan hisoblanadi. Shu usul bilan pishirilgan sovun yelimi quyiluvchan, bir xil tarkibli, yupqa qatlama tiniq ko‘rinishga ega bo‘lishi, yog‘ kislotalari miqdori 60% dan kam bo‘lmasligi, o‘yuvchi natriy miqdori 0,2% dan ortiq bo‘lmasligi va erkin natriy karbonat miqdori 1% dan ortiq bo‘lmasligi kerak. Uni sovun uchun sig‘imga uzatiladi va sovitish quritish, mexanik ishlov berish uchun yuboriladi.

Bilvosita usul bilan sovun pishirish bilan olingen tayyor mahsulotga hid va ranggi bo‘yicha yuqori talablar qo‘yiladi.

Bilvosita usul bilan xo‘jalik sovuni pishirishning texnologik jarayoni quyidagi operatsiyalar ketma-ketligidan iborat: toza yog‘li xomashyo ishlatilganda, sovunlash, sovun yelimini yadro va sovun osti yelimiga ajratish bilan qisman tuzlash; tozalanmagan yog‘li xomashyo ishlatilganda, sovunlash, sovun yelimini yadro va sovun osti ishqoriga ajratish bilan to‘liq tuzlash, sillqlash. Sovunlash jarayoni bevosita usul bilan ham olib borilishi mumkin, ya’ni dastlab karbonatli sovunlash, keyin kaustik sovunlash orqali sovun yelimi olinadi. Olingen sovun yelimida sovun ko‘rinishida bo‘lgan yog‘ kislotalar miqdori 52% dan kam bo‘lmaydi.

Sovun yelimini qisman tuzlash elektrolitlar (osh tuzi yoki kaustik soda eritmalleri) bilan olib boriladi. Buning uchun sovun yelimiga qaynayotgan va aralashtirilayotgan holda hisoblangan miqdorda elektrolit (20% li osh tuzi eritmasi) beriladi. Har bitta elektrolit porsiyasi berilganda sovunli massa, to elektritolit to‘liq yoyilib ketgunicha yaxshilab aralashtiriladi va qaynatiлади.

Sistemani yadro va sovun osti yelimiga ajralishini ta’minlovchi elektrolit konsentratsiyasi yog‘li aralashma retsepturasi va yog‘ kislotalar konsentratsiyasiga qarab belgilanadi. Odатдаги yog‘ retsepturasi bo‘yicha sovunni qisman tuzlash bilan pishirishda ishlatiladigan elektrolitlarning me’yoriy konsentratsiyalari quyida ko‘rsatilgan.

24 – jadval

Sovun massasidagi yog‘ kislotalari miqdori, %	Sovun massasidagi elektrolit konsentratsiyasi (NaCl va NaON yig‘indisi), %
52-54	1,3 dan ortiq emas
54-56	1,0 dan ortiq emas
56-58	0,8 dan ortiq emas

Tuzlash tugaganda NaOH miqdori 0,3% dan ko‘p bo‘lmasligi lozim.

Qisman tuzlash to‘g‘ri olib borilsa, qozondagi sovun massasi bir tekis qaynaydi, uni yuzasida kengligi 20-25 sm bo‘lgan plastinalar ko‘rinadi. Po‘latdan yasalgan shpateldan yupqa qatlama oqib tushadi, bunda shpatelni yuqorigi qismi quruq, pastki qismida esa sovun yupqa qatlama tiniq ko‘rinishda bo‘лади.

Sovun massasini qisman tuzlash jarayoni tugagandan keyin, uni to ikki fazaga ajralguncha bir necha soatga tindirib qo‘yiladi. Bu fazalar tarkibida 60-63% yog‘ kislotalari bo‘lgan yadro (tayyor sovun asosi) va 25-30% yog‘ kislotalari bo‘lgan sovun osti yelimidan iborat. Tindirish vaqtiga yog‘ tarkibi, konsentratsiyasi va qozon hajmiga bog‘liq. Masalan, hajmi 50m^3 bo‘lgan qozonda

tindirish vaqtı 20-30 soatni tashkil etadi. Chiqayotgan asos (yadro) vasovun osti yelimining nisbatı 65-70% va 35-30% bo'ladi. Tozalanmagan yog'li xomashyo ishlatilganda, tarkibida 0,2% dan ko'p miqdorda erkin ishqor va 1% dan ko'p bo'lman natriy karbonat bo'lgan tayyorsovun asosi sovun-yig'gichga yuboriladi va sovitishga, so'ng quritishga va mexanik ishlov berishga jo'nataladi. Sovun osti yelimi esa pastki shtutser orqali alohida qozonga beriladi va tozalash maqsadida qayta ishlanadi.

Sovun pishirish uchun tozalanmagan yog'li xomashyo va soapstokli yadro ishlatilganda sovun osti yelimi elektrolit eritmasi bilan to'liq tuzlanadi. Buning uchun sovun osti yelimiga ochiq bug' bilan qaynatib va aralashtirib turgan holda yetarli miqdorda 20% li osh tuzi eritmasi beriladi. Agar kurakchaga olingan namunada tiniq suyuqlik (sovun osti ishqori) orasida yadro donachalari aniq ko'rinsa, to'liq tuzlash oxiriga yetdi deb hisoblanadi. Tuzlash jarayoni tugayotganda sovunli massa tindiriladi (sig'imi 50m^3 bo'lgan qozonda 2-4 soat) bunda ikki xil faza (yadro va sovun osti ishqori) hosil bo'ladi. Sovun osti ishqori so'nggi marta ishlov berish uchun alohida sig'imga olinadi, yadro esa asos sifatini oshirish, tarkibidagi elektrolit miqdorini kamaytirish va rangini yaxshilash maqsadida sillqlanadi. Sillqlashda dastlab yadroga suv qo'shib, ochiq bug' orqali qaynatish yo'li bilan uni sovun yelimiga aylantiriladi. Olingan, tarkibida 50-55% yog' kislotsasi bo'lgan sovun yelimi qisman tuzlanadi va sistema yana yadro va sovun osti yelimiga ajraladi.

Sovun osti yelimiga ishlov berish. Sovun osti yelimida 30% gacha sovun ko'rinishidagi yog' kislotalar, 1% gacha erkin ishqor, har xil elektrolitlar (natriy karbonat, osh tuzi), hamda hamroh moddalar va aralashmalar mavjud. Bu moddalar unga yog'li aralashmalardan va boshqa materiallardan o'tgan.

Sovun osti yelimi sovun pishirish uchun ishlatishdan avval uni sifatini yaxshilash maqsadida qayta ishlanadi. Bu jarayon sovun osti yelimidagi erkin ishqorni neytrallash va olingan sovunli massani osh tuzi bilan tuzlashdan iborat. Erkin ishqor va natriy karbonatni neytrallash jadal qaynatish orqali yog' kislotalarini qo'shish bilan amalgा oshiriladi. Bunda olingan sovunli massadagi ishqor miqdori 0,05% dan oshib ketmasligi kerak. Olingan sovun yelimi qaynatilgan holda quruq tuz qo'shish bilan tuzlanadi. Ikki saatlik tindirishdan so'ng sovun osti ishqori ajratib olinib qayta ishlash davom ettiriladi. Tozalangan sovun yadrosi esa navbatdagi sovun pishirishga yuboriladi. Tozalash samaradorligini yanada oshirish uchun yadroni sovun yelimiga aylanguncha suv bilan etiladi va tuzlash jarayoni qaytariladi.

Sovun osti ishqoriga ishlov berish. Xo'jalik sovuni asosini bilvosita usul bilan tayyorlash jarayonida, hamda sovun osti yelimi va boshqa yog'li chiqindilarni qayta ishlashda olingan sovun osti ishqori tarkibida 8-9% natriy xlorid, 0,1% erkin natriy gidroksid va 0,8% gacha sovun holidagi yog' kislotalari bo'ladi. Sovun osti ishqorini qayta ishlashdan maqsad kaustik soda va yog' kislotalari yo'qotilishini kamaytirishdir. Sovun osti ishqori qayta ishlashdan maqsad kaustik soda va yog' kislotalari yo'qotilishini kamaytirishdir. Sovun osti ishqoriga ilashib chiqqan sovunni ajratish uchun u 50°C gacha sovutiladi. Bunda 50% gacha sovunlangan yog' kislotalari ishqordan ajraladi.

Yog' kislotalari miqdorini yanada kamaytirish va soda mahsulotlarini ajratib olish uchun sovun osti ishqori yog'lash usuli bilan qayta ishlanadi. Buning uchun sovun osti ishqori tarkibidagi o'yuvchi va karbonatli ishqorlar yog' kislotalari bilan neytrallananadi. Bunda yog' kislota miqdori hisoblanganidan 15-20% ortiqcha olinadi. Bunday sharoitda qiyin eruvchan nordon sovun hosil bo'lib, u sovun osti ishqoridan u yoki bu usul bilan ajratib olinishi mumkin. Sovun osti ishqorini neytrallash uchun texnik yog'lar, soapstokning yog' kislotalari yoki sintetik yog' kislotalari C₁₇-C₂₀ fraksiyalaridan foydalilanadi. Jarayon $80-85^\circ\text{C}$ da uzlusiz aralashtirish, hamda 3-4 soat davomida tindirish bilan olib boriladi. Qozonning yuqori qismiga qalqib chiqqan nordon sovun yig'iladi va asosiy sovun pishirishga yuboriladi, sovun osti ishqori esa realizatsiya qilinadi (qurilish tashkilotlariga sotiladi) yoki yog' tutgich orqali korxona tozalash sistemasiga uzatiladi.

Neytrallashda ishlatiladigan yog' kislota sarfi 1t sovun osti ishqoriga 100-130 kg ni tashkil etadi.


TNB-2 apparati (52-rasm) to'rtta gorizontal baraban (3) va unga o'rnatilgan bug' ko'ylagi (11) hamda lentali spiralsimon aralashtirgichdan tashkil topgan. Aralashtirgich reduktor (2) orqali elektrodvigatel(1)dan harakatga keladi. Barabanlarni pastki qismiga CO₂ gazini ajralib chiqishini

tezlashtirish maqsadida aralashtirish uchun bug‘ borbatyori (10) o‘rnatilgan. Barcha barabanlar o‘zaro, patrubkalar bilan birlashtirilgan. (2) va (3) barabanlarni birlashtiruvchi vertikal patrubka(13)ga ishqor eritmasining kirishi uchun purkagich o‘rnatilgan.

Birinchi baraban ustiga silindr shaklidagi reaktor-aralashtirgich (8) o‘rnatilgan bo‘lib, uning ichida turbinali aralashtirgichli (7) stakan bor. Bu aralashtirgich reduktor (6) orqali elektrovdvigatel (5)dan harakatlanadi. Stakan tubiga yog‘ kislotalari va natriy karbonat eritmasini kiritish uchun patrubkalar o‘rnatilgan. Yog‘ kislotalari va natriy karbonat aralashmasidan hosil bo‘lgan karbonatli massa yuqoriga ko‘tariladi va silindr devori bilan stakan orasidagi bo‘shliq orqali birinchi barabanga tushadi. Birinchi va ikkinchi barabanlarga gaz yig‘gich (4) o‘rnatilgan bo‘lib, unga karbonatli sovunlanish jarayonida hosil bo‘lgan CO_2 gazi to‘planadi. Uchinchi va to‘rtinchi barabanlarda sovunli massa sathini saqlab turish, sovunni bo‘shatib olish, gidrozatvor (12) orqali amalga oshiriladi. TNB-2 apparatini unumdorligi 7-10t/soatni tashkil qiladi.

Xo‘jalik sovuni asosini uzluksiz usulda tayyorlash uchun “BShM” va “DON” apparatlaridan ham foydalaniladi. “BShM” apparati ikki pog‘onali aralashtirgich gaz ajratgich va tugal sovunlagichdan iborat. Ikki pog‘onali aralashtirgichda karbonatli sovunlash sodir bo‘ladi.

Bevosita usul bilan sovunni uzluksiz pishirish uchun mo‘ljallangan uskunalarining texnik – iktisodiy ko‘rsatkichlari 25-jadvalda ko‘rsatilgan.



52 – rasm. TNB-2 apparati sxemasi


25-jadval

Uzluksiz ishlovchi apparatlarni ko‘rsatkichlari

Uskunani nomi	Unumdorligi, t/soat	Bug‘ sarfi kg/t	Elektroenergiya sarfi kVtch/t	Egallagan, m^2
TNB-2	7-10	190	7	90
BShM	7-10	180	4	85
DON	7-10	160	3	70

TNB-2 apparati barqaror texnologik ko‘rsatkichlari bilan boshqa apparatlardan ajrab turadi.

Xo‘jalik sovuni asosini uzluksiz usul bilan tayyorlash (53-rasm). Xo‘jalik sovuni asosini uzluksiz usul bilan tayyorlash pishirish jarayoni davomiyligini 10 martagacha, bug‘ sarfini, ishlab chiqarish maydonini qisqartiradi. TNB-2 apparatida sovun asosini tayyorlash quyidagicha amalga oshiriladi.



53 – rasm. Xo‘jalik sovuni asosini uzluksiz usulda TNB-2 apparatida tayyorlash sxemasi

Yog‘li aralashma galma-gal ishlayotgan (2,3) kompozitsion idishdan (1) me’yorlovchi nasos orqali (7) quvurli issiqlik almashtingichga yuboriladi. Bu yerda $104-115^{\circ}\text{C}$ gacha isitilib, so‘ngra (11) TNB-2 apparatining aralashtirgichiga kelib tushadi. Bu yerga (1) nasos yordamida (4) idishdan (6) isitgichda 95°C gacha qizdirilgan, 27-30 % li Na_2CO_3 eritmasi ham kelib tushadi.

Aralashtirgichda yog‘li aralashmaning karbonatli sovunlanishi sodir bo‘ladi. Karbonatli sovunlash TNB-2 apparatning birinchi barabanida tugallanadi. Karbonatli massa aralashtirgich bilan aralashib o‘tkir bug‘ bilan puflanadi. Bunda CO_2 intensiv ajralib chiqadi va birinchi barabanning gaz yig‘gichidan (10) ko‘pik ushlagich orqali (9) sovutgichga yuboriladi. So‘ngra karbon kislota sexiga tozalash va gazni kompresslash uchun yuboriladi.

Karbonatli massa ikkinchi barabanga kelib tushadi. Bu yerda aralashtirilayotganda va o‘tkir bug‘ berilayotganda CO_2 to‘liq ajraladi. CO_2 ikkinchi barabanning (2) gaz yig‘gichidan (10) ko‘pik ushlagich orqali (9) sovutgichga yuboriladi.

Ikkinci barabandan karbonatli massa tik quvur orqali uchinchi pastki sovunlash barabaniga kelib tushadi. Bu yerda 39-42%-li NaOH eritmasi bilan sug‘oriladi. Buning uchun (5) natriy gidroksid eritmasi idishdan (1) nasos yordamida (8) isitgichda $90-95^{\circ}\text{C}$ gacha qizdirilib, apparatga yuboriladi.

Uchinchi barabanda aralashtirilayotganda karbonatli massa tugal sovunlanadi va hosil bo‘lgan sovun massasi to‘rtinchi barabanga oqib tushadi va u yerda yana aralashtirilib o‘tkir bug‘ bilan puflanishi mumkin.

Sovun yelimi to‘rtinchi barabandan hidrozatvor orqali (12) to‘g‘rilash qozoniga okib tushadi. Qozonda sovun sifati NaOH yoki yog‘ kislotalarni qo‘shib bug‘ bilan isitish va aralashtirish yo‘li bilan to‘g‘rilanadi.

Sovun massasini tarkibi quyidagicha, yog‘ kislotalar miqdori 60 % kam bo‘lmasligi, erkin ishqor miqdori 0,2% dan va Na_2CO_3 1% dan ko‘p bo‘lmasligi lozim. Sovunli massa sovun yig‘gichlarga borib, so‘ngra sovutish quritish va mexanik ishlov berish uchun yuboriladi.

Takrorlash savollari

1. Sovun pishirishning necha xil usuli mavjud?
2. Davriy usulda sovun pishirish haqida gapirib bering.
3. Uzluksiz usulda xo‘jalik sovuni tayyorlash haqida gapirib bering.
4. Atir sovun asosi qanday tayyorlanadi?
5. TNB-2 apparatining tuzilishi va ishlash prinsipi.
6. Bilvosita usulda sovun pishirish.

21-MA’RUZA SOVUN ASOSIGA MEXANIK ISHLOV BERISH

Reja: Sovunni sovutish va quritish. Sovunni quritish uchun vakuum quritish kamerasi. Vakuumli shnekpress. Xo‘jalik sovuni asosiga ishlov berish texnologik sxemasi va bayoni.

Tayanch so‘z va iboralar: sovutish, quritish, vakuum-kamera,sovunni qadoqlash, rang beruvchi moddalar, hid beruvchi moddalar, stabilizatorlar, tuzlash, sovun osti yelimi, qaynatish, yuvish, silliqlash.

Bevosita yoki bilvosita usullar bilan sovun pishirish qozonlarida yoki uzluksiz ishlaydigan apparatlarda tayyorlangan sovunga tovar shaklini berish uchun sovunning asosi sovunning turiga va naviga qarab qayta ishlanadi.

Xo‘jalik sovuni sovutiladi, quritiladi, mexanik ishlov beriladi, qoliplanadi, bo‘laklarga bo‘linadi, shtamp bosiladi va tayyor sovun bo‘laklari yashiklarga joylanadi.

Atir sovunga sovutgandan, quritgandan va mexanik ishlov berilgandan so‘ng, xushbo‘y moddalar, bo‘yoqlar, oksidlanishga qarshi va boshqa qo‘sishchalar qo‘shiladi. Bundan keyin sovunga qo‘sishchacha mexanik ishlov beriladi, qoliplanadi, kesiladi, tayyor bo‘lgan bo‘lakchalar quritiladi, shtamp bosiladi, qog‘ozda bilan o‘raladi va joylanadi.


Sovunni sovutish va quritish. Sovutish jarayonida sovun kristallanadi va suyuq holatdan qattiq holatga o‘tadi. Sovunning qattiqligi undagi yog‘ kislota miqdoriga, yog‘ aralashmasini titriga sovutish usuliga bog‘liq bo‘ladi.

Sovunni ikkita usul bilan quritish mumkin:

Yog‘ kislotalarini konsentratsiyasini o‘zgartirmasdan harorat pasayib borishi hisobiga (masalan “mexanik-modern” qurilmasi), yog‘ kislotasi konsentratsiyasi ortib borib namlikni bug‘lanishi hisobiga, bu usul afzalroqdir. Quritish yog‘ kislotani konsentratsiyasini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Zamnaviy uskunalarda sovutish va quritish birlashtirilgan. Usulning mazmuni shundaki qizdirilgan sovun vakuum kameraga sepilib quritiladi va sovutiladi. Vakuum-quritish kamerasini optimal ishlash sharoitini nomogramma yordamida aniqlash mumkin.

Sovunda berilgan yog‘ kislotasi konsentratsiyasiga ko‘ra gorizontal o‘kning o‘ng tarafida nuqta olinadi, undan tikka chiziq chiziladi to egri chiziq bilan kesishgungacha va kesishgan joyidan chap tarafga to‘g‘ri chiziq o‘tkaziladi. Bundan so‘ng gorizontal o‘qning chap tomonidan vakuum kameradagi qoldiq bosimga mos holda nuqta olinadi va bu nuqtadan tikka to‘g‘ri chiziq yuqoridagi gorizontal chiziq bilan chiziladi.

Topilgan nuqta tarkibida kerakli miqdorda yog‘ kislotasi bo‘lgan sovun olish uchun issiqlik almashgichga kelayotgan, tayyor sovundagi yog‘ kislotalari miqdorini ta’minlaydigan to‘yingan bug‘ning bosimini ko‘rsatadi.



55 – rasm. Vakuum-quritish kamerasi

Sovunni quritish uchun vakuum-quritgich kamerasi (55-rasm) diametri 1500mm va bo‘yi 4000mm bo‘lgan silindrik apparat bo‘lib, sferik qopqoq (3)dan, konus (7) dan va o‘tish halqasi (8) dan tashkil topgan. Kamera markazidan val (4) o‘tgan bo‘lib, u chervyakli reduktor orqali elektrosvigateldan harakatlanadi. Aylanish chastotasi 12,4 ayl/min bo‘lgan valga, issiqsovunni purkash uchun xizmat qiladigan ikkita forsunka (2) va kamera ichki devoridagi, tubidagi va qopqog‘idagi sovunni qirib olish uchun xizmat qiladigan uch xil shaklli po‘lat pichoqlar mahkamlangan. Devor va pichoq orasidagi oraliq masofa 0,1 mm dan ko‘p emas.

Kameraning silindrik qismida bug‘ko‘ylagi (6) bo‘lib yuqori konsentratsiyali sovun tayyorlash uchun unga harorati $60\div98^{\circ}\text{C}$ bo‘lgan issiq suv beriladi.

Vakuumli shnek-press (56-rasm) sovun qirindisiga mexanik ishlov berish, plastifikatsiyalash, presslash va brus qilib qoliplashga mo‘ljallangan. Shnekli mashinani asosiy qismi, bu cho‘yandan yasalgan, qarama-qarshi tomoniga aylanadigan ikkita shnek dir. Shneklarning o‘ramlarini qadami 200 dan 140 mmgacha o‘zgaruvchan, diametri 250mm va uzunligi 1270mm ga teng.

Shneklar, stанинани устига о‘rnatilgan presslash kamerasiga joylashtirilgan. Shnek-pressga sovun qirindisi vakuum-quritish kamerasining bunker bilan birlashtirilgan, yuklash teshigi orqali tushadi. Shneklar aylanganda sovun qirindisi shnekning konussimon bosh qismi tomoniga siljiydi. Shnek o‘ramlarining qadami o‘zgaruvchan bo‘lganligi, materialni harakatiga reshyotkani ko‘rsatayotgan qarshiligi tufayli, sovun qirindisi sekin-asta zichlashadi. Zichlashgan massa teshiklarini diametri 20mm bo‘lgan reshyotka orqali o‘tkazilganda ishqalanadi, so‘ngra konussimon bosh qismiga o‘tadi, bu yerda qo‘srimcha presslanadi, zichlashadi va shnek-pressdan to‘rt qirrali brus ko‘rinishida chiqadi. Mashinani bosh qismining chiqishiga to‘rt burchakli shayba o‘rnatilgan, u sovun brusiga kerakli shaklni beradi. Sovun massasi harakatlanayotganda ortiqcha qizib ketmasligi uchun, presslash kamerasini ko‘ylagi bor, unga harorati $12\div15^{\circ}\text{C}$ bo‘lgan sovuq suv beriladi. Sovun brusiga silliq, yaltiroq va yoriqlarsiz tekis tus berish uchun shnekning konussimon bosh qismida issiq suv uchun ko‘ylagi bor. Issiq suvni harorati 30 dan 90°C gacha o‘zgarib turadi va avtomatik termorostlagich yordamida rostlanadi. Shnek-pressni unumdarligi 1 t/soat.




56-rasm. Vakuumli shnek-press

Xo‘jaliksovun asosiga ishlov berishning texnologik sxemasi (57-rasm). Davriy (bevosita yoki bilvosita) yoki uzlusiz usul bilan tayyorlangan xo‘jaliksovuni asosi ta’minlovchi (1) idishdan (2) filtr orqali va 0,3MPa bosim ostida (3) me’yorlovchi nasos yordamida issiqlik almashuv (4) kolonkasi ga uzatiladi. Bu yerda 80-90⁰C dan 120-140⁰C gacha isitiladi. So‘ngra issiqsovun vakuum-quritish (5)kamerasinga beriladi. Bu yerdasovun vakuum-quritish kamerasingini valiga mahkamlangan ikkita purkagich orqali sochiladi. Bundasovun tezlik bilan biroz namligini yo‘qotib soviydi va qisman quriydi. Kamerani devorlariga yupqa qatlama bo‘lib yopishib qolgansovun valga o‘rnatalgan pichoqlar yordamida qirib olinadi. Qirindi holidagisovun (6) ikki yengli bunkerda ikki vakuum (7) shnek-press orasida taqsimlanadi. Shnek-pressdasovun plastifikatsiyalanadi, zinchassa hosil qilib presslanadi va mashinadansovun to‘rt qirrali brus shaklida (8) belgilash-kesish avtomatdan o‘tadi. U yerdasovun yuzasiga aylanuvchi valiklar yordamida zarur belgi-shtamp qo‘yiladi. So‘ngra bo‘laklarga kesiladi. Tayyorsovun (9) avtomat taxlagichgaborib tushadi, yog‘och yashiklarga taxlanadi va (10) transporter yordamida omborga yuboriladi.

Vakuum-kameradan chiqayotgan suv bug‘i (11) siklon-separator dasovunli changning asosiy qismidan ajratiladi. U (12) shnek-press yordamida chiqarilib yuboriladi. So‘ngra suv bug‘i (13) ikkinchi siklondasovunli changning qoldiqlaridan tozalanib, (14) bug‘ejektor orqali (15) barometrik kondensatorga yuboradi. U yerga sig‘im bakdan beriladi.

Barometrik (15) kondensatordan chiqayotgan suv quvur orqali barometrik quduqqatushadi, u yerdan tozalash sistemasiga yuboriladi.

Kondensatsiyalanmagan bug‘ va gazlar (16,17,18) bug‘ejektor sistemasi bilan so‘rib olinadi. Bug‘ejektor sistemasi sovituvchi suvining harorati 20⁰C gacha bo‘lganda, qurilmada 2-4 kPa (15-20mm sim.ust.) qoldiqbosimni ta’minlaydi. Bu tarkibida 7-8% gacha yog‘ kislotasi bo‘lgansovun ishlab chiqarishga yetarli bo‘ladi. Vakuum quritish kamerasingini unumdorligi xo‘jaliksovuni uchun soatiga 2t ga teng.



57 – rasm. Xo‘jalik sovuni asosiga ishlov berishni texnologik sxemasi

ATIR SOVUN ASOSIGA ISHLOV BERISH

Reja: Ikki pog‘onali vakuumli shnek-press. SELA liniyasida atirsovun asosiga ishlov berish texnologik sxemasi. “Matssoni” liniyasida atirsovun asosiga ishlov berish sxemasi. Xo‘jalik va atirsovuni sifat ko‘rsatkichlari.

Atirsovun asosiga ishlov berish. Atirsovun asosiga ishlov berish vakuum-quritish kameralar yordamida bajariladi. Sovunni sovutish va quritish xo‘jalik sovunga o‘xshab vakuum ostida mexanik ishlov berish uchun bir qator ketma-ket ishlaydigan shnekli mashinalar yordamida amalga oshiriladi. Bizning zavodlarda unumidorligi 2 t/soat ELM, SELA liniyalari keng qo‘llaniladi. Ba’zi zavodlarda esa unumidorligi 4 t/s bo‘lgan “Matssoni” liniyalari joriy qilingan.

Ikki pog‘onali vakuumli shnek-press (58-rasm) atirsovunga tugal mexanik ishlov berishga mo‘ljallangan. U turli balandlikda gorizontal joylashtirilgan ketma-ket ishlovchi ikkita bir vintli shnek-presslardan iborat. Shnek-presslar bir-biri bilan vakumm kamera yordamida bitta agregatga birlashtirilgan. Yuqorigi pressni shnegi, tishli g‘ildiraklar sistemasi va tasmali uzatma orqali elektrosvigateldan harakatga keladi. Shnekni diametri 300mm, aylanish tezligi 12 ayl/min. Shnek korpusi ko‘ylaka sirkulyasiya qiladigan suv bilan sovitiladi. Ta’minlovchi bunker orqali yuqorigi shnek-pressga kelib tushgansovun ver misheli yaxshilab aralashtiriladi, zichlashadi, presslanadi, reshyotka orqali o‘tkaziladi va qo‘ltig‘li pichoq bilan kesib granul olinadi. Sovun yuqorigi shnek-pressdan qoldiq bosimi 5,3-8 kPa (40-60 mm sim.ust.) bo‘lgan vakuum kameraga tushadi. Bu yerda sovun massasi qisman quriydi va soviydi. Havoni so‘rib olish shnek-pressdan chiqayotgan sovun brusining hovakligini kamaytiradi.



58-rasm. Ikki pog‘onali vakuumli shnek-press

Sovun massasi vakuum-kameradan granul holida pastki shnek-pressga beriladi. Bu shnekni diametri yuqorigi shnek bilan bir xil. Aylanish tezligi 4,85 dan 17 ayl/min. gacha o‘zgarishi mumkin. Shnek korpusini sovitish uchun ko‘ylagi bor. Shnekni ishchi kamerasi isituvchi ko‘ylak va termorostlagich bilan ta’minlangan konussimon bosh qismi bilan birlashtirilgan. Konussimon bosh qismida kalibr mavjud, uni yordamida shnek-pressdan chiqayotgan sovun brusini shakli to‘g‘rulanadi. Pastki pressni shnegi alohida elektrosvigateldan reduktor orqali harakatga keladi.

Sovun shnek-pressda bosim ostida presslanadi plastik monolit massaga aylanadi va konussimon bosh qismi teshigidan berilgan shaklda cheksiz brus holida chiqadi. Ikki pog‘onali shnek-pressni unumdorligi soatiga 1t sovun.

59-rasmda SELA liniyasida atir sovun asosini tayyorlash va unga mexanik ishlov berish texnolik sxemasi keltirilgan.

Sovun pishirish sexida natriy gidroksid eritmasi (2)bakdan nasos(H3) yordamida sarf o’lchagich(3)ga uzatiladi. Sovun pishirish uchun tayyor holatga keltiriladi. To’g’ridan – to’g’ri sovun pishirish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda parchalangan yog’ kislotalar, sintetik yog’ kislotalar, distillangan yog’ kislotaldar, texnik hayvon yog’lari omborlardan yig’uvchi sig’imlar (1)ga olinadi. Sovun resepturasi asosida hisoblangan ishqor sarfi miqdori sarf o’lchagich(3) dan 28-30% li konsentrangan ishqor eritmasi sovun pishirish qozoni(5)ga beriladi. So’ngra qozonlarga ochiq bug’ berilib, qaynash darajasiga yetkaziladi. Yog’li xom ashyolardan, qozonlarga tabiiy yog’lar, yog’ o’rnini bosuvchilar, sintetik yog’ kislotalar issiq holda beriladi.

Sovun pishirish jarayoni asta sekinlik bilan davriy ravishda ochiq bug’ yoki isitilgan xavo yordamida amalga oshiriladi.


Asta sekin 40-42% li kaustik ishqor (NaOH) bilan sovunlash olib boriladi. Kaustik ishqor oz-ozdan qaynatish va aralashtirish vaqtida berib turiladi. Sovunlanayotgan aralashmadagi ortiqcha ishqor miqdori 0,1-0,2 % qilib jarayon oxirigacha yetkaziladi.

Sovunlash vaqtida eng avvalo erkin yog’ kislotalarini neytrallash jarayoni qatori so’ng neytral yog’lar sovunlanadi. Kautik ishqor bilan sovunlash sovun asosida ortiqcha ishqor miqdori 30 minut davomida o’zgarguncha davom etadi. Shu usulda olingen sovun asosi bir jinsli bo’lishi, tarkibidagi yog’ kislotalar miqdori 60% dan kam bo’lmasligi, ortiqcha ishqor miqdori 0,15 % dan oshmasligi kerak. Shundan so’ng sovun pishirish jarayoni tugagan deb hisoblanadi. Sovun asosi (5) qozonlardan nasos(H4) orqali maxsus saqlagich-sig’im(6) ga yuboriladi.

U yerda (7) filtr orqali va 0,3MPa bosim ostida (H5) me’yorlovchi nasos yordamida issiqlik almashuv (8) kolonkasiga uzatiladi. Bu yerda 80-90°C dan 120-140°C gacha isitiladi. So’ngra issiq sovun vakuum-quritish (9) kamerasiga beriladi. Bu yerda sovun vakuum-quritish kamerasini valiga mahkamlangan ikkita purkagich orqali sochiladi. Bunda sovun tezlik bilan biroz namligini yo’qotib soviydi va qisman quriydi. Kamerani devorlariga yupqa qatlama bo’lib yopishib qolgan sovun valga o’rnatilgan pichoqlar yordamida qirib olinadi. Qirindi holidagi sovun yengli bunkerda ikki (10) qo’sh shnek-pressga beriladi. Shnek-pressda sovun plastifikasiyalanadi, zinch massa hosil qilib presslanadi va mashinadan sovun strujka shaklida 11- lenta, 12-shnek, 13-noriya va 14-shnek orqali 15- bunkerga tushadi. undan 16-shnek orqali 17-taroziga va keyin 18-aralashtirgichga keladi. Bu yerda qo’shimcha komponentlar (hid, rang beruvchi moddalar antioksidant, plastifikator va boshqalar) qo’shiladi.. So’ng 19-shnek-press(pelotez) ga tushadi va qaytadan strujka hosil qilinadi. Diametri 8mm bo’lgan sovun ver misheli ekstruder(19)dan lentali transportyor (20) yordamida uch valikli yanchish uskunasi(21)ga uzatiladi. Bu yerda “bargsimon” sovun hosil qilish bilan tilishlash davom ettiriladi. “Bargsimon” sovun lentali transportyor orqali, sovun massasiga tugal ishlov berish, brus holida qoliplash uchun ekstruder “DUPLEKS” (23)ga beriladi.

Ekstruder konusidan chiqayotgan ikkita sovun chorqirrasi unumdorligi minutiga 200 sovun bo’lagi bo’lgan kesuvchi mashina (26) bilan bo’laklarga kesiladi. Sovun bo’laklari transportyor (27) yordamida ikki yo’nalishli shtamp-press(29)ga beriladi. Bu yerda sovunni 100 va 200g massali to’rtburchak, 150g massali oval va figurali shakllari hosil qilinadi.

Sovun bo’lagiga yaltiroq tus berish va matrisani yuzasiga yopishib qolishini oldini olish uchun, matrisa 55%li etilen glikol eritmasi bilan freonli sovutgich yordamida sovutiladi. Sovutuvchi suyuqlikni harorati sovun titriga va qo’shimcha moddalarni xususiyatlariga bog’liq bo’ladi. Masalan, qo’shimchasiz, yuqori titrli sovunlar uchun harorat (-10)÷(-12°C) past titrli yog’lovchi qo’shimchali sovunlar uchun (-25)÷(-30°C) bo’lishi kerak.



59– rasm. Uzluksiz ishlaydigan SELA liniyasida atirsovuni ishlab chiqarish texnologik sxemasi

Kesish va shtamplashdan keyin, sovunni ortiqchasi va yaroqsiz bo'laklari transportyor yordamida ekstruder(23)ga qaytariladi.

Shtamplangan sovun bo'laklari ikkita transportyor yordamida bir, ikki va uch qavat qilib o'raydigan "PACKSAVON" nomli o'rovchi mashinasi(31)ga beriladi. Sovun bo'lagini massasi 100 va 150g bo'lsa, uch qavatli o'ram zarur, 200g li sovunga bir yoki ikki qavatlari o'ram bo'lishi mumkin. Mashinani unumdorligi 100g massali bo'laklar uchun minutiga $170 \div 180$, 150g li uchun 140 va 200g li uchun 120 bo'lakni tashkil qiladi.

Xo'jalik va atir sovuni sifat ko'rsatkichlari. Sovunlar sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri yog' kislotalar miqdori. Sovunni mukammal mahsulotligini aniqlash uchun "sifat soni" (S.s.) ko'rsatkichi kiritilgan. Sifat soni (S.s.) – bu sovun bo'lagidagi yog' kislotalar miqdori. U quyidagi formula buyicha aniqlanadi:

$$S.s. = \frac{m \cdot \dot{E} \cdot \kappa}{100};$$

bu yerda: m – sovun bo'lagining og'irligi, g;

Yo.k.- yog' kislotalar miqdori, %;

Standart bo'yicha og'irligi 400 g 60 % li xo'jalik sovunining sifat soni 240 ± 6 g; 72%-li sovun uchun (bo'lak og'irligi 250 g); 180 ± 4 g ga teng bo'ladi.

Bolalar sovuni va I – III guruh massasi 100g bo'lgan atir sovunlari uchun sifat soni 75 ± 1 g., 80% li uchun 80 ± 1 g. ga teng.

Yog' kislotalarini miqdoriga qarab sovun sifat sonini olish uchun sovun bo'lagining og'irligi to'g'rilanadi.

Sovunni muhim ko'rsatkichlaridan biri yog' kislotalarning titri hisoblanadi. Xo'jalik sovuni uchun bu ko'rsatkich $35-42^{\circ}\text{C}$; atir sovun uchun $36-41^{\circ}\text{C}$ bo'lishi lozim. Titrning kamayishi sovunning eruvchanligini va sarfini ko'paytiradi.

Xo'jalik sovunda erkin ishqor miqdori 0,2 % gacha, atir sovunda 0,1 % gacha Na_2CO_3 ning miqdori xo'jalik sovunida 1,0 % gacha, atir sovunda 0,3 % gacha bo'lishi kerak. Sovun tarkibida erkin ishqorni miqdorini ko'payishi terini quruqlanishiga va matoni parchalanishiga olib keladi. Sovunlanmagan yog' va boshqa moddalarning miqdori xo'jalik sovunida 2-3,5%, atir sovunda 1-2 % bo'ladi.

Atir sovunda shuningdek natriy xlor miqdori ham chegaralanadi, u 0,7% dan ortiq bo'lmasligi kerak. Aks holda, sovunni qayishqoqligi yomonlashadi va mexanik ishlov berilgan sovun yuzasida yoriqlar paydo bo'ladi.

Sovunni asosiy ko'rsatkiyalaridan biri uni suvli eritmadiagi ko'pirish qobiliyati hisoblanadi. Bu ko'rsatkich sovunni 0,5% li eritmasini silkitib aralashtirganda hosil bo'ladigan ko'pik ustuningining balandligi bilan tavsiflanadi. Xo'jalik sovuni uchun ko'pikni boshlang'ich hajmi kamida 300ml, atir sovun uchun 300-350ml bo'lishi kerak.

Takrorlash uchun savollar

1. Sovunni qayta ishslashni moxiyati.
2. Sovunni sovitish va quritish jarayoni.
3. Xo'jalik sovuniga ishlov berish texnologiyasi.
4. Xo'jalik va atir sovunining sifat ko'rsatkichlari.
5. Xo'jalik sovuniga ishlov berish texnologik parametrlari.
6. Xo'jalik sovuniga ishlov berish texnologik sxemasi
7. Sovunni qayta ishslash va uni tovar holatiga keltirish haqida qisqacha ma'lumot bering.
8. Xo'jalik sovuniga ishlov berish texnologiyasi haqida gapiring.
9. Atir sovuniga ishlov berish texnologiyasini qisqacha tushuntirib bering.
10. Xo'jalik va atir sovunlarining sifat ko'rsatkichlari qanday bo'lishi kerak?

ADABIYOTLAR RO'YHATI

Asosiy adabiyotlar

- | | | |
|----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------|
| 1. | Kadirov Yu., Ruzibayev A. Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi. -T.: "Fan va Texnologiya". 2014. -320 b. | Kutubxonadagi mavjud soni
80 |
| 2 | Wolf Hamm, Richard J. Hamilton, Gijs Calliauw. Edible Oil Processing, 2nd Edition. - USA, Wiley-Blackwell. 2013, 342 pages | 1 |
| 3. | Арутюнян Н.С., Корнена Е.П., Янова А.И. и др. "Технология переработки жиров" М. Пищепромиздат, 1999. 451с. | 1 |
| 4 | Арутюнян Н.С., Корнена Е.П., Нестерова Е.А. Рафинация масел и жиров. Санкт-Петербург.2004. с.281 | 1 |

Qo'shimcha adabiyotlar

- | | | |
|----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 1. | Руководство по технологии получения и переработки растительных масел и жиров, Л. , ВНИИЖ том 2, 1973, том 3 кн. 1, 1985 кн. 2 1977 | 3 |
| 2. | Арутюнян Н.С., Аршиева Е.А., Янова Л.И. и др. "Технология переработки жиров" М. Агропромиздат 1985 с 367 | 10 |
| 3. | Васильева Г.Ф. Дезодорация в масложировой промышленности. -М. 2003. с.174. | 1 |
| 4. | Frank D. Gunstone, John L. Harwood, The lipid handbook - Boca Raton: CRC Press Taylor & Francis Group, 2007. -791 p. | 1 |
| 5. | Нечаев А.П., Кочаткова А.А. и др. "Майонезы" Санкт-Петербург.2000. с.74. | 1 |
| 6. | Лабораторный практикум по технологии переработки жиров. Арутюнян Н. С. Аришева Е. А., Янова Л. И. и др. –М., Легкая и пищевая промышленность, 1991, 151 с. | 10 |
| 7. | Qodirov Y. Yog'larni qayta ishlash texnologiyasidan laboratoriya mashg'ulotlari T. Cho'lpon nnnmu, 2005, -168 v. | 10 |
| 8. | Qodirov Y., Qalandarova M.M., Ro'ziboyev A.T. «Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi» fanidan ma'ruza matni T. 2013. 176 b. | 5 |
| 9 | Глущенкова А.И., Маркман А.А. «Гидрогенизация жиров». –Т. 1979. с.143. | 10 |

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT KIMYO – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI” FAKULTETI

«OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI» KAFEDRASI

«YOG'LARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI”

fanidan laboratoriya ishlari uchun

uslubiy qo'llanma



Toshkent – 201_

Tuzuvchilar: prof. Qodirov Y., ass. Qalandarova M. t.f.n. Ro'ziboyev A.T.
“Yog‘larni qayta ishlash texnologiyasi” fanidan laboratoriya ishlari uchun
uslubiy qo‘llanma. / Toshkent kimyo-texnologiya instituti; Toshkent. 32-bet /

Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun uslubiy qo‘llanma “Yog‘larni qayta ishlash texnologiyasi” kursini hamma bo‘limlarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, “Yog‘ va moylar texnologiyasi” yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan kunduzgi va sirtqi bo‘lim tadlablariga mo‘ljallangan.

Qo‘llanmada yog‘lar rafinatsiyasi, yog‘ va moylarni gidrogenizatsiyasi, margarin mahsulotlar vasovun ishlab chiqarishdagi hom ashyo, yarim va tayyor mahsulotlarni analizi bayonlari keltirilgan. Har bir bo‘lim boshlanishida qisqacha nazariy ma’lumotlar berilgan.

« Oziq-ovqat maxsulotlari texnologiyasi» kafedrasining 201_ yil «__»
«_____» majlisida muxokama qilingan (bayonnomma № __)

«Oziq-ovqat maxsulotlari texnologiyasi» fakulteti 201_ yil «__» «_____»
ilmiy-uslubiy kengashida chop etishga tavsiya qilingan. (bayonnomma № __)

Toshkent kimyo texnologiya instituti Ilmiy-uslubiy kengashining 201_ yil «__»
«_____» majlisida tasdiqlangan. (bayonnomma № __)

Tuzuvchilar: prof. Qodirov Y.
ass. Qalandarova M.
t.f.n. Ro;ziboyev A.T.

Taqrizchi: “O`zpaxtayog” AJ
yetakchi mutaxassis

A. G‘aniev.

OOMT kafedrasi dotsenti

O.Q. Yunusov

MUNDARIJA

So‘z boshi.....	
Texnika xavfsizligi va yong‘inga qarshi texnika bo‘yicha umumiy qoidalar.....	
1 – Laboratoriya ishi.....	
1.1. Moylarni oqlash.....	
1.2. Adsorbentning oqlash faktorini aniqlash.....	
1.3. Och rangli moylar rangini aniqlash.....	
2 – Laboratoriya ishi.....	
2.1. Katalizator tayyorlash.....	
3 – Laboratoriya ishi.....	
3.1. Qattiqligini aniqlash.....	
3.2. Erish haroratini aniqlash.....	
4 – Laboratoriya ishi.....	
4.1. Kislotaligini aniqlash.....	
4.2. Zichligini aniqlash.....	
4.3. Yog‘liligini aniqlash.....	
4.4. Quruq modda miqdorini hisoblash usuli bilan aniqlash.....	
5 – Laboratoriya ishi.....	
5.1. Namlik miqdorini aniqlash.....	
5.2. Kislotaligini aniqlash.....	
5.3. Quruq qoldiq miqdorini aniqlash.....	
6 – Laboratoriya ishi.....	
6.1. Soapstok yog‘liligini aniqlash.....	
6.2. Yog‘ kislotala miqdorini aniqlash	
6.3. Neytral yog‘ miqdorini aniqlash.....	
7 – Laboratoriya ishi.....	
7.1. Sovun retsepturasini tuzish.....	
7.2. Ishqor sarfini hisoblash.....	
7.3. Sovun pishirish.....	
Adabiyotlar ro‘yxati.....	

TEXNIKA XAVFSIZLIGI VA YONG'INGA QARShI TEXNIKA BO'YICHA UMUMIY QOIDALAR

Har bir talaba yog'larni qayta ishlash texnologiyasi laboratoriyasida ishslash jarayonida texnika xavfsizligining barcha qoidalarini yaxshi bilishi va bajarishi; tartibni, tozalikni saqlashi; turli ishlarni to'g'ri va ehtiyyotkorlik bilan bajarishi shart.

Talabalar laboratoriya darslarini olib boruvchi o'qituvchi yordamida texnika va yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalarini o'rgangach va instruktajdan o'tgach laboratoriya ishlariga qo'yiladi.

Talaba har bir ishni boshlashdan oldin ish uslubiyatini yaxshilab o'qishi, asosiy tomonlarini aniqlashi va laboratoriya ishini bajarish jarayonida o'qituvchining ruxsatisiz ishni bajarish texnikasidan chetga chiqmasligi kerak.

Turli moddalar bilan ishlaganda ularning teriga tushmasligiga harakat qilish, yuz va ko'zni qo'l bilan ushlamaslik, ish paytida ovqat yemaslik, ovqatlanishdan oldin va keyin qo'lni yaxshilab yuvish kerak.

Kimyoviy moddalarning mazasini aniqlash qat'ian taqiqlanadi. Hidlash esa idish ustiga engashmasdan, bug' yoki gazlarni qo'l harakati bilan o'ziga yo'naltirib to'liq nafas olmasdan ehtiyyotkorlik bilan amalga oshiriladi. Moddalar saqlanayotgan barcha idishlarda saqlanayotgan moddaning nomi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Tajriba uchun iflos idishlarni ishlatish taqiqlanadi.

Asosan ish tik turgan holda bajariladi, o'tirib ishslashga faqatgina alanganish, portlash va suyuqliklarning sachrab ketishi xavfi bo'lmagandagina ruxsat beriladi. Laboratoriyada yakka holda ishslash qat'ian taqiqlanadi.

Uchuvchan moddalar ajralishi, tarkibida ammiak, sirka kislotasi va hosil bo'lgan eritmalarining qaynashi va bug'lanishi, dietil va petroley efirlari, muz sirka kislotasi va boshqa erituvchilar qo'llanilishi bilan bog'liq ishlarni faqat havo so'ruvchi shkaflarida bajarilishi kerak. Sog'liq uchun zararli gazlar ajraluvchi kislotalar yoki boshqa moddalarni ham faqatgina havo so'ruvchi shkaflar ichida saqlash kerak.

Havo so'ruvchi shkaflarida ishslash paytida shamollatish samaradorligini oshirish maqsadida shkaf eshigini 1/3 – 1/4 qismga ko'tarib qo'yish kerak. Ish tugagach eshikni jipslab yopish kerak.

Konsentrangan yoki suyultirilgan kislotasi va ishqorlardan, shuningdek boshqa zaharli suyuqliklardan namuna olishda ularning og'izga kirib ketishidan saqlanish maqsadida maxsus pipetkalardan yoki rezina grushalardan foydalanish lozim.

Issiqlik ajralish bilan boradigan konsentrangan sulfat kislotani suyultirishda shishadan yoki chinnidan tayyorlangan yupqa devorli kimyoviy idishlardan foydalanish kerak.

Tigellarni issiq kolba va stakanlarni ko'targanda azbest tagliklarni qo'yib ko'tarish va o'zidan uzoqroq tutish kerak. Tigellarni qisqichlar bilan ushslash kerak. Yengil alangananidan moddalar bilan ishlaganda (dietil, petroley efiri va hokazo) yaqin atrofda alanga va ishlab turgan elektr qizdirgich qurilmalar bo'lmasligi kerak.

Ularni ochiq alangada va plitkalarda qizdirish qat'ian taqiqlanadi; ularni suvli sovutgich bilan ta'minlangan kolbalarda suv yoki qum hammomida qizdirish mumkin.

Suyuqliklarni haydash jarayonida sovituvchi suv sarfini rostlab, sovutgich holatini va o'rnatilishini uzlusiz nazorat qilib turish lozim.

Moddalarni organik erituvchilar yordamida ekstraksiyalash faqatgina havo so'ruvchi shkafda bajarilishi lozim.

Ishlatilgan o'yuvchi ishqorlar (ishqorlar, kislotalar, kislotali suvlar va hokazo) neytrallangandan keyingina kanalizatsiyaga to'kilishi lozim. Bundan oldin ularni shu maqsadda ishlatiladigan mosetiketkali shisha idishlarga quyish kerak. Shuningdek kanalizatsiyaga turli yonuvchi organik erituvchilarning qoldiqlarini ham quyish qat'ian taqiqlanadi. Bu qoldiqlarni maxsus idishlarga quyish lozim.

Barcha qurilmalar isituvchi va boshqa uskunalarni talabalar faqatgina o'qituvchi yoki laborant ruxsati bilan o'chirishi yoki yoqishi mumkin. Ishlab turgan uskunalarni nazoratsiz qoldirish qat'ian taqiqlanadi.

Laboratoriyyada ishni tugatgach ish joyini yig‘ishtirish qo‘lni sovunlab yuvish, uskunalarga berilayotgan elektr energiyasini o‘chirish suv yoki gaz berilayotgan kranlarni yopish lozim.

Laboratoriyyada har doim qumi bor quti, o‘t o‘chirgich va yong‘inga qarshi yopqich bo‘lishi kerak. Yong‘in chiqqan holda eng avvalo gaz va elektr isitgich uskunalarni o‘chirish, yaqin atrofdagi yonuvchi moddalarni xavfsiz joyga o‘tkazish va shundan keyingina yong‘inni o‘chirishga harakat qilish lozim. Yonayotgan suyuqliklarni asbest yopqich bilan yopish, so‘ngra zarur bo‘lganda qum sepish kerak. Qolgan hollarda o‘t o‘chirgichdan foydalaniladi. Alangaga suv sepmaslik lozim, chunki bu ko‘p hollarda yong‘inning kuchayishiga olib keladi.

Kiyimi yonayotgan odamga yopqich, kostyum, palto va shunga o‘xshashlarni yopish kerak, uning yugirib ketishiga yo‘l ko‘ymaslik lozim, chunki bu alanganing kuchayishiga olib keladi. Bunday holda o‘t o‘chirgichdan foydalanish yaramaydi.

Agar havo so‘rvuchi shkafda yong‘in chiqsa darhol shamollatish kanalining shiberini yopish kerak, aks holda kanal orqali yong‘in tarqalib ketadi. Shundan so‘ng yong‘inni o‘chirish choralarini ko‘rish lozim.

Elektr uzatgichlari yongan hollarda liniyadagi tokni o‘chirish va qum, asbest yopqich, o‘t o‘chirgich bilan yong‘inni o‘chirish choralarini ko‘rish kerak.

Shisha va kimyoviy idishlar bilan ishlaganda shisha bo‘lakchalari bilan jarohatlanishning oldini olish maqsadida ehtiyyotkorlik bilan ishlash kerak. Suyuqlik saqlanayotgan katta kimyoviy idishlarni bir qo‘l bilan tagidan ushlab, ikki qo‘llab ko‘tarish kerak. Shisha naychaga rezina tiqincha o‘rnatayotganda naychani imkoniyati boricha o‘rnatilayotgan joyga yaqinroq ushslash va suv, vazelin, glitserin bilan ho‘llab aylantirib-burab tiqish lozim. Bundan oldin trubkaning uchini qizdirib tekislash kerak.

Texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik baxtsiz hodisalarga olib keladi.

Issiqlik ta’sirida birinchi darajali kuyganda (qizarish, sezilmas pufaklanish) kuygan joyga spirt surish kerak, ikkinchi va uchinchi darajali kuyganda kuygan joyni sterillangan mato bilan yopib bog‘lab qo‘yish kerak. Kuygan joyning yuzasi katta bo‘lsa, jaroxatlangan kishiga tibbiy yordam ko‘rsatish lozim.

Kimyoviy kuygan hollarda suv bilan yaxshilab yuvish zarur, so‘ngra kislota bilan kuyganda 5 %-li natriy bikarbonat eritmasi bilan, ishqor bilang kuyganda esa 5%-li sirkal kislota eritmasi bilan yuvish kerak.

Ishqor ko‘zga tushgan hollarda 2%-li bor kislotasi eritmasi bilan 10 minut davomida tinimsiz yuvish, so‘ngra albatta vrachga murojaat qilish kerak.

Xlorid, sulfat va nitrat kislotasi bug‘lari bilan zaharlanganda toza havo, tinchlik va vrach yordami zarur bo‘ladi.

1 – LABORATORIYA ISHI

ADSORBSIYALI RAFINATSIYA

O‘simlik moylarida o‘zining tuzilishi va hossalari jihatidan turlicha bo‘lgan rangli moddalar bo‘ladi. Ular, asosan, ksantofillar, karotinoidlar, xlorofillar, paxta moyida esa gossipol va uning hosilalaridan iborat. Adsorbsiyali rafinatsiyani asosiy maqsadi moylarni rangli moddalardan tozalashdir va bu jarayon oqlash deyiladi. Oqlash, ayniqsa moylarni gidrogenlashga tayyorlashda va margarin ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega. Oqlash jarayonida moylar rangli va boshqa moddalardan, masalan: sovun qoldiqlaridan ham tozalanadi. Yog‘lar tarkibida pigmentlar bo‘lib, ular yog‘ni bo‘yaydi. Masalan: Ksantofillar yog‘ga sariq, V-karotin qizil, xlorofill – yashil; gossipol – jigarrang yoki qora rang beradi. Karotinoidlar ishqorga chidamli bo‘ladi, shuning uchun ular ishqorli rafinatsiyada ajrab chiqmaydi. Ishqor eritmasini konsentratsiyasi yuqori bo‘lsa neytralizatsiya vaqtida karotinoidlar soapstokga sorbsiyalanadi va yog‘ qisman oklanadi (tiniqlashadi). Karotinoidlar qattiq sorbent yuzasida aktiv sorbsiyalanadi. Xlorofillar karotinoidlardan fark qilib ishqor bilan reaksiyaga kirishib, birikma hosil qiladi. Biroq ishqorli rafinatsiyada to‘liq ajrab chiqmaydi.

Adsorbsiya – bu qattiq yoki suyuq modda sirtida boshqa modda molekulalari va atomlari yig‘ilishi jarayonidir. Adsorbsiya adsorbent yuzasidagi aktiv markazlarni molekulyar kuchi ta’sirida borib, ularni sirt yuza energiyasini kamaytiradi. Adsorbsiyani yaxshi borishi adsorbsiyalanadigan moddalarni tabiatli va tuzilishiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan: qutblanmagan (kam qutblangan) birikmalar qutblanmagan adsorbentlarda yaxshi sorbsiyalanadi (ko‘mirda) va qutblangan birikmalar qutblangan sorbentlarda yaxshi sorbsiyalanadi.

Yog‘ va moylardagi hamma bo‘yovchi moddalarni tabiatli va strukturasi (tuzilishi) har xil. Lekin ularning har biri o‘ziga xos qutblilikka ega. Shuning uchun ham adsorbsiyali rafinatsiyada tanlash qobiliyatiga va aktivlikka ega bo‘lgan qutblangan adsorbentlar ishlataladi. Yog‘ va moylarni oqlash uchun tabiiy bentonit (alyumosilikat) tuprog‘ini kislota bilan va termik qayta ishlanib olingan – aktivlangan oqlovchi tuproqlar, aktivlangan ko‘mir qo‘llaniladi. Oqlash bir qator adsorbentlarning rangli moddalarni va yog‘dagi ayrim chiqindilarini tanlab yutishiga asoslangan. Yog‘ va moylarni oqlashda ishlataladigan adsorbent aktivligi, oqlovchanligi va moy sig‘imi bilan harakterlanadi. Adsorbent qancha aktiv bo‘lsa, uni oqlovchanlik faktori ham shuncha yuqori bo‘ladi.

Adsorbentning moy sig‘imi katta ahamiyatga ega. U qanchalik kichik bo‘lsa, adsorbent shunchalik iqtisodiy arzonga tushadi. Aktivlangan tuproq-askanitni moy sig‘imi 75%ni tashkil qiladi. Moylarni oqlash uchun ishlataladigan sorbent miqdori yog‘dagi bo‘yovchi moddalarni massa ulushiga bog‘liq bo‘lib, 0,5 dan 5 % gacha bo‘ladi. Oqlash jarayonining samaradorligi, oqlangan yog‘ning rangi, ishlatilgan sorbentning miqdori, yo‘qotish va chiqindilar me’yoriga, oqlangan yog‘ning unumiga qarab aniqlanadi. Oqlash jarayonida aktivlangan tuproq ishlatilganda bir oz izomerizatsiya sodir bo‘lishi mumkin. Bu esa oqlangan yog‘ va moylarni saqlashda ularni sifatini pasayishiga va saqlanish muddatini qisqarishiga olib keladi. Yuqorida ko‘rsatilgan holatlar va yog‘ sig‘imini kattaligi iloji boricha oqlash uchun ishlataladigan aktivlangan tuproq miqdorini kamaytirishni talab qiladi. Oqlash vaqt 20-30 minutni tashqil qiladi. Adsorbent bilan yog‘ni birgalikda uzoq muddat ushlab turish, uning oksidlanishiga olib keladi va yog‘ yer ta’mini oladi. Oqlash uchun gidratatsiya, neytralizatsiya qilingan, yuvilgan va quritilgan yog‘lar tavsiya etiladi. Oqlash jarayonida oksidlanishni kamaytirish maqsadida jarayon vakuum ostida olib boriladi.

MOYLARNI OQLASH

Asboblar: probirka, tarozi, elektrisitgich, stakan, aralashtirgich, buklama filtr, kolorimetrik, byuxner voronkasi, vakuum nasos.

Ishning bajarilishi. Oqlashda oldindan quritilgan moy ishlataladi. Oqlanmagan moydan oqlovchanlik faktorini aniqlash uchun probirkaga namuna olib qo‘yiladi va 125-150 g atrofida stakanga solinadi.

So‘ng, stakan moyi bilan birga tarozida tortiladi, elektrisitgichga joylashtiriladi va 200 ayl/min tezlik bilan aylanayotgan aralashtirgich bilan aralashtirib qizdiriladi.

Harorat 60°Sga yetganda isitish va aralashtirishni to‘xtatmagan holda moy massasiga nisbatan 1-3% oqlovchi tuproq qo‘shiladi. Moy harorati 90-95°C yetgaziladi va moyni aralashtirish yana 15 min davom ettiriladi. So‘ngra aralashtirgich to‘xtatilib, moy stakandan buklama filtrga quyiladi. Oqlangan tiniq moy oqlovchanlik faktorini aniqlash uchun ishlataladi.

ADSORBENTNING OQLASH FAKTORINI ANIQLASH

Oqlovchanlik faktori oqlangan va oqlanmagan moylarga tepadan bir vaqtida qaralganda bir xil rangda bo‘lgandagi balandliklari nisbatini ifodalaydi. Oqlangan moyning rangini intensivligi har doim kichik bo‘ladi (oqlanmaganga nisbatan), shuning uchun oqlanmagan moyning balandligi har doim oqlangan moyning balandligidan kichik bo‘ladi. Shu sababli oqlovchanlik faktori har doim 1 dan katta bo‘ladi. Oqlovchanlik faktorini aniqlash, odatda, kolorimetrda amalga oshiriladi. Kolorimetrik analizining mohiyati kyuvetalarga solingen suyuqliklarning qalinliklarini o‘lchashga asoslangan.

Silindrlar holati nol holatda bo‘lganda oyna bilan yoritib, uning yoritilishini bir xilligi (normadaligi) tekshiriladi. So‘ngra kyuvetalardan biriga oqlanmagan moydan 10 ml solinadi,

ikkinchisiga esa oqlangan moy solinadi va moyga shisha silindrlar joylashtiriladi. Xohlagan balandlikda kyuvetalardan birining harakatsiz holatida ikkinchi kyuvetaning turish balandligi aniqlanadi. Bunda bo‘yalish intensivligi ko‘rish maydonining ikkala yarmida ham mos tushishi kerak. Keyin shkaladan mos balandliklar yozib olinadi. Aniqlash oqlanmagan moyning turli balandliklarida 3 martadan oshiq bajariladi va hisoblash uchun o‘rtacha qiymati olinadi. Oqlangan moy balandligining oqlanmagan moy balandligiga nisbati oqlovchanlik faktorini beradi.

OQLOVCHI TUPROQNING MOY SIG‘IMINI ANIQLASH

Diametri 50 mm atrofida bo‘lgan Byuxner voronkasiga devorlariga taqab aylana filtr qog‘oz jylanadi, moy bilan ho‘llanadi va ortiqcha moy nasos bilan so‘rib olinadi. Filtr voronkasi bilan texnik tarozida tortiladi. So‘ng, voronkaga 10 g tekshirilayotgan oqlovchi tuproq solinadi hamma tuproqni qoldirmasdan yaxshilab moy bilan ho‘llanadi, ortiqcha moy so‘rib olinadi va doimiy og‘irlikka kelguncha tortiladi.

Oqlovchi tuproqning sig‘imi (X) quyidagi formuladan topiladi:

$$X = (a-b+r) \cdot 100/R, \%$$

bu yerda : a-voronkaning filtr, tuproq va yutilgan moy bilan birgalikdagi og‘irligi, g ; b-voronkaning moy shimdirligan filtr bilan og‘irligi, g ; r-tuproq og‘irligi, g.

Oqlovchi tuproqlarning moy sig‘imi ularning tarkibiga, tabiatiga va aktivligiga qarab 40 dan 100% gacha bo‘lishi mumkin.

YOG‘ VA MOYLARNING RANGINI ANIQLASH

Rafinatsiyalanmagan va rafinatsiyalangan o‘simlik moylarini rangi ulardagi mavjud pigmentlarni miqdoriy va sifat tarkibini ko‘rsatadi. Och rangli o‘simlik moylarini rangliligi rang soni bilan xarakterlanadi. Rang soni, yodning 100 ml standart eritmasidagi erkin yodni mg miqdori bilan ifodalanadi.

Och rangli moylarning rang sonini yodning standart eritmalari shkalasi yoki kolorimetr yordamida aniqlash mumkin.

Paxta moyini rangliligi, belgilangan sariq rang ishtirokida, aniqlangan qizil rang birligini miqdori bilan ifodalanib, rang o‘lchagich yordamida aniqlanadi.

1.3. OCH RANGLI MOYLARNI RANGINI ANIQLASH

Usul prinsipi. Bu usul tekshirilayotgan moy rangini yodning standart eritmalari rangi bilan taqqoslashga asoslangan.

Aniqlash uchun oldindan tayyorlangan standart rang shkalasidan foydalaniladi. Unda ichki diametri 10 mm bo‘lgan rangsiz shishadan tayyorlangan probirkalarda turli konsentratsiyadagi yodning kaliy yoddagi eritmalari solingan bo‘ladi. Bu etalonlarning rang soni (mg J₂ da) quyida berilgan.

Probirkani tartib raqami	Rang soni, mg J ₂	Probirkani tartib raqami	Rang soni, mg J ₂
1	100	8	30
2	90	9	25
3	80	10	20
4	70	11	15
5	60	12	10
6	50	13	5
7	40	14	1

Reaktiv va idishlar: standart ranglar shkalasi, diametri 10 mm bo‘lgan rangsiz shishadan tayyorlangan probirkalar.


Ishning bajarilishi. Probirkaga filtrlangan moydan solinadi va uning rangi standart eritmalar ranggi bilan taqqoslanadi. Aniqlash 20 °C haroratda kun yorug‘ida yoki elektr lampasi yorug‘ida amalga oshiriladi.

Tekshirilayotgan moyning rang soni taqqoslashda bir xil rangga to‘g‘ri kelgan etalonning rang soni bilan ifodalanadi.

OCH RANGLI MOYLARNI RANGINI KOLORIMETRIK USULDA ANIQLASH

Usulning prinsipi: Bu usul moy rangini jadal o‘tib turuvchi yorug‘likda yodning standart suvli eritmalariga taqqoslashga asoslangan. Yodning standart eritmasi sifatida, kaliy yoddagi yodning suvli eritmasi qo‘llaniladi.

Aniqlash har xil rusumdag‘i kolorimetrlarda olib boriladi. 1-rasmda KOL-1M kolorimetri ko‘rsatilgan. Tabiiy yorug‘lik yoki maxsus 10 yoritgichdan yorug‘lik 2ta yo‘nalish bo‘ylab aniqlanayotgan namuna va standart eritmali 2 ta bir xil 7 stakanga yo‘naltiriladi. Yorug‘lik shisha ustunchalar (6) orqali o‘tib, 5 kojuxda joylashgan prizma yordamida ko‘rish maydonini 2 qismini yoritadi. Ustunchalarni stakanga botib turish sathi eritma qatlamining qalinligini aniqlaydi. Ko‘rish maydonini o‘ng yarmi chapdagi stakandan o‘tgan yorug‘lik bilan, chap yarmi esa o‘ngdag‘i stakandan o‘tgan yorug‘lik bilan yoritilgan. Shisha ustunchalarni tushirish yoki ko‘tarish orqali maydonlardagi rangni intensivligi to‘g‘rulanadi. Aniqlashni qatlamlar qalinligi 5 mm dan kam va 30 mm dan ko‘p bo‘limgan oralig‘da olib boriladi. Qatlamlar qalinligi 2 shkalali nonius yordamida o‘lchanadi. Hisoblash aniqligi $\pm 0,1$ mm.



1-rasm. KOL-1M kolorimetri.

1-maxovikcha; 2-shkalali nonius; 3-svetofiltrli baraban; 4-okulyar; 5-prizma kojuxi; 6-shisha ustunchalar; 7-stakanlar; 8-stolcha; 9-lampani patroni; 10-yoritgich; 11-shisha ustunchalar uchun kojux.

Ishning bajarilishi. O‘ngdag‘i stakanga 7 (8-rasmga qarang) standart eritma quyiladi, chapdagisiga esa moy quyiladi. Moy solingen stakanga shisha ustunchani botiriladi va doimiy sath, 10 mm da o‘rnataladi. Standart eritma solingen stakanga ham shisha ustuncha solinadi va 1 maxovikcha yordamida qatlam qalinligi, ko‘rish maydonchalarida bir xil rang hosil bo‘lguncha o‘zgartiriladi. Buni 4 okulyar orqali kuzatib boriladi. Standart eritmaning qatlam qalinligi kolorimetri o‘ngdag‘i shkalasi orqali yozib boriladi va bu 3-4 marta qayta qilinadi.

Moyning rangi 100 ml eritmada mg yod hisobida quyidagi formula orqali aniqlanadi: $X = S_d / 10$

bu yerda S – etalondagi yodning konsentratsiyasi, 100 ml eritmadagi mg miqdori; d – standart yod eritmasi qatlaming qalinligi, mm; 10 –aniqlanayotgan moyning qatlam qalinligi, mm.

Oxirgi natija sifatida 2 ta parallel aniqlashlarning o‘rtacha arifmetik qiymati qabul qilinadi. Ayrim hollarda, moyni rangi yodli eritmalarini rangiga to‘g‘ri kelmasa, o‘lchashni, ko‘rish maydonidagi ranglar biri-biriga teng bo‘lguncha ko‘k rangdagi filtrlar bilan olib borish kerak. Bunda, hamma aniqlashlar yuqoridagi sharoitda olib borilib, tanlangan filtrning rangi va tartib raqami ko‘rsatiladi va rangni aniqlash asbobini turi ko‘rsatiladi.

Parallel aniqlashlar orasidagi farq moylarni rangi 15 mg yod gacha bo‘lganda \pm 1 mg yoddan, 14dan 50 mg yod gacha bo‘lganda \pm 2,5 mg yoddan, 50 dan 100 mg yodgacha bo‘lganda \pm 5 mg yoddan oshmasligi kerak.

MOYLAR RANGINI RANG O‘LCHAGICH ASBOBI YORDAMIDA ANIQLASH

Rafinasiyalanmagan va rafinasiyalangan o‘simgilik moylarining rangi ulardagi mavjud pigmentlarning miqdoriy va sifatiy tarkibini ko‘rsatadi. Och rangli o‘simgilik moylarining rangliligi rang soni bilan xarakterlanadi. Rang soni, yodning 100 ml standart eritmasidagi erkin yodning mg miqdori bilan ifodalanadi.

Och rangli moylarning rang soni yodning standart eritmalarini shkalasi yoki kolorimetri yordamida aniqlanadi.

To‘q rangli moylarning rangliligi, belgilangan sariq rang ishtirokida, aniqlangan qizil rang birligining miqdori bilan ifodalanib, rang o‘lchagich yordamida aniqlanadi.

To‘q rangli moylar rangini rangi o‘lchagich asbobi yordamida aniqlash.

Usul mohiyati. Bu usul moyning aniq bir qatlam qalinligida moyning rangini shisha filtrlar rangiga taqqoslashga asoslangan. Bu usul rafinasiyalangan va rafinasiyalanmagan paxta moyining rangini aniqlashda qo’llaniladi. Buning uchun «Lovibond» rang o‘lchagichi ishlatiladi.

Lovibond rang o‘lchagichi paxta moyi rangini 2 dan 70 qizil birlikkagacha bo‘lgan oraliqda o‘lchash uchun ishlatiladi.

Asbob pastki va ustki oynalarga ega. Uning ustki oynasi yorig’lik nuri bilan rangli filtrlarni yoritishga mo‘ljallangan. Pastki oyna oldiga moy solingan kyuveta joylashtiriladi. Yorug’lik nurini ustki va pastki oynalar tekis ko‘zgu va prizmalar yordamida okulyarga yo’naltiriladi. Ko‘rish maydonining har ikkala yarmi bir hilda yoritilgan bo‘lishi kerak. Bunda asbobni yoritgich oldida to‘g‘ri o‘rnatish bilan erishiladi.

Asbob ustki oynasidagi yorug’lik oqimi 20, 35, 70 birlikdagi oqimni beradigan sariq svetofiltrlar 10, 20, 30 birlikdagi oqimni beradigan qizil svetofiltrlar hamda 1,5-14 qizil birlikdagi o‘zgaruvchan yorug’lik oqimini beradigan ikkitalik prizma kiritiladi. Pastki oyna oldiga moy solingan kyuveta qo‘yiladi. Ko‘rish maydonining o‘ng yarmi moy qatlamidan o‘tayotgan yorug’lik, chap yarmi esa rangli filtrlar tizimi orqali o‘tayotgan yorug’lik oqimi bilan yoritiladi. Kyuvetadan o‘tayotgan yorug’lik oqimi neytral filtrlar o‘rnatalishi mumkun. U filtrlar rangli filtrlar tizimidagi yorug’likning yo‘qolishini kompensasiyalayda. Neytral filtrlar okulyar ko‘rish maydonning chap yarmida ko‘kintir rang hosil bo‘lgandagina kiritiladi.



Asbob: «Lovibond» rang o‘lchagichi.

Ishning bajarilishi. Oldindan filtrlangan moy namunasi kyuvetaga solinadi va asbobning pastki oynasi oldiga qo'yiladi. Yorug'lik oqimiga sariq filtr kiritilib, ko'rish maydonining har ikkala qismidagi ranglar prizmaning siljitim dastagi yordamida tenglashtiriladi. Ranglar tengligiga erishilmagan holda 10, 20, 30 birlikda yorug'lik oqimini beradigan qizil filtrlar yoki 40, 50 birlikda oqimini beradigan ikkita filtr kiritiladi va klin shkalasi bo'yicha bu birliklar qo'shib hisoblanadi.

Moyning rangi kyuveta qalinligi va sariq filtrlarning raqami yoki raqamlar yig'indisi ko'rsatilgan holda klin shkalasi bo'yicha qizil birliklarda ifodalanadi.

Ranglilik uchun 3-5- o'lchashlarning o'rtacha arifmetik qiymati qabul qilinadi.


Ikkita parallel o'lchamlar orasidagi farq 2-18 birlik oralig'ida 1 birlikdan oshmasligi kerak.

2-LABORATORIYA ISHI

YOG' VA MOYLARNI GIDROGENLASH

Xalq xo'jaligini yog' maxsulotlariga bo'lgan extiyoji o'simlik moylari va hayvon yog'larini hisobiga qondiriladi. Yog'larning bir qismigina qattiq holatda bo'ladi, qolgan ko'p qismi suyuq holda bo'ladi. Shunga ko'ra qattiq yog'larga bo'lgan extiyojni o'simlik moylarini gidrogenlab salomas ishlab chiqarish evaziga qoplanadi.

Gidrogenlash moylar tarkibidagi to'yinmagan yog' kislotalarini vodorod bilan to'yintirishga asoslangan. Buning natijasida to'yinmagan suyuq yog' kislotlari to'yingan va nisbatan yuqori haroratda suyuqlanadigan kislotaga o'tadi. Masalan, olein va linol kislotalari quyidagi reaksiyalar natijasida stearin kislotasiga aylanadi.



Bu asosiy reaksiyalar bilan bir qatorda yog'lar gidrogenizatsiyasi jarayonida yog' kislotalarining izomerlanishi yuz beradi, natijada trans-konfiguratsiyali izomer kislotalar hosil bo'ladi va bular, shu darajada to'yingan normal kislotalardan suyuqlanish harorati balandligi bilan ajralib turadi.

Molekulyar vodorod to'yinmagan yog' kislotalariga va suyuq yog'larning asosini tashkil qiluvchi glitseridlarga oddiy sharoitda birikmaydi. Yog' harorati ko'tarilganda ham, shuningdek bosim anchagina oshirilganda ham bunday reaksiya bormaydi. Bu reaksiyalar faqat katalizatorlar ishtirokida yuz beradi.

Aktiv katalizatorlar, palladiy, platina, nikel kabi metallar asosida tayyorlanadi. Ular yog'da erimaydi, shu sababli yog'larni gidrogenlash geterogen kataliz turkumiga kiradi. Geterogen katalizatorlar reaksiyaning aktivlash energiyasini kamaytiradi.

Gidrogenizatsiyani olib borish sharoitlariga bog'liq holda jarayonning tezligi va yo'nalishi turlicha bo'lishi mumkin. Yog'larni gidrogenlash tezligi ulardagi yog' kislotalar tarkibiga, katalizatorni aktivligi va miqdoriga, sistemadan vodorod o'tkazishning intensivligi va uning yog'da bir tekis tarqalishiga, yog'ni qizish haroratiga bog'liqdir. Katalizator qanchalik aktiv bo'lsa, gidrogenlash shunchalik tez boradi. Ishlatiladigan katalizatorni miqdori ko'paytirib borilganda gidrogenlashning tezligi ma'lum darajagacha ortadi. Bosimni va haroratni ortishi bilan gidrogenlash tezligi ham proporsional ravishda oshib boradi.

Amaliyotda yog'lar gidrogenizatsiyasida katalizatorning roli katta bo'lishi bilan birga uning yuqori aktiv holatda tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Gidrogenizatsiya jarayonida katalizatorning aktivligi pasaysa uni salomasdan ajratgandan so'ng regeneratsiyaga jo'natiladi. Katalizatorni regeneratsiya qilish jarayonida nikel va misning sulfat tuzlari eritmasi olinadi va keyingi bosqichda katalizator tayyorlashda ishlatiladi.



Yog'larni gidrogenlash, suyuq yog'lardan qattiq salomaslar olish maqsadida amalga oshiriladi. Olingan salomaslar o'zining tarkibi va hossalariga qarab, oziqa va texnik salomaslarga

bo‘linadi. Oziqa salomaslari margarin, kulinar yog‘lar, konditer maxsulotlari, texnik salomaslar esa yog‘ kislotalari,sovun ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.


Gidrogenlangan yog‘ning yog‘-kislota va glitserin tarkibi gidrogenizatsiya jarayonining sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Gidrogenlanish darajasini o‘zgartirib, bir xil suyuqlanish haroratli, lekin turli yog‘ kislota, glitserid tarkibiga va hossalarga ega bo‘lgan salomaslar olish mumkin.

2.1. KATALIZATOR TAYYORLASH

Sanoatda asosan nikel va nikel-mis katalizatorlari kukunsimon (poroshok) holatida ishlatiladi. Ular eltuvchisiz yoki eltuvchi (nositel) bilan tayyorlanadi. Nikel-mis katalizatori, bu metallarning karbonatlari tuzlari xolida bo‘ladi. Buning uchun nikel va mis sulfatning eritmasini natriy karbonat ta’sirida cho‘ktiriladi.



Tayyorlangan karbonat tuzlar ko‘pincha o‘z tarkibida sezilarli miqdorda tashqi mineral tuzlarni saqlaydi. Bularning bir qismi natriy karbonat bilan cho‘ktirish vaqtida hosil bo‘ladi. Ular tayyorlangan katalizatorning aktivligiga salbiy ta’sir qiladi. Shuning uchun, olingan karbonat tuzlarining cho‘kmasi suv bilan yuviladi. Yuvisht, yuvindi suvning sifat analizi uning tarkibida SO_4^{2-} , Cl^- va ishqor yo‘qligini ko‘rsatguncha davom ettiriladi. Olingan cho‘kma tarkibida ko‘p miqdorda suv (60-75%) bo‘ladi, shuning uchun uni keyingi bosqichda ishlatish uchun 10-16% namlikkacha quritiladi. So‘ngra, quritilgan karbonat tuzlari maydalaniadi, moy bilan aralashtiriladi va qaytariladi yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri gidrogenizatsiya uchun ishlatiladi. Katalizator tayyorlashda nikel bilan mis metallari $\text{Ni:Cu}=3:1$ yoki 1:1 nisbatda bo‘ladi. Katalizatorlarni metall qotishmalaridan ham tayyorlash mumkin. Bunday katalizatorlar yuqori darajadagi aktivligi bilan ajralib turadi va ularni skelet holatidagi katalizatorlar deb ataladi. Skelet katalizatorlarni tayyorlash uchun katalistik aktiv metall-nikelni alyuminiy bilan qotishmasi tayyorlanib, alyuminiy ishqor ta’sirida yo‘qotiladi. Buni quyidagi reaksiyadan ko‘rish mumkin.



Skelet katalizatorlar kukun holatida ham, donalar (granul) shaklida ham tayyorlanishi mumkin. Katalizator donalar shaklida qo‘llanilganda yog‘larni gidrogenlash kolonna tipidagi reaktorlarda olib boriladi. Bunda katalizator kolonnada turg‘un holatda joylashtiriladi, natijada olinadigan salomas tarkibida katalizator zarralari bo‘lmaydi, u toza holatda olinadi. Bu hol gidrogenlash zavodlarida salomasni filtrlash jarayonini qo‘llamaslik imkonini yaratadi, ishlab chiqarish unumdorligi ortadi, salomas tannarxi kamayadi.

ELTUVCHISIZ NIKEL-MIS KATALIZATORINI TAYYORLASH

Reaktiv va materiallar: 1 lli kolba, 10%li NiSO_4 , 10%li CuSO_4 , 10%li Na_2CO_3 va 10%li BaCl_2 eritmalar, fenolftaleinni 1% spirtli eritmasi, chinni maydalagich, elak (1 sm^2 da 2800 teshikli), quritgich shkaf, Byuxner voronkasi, vakuum nasos, chinni likobcha, filtr qog‘oz.

Ishning bajarilishi. 1 lli kolbaga 150 ml 10% li nikel sulfat (NiSO_4) eritmasi va 50 ml 10%li mis sulfat (CuSO_4) eritmasi quyiladi. Eritmani $40-45^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladi va unga xuddi shu haroratgacha qizdirilgan 10% li Na_2CO_3 eritmasi kichik miqdorlar bilan quyiladi (kamgina ortiqchasi bilan). Metallar to‘liq cho‘kkanligini aniqlash uchun probirkaga ozgina eritmadan filtrlab olinadi va filtratga bir necha tomchi fenolftalein qo‘shiladi. Soda ortiqcha bo‘lgan holda filtrat binafsha rangga kiradi va bu metallar to‘liq cho‘kkanligidan dalolat beradi.

Hosil bo‘lgan nikel va misni karbonat tuzlari Byuxner voronkasida filtrlanadi va $35-40^{\circ}\text{C}$ gacha isitilgan, distillangan suv bilan birnecha marta yuviladi. Cho‘kmani to‘liq yuvilganligi filtratga bariy xlorid (SO_4^{2-} ioni uchun reaktiv) qo‘shib aniqlanadi.

Yuvilgan nikel va mis karbonat tuzlarining cho'kmasi kuriish shkafida 100-105°C haroratda 10% dan yuqori bo'limgan namlikkacha quritiladi. So'ngra chinni maydalagichda maydalanadi va 1 sm² da 2800 ta teshigi bo'lgan elakda elanadi. Maydalangan nikel va misni karbonat tuzi katalizatorni aktivligini aniqlash uchun laboratoriya qurilmasida moyni gidrogenlash uchun ishlatiladi.

ELTUVCHILI NIKEL KATALIZATORINI TAYYORLASH

Kerakli reaktiv va asboblar. 1 l kolba, 10 %li NiSO₄, 10 %li Na₂CO₄ eritmasi, fenolftaleinni 1 %li eritmasm, infuzoriya tuprog'i, 10 %li BaCl₂ eritmasi, chinni maydalagich, elak (1 sm² da 2800 teshikli), quritgich shkaf, Byunxer voronkasi, vakuum nasos, chinni likobcha, filtr qog'oz.

Ishning bajarilishi: 1 l xajmli kolbaga 150 ml 10 %li nikel sulfat (NiSO₄) eritmasi solib, unga maydalangan va elangan infuzor tuprog'i qo'shiladi (solinayotgan elituvchi, ya'ni tuprog'ini miqdori eritmadi nikel metali miqdoriga nisbatan 4:1 dan 8:1 nisbatigacha qo'shiladi). So'ng infuzor tuprog'i qo'shilgan NiSO₄ eritmasi 60°S gacha qizdiriladi va doimiy arashtiribturgan holda unga xuddi shu haroratgacha qizdirilgan kichik miqdorlar bilan 10 %li Na₂CO₄ (soda) eritmasi qo'yiladi (kamgina ortiqchasi bilan). Nikel to'liq cho'kkaligini aniqlash uchun probirkaga kichik miqdorda eritmadan filtrlab olinadi va filtga bir necha tomchi fenolftalein qo'shiladi. Soda ortiqcha bo'lgan holda filtrat binafsha ranga kiradi va bu metall to'liq cho'kkaligidan dalolat beradi.

Infuzor tuproqda cho'ktirilgan nikelning karbonat tuzi Byuxner voronkasida filtrlanadi va 35-40°C gacha isitilgan distillangan suv bilan bir necha marta yuviladi. Cho'kmani to'liq yuvilganligini filtrtga BaCl₂ eritmasi va fenolftalein qo'shib aniqlanadi.

Yuvilgan nikel karbonat tuzi 100-105°C haroratda qo'ritish shkafida 10 % namlikdan yuqori bo'limgan namlikkacha qo'ritiladi. Keyin hosil bo'lgan tuz chinni maydalagichda maydalanadi va 1 sm² da 2800 ta tegishi bor elakda elanadi. Maydalangan nikel krbonat tuzi katalizatorni aktivligini aniqlash uchun laboratoriya qurilmasida moyni gidrogenlash uchun ishlatiladi.

Nikel katalizatorini tayyorlash uchun elituvchini miqdorini hisoblash:

1. katalizator tayyorlash uchun 10 %li nikel sulfat eritmasi ishlatiladi.

Demak, 150 ml eritmada 15 g NiSO₄ bor:

155 g NiSO₄ – 59 Ni x = 5,7 g Ni

15 g NiSO₄ – x

2. elituvchini (infuzor tuprog'i) 4:1 nisbatda qo'shiladi, ya'ni 1 hissa nikelga 4 hissa elituchi qo'shiladi: 4·5,7 = 22,8 g.


3-LABORATORIYA ISHI SALOMASNING ANALIZI

3.1. QATTIQLIGINI ANIQLASH

Oziqaviy salomasning sifat ko'rsatkichlaridan biri uning qattiqligi hisoblanadi. Qattiqligini aniqlash Kaminskiy qattiqlik o'lchagichida (tverdomer) amalga oshiriladi. Aniqlash prinsipi, 1 sm kesimdagi 15°C gacha sovitilgan yog' namunasini diametri 0.2 mm li sim bilan kesish uchun kerak bo'ladigan yuklama qiymatini belgilashga asoslangan. Olingan kattalik g/sm larda belgilanadi.

Salomaslar qaysi maqsadda ishlatilishiga qarab turli qattiqlikka ega bo'ladi. Masalan, margarin ishlab chiqarish uchun 160-320 g/sm, konditer mahsulotlari (shokolad) uchun 500-600 g/sm qattiqlikga ega bo'lgan ozikaviy salomaslar ishlatiladi.

2-rasm. Kamenskiyning qattialik o'lchagich asbobi
 1-sozlash yukchasi; 2-pasangi; 3-tarozi dastagi; 4-arretir;
 5-o'lchovchi trubka; 6-shtok; 7-bochkacha; 8-
 tushiruvchi dastag; 9-zanjir; 10-qabul qiluvchi bachok;
 11-kesuvchi moslama; 12-quyuvchi voronka; 13-
 sovituvchi kamera.



Kaminskiy qattiqlik o'lchagichi tarozi tipidagi asbobdir (2-rasm). Har doim aniqlashdan oldin uskuna rostlanadi va dastlabki holatga keltiriladi. Qattiqlik o'lchagichni ishlatishdan oldin uni graduirovka qilinadi, ya'ni o'lchash trubkasi bo'limlari kattaligi aniqlanadi.

Reaktiv va uskunalar: muz va suv aralashmasi, Kamenskiy qattiqlik o'lchagichi, kapsula, 500 ml li stakan, pichoq.

Ishning bajarilishi. Salomas va boshqa yog'larni qattiqligini aniqlashga tayyorlash: ramkani oboymaga (halkacha) joylanadi va unga chegarasigacha eritilan tekshirilayotgan yog' quyiladi. Yog'ni eritish 50°S da sekin amalga oshiriladi, Havo chiqishi uchun yog'ga 2 ta nomerlangan kapsula joylanadi. To'lgan oboymani (halqani) muz va suv aralashmasiga joylanadi, bunda suvning yog'ga qo'shilib ketmasligini nazorat qilib turish kerak. 15 minutdan keyin yog' sovigach oboymani sovituvchi aralashmadan olinadi va uni bir necha sekund issiq suvli stakanga (suv harorati $50-70^{\circ}\text{C}$) joylanadi, keyin chap qo'l barmoqlari bilan oboymani ushlab o'ng qo'l barmoqlari bilan ramka dastasini ushlab, oboymani ramkadan ajratiladi.

Shundan so'ng kapsulani ramkadan suriladi va pichoq bilan uning tashqi devorlari yopishib qolgan yog'lardan tozalanadi. Kapsulalarni 20 minut suv va muz aralashmasida saqlanadi, so'ngra 1 soat davomida 15°C li suvg'a joylanadi.

Termostatlash tugagach kapsulalarni suvdan olinadi va uskunaning sovituvchi kamerasiga joylanadi. Kameradan uzluksiz ravishda, kamerada haroratni 15°C da saqlab turish uchun, suv o'tkazib turiladi (atrof muhit harorati 20°C dan past bo'lganda suv o'tkazish shart emas).

Vodoprovod jo'mragi ochiladi va bosim orqali bochka 7ga uzluksiz suv beriladi, uni ortiqcha qismi to'kuvchi trubka orqali tushirib turiladi 8-richag sekin bosiladi, 7 bochkacha shtoki ko'tariladi, natijada suv bochkadan qabul qiluvchi bachokka o'ta boshlaydi. Chap qo'l bilan arretir 4 olib tashlanadi. Yog'ni sim bilan kesish vaqtida koromislo 3 kesuvchi moslama 11 va qabul qiluvchi bachok 10 bilan birga tusha boshlaydi va strelka shkalaning ikkinchi bo'lagidan o'tganda, zanjir 9 tushuvchi richag 8ni tortadi, u ilgichni chetga suradi, natijada ozod bo'lib qolgan shtok tushib ketadi, bunda u qabul qiluvchi bachok 10ga suv kelayotgan klapanli teshikni yopadi. Qabul qiluvchi bachokning to'lish davomiyligi quyidagicha: qattiqligi 300 g/sm gacha bo'lgan salomas analizida 2-3 min, qattiqligi 500-800 g/sm bo'lgan salomas analizida 4-5 min.

Koromislo 3 ko'tariladi va uni arretir 4 bilan mahkamlab, o'lchash trubkasi 5 yordamida qabul qiluvchi bachok 10dagi yig'ilgan suv ml miqdorida hisoblanadi. Graduirovka jadvalidan suv miqdori bo'yicha qidirlayotgan salomasning qattiqligi aniqlanadi.

Suvni qabul qiluvchi 10 va chiqaruvchi jo'mraklarni o'lchash trubkasi 5da nol holatga kelguncha ochilgach, qattiqlik o'lchagich keyingi tajribalar uchun tayyor bo'ladi.

Eslatma: 1) o'lhash trubkasidagi nolinchi nuqta 0-14.5 mm ga to'g'ri keladi. 1) hisoblash yopiq apparat holatda nolinchi nuqtadan, pastdan yuqoriga amalga oshiriladi, mm.

3.2. ERISH HARORATINI ANIQLASH

Har qanday kimyoviy toza individual modda qaynash haroratiga ega. Bu ko'rsatgich asosiy harakteristikalaridan biri bo'lib, shu moddaning tozaligi to'g'risida hulosa qilish uchun foydalaniladi.

Moddalar aralashmasi aniq qaynash haroratiga ega bo'lmaydi. Ularning suyuq holatga o'tishi birdan ro'y bermaydi. Suyuq holatga o'tish ma'lum harorat oralig'ida ro'y beradi, chunki aralashmaning komponentlari har xil haroratda eriydi.

Xuddi shuningdek yog'lar ham har xil erish haroratlariga ega bo'lgan turli uchglitseridlarning murakkab aralashmasidan iborat bo'lib, muayyan harorat oralig'ida eriydi.

Dastlab yog' yumshaydi va qo'zg'aluvchan bo'lib qoladi, keyin ma'lum haroratga yetgach, ya'ni, uning tashkil qiluvchi barcha qismlari suyuq holatga o'tganda u tiniq holatga keladi. Individual modda bo'lganda erish harorati va to'liq erish harorati mos tushar edi. Yog'larda esa bu ikki ko'rsatkich orasida ma'lum farq borligi kuzatiladi va bu yog'ning glitserid tarkibiga bog'liq.


Yog'lar aniq erish haroratiga ega bo'limganligi uchun ularni 2 ta ko'rsatkich bo'yicha xarakterlanadi: yog' harakatlanuvchan bo'lib qoladigan suyuqlanish harorati va yog' to'liq tiniq bo'ladigan to'liq suyuqlanish harorati bilan xarakterlanadi.

Yog'ning suyuqlanish haroratini aniqlash uchun amaliyatda yog'ning yumshashini xarakterlovchi bir qator shartli usullar qo'llaniladi. Yog'-moy sanoatida aniqlashning qo'yidagi usuli qabul qilingan (12-rasm).

Asboblar: shishadan yasalgan kapillyar, termometr, stakan.

Ishning bajarilishi. Toza, quruq, ikki tomoni ham ochiq, yupqa yengil shishadan yasalgan kapillyar naychaga (naycha uzunligi 50-80 mm, diametri 1-1.2 mm, devori qalinligi 0.2-0.3 mm) shunday miqdor to'liq erigan filtrlangan salomasdan olinadiki, bunda kapillyardagi yog' ustuni balandligi 10 mm atrofida bo'lsin.

Kapillyarni to'ldirish, uning uchini yog'ga tiqish bilan amalga oshiriladi. Yog'li trubkani muzda 10 minut davomida ushlab turiladi.



4-rasm. Suyuqlanish xaroratini aniqlash uchun asbob.

1-aralashtirgich; 2-termometr;
3-kapillyar naycha

Shundan so'ng trubkani ingichka rezinali xalka yordamida termometrga (shkalasining bo'limlari 0.1°C) maxkamlanadi, bunda yog' ustuni va termometrni simobli sharigi bir xil satxda turishi kerak. Shundan so'ng termometrni kapillyar bilan harorati $15-18^{\circ}\text{C}$ bo'lgan suvli stakanga solinadi, bunda kapillyar suvg'a 3-4 sm kirib turishi kerak.

Bunda kapillyarning to'ldirilmagan uchiga suv kirib ketmasligini nazorat kilish kerak. Mexanik aralashtirgich bilan doimiy aralashtirib turgan holda stakandagi suvni dastlab minutiga 2°C ga, suyuqlanish harorat yaqinlashgan sari minutiga 1°C dan ko'paytmay oshirib borish kerak. Erish harorati deb, trubkadagi yog' ko'tarila boshlaydigan harorat olinadi.

Aniqlashni 2 marta bajariladi va natija sifatida 2 ta parallel aniqlangan ko'rsatkichlarning o'rtachasi olinadi. Ular bir-biridan 0.5°C dan ko'p farq qilmasligi kerak.

4 – LABORATORIYA ISHI SUTNI ANALIZI

Sut margarinning tarkibiy qismidan biri bo'lib, unga bir qator ijobiy sifatlarni beradi. Vaholanki sut bir qator talablarga javob bergandagina margarinning sifati yaxshi o'rinda bo'ladi. Sigir suti toza hid va ta'mga ega bo'lishi, ozgina sarg'imtirroq rangli bo'lishi, uning tarkibida yog' 3,2% dan kam bo'lmasligi, quruq modda miqdori 8,0 % kam bo'lmasligi va kislotaligi 21° Ternerdan oshmasligi kerak.

Shuning uchun margarin zavodlarida sutni qabul qilishda uning:

1. Zichligi
2. Kislotaligi
3. Yog'liligi (margarinka to'g'ri retseptura tuzish uchun)
4. Quruq modda miqdori aniqlanishi muhim va shartdir.

4.1. KISLOTALIGINI ANIQLASH

Sutning kislotaligi 100 ml sutni fenolftalein ishtirokida 0.1 n ishqor (KON yoki NaOH) eritmasi bilan neytrallanganda zarur bo'ladigan ishqorning millilitr miqdori bilan ifodalanadi.

Yangi sutning titrlangan kislotaligi uning tarkibida fosfor kislota va limon kislota tuzlari, oqsil borligi bilan tushuntiriladi.

Sog'gom sigirlarning yangi sutining kislotaligi $16\text{-}18^{\circ}\text{T}$ atrofida bo'ladi. Sutni saqlashda va tashishda uning kislotaligi oshadi va bu bakteriyalarning, asosan sut bijg'ituvchi (molochno-kisliy) bakteriyalarning hayot faoliyati bilan bog'liqdir.

Kislotaligi 21° Ternerdan oshiq bo'lgan sut qabul qilinmaydi, chunki u pasterizatsiya davomida ivib qoladi.

Reaktiv va materiallar: 100-150 ml li konussimon kolba, fenolftalein eritmasi, 0.1n li NaOH yoki KOH eritmasi.

Ishning bajarilishi: 100-150 ml li konussimon kolbaga pipetka yordamida 10 ml sut, keyin 20 ml distillangan suv va 3 tomchi 1%-li fenolftalein eritmasi solinadi, so'ngra sekin chayqatiladi va 0.1n natriy gidroksid eritmasi bilan 1 minut davomida yo'qolmaydigan binafsha rang hosil bo'lguncha titrlanadi.

10 ml sutni titrlash uchun ketgan 0.1 n ishqor eritmasining millilitr miqdorini 10 ga ko'paytiriladi va 100 ml sutning Terner darajasidagi kislotaligi aniqlanadi.

4.2. ZICHLIGINI ANIQLASH

Sutning zichligi deganda (d_4) $+20^{\circ}\text{C}$ haroratda sut og'irligining xuddi shu hajmdagi $+4^{\circ}\text{C}$ haroratdagi suv og'irligiga nisbatli tushuniladi.

Sutning zichligi uning tarkibiy qismining zichliklari yig'indisidan iborat, ya'ni: sut yog'i, sut qandi, oqsil, tuzlar, limon kislotosi.

Sanoatda ishlatiladigan sutning o'rtacha zichligi 1,030 ga teng.


Sigirning zoti, boqish sharoitlari va bir qator boshqa faktorlarga bog'liq ravishda sutning zichligi 1,026-1,034 atrofida o'zgarishi mumkin. Har 10% suv qo'shilganda zichlik taxminan 0.003 ga yoki 3° laktodensimetrdagi kamayadi. Zichlik haroratga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Sutning zichligini aniqlashda harorati +10 dan +25 gacha bo'lishi kerak.

Asboblar: silindr, laktodensimetrlar.

Ishning bajarilishi. Sinovdan oldin sut yaxshilab aralashtiriladi va olingan namunani sekinlik bilan ko'pik hosil qilmasdan diametri 5 sm dan kichik bo'lmanan silindrda devori bo'ylab quyiladi, bunda silindrni ozgina qiyalatib ushlab turish kerak.

Hisobdan oldin sutli silindr tekis gorizontal tekislikda shunday qo'yiladiki, tushayotgan yorug'lik to'g'ri va aniq hisoblashga imkon bersin.



4-rasm.

Laktodensimetr.

Sutning zichligini aniqlash uchun maxsus sut areometrlari-laktodensimetrlar ishlatiladi (20-rasm). Aniqlashda sutga toza va quruq, 1.030 gacha bo'limlari bo'lgan laktodensimetr solinadi va uni erkin suzib turgan holatda qoldiradi. Areometr cilindr devorleriga tegmasligi kerak, devorgacha bo'lgan masofa 5 mm dan kam bo'lmasligi kerak. Harorat va zichlik ko'rsatkichlarini hisoblash areometr harakatsiz holatgada qolgandan taxminan 1 minut o'tgach amalga oshiriladi.

Zichlikni aniqlashda, ko'z, chiziqcha sathi bilan baravar turishi kerak. Zichlikni hisoblash chiziqni yuqori chegarasi bo'yicha 0.0005 gacha aniqlikda, haroratni hisoblash 0.5°C gacha aniqlikda amalgam oshiriladi. Parallel aniqlashlar orasida farq 0.0005 dan oshmasligi kerak. Aniqlash paytida sutning harorati 20°C dan yuqori yoki past bo'sa natijalar 20°C li jadvalga solishtirilishi kerak (ilovadagi jadval).

Jadvalni ishlatishda vertical ustundan darajalardagi zichlik kiymatini topiladi, yuqori gorizontal ustundan harorat topiladi. Ustunlarning kesishish joyida sutning 20°C dagi zichligi topiladi.

Misol: Hisoblash qiymatlari sut harorati 16°C , zichligi 1.030. Jadvaldan zichlik 30 va 16 haroratga 29.0 laktodensimetr to'g'ri keladi yoki $d_4^{20} = 1,0290$

4.3. YOG'LILIGINI ANIQLASH

Yog' sutda kichik yog' sharchalari ko'rinishida tarqalgan. Sharchalarning kattaligi 0.5 dan 5 μ gacha bo'ladi, ayrim yog' sharchalari 10 μ gacha diametrga ega bo'lishi mumkin.

Sutdagi yog'ning miqdori 3 dan 6 % gacha bo'lishi mumkin. O'rtacha sutda 3.2% atrofida yog' bor deb hisoblanadi.


Yog' sharchalari chegarasi atrofida uning suv bilan to'qnashadigan joyida oqsil moddalari va letsitinning yuqori konsentratsiyali qatlami hosil bo'ladi. Bu qatlam yog' parchalarining qobig'ini hosil qilib, ularning yopishishiga to'sqinlik qiladi.

Sutdagi yog' miqdorini aniqlash uchun yog' parchalarining sutdagi boshqa komponentlar bilan, asosan oqsil moddalari bilan bog'larni buzish kerak.

Buning uchun sut konsentrlangan sulfat kislota bilan ishlanadi. Natijada kazeinning sulfat kislota bilan jigar rangdagi eruvchan kompleks tuzi hosil buladi. Barcha oqsillar kislotada bir xil tezlikda erimaganligi tufayli yog'ning ajralishini tezlashtirish uchun yog' o'lchagichni (buterometr) qizdiriladi va silkitiladi.

Yog'ning to'liq va tez ajralishini ta'minlash uchun izoamil spirti ko'shiladi. Keyinchalik sentrifugalashda ajralgan sut yog'i yog' o'lchagichning gaduirovkalangan qismida to'planadi.

Reaktiv va asboblar: buterometr, avtomat-pipetka, sentrifuga, sulfat kislota, suv hammomi.



5-rasm. Yog' o'lchagich

Sutni pipetkadan quyish vaqtida uning uchi sul'fat kislotaga tegib turmasligini kuzatib turish kerak, aks holda sut ivib qolishi mumkin va tushmay qoladi. Sut pipetkadan oqib tushgach uni buterometr devoridan olib tashlanadi, qolgan sut tomchilari erkin oqib tushadi.

Ishning bajarilishi. Toza, quruq yog' o'lchagichga (buterometr, 5-rasm) og'zini ho'l qilmasdan asta-sekin avtomat pipetka yordamida 10 ml sulfat kislota (solishtirma og'irligi 1.81-1.825) solinadi. Keyin pipetka bilan tekshirilayotgan suttan 11 ml o'lchab olinadi, bunda 11 ml li ko'rsatuvchi chiziqcha sut sathining pastki qismiga to'g'ri kelsin. Shundan so'ng, pipetkani ozgina qiyalatib ushlab, uning uchini yog' o'lchagich ichki devori ustiga qo'yiladi, so'ng barmoqni sekin ko'tarib, sutni sekin asta yog' o'lchagichga tushiriladi, bunda sut sulfat kislota bilan aralashib ketmasligi kerak, shuning uchun sut sekin tushiriladi.

Pipetkada qolgan oxirgi tomchi sutmarni puflab chiqarish mumkin emas, chunki pipetkaning hajmi bu qoldiqni inobatga olgan. Sutni quyib bo'lgach yog' o'lchagichga uning og'zini ho'l qilmasdan asta-sekin avtomat pipetka yordamida 1 ml izoamil spirti quyiladi. Favqulodda yog' o'lchagich (jiromer) og'ziga suyuqlik tushsa filtr qog'oz bilan ichidan artib tashlanadi (agar og'zi ho'l bo'lsa rezina tiqin otlib ketadi). Dastlab yog' o'lchagich sekin, keyin kuchliroq ikki-uch marta ag'darib silkitiladi. Ag'darganda o'ng qo'l bosh barmog'i bilan tiqin ushlab turiladi. Kuyishdan saqlanish maqsadida silkitishdan oldin yog' o'lchagich (jiromer) sochiqqa o'rab olinadi. Silkitish va ag'darish natijasida oqsil moddalar to'liq erishi, eritma esa bir jinsli bo'lish kerak. Silkitish paytida eritmaning harorati oshadi. Yog' o'lchagich sovumasdanoq uni darhol sentrifugalanadi.

Yog' o'lchagichni maxsus sentrifuganing o'ramalariga ingichka qismi bilan markaziga joylanadi, ularni bir-biriga qarama-qarshi turadigan qilib simmetrik ravishda joylashtiriladi. Agar yog' o'lchagichlar soni toq bo'lsa, u holda muvozanat bo'lishi uchun suv bilan to'ldirilgan yog' o'lchagich joylashtiriladi.

So'ngra sentrifuga qopqoq bilan yopiladi, gayka burab qo'yilib, aylantiriladi, aylanishlar soni minutiga 1000 marta bo'lishi kerak. Sentrifugalash 5 minut davom etadi, shundan so'ng sentrifuga sekin-asta to'xtatiladi. Keyin yog' o'lchagichlar o'ramalardan olinadi, ingichka qisminan tepaga ushlab, tiqin bilan ajralgan yog' ustuni rostanadi, bunda rezina tiqin ko'tariladi yoki sekin bo'shatilib yog' naychada (trubkada) shkala bo'limlari bilan yonma-yon turishi kerak va ingichka qismini tepaga qaratib harorati $65-70^{\circ}$ S bo'lgan suv hammomiga joylanadi. 5 minutdan so'ng yog' o'lchagichlar chap qo'l bilan suvdan olinib, tezda sochiq bilan artiladi, o'ng qo'l bilan esa rezinali tiqinni tepaga va pastga harakatlantirish hisobiga yog' ustunining pastki chegarasini shkalaning qaysidir butun bo'lagiga keltiriladi. Keyin tezda yog'ning pastki chegarasidan yog' chegarasi egilgan meniskasi pastki nuqtasigacha bo'lgan bo'limlar hisoblanadi. Hisoblash yog' o'lchagich

shkalasini ko‘z sathida ushlab amalga oshiriladi. Yog‘ o‘lchagich shkalasining bitta butun bo‘lagi 100 ml sutda 1 g yog‘ga to‘g‘ri keladi, kichik bo‘lagi esa 0.1 g yog‘ga to‘g‘ri keladi.

Hisoblash:

Agar yog‘ning pastki chegarasi 2 da (bo‘linmada) turgan bo‘lsa, yuqori meniskni pastki nuqtasi 5,4 da turgan bo‘lsa, hajm 100 ml sutda yog‘ egallab turgan 3,4 g yog‘ni tashkil qiladi (5,4-2,0).

Yog‘ning foiz miqdorini hisoblash uchun yog‘ o‘lchagichdan aniqlangan sonni sutning zichligiga bo‘linadi. Demak, agar sutning zichligi 1.030, yog‘ miqdori 100 ml sutda 3.4 g bo‘lsa, yog‘ning foiz miqdori $3.4 : 1.030 = 3.3\%$ ga teng bo‘ladi.

4.4. QURUQ MODDA MIQDORINI HISOBLASH USULI BILAN ANIQLASH

Sutdagi quruq moddaning % miqdori (X) quyidagi Farrington formulasi bo‘yicha aniqlanadi:

$$X = \left(4,9 \ddot{E} + d_4^{20} \right) / 4 + 0,5$$

bunda: 4,9 –doimiy koefitsient; Yo – sutdagi yog‘ning foiz miqdori; d_4^{20} – 20⁰S da sutning laktodensimetrik darajalarida zichligi; 0,5 – tuzatma. Chunki MDH da 15/15⁰ dagi solishtirma og‘irligi o‘rniga d_4^{20} dagi zichligini aniqlash qabul qilingan.

Natijada quruq modda miqdori 0,5 ga kamayadi.

Misol: Yo = 4, $d_4^{20} = 1.030$ yoki laktodensimetrik darajalarida = 30.

$$X = (4 \cdot 4,9 + 3) / 4 + 0,5 = 12,9\%$$

5 – LABORATORIYA ISHI MARGARIN MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH.

Margarin sariyog‘ga o‘xshash yog‘ sifatida 1869 yilda fransuz kimyogari Mej-Mure tomonidan ishlab chiqarilgan. U eritilgan mol yog‘ining tez eriydigan qismini sigir oshqozonidagi zardob yordamida emulsiyalab, hosil bo‘lgan aralashmani o‘ta sovuq suvda sovutib, yarim qattiq, och sariq rangli, yaltiroq donachalar hosil qiladi. Mej-Mure ularni margarin deb atadi. (Margjaret – fransuzcha – marvarid). Moylarning oziga qiymati ularning energetik qiymati va fiziologik ta’siri orqali aniqlanadi. Margarin kishi organizmiga singishi jihatidan sariyog‘dan qolishmaydi va energetik qiymati jihatidan esa undan yuqori turadi.

Ma’lumki mayda zarrachali emulsiya holatidagi yog‘lar kishi organizmiga yaxshi singadi. Bunga yog‘larning suyuqlanish harorati ham ta’sir etadi. Shu sababli, margarin uchun ishlatiladigan yog‘larning suyuqlanish harorati 31-34⁰ C dan yuqori bo‘lmasligi kerak. Margarinda mavjud bo‘lgan essensial (to‘yinmagan) yog‘ kislotalari uning fiziologik qiymatini oshiradi. Hozirgi vaqtida, yog‘-moy sanoatida xilma-xil margarinlar, kulinar, qandolat va nonpazlik yog‘lari ishlab chiqariladi. Margarin, bu mayda zarrachali suv-yog‘ emulsiyasi bo‘lib, uning tarkibiga yog‘lar, o‘simlik moyi, sut, emulgatorlar, rang va hid beruvchi moddalar, tuz, shakar, vitaminlar kiradi. Sut margaringa tabiiy yoki achitilgan (qatiq) holida sariyog‘ga hos maza va hid berish uchun qo‘shiladi. Yana shu maqsadda turli hid beruvchi moddalar (aromatizatorlar), turg‘un emulsiya olish uchun MG, MGD, quruq sut kabi emulgatorlar ishlatiladi.

Margarin retsepturasiga, unga sariyog‘ rangini berish uchun ozuqaviy rangli moddalar, tuz va shakar esa maza berish uchun kiritiladi. Bundan tashqari tuz va shakar margarinni saqlash muddatini uzaytiradi.

Kulinar, qandolat va nonpazlik yog‘lari margarindan farq qilib, deyarli suvsiz bo‘ladi. Ularni tayyorlash uchun tozalangan va hidsizlantrilgan, gidrogenlangan moylar, hayvon yog‘lari va o‘simlik moylari ishlatiladi.

Margarin tarkibida 82% yog‘ bo‘lishi, namlik miqdori 16,5% dan oshmasligi, tuz 0,2-0,7%, Ketstorker darajalarida kislotaligi 2,5 mg KON dan oshmasligi kerak. Margarindan ajratilgan yog‘ning erish harorati 27-33° C, nikel miqdori juda kam (izlari ko‘rinishida) bo‘lishi kerak. Organoleptik ko‘rsatkichlarga ko‘ra margarin toza, mazali va xushbuy bo‘lishi, mazasi va xushbo‘yligi bilan sariyog‘ga o‘xhashi, konsistensiyasi bir jinsli va plastik bo‘lishi, rangi butun massa bo‘yicha bir xil bo‘lishi, bo‘yalgan margarin uchun – och sariq, bo‘yalmagani uchun oq bo‘lishi kerak.

Qovurishda margarin sachramasligi kerak. Margarinni analiz qilishda quyidagilarni aniqlash kerak: namlik miqdorini, kislotaligini, quruq modda miqdorini, yog‘ini va uning organoleptik ko‘rsatkichlarini.

MARGARINNING ANALIZI

Margarin analizi vaqtida uning namligi, kislota soni, quruq qoldiq miqdori, tuz va yog‘ miqdori, shuningdek organoleptik ko‘rsatgichlari hid, ta’m 18°C dagi konsistensiyasi va rangi aniqlanadi.

Margarin analizi uchun namunalar ishlab chiqarilayotgan har bir partiyadan olinadi. Yashiklardan (monolit) namuna shup bilan yashikning oldi devoridan solinib yon balandlikka parallel ravishda tiqib olinadi. Bochka yoki fenerli barabanlardan namuna shupni yon chetidan markazgacha tiqib olinadi. Agar margarin bo‘laklarda ishlab chiqarilayotgan bo‘lsa unda analizga ajratilgan bo‘laklarning qog‘ozi olinadi va qoq markazidan ikkiga bo‘linadi. Kesimning hamma yuza qismidan 50 g ga yaqin margarin namunasi olinadi. Olingan namunalar bankalarga joylashtiriladi va harorati 40-45°C bo‘lgan suv hammomiga solinadi. Margarin erib ketmasdan ma’lum bir harakatchanlikka ega bo‘lishi uchun uni har 2 min orasida aralashtirib turiladi. Margarin harakatchan bo‘lishi bilan banka suv ichidan olinadi va massa qotib qolguncha aralashtiriladi. Analiz uchun namuna shu qotib qolgan massadan olinadi.

5.1. NAMLIK MIQDORINI ANIQLASH

Namlikni massa ulushini ikkita usul bilan aniqlash mumkin: margarin namunasini quritish shkafida doimiy og‘irlikkacha quritish (arbitraj usuli); elektrplitada quritish (tezlashtirilgan usul). Operativ nazorat uchun ko‘pincha ikkinchi usuldan foydalaniladi.

Usul prinsipi. Usul, margarin namunasini 160-180°C haroratda quritishga asoslangan.

Reaktiv va asboblar: soat oynasi, qizdirilgan qum, tarozi, elektrisitgich, shisha tayoqcha, diametri 40-50 mm va balandligi 40-60 mm bo‘lgan metall byuks.

Ishning bajarilish. Quritilgan, shisha tayoqchali metall byuksga 10-15g qizdirilgan qum, 5-6 g margarin texnik tarozida tortib olinadi va elektrplitada 160-180°C haroratda shisha tayoqcha bilan uzlusiz aralashtirib turib qizdiriladi. Chirsillash tugagach, byuksni yuzi soat oynasi bilan yopiladi. Quritish jarayonini tugaganini soat oynasi xiralashmaslidigan va margarin rangini to‘q qizil rangga kirishidan bilinadi. Buning uchun soat oynasini har zamonda olib yuzasi (sirti) tekshiriladi.

Namlikni haydagach, byuks plitkadan olinadi, sovitiladi va tortiladi.

Namlikni massa ulushi (X) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X = (m_1 - m_2) \cdot 100/m,$$

bu yerda m_1 - margarinli byuksning quritguncha bo‘lgan og‘irligi, g; m_2 - margarinli byuksning quritgandan keyingi og‘irligi, g; m - namunani og‘irligi, g.

Parallel aniqlashdagi farq 0,2%dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

5.2. KISLOTALIGINI ANIQLASH

Kislotalik deganda, 100 g margarinni neytrallash uchun kerak bo‘lgan normal ishqor eritmasining millilitr miqdori tushuniladi. Margarin kislotaligi Ketstorker darajalarida hisoblanadi, u margarinning yog‘ va suv-sut fazasini umumiy kislotaligini xarakterlaydi.

Usul prinsipi. Usul erkin yog‘ kislotalari, oqsillar, nordonfosfor va nordon limon tuzlarini ishqor eritmasi bilan neytrallashga asoslangan.

Reaktiv va materiallar: dietil efiri va etil spirtini neytrallangan aralashmasi (2:1), fenolftaleinni 1%-li eritmasi, gidroksid kaliyni 0,1 n eritmasi; 100 ml li konussimon kolba.

Ishning bajarilishi. Hajmi 100 ml bo‘lgan kolbaga 5 g margarin tortib olinadi. Margarinni eritish uchun kolbani issiq suvda ozgina qizdiriladi, 20 ml spirt-efir aralashmasi, 3 tomchi 1% li fenolftalein eritmasi qo‘shiladi va KOH ning 0.1 n eritmasi bilan doimiy aralashtirilib, 1 minut davomida yo‘qolmaydigan pushti rang hosil bo‘lguncha titrlanadi.

Margarin kislotaligi Ketstorker darajalarida quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$X = 10 \cdot a/m$$

bu yerda $a = 0.1$ n KOH eritmasining titrlashga sarflangan millilitr miqdori, ml; R – margarin namunasini og‘irligi, g.

5.3. QURUQ QOLDIQ MIQDORINI ANIQLASH

Kerakli reaktiv va asboblar: petroleyni efiri, 200 ml li stakanlar, elektrisitgich, termostat, kolba, eksikator.

Ishning bajarilishi. Sig‘imi 200 ml li, oldindan quritilgan tayoqchali stakanga 3-4 g margarin joylanadi. Stakanni yopiq elektrisitgichga qo‘yiladi va uzlusiz aralashtiriladi. Namlikni yo‘qotilganini sovuq oynani yoki soat oynasi xiralashmaganidan aniqlanadi. Stakan devorlaridagi namlikni yo‘qotish uchun uni ko‘sishimcha yana 20 minut 100-105° C da termostatda quritiladi. Stakan sovitiladi va 50 ml petroleyni efiri stakan devorda qolgan yog‘ tomchilarini yuvib ketishi uchun devor bo‘ylab quyiladi, tayoqcha bilan yaxshilab aralashtiriladi, so‘ngra 20 minut tinch qo‘yiladi. Tindirilgan tiniq eritma asta-sekin kolbaga solinadi, bunda qoldiq ustida ozroq miqdorda efir qoldiriladi. Stakandagi qoldiq, efir bilan 3-4 marta yuviladi, har bir yuvishga 30 ml atrofida petroleyni efiri olinadi. Yuvishni filtr qog‘ozga efir tomizib bug‘langanda yog‘ izlari qolmasa to‘xtatiladi. Stakandagi yuvilgan cho‘kma termostatga joylanadi va 100-105° C da 1-1.5 soat davomida (doimiy og‘irlikkacha) quritiladi va ekstraktorida sovitilgach tortiladi.

Margarindagi quruq modda miqdori (Q) % da quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Q = (m_1 - m_2) 100 / m,$$

bu yerda m_1 – quruq qoldiqli va tayoqchali stakan og‘irligi, g; m_2 – tayoqchali stakan og‘irligi, g; m – margarin og‘irligi, g.

Yog‘ni massa ulushini hisoblash usuli bilan aniqlash.

Margarindagi yog‘ni protsent miqdorini (x) quyidagi formula bilan hisoblash mumkin:

$$X = 100 - (W + Q)$$

bu yerda W – margarindagi namlik miqdori, %; Q – margarindagi quruq modda miqdori, %.

6 - LABORATORIYA ISHI SOAPSTOKNING ANALIZI

Soapstok o‘simplik moylarini rafinatsiya qilishda hosil bo‘lib, rafinatsiya jarayonining chiqindisi hisoblanadi. Soapstokning tarkibi qaysi o‘simplik moyini rafinatsiya qilishga va moyni sifatiga bog‘liq. Soapstokning tarkibida 35-40% yog‘ kislotalarining natriyli tuzi-sovun bo‘lishi bilan bir qatorda, 10-20% neytral yog‘, 3-5% fosfatidlar, 2-3% gossipol va uning hosilalari, suv, erkin ishqor va boshqa yog‘ga hamrox moddalar bo‘ladi. Paxta moyini rafinatsiya qilganda hosil bo‘lgan soapstokning tarkibi boshqa o‘simplik moylaridan hosil bo‘lgan soapstoklardan boshqacharoq bo‘ladi. Chunki paxta moyida fosfatidlar, erkin yog‘ kislotalari bilan bir qatorda rang


beruvchi moddalar ya'ni gossipol va uning hosilalari bo'ladi. Soapstokni sifati rafinatsiya sexi ish faoliyatining asosiy ko'rsatgichlardan biri hisoblanadi. Soapstokda neytral yog'ni miqdori kam bo'lishi kerak, bu esa rafinatsiya sehiba tozalangan yog'ni nobudgorchilagini kamaytirishning asosiy omillaridan biridir.

6.1. SOAPSTOK YOG'LILIGINI ANIQLASH

Ishning maqsadi. Soapstokni yog'liliginin ya'ni uni tarkibidagi yog' kislotalari va neytral yog' miqdorini aniqlash, neytralizatsiya jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilar miqdorini hisoblash va uni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslash.

Reaktiv va asboblar: metiloranj, 10% li sulfat kislota, dietil efiri, Na_2SO_4 tuzi, 250 ml li konussimon kolba, ajratgich voronka, suv hammomi.

Ishning bajarilishi. Yaxshilab aralashtirilgan soapstokdan 5 g tortib olinib kolbagaga solinadi va uning ustiga 50 ml issiq suv qo'shiladi. Kolba ichidagi soapstok bilan issiq suv yaxshilab chayqatib aralashtirilgandan keyin uning ustiga 10% li sulfat kislotasi asta-sekin tomchilatib kislota muhitini hosil bo'lguncha quyiladi. Kislota muhitini bo'lishi metiloranj indikatori yordamida nazorat qilib turiladi. Natijada yog' kislotalarining natriyli tuzi sulfat kislotasi bilan reaksiyaga kirishib yog' kislotasini hosil qiladi:



Kolba ichidagi moddalarini qaynab turgan suv hammomida qizdiriladi. Qizdirish jarayoni yog' kislotalarini va neytral yog'ning to'la ajralguncha davom ettiriladi. Yog' kislotasi bilan neytral yog'ning aralashmasi tiniq holatga o'tganligi, ularni to'liq hosil bo'lganligidan dalolat beradi. Keyin kolba ichidagi aralashma sovitiladi. Kolbagaga 25 ml dietil efiri quyilib, yog' kislotasi bilan neytral yog' to'liq eriguncha aralashtiriladi. Kolba ichidagi barcha aralashma hajmi 500 ml bo'lgan ajratuvchi varonkaga quyiladi va 10-20 min davomida tindiriladi. Natijada ikkita qatlama hosil bo'ladi. Yuqorigi qatlamda dietil efirida erigan yog' kislotasi bilan neytral yog' bo'lsa, pastki qatlamda suv yig'iladi. Suv qatlamini soapstokni parchalashda ishlatilgan kolbagaga quyiladi, efir qatlami esa 250 ml li toza kolbagaga quyib olinadi. Kolba ichidagi suv ustiga yana 25 ml dietil efiri quyiladi, yaxshilab aralashtirilgandan keyin bo'shagan ajratgich voronkaga solinadi va 10-15 min tindiriladi. Hosil bo'lgan suv qatlamini ishlatilgan kolbagaga tushiriladi, efir qatlamini esa efir yig'ilayotgan kolbagaga quyiladi. Kolbadagi suvli aralashmadan yog' kislotasi bilan neytral yog'ni efir yordamida to'liq ajratib olguncha shu jarayon qaytariladi. Odatda tajribani oxiriga yetkazish uchun 3-4 marta 25 ml dan dietil efiri sarflanadi. Barcha yig'ilgan efir aralashmasi ajratgich voronkaga quyilib, neytral reaksiyagacha suv bilan yuviladi va yuvilgan suv metiloranj bilan tekshiriladi. Yuvilgan efir aralashmasi toza 250 ml li kolbagaga quyilib, uning ustiga sulfat natriydan (Na_2SO_4) oz miqdorda solinib yaxshilab aralashtiriladi, natijada tiniq efir aralashmasi hosil bo'ladi. Kolbadagi sulfat natriyni filrlash yordamida efir aralashmasidan ajratib olinadi. Buning uchun toza, tortilgan 250 ml li sayqalli kolbagaga filrlanadi. Natriy sulfat qoldig'i va filtr qog'ozni dietil efiri bilan to'liq yuviladi.

Neytral yog' va yog' kislotasi aralashmasidan efir sovitkich va suv hammomi yordamida uchiriladi. Kolbada qolgan yog' kislotasi bilan neytral yog' aralashmasi quritish shkafida $75-80^{\circ}\text{C}$ da quritiladi. Quritish jarayoni kolbadagi aralashmaning og'irligi bir xil bo'lguncha davom ettiriladi.

Soapstok yog'liligi (%da) quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$\text{C}_{\text{yo}} = \frac{m_1 \cdot 100}{m},$$

bu yerda m_1 -yog' kislotalari va neytral yog' miqdori, g; m-analizga olingan soapstok miqdori, g;

6.2. YOG‘ KISLOTALA MIQDORINI ANIQLASH

Reaktivlar: dietil efiri bilan etil spirtining 2:1 nisbatdagi neytrallangan aralashmasi, kaliy gidroksidning 0,5 n spirtli eritmasi, fenolftaleinning 1%-li spirtli eritmasi.

Ishning bajarilishi: Soapstok yog‘liligini aniqlash jarayonida olingan yog‘ kislotsasi bilan neytral yog‘ aralashmasini 50 ml neytrallangan dietil efiri bilan etil spirtining 2:1 nisbatdagi aralashmasida eritilib, 0,5n kaliy gidroksidning spirthi eritmasi bilan fenolftalein ishtirokida titrlanadi.

Titrlash jarayoni eritmada hosil bo‘lgan 1 min davomida o‘chmaydigan pushti rangni hosil qilguncha davom ettiriladi.

Soapstokdagi yog‘ kislotalarining massa ulushi (% da) quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$YOQ = V \cdot K \cdot 0,141 \cdot 100/m_1$$

bu yerda V -titrlashga sarf bo‘lgan 0,5 n kaliy gidroksid eritmasining hajmi, ml; K -0,5 n ishqor eritmasi titriga tuzatma; R -analizga olingan yog‘ kislotsasi bilan neytral yog‘ aralashmasining miqdori, g; 0,141–olein kislotsiga nisbatan 0,5 n NaOH eritmasining titri, g/ml.

6.3. NEYTRAL YOG‘ MIQDORINI ANIQLASH

Soapstok tarkibidagi neytral yog‘ning miqdorini (NYo) aniqlash uchun topilgan umumiy yog‘ (S_{yo}) miqdoridan yog‘ kislotalarining (YOK) miqdorini chegirib tashlanadi.

$$NYo = Syo - YOK$$

Formulani keltirib chiqarish

Soapstok lipidlarini kislota soni K.S (mg. KONda) quyidagiga teng:

$$K.S. = 28,06 \cdot V \cdot K / m_1$$

bu yerda 28,06 — 0,5 n. KOH ni titri, g/ml; V -0,5 n ishqor eritmasining miqdori, ml; K — 0,5n. ishqor eritmasi titriga tuzatma; m_1 — soapstok lipidlarini massasi, g;

Yog‘ kislotalar miqdori O_L (olein kislotsiga nisbatan % da)

$$O_L = K.S. \cdot 0,503 \quad (1)$$

(1) formulaga K.S. ni qiymatini qo‘ysak, quyidagi formula hosil bo‘ladi:

$$O_L = 28,06 \cdot V \cdot K \cdot 0,503 / m_1 = 14,1 \cdot V \cdot K / m_1$$

bu yerda m_1 - soapstok lipidlarini miqdori, g;

Erkin yog‘ kislotalar miqdori YOK (%da) soapstok massasiga nisbatan quyidagiga teng:

$$YOK = Syo \cdot O_L / 100 \quad (2)$$

O_L va YOK qiymatlarini (2) ni formulaga qo‘ysak, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$YOK = (14,1 \cdot V \cdot K / m_1) \cdot (m_1 \cdot 100 / m) / 100 \text{ yoki}$$

$$YOK = 0,141 \cdot V \cdot K \cdot 100 / m$$




NYo va YOK nisbati NYo:YOQ quyidagicha aniqlanadi:


$$(NYo/NYo) : (YOK/NYo) = 1 : (YOK/NYo)$$

7 – LABORATORIYA ISHI SOVUN ISHLAB CHIQARISH

Sovun bu yuqori molekulalari yog‘ va naften kislotalarining tuzlaridir. Yuvinish va kir yuvish uchun ishlatiladigan sovun 10 dan 20 gacha uglerod atomidan tashkil topgan yog‘ kislotalarining natriyli va kaliyli tuzlaridan iborat. Tarkibida uglerod atomi 10 dan kam bo‘lgan yog‘ kislotalaridan olingan sovunlar yuvish qobiliyatiga ega emas.

Sovun, yog‘ kislotalarini o‘yuvchi va karbonatli ishqorlar bilan neytrallash natijasida hosil bo‘ladi.





Sovunlanish jarayonini olib borish vaqtida ishqor miqdori nazariy hisoblab olinganiga nisbatan biroz ko'proq bo'lishi kerak. Agar sovunlash jarayonida ishqor yetishmay qolsa, suvda yomon eriydigan nordon sovun hosil bo'lishi mumkin.



Covunlanish jarayonida qatnashayotgan yog' kislotalari va ishqorlarning turiga qarab, olingan sovunlar qattiq va yumshoq bo'lishi mumkin. To'yingan yog' kislotalaridan qattiq, to'yinmagan yog' kislotalaridan yumshoq sovun hosil bo'ladi. Bundan tashqari natriyli sovunga nisbatan kaliyli sovun yumshoq bo'ladi va suvda yaxshi eriydi, ammo yuvinish jarayonida uni sarfi ko'proq bo'ladi.

Yog'-moy korxonalari ishlab chiqarayotgan sovunlar 3 turga bo'linadi:

1) xo'jalik sovunlari, turli mato va buyumlarni yuvish uchun; 2) atir sovunlari, asosan, yuvinish uchun; 3) sanoat extiyoji uchun va maxsus sovunlar. Xo'jalik sovunlari tarkibida 60, 72 %, atir sovunda 73-80 % yog' kislotalari bo'ladi.

Hozirgi vaqtida yog'-moy korxonalarida asosan xo'jalik va atir sovun ishlab chiqariladi.

Kam hollarda kukunsimon, pastasimon va suyuq sovunlar ishlab chiqariladi.

Qattiq sovun ishlab chiqarish 2 etapdan iborat:

1. Sovunning konsentrangan massasini tayyorlash (sovunli yelim, atir sovun uchun asos).
2. Massaga tovar formasini berish (mexanik ishlov).

7.1. SOVUN RETSEPTURASINI TUZISH

Sovunning yog' xomashyo retsepturasiga, uning fizik-kimyoviy xususiyati, tannarxi, tayyorlash texnologiyasi bog'liq bo'ladi. Shuning uchun retseptura tuzish, sifatli sovun ishlab chiqarishning muhim elementi hisoblanadi.

Retseptura tuzganda turli yog'lardan shunday yog'larni tanlab olish, kerakki, sovun qattiq va qayishqoq, suvda yaxshi eriydigan, kam sarflanadigan va yaxshi yuvish qobiliyatiga ega bo'lsin.

Atir sovun, odatda sovuq yoki iliq suvda ishlatilgani uchun, uning tarkibida sovuni suvda yaxshi eriydigan, C₁₂ – C₁₆ yog' kislotalari bo'lishi kerak. Shu maqsadda atir sovun retsepturasiga kokos yog'i va sintetik yog' kislotalarini obdon tozalangan C₁₀ – C₁₆ fraksiyasi kiritiladi.

Sovunning qattiqligi retsepturaga kirgan yog' kislotalarining titriga bog'liq. Sovundan ajratib olingan yog' kislotalarining titri 35-42 °C atrofida bo'lishi kerak. Retsepturaga kiritilgan yog' kislotalarining o'rtacha titrini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalilanildi.

$$T_{yo.k.} = t_1 \cdot C_1 + t_2 \cdot C_2 + t_3 \cdot C_3 + \dots / 100$$

bu yerda: Tyo.k. – yog' kislotali aralashmaning titri, °C; t₁, t₂, t₃ – retsepturaga kiritilgan yog' kislotalarning titri, °C; C₁, C₂, C₃ – retsepturaga kiritilgan yog' kislotalarning miqdori, %.

Yog'li aralashmani sovunlanish soni quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$Cc.yo.= Cc_1 \cdot C_1 + Cc_2 \cdot C_2 + Cc_3 \cdot C_3 + \dots / 100$$

bu yerda: Cc.yo. – yog'li aralashmaning sovunlanish soni; Cc₁, Cc₂, Cc₃ – retsepturaga kiritilgan yog' larning sovunlanish soni; C₁, C₂, C₃ – retsepturaga kiritilgan yog' larning miqdori, %.

Yog‘ va moylarning ko‘rsatkichlari

Yog‘ va moylar	O‘rtacha qiymati	
	Titr, °C	Sovunlanish soni
Mol yog‘i	48	196
Qo‘y yog‘i	45	198
Paxta moyi	5	195
Kungaboqar moyi	-	190
Salomas	48	194
Kokos yog‘i	22	260

7.2. ISHQOR SARFINI HISOBBLASH

1 kg yog‘li aralashmani sovunlash uchun zarur bo‘lgan ishqorning nazariy miqdori, yog‘li aralashmani sovunlanish soni asosida quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$U = \frac{Cc \cdot \ddot{e} \cdot a \cdot 40}{56 \cdot 1}$$

bu yerda: U – ishqor sarfi, g/kg; Ss.yo.a – yog‘li aralashmani sovunlanish soni; 40 - natriy gidroksidni molekulyar og‘irligi; 56.1 – kaliy gidroksidni molekulyar ogirligi.

Sovunda qoladigan ozod ishqor miqdorini nazarda tutib, yuqoridagi formula bilan hisoblab topilgan ishqorga (3 g/kg) miqdorida ko‘shimcha olinadi.

Sovun pishirish uchun zarur bo‘lgan quruq ishqor miqdorini hisoblab topilgach, konsentratsiyasi 25-40 % oraligidagi ishqor eritmasi tayyorlanadi.

Masalan: Retsepturasi, salomas – 80 %, paxta moyi – 20 % bo‘lgan, 200 g 60 % li xo‘jalik sovunini pishirish zarur bo‘lsin.

Yog‘ kislota sarfini aniqlaymiz:

$$X\ddot{e} \cdot K. = \frac{60 \cdot 200}{100} = 120 \varepsilon$$

Neytral yog‘ miqdorini aniqlaymiz:

$$XH \cdot \ddot{e}. = \frac{120}{0.95} = 126 \varepsilon$$

Shu jumladan:

$$Xc = \frac{126 \cdot 80}{100} = 100.8 \varepsilon$$

$$\text{Paxta moyi: } Xn.M. = \frac{126 \cdot 20}{100} = 25.2 \varepsilon$$

bu yerda: 0.95 – neytral yog‘ga o‘tish koeffitsienti,
Yog‘li aralashmani sovunlanish sonini hisoblaymiz

$$Cc \cdot \ddot{e} \cdot a = \frac{194 \cdot 80 + 195 \cdot 20}{100} = 194.2$$

Sovunlanish soni 194,2 ga teng bo‘lgan 1 kg yog‘li aralashmani sovunlash uchun zarur bo‘lgan ishqor miqdori

$$U = \frac{194.2 \cdot 40}{56/1} = 138.5 \varepsilon / \kappa \varepsilon$$

126 g yog‘li aralashmani sovunlash uchun esa, ko‘shimcha miqdor bilan

$$U = \frac{138.5 \cdot 126 \cdot 1.03}{100} = 18.0 \varepsilon$$

bu yerda: 1.03 – ko'shimcha miqdor, 0.3 %

Shu miqdordagi quruq ishqordan 25% li eritma tayyorlaymiz. Eritmaning miqdori:

$$\frac{18.0 \cdot 100}{25} = 72.0 \text{ bo'ladi.}$$

7.3. SOVUN PISHIRISH

Sovun tayyorlash jarayoni ikki bosqichdan tashkil topadi. Birinchi bosqich retsepturaga kirgan yog' kislotalarining aralashmasini ishqor eritmasi bilan aralashtirib, yog' kislotalarining natriyli tuzi olinadi. Bu jarayonni sovun pishirish deb ataladi.

Ikkinci bosqich esa pishirilgansovunga har xil ko'shimchalar ko'shish va unga tovar ko'rinishini berish. Pishirilgansovunga tovar ko'rinishini berish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi: pishirilgansovunni sovitish, quritish, sovunni bo'lakchalarga bo'lismash. Yashiklarga tayyor sovunlarni joylashtirish.

Sovun neytral yog'dan tayyorlansa sovunlash jarayoni o'yuvchi natriy ishqori bilan olib beriladi. Agar sovun yog' kislotalarining aralashmasi asosida tayyorlansa, u vaqtida sovunlanish jarayoni oldin karbonat natriy yordamida olib beriladi va keyin natriy gidroksid yordamida davom ettiriladi. Sovun pishirish jarayonining tezligi shu jarayonning olib borishdagi haroratga, natriy ishqorining konsentratsiyasiga va sovun pishirish uskunasining bosimiga bog'liqidir. Sovunlashda qo'llanadigan natriy ishqorining konsentratsiyasi, sovunlanish jarayonining harorati va bosimi yuqori bo'lsa, sovunlanish jarayoni tezlashadi va vaqt qisqaradi.

Reaktiv va asboblar: 25% li natriy gidroksid eritmasi, osh tuzi va fenolftalein eritmalar, chinni stakan, arlashtirgich, elektrisitgich.

Ishning bajarilishi. Sovun pishirish jarayonini boshlashdan oldin yog' kislota yoki neytral yog'larni va natriy gidroksidi miqdorini hisoblab, olish kerak. Sovun pishirishni boshlash uchun retseptura buyicha mo'ljallangan yog'larni tortib olib, uni sovun tayyorlaydigan idishga solinadi va uni aralashtirib turib 70-80°C gacha qizdiriladi. Keyin hisoblangan miqdordagi ishqor eritmasidan, asta sekin, oz-ozdan qo'shib meshalka harakatini minutiga 50-60 aylanishga yetkaziladi. Sovun pishirish jarayonini olib borish vaqtida har bir soatda ishqor qoldig'i tekshirilib turiladi. Reaksiyon idishdagi ishqor qoldig'ini tekshirish uchun pishirilayotgan sovundan olib, uning yuzasiga 1 tomchi fenolftalein tomizgan vaqtimizda pushti rang bermasa, u vaqtida sovun tarkibidagi ishqor miqdori 0,1% dan kam bo'ladi, agar ishqor miqdori 0,1% dan ko'proq bo'lsa, pushti rang beradi. Agar sovun tarkibidagi ishqor miqdori 0,3% ni tashkil qilsa, u vaqtida tiniq qizil rang beradi. Agar sovun pishirish jarayoni shundan keyin 15 min davom ettirilsa unga yana fenolftalein tomizgan vaqtimizda sovun tarkibidagi ishqor miqdori o'zgarmasa, bu sovun pishirish jarayonini oxiriga yetkanligidan dalolat beradi. Sovun pishirishni olib borayotgan vaqtimizda, kuchli quyilish sodir bo'lsa, sovun tarkibiga 20% li osh tuzi eritmasidan sovun massasiga nisbatan 0,5% miqdorida qo'shiladi. Sovun pishirish 100-105°C da 6-8 soat davom etadi. Sovun pishirish tugagandan keyin uning tarkibidagi yog' kislotalarining va ozod ishqor eritmasining miqdori aniqlanadi.

“YOG’LARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI” **fanidan mustaqil ishni tashkil qilish**

Talabalarning fan bo'yicha mustaqil ishlashi reyting jadvaliga muvofiq nazariy mashg'ulotlar bo'yicha, ikkita oraliq baholash nazorati muddati ichida, birinchi va ikkinchi mustaqil oraliq ishlari referatlar, hamda mustaqil ishning joriy nazorati topshirilishi rejalashtirildi.

Talabalar referatlar mavzularini referatlar mavzulari ro'yxatidan reyting daftarchalari raqamining oxirgi soniga mos ravishda oladilar.

Masalan, reyting daftarchasining raqami № 746 - 06 bo'lsa, talaba oxirgi **6** raqamiga mos birinchi va ikkinchi mustaqil ishi (**6. Ishlatilgan katalizatordan metallarni ajratib olish; 6. Yog'larni pereeterifikasiyasini**) mavzularini oladi.

1 – Oraliq mustaqil ish referatlar mavzulari

1. Makkajo'hori, indov va kastor moylarini rafinasiyalash texnologiyasi
2. Missellada ishqoriy rafinasiya
3. Paxta moyidan gossipolni ajratib olish
4. Oqllovchi tuproqlarni aktivlashtirish va ishlatilgan tuproqdan moylarni ajratib olish usullari
5. Gidrogenlashda selektivlikni miqdoriy baholash
- 6. Ishlatilgan katalizatorдан metallarni ajratib olish**
7. Rafinasiyaning zamonaviy usullari
8. Samarador katalizator ishlab chiqarish texnologiyasi
9. Zamonaviy gidrogenlash katalizatorlar ishlab chiqarish texnologiyasi
10. Tiklangan katalizatorni passivlashdan himoyalash

2 – Oraliq mustaqil ish referatlar mavzulari

1. Soapstokdan gliserinni ajaratib olish
2. Sintetik gliserin ishlab chiqarish
3. Yog' kislotalarni rektifikasiyalash texnologiyasi
4. Kukunsimon sovun ishlab chiqarish texnologiyasi
5. Yog' kislotalarini ajratib olish zamonaviy usullari
- 6. Yog'larni pereeterifikasiyasini**
7. Atir sovunning har xil turlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
8. Sovunni oqartirish usullari
9. Suyuq yuvish vositalari ishlab chiqarish texnologiyasi
10. Emulgatorlar T-1; T-F ishlab chiqarish

GLOSSARY

O'simlik moylari	Растительные масла	Vegetable oils	o'simlik yoki uning urug'idan ajratib olingan moy
Moyning kislota soni	Кислотное число масел	Acid number of oils	1 g moydagi erkin yog' kislotalarini neytrallashga sarflangan KOH ning mg miqdoriga kislota soni deyiladi. Moyning kislotalilik muhitining darajasini ifodalarydi.
Mag'iz	Ядро	Kernel of oil-bearing crops	moyli urug' mag'iz va qiboqdan tashkil topgan bo'ladi. Moy va oqsil asosan mag'izda saqlanadi.
Maxsar	Сафлор	Safflower	Respublikamizdagи noan'anaviy moyli urug'lardan biri bo'lib, tarkibida 20-40% moy mavjud. Moyi kungaboqar moyiga o'xshash. Tarkibida taxir maza beruvchi o'ziga xos moddalar saqlaydi.
Kungaboqar	Подсолнечник	Sunflower	Respublikamizdagи noan'anaviy moyli urug'lardan biri bo'lib, tarkibida 20-40% moy mavjud. Asosan sovuq iqlimli joylarda sermoysi bo'ladi.
Gliserin	Глицерин	Glyceroll	uchatomli spirit bo'lib, yog' va moylarni parchalash yo'li bilan tabiiy gliserin olinadi. Rangsiz, xidsiz va shirin ta'mga ega suyuqlik

Kunjut	Кунжут	Sesame	tarkibida 60% gacha moy, Ye vitamini, faktor — T, sezamin, sezamon, sezamanin va boshqa moddalar bo'ladi. Kunjut moyi 3—6°S temperaturada qotadigan sariq rangdagi suyuqlik bo'lib, yarim quruvchi moylarga kiradi.
Och rangli moylar	Светлые масла	Light oils	rangi tiniq va tarkibidagi o'zgarishlarni ko'rish mumkin bo'lgan moylar. Lovibond rang o'lchagichida 13 sm li kyuyetada yoki maxsus etalonlarda rangi o'lchanadi.
To'q rangli moylar	Тёмные масла	Dark oils	rangi to' va tarkibidagi o'zgarishlarni ko'rish mumkin bo'lmanган moylar. Lovibond rang o'lchagichida 1 sm li kyuyetada yoki maxsus etalonlarda rangi o'lchanadi.
Dezodorasiya	Дезодорация	Deodorization	moydagи noxush hid va ta'm beruvchi moddalarni yuqori haroratda ishlov berish(uchirish) yo'li bilan yo'qotish jarayoni.
Fraksiya	Фракция	Fraction	moddalarni o'lchami, zichligi, qovushqoqligi va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha ajratish.
Gidratusiya	Гидратация	Degumming	moga suv bilan ishlov berib, tarkibidagi fosfolipidlarni ajratish jarayoni

Gidrogenizasiya	Гидрогенизация	Hydrogenation	to'yinmagan (qo'shbog'li) birikmalarni vodorod bilan to'yintirish jarayoni. To'yinmagan yog' kislotlarni vodorod bilan to'yintirib to'yingan yog' kislotalari olinadi.
Ekstraksiya	Экстракция	Extraction	moyli urug' yoki kunjara tarkibidagi moyni erituvchi yordamida eritib ajratib olish jarayoni
Presslash	Прессование	Pressing	maxsus presslar yordamida moyli material tarkibidagi moyni yuqori bosimda siqib ajratib olish jarayoni
Moyni rafinasiyalash	Рафинация масел	Oil refining	moyni tarkibidagi yot moddalardan tozalash jarayoni
To'yingan yog' kislotalar	Нас. Жирные кислот	Saturated fatty acids	tarkibida qo'shbog' saqlamaydigan, radikali alkanlardan iborat yog' kislotalari
To'yinmagan yog' kislotalar	Не нас.жирные кислот	Nonsaturated fatty acids	tarkibida qo'shbog' mavjud bo'lgan, radikali alken yoki alkinlardan iborat yog' kislotalari
Gossipol	Госсипол	Gossypol	paxta moyiga spesifik modda bo'lib, unga to'q jigarrang yoki qora rang beradi. Zaxarli modda
Karotinoidlar	Каротиноиды	Carotenoid	moyga sariq yoki qizil rang beradigan modda.
Tokoferoll	Токоферолл	Tocopherol	moydag'i tabiiy antioksidang modda bo'lib, vitamin Ye deb ham ataladi.
Yog'ning chaqnash xarorati	Тем. Вспышки масел	Temperature of flash of oils	ekstraksiya usulida olingen moylardagi qoldiq erituvchi miqdorini xarakterlaydi. Standart bo'yicha uning qiymati 225 °S dan yuqori bo'lishi kerak.

Fosfatidlar	Фосфатиды	Phosphatides	tarkibida fosforli birikmalar saqlovchi lipidlar bo'lib, moyni gidratlash jarayonida ajratib olinadi.
Ishqoriy rafinasiya	Шелочная рафинация	Alkaline refining	moydagi hamroh moddalarni ishqor yordamida yo'qotish jarayoni
Linol kislotasi	Линолевая кислота	Linoleic acid	tarkibida ikkita qo'shbog' mavjud bo'lgan to'yinmagan yog' kislotasi
Missella	Мисцелла	Micella	ekstraksiya jarayonida hosil bo'ladigan moy bilan erituvchining aralashmasi.
Paxta shroti	Хлопковый шрот	Cotton meal	paxta kunjarasini ekstraksiyalab moyi olingandan keyin qoladigan yog'siz mahsulot
Soapstok	Соапсток	Soapstock	moyni ishqoriy rafinasiyalashda hosil bo'ladigan chiqindi
Salomas	Саломас	Hydrogenated fat	moylarni gidrogenlashda hosil bo'lgan qattiq yoki malxamsimon yog'
Margarin	Маргарин	Margarine	sariyog'ga o'xshash mahsulot bo'lib, yog' va suvning emulmiyasi va unda erigan bir necha moddalardan tashkil topgan.
Sovun	Мыло	Soap	yog' va naften kislotalarining ishqoriy metallar bilan hosil qilgan tuzlaridir. Yuvush vositasi bo'lib, sirt aktiv modda hisoblanadi.
Adsorbsion oqlash	Адсорбционная отбелка	The adsorptive bleaching	moydagi rang beruvchi moddalarni adsorbentlar yordamida tozalab, moy rangini ochartirish

Qadoqlash	Фасовка	Packaging	mahsulotlarni maxsus idishlarga quyish, qopqoqvsh va etiketkalash jarayonilari majmuasi
Gaz-suyuq xromatografiya	Газо-жидкостная хроматография	Gas-liquid chromatography	modda tarkibidagi elementlarni(komponent larni) maxsus gaz-suyuqlik xromatograflarida tahlil qilish va o'rganish
Refraktometr	Рефрактометр	Refractometer	moddalarni nur sindirish ko'rsatkichlarini o'lchaydigan asbob
Regenerasiya	Регенерация	Regeneration	moddani qayta tiklash va qo'llash jarayoni. Masalan katalizatorni regenerasiyalash deganda uni qaytadan aktivlashtirish va qo'llash tushuniladi.
Distillyasiya	Дистилляция	Distillation	suyuqlarni xaydash, bug'latish, so'ng sovutib kondensatlash jarayoni
Rekuperasiya	Рекуперация	Recuperation	moddalarni bir qismini yoki barchasini qaytadan ishlatish uchun yig'ib olish
Olein kislotasi	Олеиновая кислота	Oleic acid	tarkibida bitta qo'shbog' mavjud bo'lgan to'yinmagan yog' kislotasi
Linolen kislota	Линоленовая кислота	Linolenic acid	tarkibida uchta qo'shbog' mavjud bo'lgan to'yinmagan yog' kislotasi
Yod soni	Йодное число	Iodine value	moylarni to'yinmaganlik darajasini xarakterlovchi kattalik. To'yinmagan yog' kislotalarining yod soni katta bo'ladi.

Sterol	Стерол	Sterols	yuqori molekulyar spirtlar hisoblanadi. Xolesterin sterol xisoblanadi va asosan hayvon yog'larida bo'ladi.
Efir	Эфир	Ester	spirtlarning o'zaro yoki organik va mineral kislotalar bilan hosil qilgan birikmalari. Yog' murakkab efir sanaladi.
Mum	Воск	Wax	yuqori molekulyar spirtlarning(asosan bir atomli) yog' kislotalari bilan hosil qilgan efirlari
Shulxa	Шелуха	Hull	paxta chigiti qobig'i bo'lib chaqish jarayonida hosil bo'ladi.
Neytrallash	Нейтрализация	Neutralization	moy tarkibidagi erkin yog' kislotalarini ishqor bilan neytral muhitga keltirish
Zaxarli modda	Яды	Poison	katalizator va adsorbentlar aktivligiga salbiy ta'sir etuvchi mollar, moydagi hamroh moddalar shular jumlasidan
Peroksid	Пероксид	Peroxide	moylardagi birlamchi oksidlanish mahsulotlari
Adsorbent	Адсорбент	Adsorbent	moylarni oqlashda ishlatiladigan sorbent
Bo'yovchi modda	Пигмент	Pigment	moga rang beruvchi hamroh modda
Oqlovchi tuproq	Отбелная глина	Bleaching earth	moylarni oqlashda ishlatiladagan g'ovak yuzali muxsus tuproq
Muzlatish	Винтеризация	Winterization	moyni minus haroratlarda sovutish
Aralashtirish	Перемешивание	Agitation	moddalarni o'zaro aytanma harakat ta'sirida qorishtirish
Stearin	Стеарин	Stearin	tarkibida 18 ta uglerod bo'lgan to'yingan yog' kislotosi

Modifikasiya	Модификация	Modification	moy agregat xolatini o'zgartirish
Erish harorati	Точка плавление	Melting point	moyning harorat ta'sirida suyuq holatga o'tish harorati
Katalizator	Катализатор	Catalyst	reaksiyani tezlashtiruvchi modda
Palmitin kitslotasi	Пальмитиновая кислота	Palmitic acid	tarkibida 16 ta uglerod bo'lgan to'yangan yog' kislotasi
Selektivlik	Селективность	Selectivity	tanlab to'yintirish
Vodorod	Водород	Hydrogen	rangsiz xidsiz eng yengil gaz
Pereeterifikasiya	Переэтерификация	Interestesterification	trigliseriddagi yog' kislotasi asosini o'zar o'rinn almashtirish orqali modifikasiyalash
Triglycerid	Триглицерид	Triacylglycerol	gliserin va yog' kislotlari qoldiqlaridan tashkil topgan murakkab efir
Izomerlanish	Изомеризация	Isomerization	yog' kislotlarini izomerlar hosil qilishi
Moy	Масло	Oil	suyuq lipidlar bo'lib asosan o'simliklardan olinadi
Yog'	Жир	Fat	qattiq lipidlpr bo'lib, asosan hayvonlardan olinadi
Mayonez	Майонез	Mayonnaise	sous bo'lib, moy bilan suvning emulsiyasidan va qo'shimcha moddalardan tashkil topgan
Ta'm	Вкус	Flavor	moddaning mazasi
Xid	Запах	Odor	moddaning nafas olish azolariga o'ziga xos ta'siri
Salat moyi	Салатного масло	Salad oil	fraksiyalash orqali olingan va to'yinmagan yog' kislotalari trigliseridlaridan iborat moy
Peroksid soni	Пероксидное число	Peroxide value	moydagi perekisdilar miqdorini xarakterlaydi

Spred	Спред	Spread	yog'liligi kam bo'lgan margarin
Emulsiya	Эмульсия	Emulsion	ikkita o'zaro aralashmaydigan suyuqliklarning emulgator yordamidagi qorishmasi
Yeryong'oq moyi	Арахисовое масло	Peanut oil	yeryong'oq mag'zidan olingan moy
Antioksidant	Антиоксидант	Antioxidant	moddalarni oksidlanishini susaytiruvchi moddalar
Makkajo'xori moyi	Кукурузное масло	Corn oil	makkajo'xori murtagidan olingan moy
Zaytun moyi	Оливковое масло	Olive oil	zaytun mevasidan olinadigan moy
Namlik	Влажность	Moisture	modda tarkibidagi suv miqdori
Sovunlanmaydi gan modda	Неомыляемого веществ	Unsaponifiable material	ishqor bilan ta'sirlashganda sovun hosil bo'lmaydigan moddalar
Xolesterin	Холестерин	Cholesterol	yuqori molekulyar bir atomli spirtlarning yog' kislotalari bilan hosil qilgan efiri
Miristin kislotasi	Миристиновая кислота	Myristic acid	tarkibidagi uglerod soni 14 ta bo'lgan to'yigan yog' kislotasi
Qora moy	Черная масла	Crude oils	rafinasiyalanmagan moy
Quritish	Сушка	Drying	modda tarkibidagi namlikni yo'qotish
Tozalash	Очистка	Cleaning	begona aralashmalarni yo'otish

ILLOVALAR

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi:

№ 50 - 5111000 - 4.02
2015 yil 16.07



Oliy va o'rta mahsus ta'lism vazirligining 2015 yil
“26” 08 dagi “30”3 sonli
buyrug'i bilan tasdiqlangan

YOG'LARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI

FANINING

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar soha
 300000 - Ishlab chiqarish - texnik soha

Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika
 320000 - Ishlab chiqarish texnologiyalari

Ta'lim yo'nalishi 5111000 - Kasb ta'limi (5321000 - Oziq-ovqat texnologiyasi)
 5321000 - Oziq-ovqat texnologiyasi (yog'-moy mahsulotlari)

TOSHKENT – 2015

Fanning o‘quv dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb–hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2015 yil “16” 07 dagi “4” - son majlis bayoni bilan ma’qullangan.

Fanning o‘quv dasturi Toshkent kimyo - texnologiya institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

- Qodirov Y.Q. “Oziq-ovqat maxsulotlari texnologiyasi” kafedrasи professori, t.f.d.
Ro’ziboyev A.T. “Oziq-ovqat maxsulotlari texnologiyasi” kafedrasи dosenti, t.f.n.

Taqrizchilar:

- G’aniyev A. -“Yog’-moy va oziq-ovqat sanoati” uyushmasi etakchi mutaxassis
Ibragimov A. “Oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasи katta o’qituvchisi

Fanning o‘quv dasturi Toshkent kimyo-texnologiya instituti Ilmiy–uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2014 yil “28” 12 dagi “2” - sonli bayonnomma)

KIRISH

“Yog’larni qayta ishlash texnologiyasi” fani yog’ va moylarni rafinatsiyalash, moylarni gigrogenlash, margarin, mayonez,sovun, yog’ kislotalari olishning nazariy asoslari va texnologiyalarini o’z ichiga oladi. Ushbu tavsiya etilayotgan dasturda texnologik jarayonlarni va ularning nazariy asoslari, texnologik rejimlarini taxlil qilish va mahsulotlarning sifatini boshqarish asoslari, yog’larni qayta ishlashda xom ashyo, chiqindi, oraliq va tayyor mahsulotlarning taxlil qilish usullari keltirilgan.

Fanning maqsad va vazifalari

Ta’lim maqsadi davr bilan, ijtimoiy hayot bilan uzviy bog‘liq. Ijtimoiy hayotdagi tub burilishlar, fanning intensiv rivojlanishi, ta’lim modernizatsiyasi, yangi didaktik imkoniyatlar, insonparvarlashtirish shubhasiz ta’lim maqsadini ham tubdan o‘zgartirdi. Ta’lim maqsadining tubdan o‘zgarishi ta’lim mazmunida o‘z ifodasini topadi. “Yog’larni qayta ishlash texnologiyasi” fani mazmuniga yog’larni qayta ishlash korxonalarida moyli xom-ashyolarini qabul qilib omborlarga joylashtirish va ularni qayta ishlab to tayyor mahsulot xoliga keltirib, iste’molchilarga realizatsiya qilishgacha bo’lgan jarayonning tehnologiyasi va jarayonlar va xom – ashyo hamda mahsulot hisob-kitoblarni to‘g’ri olib borish kabi bo‘limlari kiritilgan.

Fanni o‘qitishdan maqsad – yog’larni qayta ishlash texnologiyasida qo’llaniladigan yog’larni rafinatsiya qilish, moylarni oqlash, yog’ va moylarni hidsizlantirish, yog’larni gidrogenlash, margarin, mayonez ishlab chiqarish, yog’larni gidroliz jarayonlari, gliserin, yog’-kislotalari va sovun ishlab chiqarish texnologiyasi va usullari bilan tanishtirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarni mustaqil fikrlashga, yog’larni qayta ishlash texnologiyasi bo‘yicha barcha jarayonlarni to‘g’ri olib borishni, yog’larni qayta ishlash texnologiyasida yuzaga keladigan texnologik nuqsonlarni bartaraf etish choralarini, maxsulot balansini to‘g’ri yuritish va xisob kitoblarni to‘g’ri olib borishni o‘rgatishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablар

“Yog’larni qayta ishlash texnologiyasi” fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr:

- yog’larning kompleks rafinasiyasini, rafinasiya usullari va bosqichlarini;
- rafinasiya jarayonining fizik-kimyoviy mohiyati va samaradorligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarini;
- yog’larni gidrogenlash, jarayonining mohiyati, maqsadini, gidrogenlash reaksiyasi va aktivlanish energiyasiga katalizatorning ta’sirini;
- yog’larni gidrogenlash katalizatorlarini va turlarini;
- vodorod ishlab chiqarishni, sarfini;
- yog’larni gidrogenlash texnologiyasini;
- margarin, kulinar, qandolat yog’lari va mayonez ishlab chiqarishni resepturasini, qo‘yiladigan talablarni, texnologiyasini, usullarini;

- sut va komponentlarni tayyorlashni;
- emulsiya haqida tushunchani;
- gliserin ishlab chiqarishni;
- gidroliz jarayonining avtokatalitik xususiyatini;
- gidroliz jarayonining texnologiyasini;
- gliserin olishni texnologik sxemalar, qurilmalar, texnologik rejimlarni;
- xom va distillangan yog' kislotalar ishlab chiqarishni;
- distillangan yog' kislotalarini olishning texnologik sxemasi va rejimlarini;
- olein va stearin ishlab chiqarishni;
- sovun ishlab chiqarish, sovunning fizik-kimyoviy xossalari, sovunlar klassifikasiyasi, sovun pishirish texnologiyasi, sovun resepturasini tanlashni
- bevosita va bilvosita usulda sovun pishirish, sovunni qayta ishlash va uni tovar holatiga keltirishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

Bular bilan bir qatorda bakalavr:

- yog'larning sifat ko'rsatkichlarini aniqlay olish;
- gliserin sifatini yaxshilash yaxshilash;
- yog' kislotlari sifatini nazorat qilish;
